

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O`ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

HAMDAM ISMOILOV

JAHON ADABIYOTI TARIXI

2-jild

O`quv qo`llanma

Toshkent – 2013

ANNOTATSIYA

Ushbu qo'llanmaning 2-jildida XVI asr ijodkorlaridan tortib, XX asrning so'nggi yillarigacha ijod etgan, jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan adiblar hayoti va ijodi haqida hikoya qilinadi. Kitobda jahon adabiyotining taxminan to'rt asrdan ko'proq davri voqeligi qamrab olindi. Bu davrlar badiiy ijodning kengayganligi, adabiyotni janr jihatdan boyiganligi, adabiy yo'nalishlarning turfa xilligi bilan ajralib turadi. Keyingi asrlarda ro'y bergan turli ijtimoiy-siyosiy voqealar badiiy adabiyotda ham o'z askini topmay qolmadi. Shu sababdan ham deyarli barcha adabiyotlarda klassitsizm, sentimentalizm, romantizm, tanqidiy realizm, realizm singari yo'nalishlar namoyon bo'ldi. Turli e'tiqod va dunyoqarashga ega bo'lgan yozuvchi va shoirlar ijod qildi. Qo'llanmani san'at o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar o'rganishi uchun mosroq bo'lishiga harakat qilib tuzildi. Kitobdan jahon adabiyoti sohasi bilan qiziquvchilarning barchasi foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

Ravshan JOMONOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Boqijon TO`XLIYEV,
filologiya fanlari doktori, TDPU professori

Mas'ul muharrir:

Dilfuza ABDUXALIKOVA

«Jahon adabiyoti» fanidan tuzilgan mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi.

© **H.Ismoilov, Toshkent, 2013.**

KIRISH

“Jahon adabiyoti” qoʻllanmasining birinchi kitobida eng qadimgi davrlardan inson sivilizatsiyasi rivojining maʼlum bosqichi boʻlgan oʻrta asrlargacha adabiyot rivoji qamrab olingan edi. Ikkinchi kitobda esa ijtimoiy-siyosiy voqealar jadallik bilan rivojlanib, badiiy adabiyotga faol taʼsir oʻtkazib borgan davrlar qamrab olindi. Koʻrinadiki, badiiy adabiyotning rivojiga jamiyatda roʻy bergan ijtimoiy voqea-hodisalar jiddiy taʼsir etdi.

XVII-XVIII asrlar jahon adabiyotida yangi davrni boshlab berdi. Yevropada boʻlib oʻtgan voqealar tufayli avvalda oʻrnatilgan ijtimoiy tartiblar barxam topib, yangicha ijtimoiy munosabatlar roʻyobga chiqdi. Jamiyatda maʼrifat masalasi dolzarb qilib qoʻyildi. Shu tufayli yozuvchilar oʻz asarlarida maʼrifatning zarurligi va uning afzalligini koʻrsatib berishga intiladilar. Maʼrifatchilik adabiyotning estetik qarashlari shu bilan qadrli ediki, ular sanʼatning tarbiyaviy ahamiyatini jamiyatni qayta qurish manfaatlariga xizmat qildirdi.

XVIII asrlargacha mavjud boʻlgan klassitsizm adabiyoti oʻz oʻrnini taraqqiyparvar romantizm adabiyotiga boʻshatib berdi. Romantizm adabiyoti asar mavzui, qahramoni, tilini demokratlashtirdi. Koʻpgina ilgʻor jihatlar bilan taraqqiyparvar romantiklar jahon adabiyotida yangi bosqich yaratdilar.

XIX asrga kelib tanqidiy realizm adabiyoti vujudga keldi. Tanqidiy realizm adabiyotining buyuk vakillari oʻzi yashab turgan davr hayot qonunlarining tipik belgilarini kashf etdilar. Tanqidiy realizm ijtimoiy muxitni chuqur aks ettirdi.

XX asr boshlaridan eng yangi zamon jahon adabiyoti rivojlanish pallasiga kirdi. Yangi davr realizm adabiyoti vakillari ijtimoiy mavzuga oʻzgacharoq yondashishga intiladilar, yangi davrdagi hayotni haqqoniy tasvirlash asosiy tamoyilga aylandi. Umuman oʻtgan asr jahon adabiyoti oʻzgacha xususiyatlari bilan tarixga kirdi.

Muallif “Jahon adabiyoti”ning ikkinchi kitobini tayyorlashda ham A.Alimuhamedovning “Antik adabiyot tarixi”, O.Qayumovning “Chet el adabiyoti tarixi”, Q.Azizov, O.Qayumovlarning “Chet el adabiyoti tarixi” kabi darslik-kitoblariga tayandi. Kitoblarni yangi materiallar evaziga yanada kengaytirish niyatidamiz.

XVII ASR G`ARBIY YEVROPA ADABIYOTI KLASSITSIZM ADABIYOTI

XVII asrning o`rtalarida G`arbiy Yevropa mamlakatlarida feodal jamiyati xiyla zaiflashgan, Niderlandiya (1516-1609) va Angliyadagi (1640) tartibsizliklar o`rta asr idora usuli va diniy-cherkov hukmronligiga qaqshatg`ich zarba bergan, binobarin, feodal tuzumining butunlay yemirilishi davri ancha yaqinlashib qolgan edi.

XV-XVI asrlardagi yirik ixtirolar, geografik kashfiyotlar, yangi savdo bozorlarining ochilishi inson faoliyati uchun keng imkoniyat yaratdi. Astronomiya, mexanika, fizika, anatomiya va fiziologiya bilan yana shug`ullana boshladilar. Burjuaziyaga o`z sanoatini rivojlantirish uchun fizik jismlarning xossalarini va tabiat kuchlarining qanday formalarda yuz berishini tekshiradigan fan kerak edi. Geografiya sohasidagi ulug` kashfiyotlar va buning ketidan boshlangan kolonizatsiya bozorlar doirasini g`oyat kengaytirdi va hunarmandlikning manufakturaga aylanishini tezlatdi. Bundan keyin ro`y bergan kurash faqat har yerning o`zidagi ayrim ishlab chiqaruvchilar o`rtasidagi kurash emas edi; bu mahalliy kurashlar ham kuchayib milliy kurash darajasiga, XVII va XVIII asrlardagi savdo urushlari darajasiga yetdi.

Uyg`onish davri adabiy an`analarini davom ettirgan XVII asr ilg`or yozuvchilari ijodida o`lib borayotgan eski urf-odatlar qattiq masxara qilinadi. Molyer komediyalarida tasvirlangan ma`naviy ojiz, shuhratparast kishilar obrazi XVII asr dvoryanlar nuqsonining tipik ifodasidek namoyon bo`ladi. Badiiy adabiyotda aristokratiya bilan murosa qilishga tayyor turgan burjua vakillarining egoistik intilishlari ham ayovsiz tanqidga uchraydi.

XVII asr G`arbiy Yevropa adabiyoti realizm, klassitsizm va barokko nomi bilan ataluvchi uch asosiy adabiy yo`nalishni o`z ichiga oladi. Realizm Uyg`onish davri gumanist yozuvchilarining an`analarini davom ettiradi. Bu adabiy yo`nalishning vakillaridan biri bo`lgan Lope de Vega o`z komediyalarida barokko yozuvchilarining pessimistik kayfiyatlariga xushchaqchaq hayotni qarshi qo`yadi. Sharl Sorel ham «Fransionning haqqoniy va kulgili hayoti tasviri» romanida dunyoviy quvonchlarni kuylaydi.

Barokko o`rta asr madaniyati tushkunligi natijasida kelib chiqqan absolyutizm kuchayib borayotgan davrda feodal-katolik

reaktsiyasi ta'sirini aks ettirgan adabiy yo'nalish hisoblanadi. Uning yorqin ifodachisi dramaturg Kalderondir.

Uyg'onish davri mutafakkirlarining dinga shubha bilan qarashlari o'rnini endi diniy mutaassiblik oladi. Barokko yozuvchilarining tilida oddiy iboralar yo'qolib, undagi tasvir nozik va «bejirim» tusga kiradi. Ular ijodida vazmin tabiatli qahramonlar gavdalanadi, uzoq ekzotik mamlakatlarga qiziqish kuchayadi. Adabiyotdagi bunday aristokratik uslub Italiyada marinizm, Ispaniyada gangorizm, Frantsiyada pretios deb ataladigan oqimlarda ochiq ko'rinadi. Binobarin, barokko xasta his-tuyg'ularni ifodalovchi dvoryan-aristokratiyaning adabiy uslubidir.

Klassitsizm XVII asrning birinchi yarmida Frantsiyada kelib chiqqan adabiy oqimdir. Bu vaqtda fransuz qiroli bebosh feodallarning qarshiligini bartaraf etib, markazlashgan hokimiyat o'rnatish uchun kurash olib bormoqda edi. Lyudovik XIV (1643–1715) zamonasida absolyutizm mustahkamlanadi. Anarxiyaga chek qo'yish, juz'iy narsalarni umumiylikka bo'sundirish absolyutizm himoyachilari ilgari surgan muhim masalalardandir. Siyosatdagi singari adabiyotda ham qattiqo'llik bilan ish tutiladi. Barcha ijodiy jarayonlar ma'lum qoidaga itoat ettiriladi. Kardinal Rishele yangi tashkil qilingan akademiya orqali adabiyotni o'z nazorati ostiga oladi. Klassitsizm qoidalariga rioya qilmagan Kornel va uning «Sid» tragediyasi jiddiy tanqidga uchraydi.

Klassitsizm yozuvchilari absolyut hokimiyat mamlakat milliy birligi manfaatlariga mos keladi, deb uni mustahkamlash g'oyasini qo'llaydilar. Ular qirolik siyosati bilan hisoblashishga majbur bo'lganliklaridan qisman saroyga bog'liq edilar. Lekin, bulardan qat'iy nazar, ular ijodida davlat manfaatlarini ko'zlash hamma vaqt birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun klassitsizm nazariyachilari va yozuvchilari mamlakat xalqi ruhini aks ettiruvchi adabiyot yaratishga intiladilar. Bu badiiy ijodning shakllanishida davrning ilg'or ratsionalistik falsafasi, xususan, Dekartning haqiqatni anglash uchun yagona mezon aql-idrokdir, degan qarashlari katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga binoan, ular idrokni san'atga ham to'g'ri yo'l belgilab beruvchi birdan-bir mezon deb hisoblab, uni his-tuyg'uga qarshi qo'yadilar.

Klassitsizmning asosiy printsiplaridan yana biri tabiatga taqlid qilish, real turmushni gavdalantirish talabidir. Demak, realizm klassitsistlar estetikasiga yot emas, biroq u chegaralangandir. Uning

yirik nazariyotchisi Bualo «Poeziya san'ati» degan asarida «yaramas» tabiatga, voqelikning «qo`pol» tomonlariga emas, balki faqat «go`zal» tabiatga taqlid qilishga chaqiradi. Klassitsistlar inson hayotidagi muhim voqealarni ochish kabi vazifani ilgari surishlari bilan birga, umumiylikni xususiy holat bilan ajratib qo`yadilar, insonning ruhiy holati moddiy turmushga bo`lgan intilishlari bilan bog`liq ekanligini bilmaydilar. Bular esa personajlarni bir yoqlama tasvirlashga olib boradi.

Klassitsizm nazariyasi bo`yicha, butun adabiy janrlar «yuksak» (tragediya, epos, qasida) va «tuban» (komediya, satira, epigramma) turlarga bo`linadi. «Yuksak» janrlarda davlat ishlari, qirol va hukmron tabaqa vakillarining harakatlari tantanali uslubda tasvirlanishi kerak. «Tuban» janrlarda esa uchinchi toifa vakillarining kundalik turmushi kulgili manzaralarda aks ettirilishi lozim. Janrlarning bu tariqa sun`iy tasnif etilishi klassitsizm adabiyotining, dvoryanlarning xarakteridan kelib chiqqan. Klassitsist yozuvchilar asar tilining aniq, obrazlarning ratsional, kompozitsiyasining pishiq, uslubning qo`pol iboralardan xoli bo`lishiga katta e`tibor beradilar. Biroq go`zallikni idrok qilishda yagona mezon iste`doddur, deb unga ortiqcha baho beradilar. Qahramonlarni oldindan belgilab qo`yilgan sxema va logik qonunlarga ko`ra «yaxshi» va «yomon»ga ajratib, natijada xarakterlarning hayotiyligini chegaralab qo`yadilar.

Klassitsizm adabiyotida drama janri muhim o`rin egallaydi. Undagi asosiy printsiptir uch birlik qonuniga rioya etishdir. Ulardan biri vaqt birligidir. Pesadagi butun harakat bir kun mobaynida bo`lib o`tishi kerak. Ikkinchisi – o`rin birligida barcha hodisa bir joy, bir bino ichida yuz berishi lozim. Uchinchisi – harakat birligida yagona syujet yo`li, ya`ni asosiy voqea, bir intrigaga amal qilinadi. Klassitsizm antik adabiyotga taqlid qilish asosida kelib chiqqan adabiy yo`nalishdir. Gumanistlar qadimgi grek va Rim madaniyatini o`rganish va uning ilg`or g`oyalarini targ`ib etishda jiddiy ish qildilar. Biroq ularning antik san`at haqidagi nazariyalarida bir qator nuqsonlar mavjud edi. Bunga sabab o`rta asrlar adabiyotidagi milliy xususiyatlarni e`tiborga olmaslikdir. Shuning uchun klassitsizm Frantsiyadan boshqa mamlakatlarda o`z rivoji uchun zamin topolmadi.

Klassitsist yozuvchilar Rim va grek san`atining yuqori bosqichiga ko`tarilgan davrda yaratilgan asarlariga ergashib, o`sha

davr adabiyotining namunalari va qoidalarini o'zgarlas, hamma davr uchun bir xilda xizmat qiluvchi va o'rnak bo'luvchi ijoddan iborat, deb ulug'lab, ularning nazariy qarashlari va amaliy yutuqlarini qabul qildilar. Biroq mavhum g'oyalarni ideallashtirish, davrning real hayotidan uzoqlashib, xalq turmushidan ajralib qolish, janrlarni qattiq mantiqiy qonunlarga bo'sundirish klassitsizm adabiyotini cheklab qo'ygan edi. Shuning uchun ham uning qotib qolgan qonunlarini Pushkin va rus demokratlari tanqid qilganlar. Lekin bunday salbiy tomonlari bo'lishiga qaramay, klassitsizm o'z davri madaniy hayotida katta voqea edi.

XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti o'z davri hayotining turli-tuman manzarasini gavdalandirgan Milton, Kornel, Rasin, Molyer, Lope de Vega va Kalderon kabi yirik yozuvchilarni yetishtiradi, ularning ko'p qirrali va eskilikni fosh etuvchi ijodi hozirgi kungacha g'oyaviy mazmuni va badiiy qimmatini saqlab kelmoqda.

XVII ASR INGLIZ ADABIYOTI

XVII asrning 60-yillarida yuz bergan Styuartlar restavratsiyasi progressiv adabiyotdagi kuchlarni feodal reaksiyasiga qarshi kurashga otlantiradi. Bu vaqtda Betler «Gudiras», Milton «Yo'qotilgan jannat» poemalari va «Samson – kurashchi» tragediyasini, Benyan «Ziyoratchining safari» nomli asarini yaratadilar.

Ingliz restavratsiyasi yillarida yashagan progressiv yozuvchilar, Uyg'onish davrining ulug' mutafakkirlari, jumladan, titan yozuvchi Shekspir ijodiy an'alarini davom ettiradilar. Ular Bekondan ham ma'naviy oziq oladilar.

XVII asrning 30-40-yillarida respublika o'rnatish uchun kurash keskinlashgan vaqtda ilg'or yozuvchilar feodal monarxiyasiga qarshi qurolli qo'zg'olonga chaqiradilar. Bu Miltonning publitsistikasi, Lilbern va Uinstenlining pamfletida ochiq ifodalanadi.

Xushchaqchaq, yengil va kishi diqqatini tortadigan «Ko'rinmas ayol» komediyasida Kalderon akalari Xuan, Luis ta'qibi ostida qolgan va lekin o'z sevgisi uchun kurashib maqsadiga yetgan chaqqon va bilimdon donya Anxelaning harakatini mohirlik bilan

ko'rsatib, oila nomusining himoyachisi bo'lgan don Luisning bema'ni harakati va shubhalanishini qattiq kulgi ostiga oladi.

Realistik tasvir, xarakterlarining puxta ishlanganligi va demokratizmi bilan ajralib turadigan eng yaxshi dramasi «Salamey alkaldi» asarida yozuvchi dehqon bilan feodal hukmron o'rtasida kelib chiqqan to'qnashuvni ko'rsatish asosida nomus temasini boshqacha talqin qiladi. Shuning uchun ham o'z syujeti bilan bu pesa Lope de Veganing «Qo'zibuloq» dramasida aks ettirilgan voqeaga yaqin turadi. Sud maslahatchisi(alkaldi) qilib saylangan dehqon Pedro Krespo qizini qirollik qo'shinining ofitseri don Alvaro tomonidan tahqirlanganini bilgach, ularni nikohlab qo'yish bilan ko'ngilsiz hodisani bartaraf etmoqchi bo'ladi. Lekin ofitserdan rad javobini olgan Pedro o'z huquqidan foydalanib, surbet don Alvaroni qamoqqa oladi va uni o'lim jazosiga hukm qiladi. Shu voqea ustidan chiqqan qirolning yuz bergan hodisani tan olishdan boshqa iloji qolmaydi.

Boqeaga real yondashgan Kalderon dehqonlarning axloq va or-nomusi kuchliligini tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Pedro Krespo o'zining dehqon urug'iga mansub ekanligi bilan faxrlanadi va soxta nom, soxta obro'ga nafrat bilan qaraydi. Ofitserning dehqonlarda qanday or-nomus bo'lishi mumkin, deb gerdayishiga qarshi Pedroning o'g'li Xuan: «Sizda qanday bo'lsa, xuddi shunday! Dehqonsiz kapitan nima qila olar edi»,– deb unga tanbeh beradi. Bu so'zlar yozuvchining feodal-zodagonlarga nafrat va oddiy kishilarga nisbatan chyqur samimiyat bilan qaraganini ko'rsatadi.

Kalderon mamlakatda tushkunlik kuchaygan davrda yashagani uchun uning ijodi qarama-qarshiliklar bilan to'la, unda barokko oqimiga xos «jimjimadorlik» va yuzaki tasvirlar ham bor. Biroq uning diniy-falsafiy, oilaviy-maishiy, rashk va or-nomusga bag'ishlangan pesalarining mazmuni ijtimoiy mohiyat kasb etadi.

XVII ASR FRANSUZ ADABIYOTI

XVII asrda ro'y bergan mamlakat hayotidagi ijtimoiy voqealar, absolyut monarxiya va diniy muassasalarning faoliyati adabiyot va san'atga o'z ta'sirini o'tkazdi.

XVII asr fransuz adabiyoti va san'atida klassitsizm stili o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi.. Klassitsizm feodal tarqoqligi o'rniga kelgan mustahkamlanib boruvchi va qattiq qonun asosida ish tutayotgan absolyut hokimiyatning rasmiy adabiy stili edi. Absolyutizm tartiblarini o'rnatuvchilardan Rishle adabiyotda ham qat'iy formalarga e'tibor etish talabini qo'yadi. U yozuvchilarning adabiy qoidalarga rioya qilishlari ustidan nazorat olib borish vazifasini fransuz akademiyasiga yuklaydi. Bu akademiya tilni ham davlatga bo'ysundirishi va yagona fransuz tili lug'atini tuzib chiqishi kerak edi.

Frantsiyada klassitsizmning rivojlanishiga sabab bo'lgan ikkinchi omil o'sha davrning yirik mutafakkirlari Dekart bilan Gassendi falsafasining ta'siri edi. Dekartning ratsionalistik falsafasi, ayniqsa Gassendining materialistik qarashlari klassitsizm adabiyotining muhim belgisiga aylanadi.

Dekart o'z kuzatishlari orqali dunyoning moddiyligiga iqror bo'lsa-da, lekin u o'rta asr diniy ta'limoti ta'siridan butunlay qutula olmaydi. Shunga qaramasdan, u diniy-sxolastikani rad etib, fanning erkinligi uchun yo'l ochib berdi. Dekartning ratsionalizmi shundan iborat ediki, u haqiqatni tajribadan, moddiy dunyodan emas, balki aql-idrokdan qidirdi. Uningcha, idrok – haqiqatning yagona o'lchovi. Klassitsizm nazariyachilari aql-idrok kuchiga qattiq ishonadilar va o'z qarashlarini shunga asoslaydilar.

Fransuz klassitsizmining dastlabki vakili shoir Malerb (1555–1628) hamma narsa aql-idrokka asoslanishi kerak, feodal o'zboshimchaliklar siyosiy hayotda davlat ishiga putur yetkazgani kabi, san'atda ham emotsiyali anarxiya yozuvchining fikrini buzadi, asarining maqsad aniqligi va kompozitsion butunligini yo'qqa chiqaradi, deb san'atkorni aql amriga bo'ysunishga chaqiradi. Uning nazariyasi hukumat siyosatiga mos edi. Malerb saroy shoiri sifatida o'z odalarida qirol (Genrix 1V)ning mutlaq hokimiyati va uning siyosatini madh etdi. Feodal tarqoqlikni qoralab, inson aqli va uning irodasiga ishonch bilan qaradi.

PIYER KORNEL (1606–1684)

XVII asr fransuz adabiyotining yirik vakili dramaturg Piyer Kornel sud chinovnigi oilasida tugʻiladi. Yosh Kornel Ruan shahrida iezuit kollejida oʻqiydi. Soʻngra huquqshunoslikni oʻrganib, advokat vazifasida ishlaydi. Kornel ijodining dastlabki bosqichi(1629-1636)da aristokratiyaning maʼnaviy yemirilishi, uning vakillarining axloqiy tubanligini aks ettirgan «Melita», «Beva», «Sud galereyasi», «Qirollik maydoni» kabi komediyalarini yaratdi. Biroq Kornel bu pesalaridan koʻra bundan soʻng yozgan yirik tragediyalari bilan shuhrat qozondi.

Kornel birinchi tragediyasi «Medeya»(1635)ning syujetini antik yozuvchilar Yevripid va Senekaning Medeya haqidagi asarlaridan oldi. Yozuvchi ayolning ogʻir taqdirini tasvirlaydi. Voqea asosida mifologik tarix yotsa ham, lekin Kornel oʻz zamonasi aristokratiyasining yaramasliklarini ochadi. «Komik illyuziya»da oddiy kishilardagi chin insoniy tuygʻu tasvirlanadi. Yosh yigit Klindor otasining mansab va boyligini rad etib, uyidan chiqib ketadi. sinna va Maksim obrazlarida yozuvchi xalq noroziligidan oʻz manfaati uchun foydalanishga intilgan feodal oppozitsiyasining vakillarini qoralaydi. Shuning uchun yozuvchi pesani monarxning tantanasini tasvirlash bilan tugatadi.

Tragediyada siyosiy toʻqnashuvlar, oʻtkir konfliktlar yoʻq. sinna bilan Avgust oʻrtasidagi «mojaro» bir anglashilmovchilikdir. Chunki sinna sevgilisi Emiliyaning talabi bilan Avgustga qarshi qoʻl koʻtarmoqchi boʻladi. Yozuvchi dunyoqarashida yuz bergan oʻzgarish – klassitsizm printsiplariga qattiq rioya qilish «TSinna» tragediyasining ham mazmuni, ham badiiy qimmatiga putur yetkazmay qolmadi.

Kornel fransuz tragediyasininggina emas, balki fransuz xarakterlar komediyasining asoschisi hamdir. «Qallob» (1643) komediyasida Kornel aristokratiya vakilining soxta va illyuziyali hayotini masxara qiladi. Klassitsizm nazariyasi ruhida yozilgan bu asarda aristokratiyani zamonga qarab ish tutishga daʼvat etadi. «Sid» tragediyasi kabi bu asarini yaratishda ham u ispan adabiyotiga murojaat etadi va ispaniyalik Alarkonning «Shubhali haqiqat» komediyasidan foydalanadi. Yirik komediograf Molyer xatlaridan

birida Kornelning «Qallob» komediyasidan ko`p narsa o`rganganini e`tirof qilgan edi.

Frantsiyadagi siyosiy voqealar, feodal reaksiyasi bilan xalq ommasi o`rtasidagi qarama-qarshilikning kuchayishi yozuvchiga salbiy ta`sir etmay qolmadi. Kornel ilgari asarlarida kishining xizmati uning fazilatlarini belgilaydi, deb gumanistik g`oyalarni himoya qilgan bo`lsa, endi u, kishining qimmatini uning jamiyatda tutgan o`rni, nasl-nasabi belgilaydi, degan konservativ fikrni ilgari surdi. «Rodogunda» (1644), «Irakliya» (1647) tragediyalarida yozuvchi davlat nizolarini tasvirlab, qonuniy monarxiya davlati va jamiyatning tabaqaga asoslangan negizlarini yoqladi.

XVII asrning 60–70-yillarida yozgan ba`zi tragediyalarida («Sertoriya», «Sofonisbi») Kornel Fronde xarakatida qatnashgan prins Konde kabi feodal-zodagonlarni oqlaydi. U boshqa bir qancha pesalarida («Otton», «Tit va Berenika», «Pulxeriya») saroy zodagonlari va ularning egoistik intilishlaridan kuladi. Biroq u absolyut hokimiyatni saqlab qolishga qobiliyatli bo`lgan kuchli va shafqatsiz hokim idealini ilgari suradi. Gumanistik g`oyalardan mahrum va klassitsizm estetikasi ruhida yozilgan Kornelning bu asarlari «Sid» va «Goratsiy» tragediyalari darajasida yuqori badiiy umumlashmaga ko`tarila olmadi va sahnada ham muvaffaqiyat qozonmadi.

M O L Y E R **(1622–1673)**

Fransuz milliy teatrining asoschisi yirik dramaturg-komediograf Jan Batist Molyer Parijda savdogar oilasida tug`ildi. Uning haqiqiy familiyasi Poklen bo`lib, Molyer uning adabiy taxallusidir. Molyer 1639 yilda Klermon kollejni bitirib, Orlean universitetida advokat unvonini olish uchun imtihon topshiradi. Biroq uni sud ishi ham, savdo ishi ham qiziqitirmaydi. Yoshligidan teatrni yaxshi ko`rgan Molyer o`rtoqlari bilan 1643 yilda Parijda «Yaltiroq teatr» tashkil etadi. Biroq truppa o`z mustaqil repertuari, aktyorlik tajribasi va moddiy asosi bo`lmaganidan yopilib qoladi. Shundan so`ng Molyer do`stlari (Bejar) bilan ko`chib yuruvchi provintsiya komediantlar truppasiga kirib ishlay boshlaydi. Bu vaqtdagi og`ir sharoit uning irodasini bukolmaydi, balki yana ham chiniqtiradi. Molyer bu yillar (1645– 1658)da boy tajriba orttiradi,

turli sotsial guruhlarning turmushi bilan tanishadi, truppaning obro'yini oshirish uchun kurashadi. Spektakllarda asosiy rollarni o'zi o'ynaydi. 1650 yilda Molyer truppaning boshlig'i bo'ladi.

Molyer ijodiy faoliyatining ilk bosqichida fransuz xalq farsini o'zlashtirgani holda Italyan niqobli komediyalarini fransuz teatriga moslab, o'z truppasini repertuar bilan ta'minlab turadi. Lion shahrida 1653 yilda uning birinchi komediyalaridan bo'lgan telchik farsi (bosh rolni uning o'zi o'ynagan) katta muvaffaqiyat qozonadi. Shundan keyingina qirol truppani Parijda qoldirishga ruxsat etadi.

1662 yilda «Ayollar uchun saboq» pesasi qo'yilganidan so'ng aristokratiya va cherkov reaksiyasi yozuvchining obro'yiga putur yetkazish uchun keng doirada kurash olib boradi, unga qarshi tuhmat uyushtirib, Molyerning eretik (dahriy) sifatida kuydirib o'ldirilishini talab etadi. Biroq Lyudovik XIV yozuvchidan foydalanish, uni o'ziga itoat ettirish va buntarlik intilishlaridan qaytarish uchun uni himoya qiladi. Ayni vaqtda «Tartyuf»ni taqiqlashga, «Don Juan»ni repertuardan chiqarishga farmoyish beradi.

Molyer hayotining so'nggi yillarida qizg'in ijod bilan band bo'ladi, uning asarlarida tanqid yana kuchaya boshlaydi. Buni shu davrda yaratgan yirik asari «Yolg'on kasal» komediyasida ochiq ko'rish mumkin. Og'ir sharoit reaksiya tazyiqi ostida tinmay ishlagan va kurashgan yozuvchining sog'lig'ini zaiflashtiradi. 1673 yilning 17 fevralida betob bo'lishiga qaramasdan Molyer «Yolg'on kasal» pesasidagi bosh rolni ijro etadi. Butun o'yin davomida u o'zini yomon xis qiladi, tomosha tugagandan bir necha soat o'tgach, yirik dramaturg vafot etadi. Parij arxiepiskopi «tavba qilmagan gunohkor» deb Molyerni ko'mishga ruxsat bermaydi. Yozuvchining yaqinlari qiyinchilik bilan ijozat olib, uning jasadini kechasi qabristonning bir chekkasiga ko'madilar.

Molyer fransuz klassik komediyasini fransuz xalq farsi traditsiyalari bilan Rim komediyalarining eng yaxshi namunalarini tanqidiy o'zlashtirish asosida yaratdi. Dramaturgiyaga qadam qo'ygan Molyer hukmron klassitsizm estetikasi printsiplari negizida yozishga kirishgan bo'lsa ham, lekin u saroy adabiyoti qoidalariga o'rallashib qolmadi. Molyer klassitsizmning tragediyani «yuqori», komediyani esa «tuban» janr deb ko'rsatishlariga qarshi chiqadi. Tragediyaga nisbatan yaxshi komediyani yaratish qiyinligi, kishilarni kuldiradigan va ular didiga yoqadigan komediya yozish oson ish emasligini ta'kidlab ko'rsatadi. U teatrning tarbiyaviy roliga ham

katta ahamiyat beradi. Uni «jamiyat oynasi» deb ataydi. Molyerning ko`rsatishicha, «komediyaning vazifasi kishilarni kuldirib turib, ulardagi nuqsonlarni tuzatishdan iboratdir».

Molyer komediya haqida so`zlab, yozuvchining asosiy maqsadi davr «nuqsonlarini kulgili manzaralarda fosh etish»dan iboratdir, deb ko`rsatadi. Aktyor sahnada sun`iylikka yo`l qo`ymasligi kerak. Odam hayotda qanday bo`lsa, sahnada ham xuddi o`shanday bo`lishi lozim.

Shunday qilib, Molyer klassitsizm nazariyasining tor va cheklanganligini tanqid qiladi. U uch birlik qonuniga hamma vaqt rioya qilavermaydi, bu qoida Molyer ko`zlagan maqsadlarni yoritishga torlik qilsa, uning qobig`idan tashqariga chiqaveradi. Natijada u klassitsizm qoidalariga amal qilib emas, balki real turmush talablariga tayanib, realistik ijodning ajoyib namunasi bo`lgan komediyalar yaratishga muvaffaq bo`ladi.

«Kulgili nozaninlar» (1659) komediyasi Molyerning nomini ko`pchilikka ma`lum qilgan uning birinchi original asaridir. Bunda yozuvchi katta jasorat bilan pretios aristokrat «madaniyati»ni ham, meshchan-burjua mahdudligini ham ochiq tanqid qiladi.

Burjua Gorjibysning qizi Madlon va jiyani Kato meshchanlik ruhida tarbiyalanadilar. Pretios romanlarini o`qigan bu qizlar soddalikka emas, aristokratiyaning usti yaltiroq va dabdabali hayotiga intiladilar. Poytaxtdagi aristokrat ayollarga ergashib, nutqlarida balandparvoz mavhum iboralar ishlatadilar. Ular «nafislik xaritasi»ni bilmagan «bilimsiz» jazmanlarni rad etadilar.

Nihoyat qizlar tomonidan tahqirlangan ikki yigit qasos olish maqsadida xizmatkorlari Maskaril bilan Jodleni markizcha kiyintirib, ularning huzuriga yuboradilar. Aristokrat yigitiga xos olifta, chaqqon va gapdon Maskaril tezdan qizlarning diqqatini o`ziga jalb qiladi. Uning sun`iy harakatlari va so`zlari («Mening qalbim qil ustida turibdi») Madlon va Katoga tabiiy ko`rinadi. Uning har bir so`zi qizlarga rohat bag`ishlagandek tuyuladi. Ikki xizmatkor qizlar bilan o`yinga tushib turgan vaqtda rad etilgan oshiqlar – Lagranj va Dyukruazilar kirib kelib, xizmatkorlari ustidagi kiyimlarni yechib olib, soxta so`z va harakatlarga maftun bo`lgan kalabin meshchankalar ustidan kuladilar.

Xalq farsiga asoslanib yozgan bir pardali bu pesasida Molyer 50- yillardagi dvoryan reaksiyasi ta`siri natijasida keng tarqalib borayotgan pretios adabiyotiga, aristokratik xulq-atvor va

tannozlikka qat'iy zarba berdi. Asar qahramonlaridan birining «Tannozlik ruhi bilan faqat Parijgina emas, balki provintsiya ham kasallangan» deyishi, bevosita Madlon bilan Katoga ham tegishlidir. Chunki ular pretsioz san'atiga xos ibora va abstraktsiyaga beriladilar. Masalan, Madlon oyna so'zi o'rniga «nozanin sirdosh», kreslo so'zi o'rniga «suhbat qulayligi» iborasini ishlatadi. Kato o'z suhbatdoshiga o'tirishni taklif etar ekan: «Sizdan so'ranamanki, janob ushbu kresloga nisbatan shafqatsiz bo'lmasangiz, chunki mana u chorak soatdan beri sizni o'z quchog'iga chaqirmoqda, uning sizni o'z bag'riga olish istagiga iltifot etsangiz»,– deydi. Yozuvchi pretsiozchilarning nutqinigina emas, ularning turmushdan ajralib qolgan xatti-harakatlarini ham qattiq qoralaydi. Shuning uchun reaksiyon doiralar va birinchi galda, cherkov yozuvchiga qattiq hujum qilib, vaqtincha bo'lsa ham, bu pesani sahnadan olib tashlashga erishadilar. Biroq dramaturg reaksiya tazyig'iga bardosh berib, feodal-aristokratiyaning chirkin hayoti va diniy jaholatni fosh etishni to'xtatmaydi. Aksincha, u bir pardali «Sganarel» (1660) nomli she'riy komediyasini yozib, fransuz burjuaziyasining yaramas va kulgili tomonlarini yanada qattiqroq fosh qiladi.

Molyer «Ezmalar» (1661) nomli komediya-balet yaratadi. Bu asarida ham yuqori guruh vakillarining bema'ni hayotini satira ostiga oladi. «Ezmalar» yozuvchining realistik komediya ijod etishdagi dadil qadami edi.

«Erlar uchun saboq», «Ayollar uchun saboq» (1662) komediyalarida Molyer oila, nikoh masalalarini ko'tarib chiqadi. Yozuvchi ayollarga ishonmaydigan boy Arnolf obrazini katta mahorat bilan yaratadi. Arnolf xotinni ham mulk sifatida sotib olishdan qaytmaydi. U kambag'al dehqon oilasidan Agnessa ismli qizni sotib olib, uni avval monastirda, so'ngra uyda itoatkor ruhda tarbiyalab, o'ziga xotin qilmoqchi bo'ladi. Sodda qiz Agnessa Oras degan yigit bilan tanishib, u bilan sevishib qoladilar. Arnolf sevgini «gunoh» deb, qizning chin muhabbatiga turli yo'llar bilan qarshilik ko'rsatadi. Biroq ko'zi ochilgan va Arnolfga qul bo'lib qolishni istamagan Agnessa sevgilisi bilan qochib ketadi.

Epikur va Lukretsiyning falsafasidan ta'sirlangan Molyer insonning tabiiy his-tuyg'ularini din va jaholatdan ustun qo'yadi, muhabbat har qanday og'ir to'siqlarni yengishga ham qodir ekanini ko'rsatadi. Komediya yoshlik keksalik ustidan, ma'rifat jaholat ustidan, gumanistik axloq burjua xulq-odatlari ustidan tantana qiladi.

Besh pardali bu pesasi bilan dramaturg fransuz satirik komediyasiga asos soladi. Asarda klassitsizm qonunlariga yon berilganligiga qaramay (bu sevishganlarning harakatlarini ko'rsatishda emas, balki ularning uchrashuvi haqida so'z borganda, muhokama yuritishning kuchayishida ko'rinadi), bu pesa yozuvchida xalqchillik tamoyilidan dalolat beradi.

Hukmron doiralar bu komediyada mavjud tuzum tartiblari va dinga qarshi qaratilgan o'tkir tig'ni tez payqadilar. Dramaturgga qarshi ochiq kurash va ig'vo-fitnaning uyasi bo'lgan teskarichi guruhlar Molyerga raqobatchi Vize, Bruso, Manflerilarni ishga soladilar. Reaktsion adabiyotshunos Donno de Vize «Ayollar uchun saboq» haqidagi maqolasida Molyerni odobsizlikda, dvoryanlikni haqoratlash va mavjud tartiblarni masxaralashda ayblab, yozuvchini qattiq jazolashni talab qiladi. Dushmanlari hujumiga javoban, Molyer 1663 yilda «Ayollar uchun saboq»ni tanqid» va «Versal ekspromti» komediyalarini ko'rsatib, satang ayollar, tentak markizlar, uning teatrining muvaffaqiyatlarini ko'rolmagan qobiliyatsiz aktyorlarni masxara qiladi, ularning yozuvchiga qo'ygan ayblarining asossiz ekanini isbotlaydi. Qora guruhlar bilan olib borilgan qat'iy kurashlari Molyerning irodasini bukmaydi, balki u bu hayot-mamot kurashi ichida toblanadi, masxara qiluvchi «Tartyuf» (1664), «Don Juan» (1665), «Mizantrop» (1666), «Anfitrion» (1668), «Jorj Donden» (1668), «Xasis» (1668) kabi ajoyib satirik komediyalarini yozib, fransuz milliy komediyasini yaratadi.

Molyer «Tartyuf» komediyasini 1664 yil may oyida sahnaga qo'ydi. 3 pardali bu pesa o'sha vaqtda juda keng tomir yoygan diniy-klerikal «Muqaddas zakovat jamiyati»ning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan bo'lsa ham, lekin komediya feodal-katolik reaksiyasi xurujiga qarshi keskin kurash quroliga aylanib ketadi. Shuning uchun ham Parij arxiepiskopi va riyokorlar tashkilotining maxfiy homiysi qirolicha Anna Avstriyskaya bu pesani taqiqlaydi. «Tartyuf»ni sahnaga qo'yish huquqi uchun uzoq kurash ketadi. Molyer pesani, antiklerikal mazmunini saqlagan holda, qayta ishlashga kirishadi. 3 pardali emas, balki 5 pardali bo'lgan bu pesa «Aldoqchi» deb nomlanadi. Tartyuf esa Panyulf deb atalib, u ruhoniy kiyimida emas, dunyoviy kishi qiyofasida ko'rinadi. 1667 yilda pesaning qayta ishlanib, satirik kuchi birmuncha yumshatilgan nusxasini sahnaga qo'yishga ruxsat etiladi. Biroq qirolning Parijda bo'lmaganidan foydalangan diniy-klerikal tashkilotning maxfiy a'zolaridan biri

parlament raisi Lamuanon komediyani yana taqiqlaydi. Molyer oldida jiddiy masala: yo hukumat bilan munosabatni yomonlashtirib, o`z komediyalari uchun sahnadan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo`lish, yoki birmuncha yon berib, sahnani qo`lda olib qolish va reaksion klerikalizmni fosh etishni davom ettirish masalasi turar edi. Molyer ikkinchi yo`lni tanlab, komediyasini yana ham takomillashtirish ustida ish olib boradi va, nihoyat, pesaning qayta ishlangan uchinchi nusxasi qirol ruxsati bilan 1669 yilning fevral oyida sahnaga qo`yiladi. «Tartyuf yoki aldoqchi» nomida sahnaga qo`yilgan komediya katta shuhrat qozonadi.

— Savdogar Orgon cherkovga ibodat qilgani borganida, u yerda «taqvodor» bir kishini ko`radi. Bu odam berilgan sadaqalardan bir qismini o`zida qoldirib, qolganini boshqalarga ulashib beradi. O`zini juda ham xudojo`y etib ko`rsatgan bu kishini laqma Orgon o`z uyiga olib keladi. Bu odam Tartyuf edi. Savdogar uni juda e`zozlaydi, hamma haq-huquqlarini unga topshiradi. Hatto o`z qizini ham berishga rozi bo`ladi. Orgon oilasidagi yoshlar – o`g`li Damis, xizmatkor qiz Dorina, qizi Mariannalar bu odamning firibgar ekanini sezib, bu haqda Orgonga ma`lum qiladilar. Biroq dindor Orgon ularning so`zini eshitgisi ham kelmaydi, balki uni qoralash bilan meni xudo oldida gunohkor qilmoqchisiz deb g`azablanib, o`g`lini uydan quvib yuboradi va butun mol-mulkini Tartyufga xat qilib beradi. Ikki kun shaharda bo`lmagan va uyga qaytib kelgan Orgon Dorinadan hol-axvol so`raganida, u bekasi Elmiraning betobligi haqida gapirmoqchi bo`ladi, Orgon esa faqat Tartyuf axvoli bilan qiziqadi.

Tartyufning ikkiyuzlamaligi va soxta taqvodorligining qurboni bo`lmish ikkinchi shaxs Orgonning onasi kampir Pernel edi. O`zining yovuz niyatiga erishish uchun Tartyuf hammadan oldin sodda, ishonuvchan va laqma kishilarni qo`lga oladi, yoshlarni yoqtirmaydi, chunki ular Tartyufning yomon niyatini tez anglaydilar va shuning uchun uni fosh etishga intiladilar.

Tartyuf har qadamda o`zini xudojo`y qilib ko`rsatishga urinadi. Biroq u Orgonning xotini Elmiraga xushomad qiladi. O`z eriga vafodor Elmira Orgonning sinab ko`rishi uchun Tartyuf bilan tanxo uchrashadi. Tartyuf: mening haqimda hech kim yomon fikrda bo`lmaydi, deb Elmiraga yuzsizlik bilan yaqinlasha boshlaganini Orgon o`z ko`zi bilan ko`radi. Shundagina u uyiga keltirgan kishisi soxta taqvodor ekanligini bilib, uni uydan haydaydi. Biroq Tartyuf

yuzidagi niqobini olib tashlab, bu yer-mulkka o'zi xo'jayin ekanini, buni tasdiqlovchi hujjatlar bor ekanini da'vo qilib, Orgonni uydan quvib chiqarish maqsadida sud chinovnigini chaqirtiradi va qamatish uchun politsiya ofitserini ham boshlab keladi. Biroq kutilmaganda ofitser «odil» monarx buyrug'i bilan manfur aldoqchining o'zi qamoqqa olinajagini ma'lum qiladi.

Bu komediyada Molyer yuqori tabaqa vakillari ichida avj olgan riyokorlik va munofiqlikni Tartyuf obrazida ochib tashladi. Tartyuf feodal-aristokratiyaning qabih ishlarini aks ettirgan shaxsdir. O'zining qora niyatlarini amalga oshirish uchun yuziga niqob tutgan va taqvodor bo'lib ko'rinishga uringan bu odam haqiqatda o'ta iflos va razil bir shaxs bo'lib chiqadi. Tartyuf burjua Orgon va uning onasining soddaligidan foydalanib, ularni laqillatadi. Siri fosh bo'lib, Orgonni uydan haydab, uning mol-mulkini tortib olmoqchi bo'lganida ham, Tartyuf yuzsizlarcha bu ishlarning barchasini xudo yo'li uchun qilayotganini aytadi.

Tartyufga qarshi dastlabki kunlardan oq kurash boshlagan shaxs bu xizmatkor qiz Dorina bo'lib, unda xalq donoligi mujassamlangandir. U Tartyufning yaramasligini, Orgonning aldanganligini dadil aytadi. Lekin komediyada jinoyatchi «yuqori»dan, qirolning aralashuvi bilan fosh qilinadi. Ma'lumki, qirol Molyerdan o'z manfaati uchun foydalanish maqsadida uni qo'llagan, komediyaning qayta ishlangan so'nggi nusxasini sahnaga qo'yishga ruxsat ham etgan edi. Tartyufni qamoqqa olgani kelgan ofitser munofiqni «qirolning o'zi fosh etdi» deb aytadi. Bu yozuvchining monarxga nisbatan ma'lum darajada yon berishining natijasi edi.

Molyer «Tartyuf» komediyasida o'rta asr feodal zulmini o'sha davr qarama-qarshiliklariga bog'liq ravishda emas, balki uning bir tomonini, diniy zulmini, uning siyosiy reaksiya quroli bo'lganini ko'rsatdi. Bu hol yozuvchini klassitsizmga xos abstraktlik va ratsionalistik illyuziyaga olib boradi. Natijada asosiy qahramon xarakterini tasvirlashda sxematizmga beriladi. Tartyuf feodal-aristokratiyaning butun yaramasliklarini mujassamlantirgan individuallashgan obraz emas, balki reaksion aristokratiya riyokorligining turli ko'rinishlarini aks ettirgan obrazga aylanadi. Butun diqqat umuman inson xarakterini ochishga emas, balki ilgari belgilab qo'yilgan asosiy salbiy qahramon Tartyuf

xarakterining bir nuqtasini ko'rsatishga qaratilgan. Bu klassitsizm teatrining asosiy belgilaridan biri edi.

Biroq shunday bo'lsa ham, komediyada real turmush voqealari ko'zga tashlanib turadi. Sevishgan Marianna bilan Valer o'rtasidagi anglashilmovchilik, kampir Pernel bilan nevaralari o'rtasidagi kelishmovchilik, Mariannaning Tartyufga tegmasligi haqida otasiga aytganlari, aldoqchiga qarshi chiqqan Damisning otasi (Orgon) tomonidan uydan quvilishi, bular XVII asr burjua oilasiga xos bo'lgan tipik maishiy realistik manzaralardir. Yozuvchi o'rta asrchilik tartiblariga qarshi kurashda ma'rifatparvarlikdan g'oyaviy qurol sifatida foydalanadi.

Ma'rifatparvarlar uchun aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatlariga yuqori baho berganlar, adlu insofga begona bo'lgan zulmni, jaholatni qoralaganlar.

Ma'rifatchilik adabiyotining estetik qarashlari shu bilan qadrlidi, ular san'atning tarbiyaviy ahamiyatini jamiyatni qayta qurish manfaatlariga xizmat qildirdilar. XVIII asr yozuvchilari ma'rifatchilik ruhidagi siyosiy-falsafiy roman, falsafiy qissa, siyosiy-xalqiy xarakterdagi dramatik asarlar yaratdilar.

Ma'rifatchilik davri realizmining o'ziga xos belgilari bor, ya'ni u ratsionalizmga ega. Ma'rifatparvar yozuvchilar adabiyotni tug'ilib kelayotgan yangi zamonning g'oyaviy kurash quroli deb bildilar.

YEVROPA MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI ANGLIYA MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI

Angliya hukmron doiralarining bosqinchilik urushlari va kolonial siyosati o'sha davr adabiyotida, Svift va Sheridan ijodida keskin hajv ostiga olinadi. Hamma yerda bo'lgani kabi, Angliyada ham ma'rifatchilik g'oyasining keskin ziddiyatlari ko'zga tashlanib turar edi. Bu ziddiyat ma'rifatparvarlar olg'a surgan jamiyatning garmonik rivojlanishi haqidagi g'oyasi bilan burjua voqeligining amaldagi shart-sharoitlari o'rtasidagi nomunosiblikda ko'rinadi. Ana shu tufayli Angliya ma'rifatchilik mafkurasining falsafiy asoslari ham ziddiyatli edi. Bu ziddiyat ingliz faylasuflari va olimlari Tomas

Gobbs (1588– 1679), Sheftsberi (1671 – 1713), Bernard Mandevil (1670– 1733) kabilarning ijodida ham o`z aksini topgan.

Har bir mamlakatning ma`rifatchilik adabiyoti haqida gap borganda, o`sha mamlakatning milliy-tarixiy sharoitini, o`ziga xos taraqqiyot yo`lini nazardan qochirmaslik kerak.

DANIEL DEFO (1660– 1731)

Daniel Defo jahon adabiyoti tarixiga o`lmas «Robinzon Kruzo» asarining muallifi sifatida kirgan. U ingliz va Yevropa adabiyotida roman janriga asos solgan mashhur yozuvchidir. O`z zamonasining ilg`or ziyolilaridan bo`lgan Defo ajoyib publitsist, talantli jurnalist sifatida ham tanildi.

Defo Londonda savdogar oilasida tug`iladi. Uning otasi Jems Fo puritanlik mazhabiga sodiq edi. Puritanlar reaksion monarxiyaga qarshi kurash olib bordilar. Puritan mazhabi o`z muhiblaridan jo`n hayot kechirishni talab qilar, o`yin-kulgi, teatr tomoshalari ham ular nazarida katta gunoh hisoblanar edi.

Bo`lajak yozuvchini otasi puritan diniy akademiyasiga o`qishga beradi. Ammo Defo savdo ishiga qiziqib, umrining oxiriga qadar yirik kommersant bo`lib qoladi. Tijorat ishlari bilan Yevropaning juda ko`p mamlakatlariga – Portugaliya, Ispaniya, Italiya va Frantsiyaga boradi. Defo savdo-sotiq ishi bilan shug`ullangani holda mamlakat hayotida yuz berayotgan voqealarga ham aralashadi.

Defoning adabiy faoliyati nihoyatda keng va rang-barang. Uning talay maqola va pamfletlaridan tashqari, iqtisod, tarix, pedagogika, statistika, geografiya, falsafa, meditsinaga bag`ishlangan bir qancha asarlari bor.

Defo buyuk kashfiyotlar davrida yashadi. U jahongashta sayyohlar, savdogarlar, oson yo`l bilan boylik orttirish va dovrug` qozonishni orzu qilgan turli xil kishilar, yangi yerlar ochish, yangi savdo bozorlari qidirib topish, odam oyog`i tegmagan manzillarni aniqlashga intilgan kishilar hayotidan ko`plab asarlar yaratdi. Lekin yozuvchiga shuhrat keltirgan asari «Robinzon Kruzo» (1719) romani bo`ldi.

1713 yili ingliz yozuvchisi Richard Stil «Angliyalik» nomli jurnalda Aleksandr Selkirk to`g`risidagi ocherki bilan chiqadi.

Aleksandr Selkirk Shotlandiya matrosi bo'lib, kema kapitani bilan janjallashib qoladi. Uni Janubiy Amerikaning Chili qirg'oqlaridagi Xuan Fernandes orollaridan biriga tushirib ketadilar. Selkirk kimsasiz orolda 4 yilu 4 oy hayot kechiradi. U deyarli yovvoyilashib qoladi. 1709 yili sobiq matrosni uchratgan ingliz kemasi Angliyaga olib ketadi. Aleksandr Selkirkning ko'rgan-kechirganlari katta shov-shuvlarga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, Defo dengizchilar, sayyohlar hayotiga oid ko'plab kitoblar bilan ham tanishib chiqqan. Bunday hodisalar «Robinzon Kruzo» romanining yaratilishi uchun turtki bo'lgan bo'lsa-da, Defoning kitobi mutlaqo original asar hisoblanadi. Agar Aleksandr Selkirk– jonli odam, kimsasiz orolda 4 yildan oshiqroq vaqt ichida yovvoyilashib ketsa, Defoning fantaziyasi bilan yaratilgan qahramon Robinzon Kruzo 28 yil yashaydi va u bani odamga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida to'la saqlab qoladi.

Robinzon Kruzo yoshlik chog'idan dengizga juda qiziqadi. Shuning uchun u ota-onasining gapiga quloq solmay, uyidan chiqib ketadi. Londonga borib savdo kemasining kapitani bilan do'stlashadi va u bilan Afrika sohillariga mol olib borib savdo qilib yuradi. Kunlardan bir kun kemaga jazoyirli qaroqchilar hujum qilib, Robinzonni asir oladilar. Bir necha vaqt qullik azobini chekkan Robinzon o'ziga o'xshash qul negr yigiti Qsuri bilan birga qochadi. Ular ochiq dengizda Portugaliyaning kemasiga duch keladilar. Bu kema Robinzon va uning hamrohini Braziliyaga olib boradi, Robinzon Qsurini kema kapitaniga qul sifatida sotadi.

Braziliyada bir qancha vaqt dehqonchilik bilan shug'ullangach, Robinzon oson pul topish maqsadida, yana savdo kemasiga chiqadi. Bu kema halokatga uchrab, Robinzonning yolg'iz o'zi kimsasiz orolga tushib qoladi. Halokatga uchragan kemadan omon qolgan buyumlarni qirg'oqqa tashib oladi. Sohilga yaqin yerda boshpana quradi, yerto'la qazib, uning atrofini mustahkamlaydi. O'ziga yog'ochdan stol-kursilar yasab oladi, kalendar tutadi. Ovchilik qiladi, yovvoyi echkilarni tutib, qo'lga o'rgatadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Vataniga qaytish maqsadida qayiq yasash ishi bilan ko'p ovora bo'ladi. Orolida yashagan kuniga 25 yil to'lganda, ittifoqo bir yovvoyi yigitni odamxo'rlardan qutqarib, unga Jumaboy deb nom beradi. Yana birmuncha vaqt o'tgach, uning oroliga kelgan yovvoyilar qo'ldan Jumaboyning otasini va oq tanli bir ispaniyalik kishini qutqaradi. Orolida yashayotganining oxirgi yili bir ingliz

kemasida isyon ko'targan matroslar kema kapitanini kimsasiz orolda qoldirib ketmoqchi bo'lganda, Robinzon o'z hamrohlari bilan u kapitanni qutqaradi. Buning evaziga ingliz kemasining kapitani Robinzon va uning sheriklarini Angliyaga eltib qo'yadi.

«Robinzon Kruzo» romani bosilib chiqqach, katta shuhrat qozondi va adib bu muvaffaqiyatdan foydalanib, o'sha 1719 yili asarning ikkinchi qismini – «Robinzon Kruzoning keyingi sarguzashtlari»ni yozdi. Romanning ikkinchi qismida qahramon dunyoning juda ko'p joylarini aylanib chiqadi: Madagaskar, Hindiston, Xitoy, Sibir, Arxangelsk va Tobolskda bo'ladi. Ilgari yashagan kimsasiz orolga borib, koloniya tashkil qiladi.

Defo romanining ikkinchi qismi muvaffaqiyat qozonmasa-da, har holda kitobxonlarda birmuncha qiziqish uyg'otdi.

Bundan so'ng, ko'p o'tmay, Defo o'z asarining uchinchi qismi– «Robinzon Kruzoning jiddiy mulohazalari»ni (1720) yozdi. Ammo Robinzon haqidagi so'nggi qism kitobxonlar ishonchini oqlamadi. Defoning trilogiyasi orasida eng ommalashgan, kitobxonlar hurmatini qozongani uning birinchi kitobidir.

«Robinzon Kruzo» romanining asosiy qismi yolg'iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bag'ishlangan. Bu kurashda qahramon g'alaba qozonadi, yovvoyi orolni inson yashaydigan ajoyib makonga aylantiradi. U og'ir sharoitda faqat o'z kuchi, aql-irodasiga ishonib ish ko'radi. Yozuvchi buning bilan go'yo inson kishilar jamiyatidan ajralgan holda ham yashay olishi mumkin, degan XVIII asr falsafasiga xos qarashini isbotlamochi bo'ladi.

Robinzon Kruzo kimsasiz orolda 28 yil umr kechiradiki, uning ixtiyorida insoniyatning uzoq yillik tarixi davomida yaratilgan mehnat qurollari: bolta, mix, miltiq, o'q-dori, mato, ip, igna, siyoh, qog'oz hamda arpa va sholi doni, tavrot kitobi mavjud edi. Robinzon ana shu buyumlar yordamida yerto'la quradi, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik qiladi, kiyim-kechak, oziq-ovqat tayyorlaydi. Agar kishilik kollektivi tomonidan yaratilgan ana shu mehnat qurollari bo'lmaganda, Robinzon orolda uzoq yillar yashab, tirikchilik qilolmas edi.

Robinzonning oroldagi turmushi, kundalik mehnati iker-chikirlarigacha batafsil hikoya qilinadi. Qahramonning o'y-fikrlari, bajaradigan ishlari, tashvish va quvonchlari shu qadar sodda, haqqoniy tasvirlanadiki, kitobxon beixtiyor unga ishonadi. Robinzon

Kruzo obrazi o`quvchining ko`z o`ngida jonli kishidek gavdalanadi. Syujet voqealarining sodda, qiziqarli tilda hikoya qilinishi asarning o`qimishli bo`lishini ta`minlagan. Robinzon kuch-qudratli, tadbirkor kishi. Robinzon obrazi undagi tashabbuskorlik, iroda va g`ayrat bitmas-tuganmas. Robinzon eng og`ir daqiqalarda ham tushkunlikka tushmasdan, yuz bergan vaziyatdan qutulish yo`lini topadi.

Xuddi muallifning o`zi singari, qahramon ham taqdirga ishonadi. Har bir ko`rgan tushi biror hodisadan darak beradi, deb o`ylaydi. Robinzon Kruzo kimsasiz orolga tushib qolganini ilohiy kuchning irodasi, otasining gapiga quloq solmagani uchun unga berilgan jazo, deb tushunadi. Har kuni uch mahal tavrot kitobini mutolaa qilishni esidan chiqarmaydi. Ammo Robinzon xarakteridagi sifatlar uning ishchanligi, uddaburonligi, chaqqon va tadbirkorligi oldida ojiz va rangsiz bo`lib qoladi, Robinzon eng avval mehnat kishisi. U kitobxon ko`z o`ngida o`jar tabiatni o`ziga bo`ysundirgan zahmatkash inson sifatida gavdalanadi.

Robinzon o`zini orolga tashlab ketishganida umidsizlanmaydi, balki mudom vataniga qaytib borish, kishilar jamiyatiga qo`shilishni orzu qiladi. U orzumand sifatida kitobxon hurmatini qozonadi.

Qahramon har kungi kechmishlarining kundaligini yozib borishdan erinmaydi. U oroldagi hayoti bilan inson ijodiy imkoniyatlarining katta ekanligini namoyish qiladi. Yigirma sakkiz yil kimsasiz orolda mehnat bilan yashab, butun qobiliyati va iqtidorini takomillashtira boradi. Bu jihatdan Defoning romani XVIII asr ma`rifatchilik adabiyotining ilk namunasi ekanligini ko`ramiz. «Robinzon Kruzo»ning tarbiyaviy ahamiyati, o`lmas asarlardan biri bo`lib qolishining boisi undagi o`jar tabiatni o`zgartiruvchi mehnatning madh etilishidir. Qahramon o`z hayotini xavf ostiga qo`yib bo`lsa ham, Jumaboyni, uning otasini, oq tanli ispan kishisini hamda kema kapitanini o`limdan qutqaradi. Uning yovvoyi odamlar bilan bo`lgan munosabati (Jumaboy, uning otasi) haqiqiy do`stlikka aylanib ketadi.

«Robinzon Kruzo» romani bolalar kitobi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Robinzon bajarayotgan mehnat jarayonining batafsil hikoya qilinishi yosh kitobxonlarda alohida havas uyg`otadi. Qahramon o`quvchi ko`z o`ngida goh toshyo`nar, goh dehqon, goh duradgor, goh kemasoz, goh yer haydovchi, goh ovchi sifatida gavdalanadiki, bu yosh kitobxonga olam-olam huzur bag`ishlaydi.

Robinzon bu xildagi ishlarni bajarar ekan, juda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Ammo irodasi qattiq bo'lgan Robinzon o'z maqsadiga erishish uchun har qanday dushvorliklarni yengadi. Yosh kitobxon borgan sari kimsasiz oroldagi Robinzon hayotining mukammallashib, mazmun kasb etib borayotganiga guvoh bo'ladi. Ayniqsa asarning sodda, jozibador tili va uslubi bolalarda qiziqish uyg'otib, ularda mehnatga hamda insonga bo'lgan hurmatni tarbiyalaydi.

Defo asarining tarbiyaviy ahamiyatini fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo va chex yozuvchisi Yulius Fuchik yuqori baholagan.

«Robinzon Kruzo» romani bosilib chiqqandan beri ikki yarim asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Shunga qaramay, Defoning ajoyib asari hamon kitobxonlarga badiiy zavq beradi. «Robinzon Kruzo» romani dunyoning juda ko'p tillariga tarjima qilingan. Jumladan, o'zbek tiliga ham bir necha bor o'girilgan va o'zbek kitobxonining eng sevimli asarlaridan biriga aylangan.

1870 yillardan boshlab Toshkentda «Turkiston viloyatining gazetisi» nashr etilishi, chet el adabiyotining nodir asarlari mahalliy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima qilinishi o'zbek kitobxonlarini ilg'or adabiyot namunalari bilan tanishtirish bobida qilingan bebaho ishlardan hisoblanadi. O'zbek tiliga ilk tarjima qilingan asarlar orasida Daniel Defoning «Robinzon Kruzo» romani birinchi o'rinlarda turadi. Muhammad Fozilbek Otabek o'g'li tomonidan qilingan tarjimada asar qahramoni Robinzon o'ta dindor kishi sifatida berilgan. Romanning Yo'ldosh Shamsharov qalamiga mansub keyingi tarjimasi avvalgi xatolardan xoli va ancha mukammal.

«Robinzon Kruzo»ning muvaffaqiyat qozonishi adibni yana bir qancha asarlar yozishga undadi. «Kapitan Singlton» (1720), «Kavalerning memuarlari» (1721), «Mashhur Moll Flendersning quvonch va iztiroblari» (1721), «Polkovnik Jakning tarixi va ajoyib hayoti» (1722), «Roksana» (1724) va boshqalar Defoning iste'dodli romannavis ekanligidan darak beradi. Defo romanlarining qahramonlari burjua tuzumining adolatsiz, rahm-shafqatsiz sharoitida tug'ilib o'sgan kishilar obrazlaridir. Ularning har biri ana shu adolatsiz jamiyat bilan yakkama-yakka, ayovsiz kurashga kirishadilar. Bu kurashda goh mag'lubiyatga uchasalar, goh g'alaba qozonadilar.

Defo uzoq yillik jurnalistik faoliyati yordamida o`zi yashab turgan Angliya muhitini juda yaxshi o`rgangan. Bu esa asarlarida jamiyatining hayotini haqqoniy tasvirlashga imkon bergan.

Daniel Defo realistik, ma`rifatparvarlik ruhidagi romanlari bilan ingliz adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo`shgan san`atkor yozuvchi. U o`z davri hayotini badiiy umumlashtirish orqali adabiyotning xalqchil bo`lishi uchun kurashdi.

JONATAN SVIFT (1667– 1745)

Angliyaning iqtidorli yozuvchisi, buyuk satirik Jonatan Swift Irlandiyaning poytaxti Dublinda ruhoniy oilasida tug`ildi va bolalikdan diniy ma`lumot oldi. U bir necha yil yirik ingliz amaldori Vilyam Templ caroyida shaxsiy kotib vazifasida ishladi. Templning boy kutubxonasi Sviftning hayotida chuqur iz qoldirdi. Yozuvchi xilma-xil kishilar, siyosiy arboblardan bilan tanishdi. Jonatan Swift keyinchalik Dublin universitetining diniy bilimlar fakultetini bitirib, shu shahar ibodatxonasining noziri lavozimida ish boshladi. U vazifasi tufayli Londonga tez-tez kelib turadi, zamonasining mashhur adiblari Aleksandr Pop, Adisson, Stil hamda dramaturg Geylar bilan do`stlashadi. Ayni vaqtda jurnalist sifatida tanilib, birin-ketin hajviy asarlari: «Kitoblar jangi», «Bochka haqida ertak» (1704), «Movutfurush xatlari» (1724) bosilib chiqadi.

Jonatan Sviftga jahon miqyosida shuhrat keltirgan, ijodining gultoiji bo`lib qolgan asari– «Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari» yoki qisqacha aytganda «Gulliverning sayohatlari»(1726)dir. Roman qahramoni afsonaviy mamlakatlar – Liliputiya, ulkan odamlar mamlakati Brobdingnegga, Laputa, Glabbdobdribga hamda aqlli otlar mamlakati bo`lgan Guigngnmiyaga sayohat qiladi. Qahramon o`z sayohati davomida uchratgan fantastik vaziyatlar, afsonaviy obrazlar, yozuvchi mubolag`asining kuchi bilan yaratilgan xilma-xil manzaralarning barchasi zamon voqeligini realistik tarzda chuqur tasvirlashga xizmat qiladi. Svift satirasining kuchi ham, u yaratgan ajoyib asarning asrlar

davomida o'z qiymatini yo'qotmay kelayotganligi boisi ham ana shunda.

Roman hayratomuz syujeti, ajoyib-g'aroyib obrazlar va lavhalarga boyligi bilan barcha yoshdagi kitobxonlarni maftun etadi. Bu asar shunchaki kulgi uchun yozilgan bo'lmay, balki unda o'sha davr Angliyadagi hukmronlarining chirkin urf-odatlarini, davlat siyosati, fani va madaniyatiga nisbatan yozuvchi munosabati ham o'zining haqqoniy ifodasini topgan. «Gulliverning sayohatlari» romani to'rt qismdan iborat. Birinchi qismda Liliputlar – jimit odamlar mamlakati haqida hikoya qilinadi. Bu mamlakat kishilari oddiy odamlardan 12 barobar kichikdir. Liliputiya, majoziy ma'noda, yozuvchi yashab turgan Angliya davlatidir. Undagi barcha hodisalar Angliyadagi ijtimoiy ahvolni eslatadi. Liliputiya yashovchilar haddan tashqari kichkina odamlar bo'lsa-da, ularning o'z qiroli, ministrleri, harbiy qo'shini, dengiz floti va turli-tuman qonunlari mavjud. Bu mamlakat amaldorlari xalq manfaatidan ko'ra o'z foydasini ko'proq o'ylaydi. Liliputiya ham, Angliyada bo'lgani kabi, ikki xil partiya bor. Bular baland poshnalilar hamda past poshnalilar partiyasi deb ataladi. Mazkur partiyalar Angliyadagi torilar bilan vigilar partiyasini eslatadi. Har ikkala partiya o'rtasida doimo nizo davom etadi. Ammo ularning siyosatlari orasida unchalik katta farq yo'q, tafovut faqat poshnasining baland yoki past ekanligidadir.

Liliputiya qo'shni davlat– Blefusku qarshi urush harakatlarini olib boradi. Liliputlar qiroli qo'shni davlat qiroli bilan tuxumni qaysi tomonidan sindirib yeyish to'g'risida kelisholmay urush boshlaydi. Pishgan tuxumni qanday iste'mol qilish– poynak tomonidanmi, yoki nish tomonidan sindirib yeyish kerakmi, ana shunga ko'ra urushuvchi dushman tomonlar *poynakchilar* va *nishchilar* deb ataladilar. Bu lavhalarda diniy kelishmovchiliklar ham ayovsiz tanqid ostiga olinadi. Agar Liliputiya Swift yashayotgan Angliyani eslatsa, Blefuskuski timsolida Frantsiyani ko'rish mumkin. Bu janjal bizga Angliya bilan Frantsiya o'rtasida uzoq davom etgan, ispan taxti uchun olib borilgan urushni anglatadi. Hukmron doiralarning urush siyosatidan xalq ommasini norozi edi. Demokratik kurash tarafdori Swift bu adolatsiz urushni keskin qoralar ekan, xalq noroziligini ifodalashga ham alohida e'tibor beradi.

Liliputiya urf-odatlar, qonun-qoidalar Angliya mustabid tuzumiga, parlament partiyalariga, cherkov ixtiloflariga nisbatan o'tkir haydan iborat. Yozuvchi bachkana, juda mayda odamlarning kibru havosi, maqtanchoqligi, dimog'dorligini tasvirlash orqali Angliya

hukmron doiralarning basharasini chizib beradi. Liliputlarning imperatori o`z fuqarolaridan atigi tirnoqcha baland ekanligi bilan mag`rurlanadi. Ana shu arzimagan narsa uchun u o`zini butun olamning hukmroni hisoblaydi. Liliputiya katta lavozimlarga ko`tarilish ingichka arqon va ingichka tayoq ustidan mumkin qadar balandroq sakragan kishiga nasib qiladi.

Sotiboldi Yo`ldoshev tarjimasidan olingan quyidagi parcha Liliputiya mamlakati haqidagi yozuvchi kinoyasini ifodalaydi. «Dor ustida mohirlik bilan raqs tushadigan kishilarni eng yuqori davlat lavozimlariga ko`tarish yoki yog`och ustidan chaqqonlik bilan sakraydigan, yoki uning ostidan o`tdiganlarga ordenlar berish kabi sharmandali odatlarni olaylik, bu urf-odatlar hozir hukmronlik qilib turgan imperatorning bobosi joriy etgan».

Agar Gulliver liliputlar mamlakatida ulkan odam– «Tog` odam» deb nom chiqargan bo`lsa, ulkanlar yurti Brobdingnegda o`zi liliput holiga tushib qoladi. Chunki ulkan odamlar oddiy odamlardan 12 barobar katta va bahaybat qiyofadadir. Bu yerda Gulliver «mayda hasharot»ga o`xshaydi. Ulkan odamlar mamlakati – Brobdingneg yozuvchi tasvirida adolatli monarxiyani eslatadi. U davlatning qiroli esa ma`rifatparvar, dono kishi bo`ladi. Ulkan odamlar qiroli o`z mamlakatini insof, adolat va aql kuchiga tayanib idora qiladi. Urushlarni qoralaydi, Gulliver ulkan odamlar orasida ekan, uning bu mamlakat uchun olib borgan suhbatlari diqqatga sazovor. Gulliver qiroлга o`z vatani Angliya haqida, uning ijtimoiy tuzumi, hayot sharoitlari, armiyasi, amaldorlari, harbiy qurol-aslahalari va qo`shni davlatlar bilan olib boradigan urushlari haqida batafsil gapirib beradi. Ulkanlar qiroli bundan juda hayratlanadi. Shu qadar mayda odamchalarning qo`lidan bunchalik ko`p ish kelishiga ishonmaydi. Gulliver qiroлга Angliyada bo`lgani kabi porox va zambarak yasashni o`rgatmoqchi bo`lganida, qiroл g`azablanib, tinchlanishni buyuradi. Agar yana qurol haqida gap ochsa, Gulliverni jazolayman, deb qo`rqitadi.

Bu sahifalarda yozuvchi Angliya voqeligini hikoya qilgan ekan, yo`l-yo`lakay uning urushqoq siyosatini tanqid ostiga oladi. Ulkanlar mamlakati ideal davlat sifatida Svift zamonasidagi Angliyaga qarama-qarshi qo`yiladi.

Gulliver sayohatlarining uchinchi qismida olimlar mamlakati – Laputaga boradi, bu yerda olimlarning ajoyib ixtirolarini ko`zdan kechiradi. Balnibarbi mamlakatiga borib, Lagadodagi Buyuk

akademiya bilan tanishadi. Glabbdobdrib mamlakatida yashovchi maftunkor va sehrgarlarni uchratadi. So'ng Yaponiyaga o'tadi.

Turmushdan, hayot talablaridan ajralib qolgan, hech kimga foydasi tegmaydigan fanni Svift achchiq kulgi ostiga oladi. Laputada bir olim sakkiz yil mobaynida qanday qilib bodringdan quyosh energiyasini ajratib olib, undan yoz sovuq kelganda foydalanishni mo'ljallaydi. Boshqalari o'rgimchak inidan jun, muzni kuydirib porox olish, uyni poydevoridan emas, balki tomidan qurish kabi loyihalar ustida bosh qotiradilar.

Svift buning bilan Buyuk akademiya olimlarining ishlari xomxayol, o'zlari esa turmushdan ajralib qolgan kishilar ekanligi ustidan kuladi. Yana boshqa bir olim yerni to'ng'iz kuchi yordamida haydash usulini «ixtiro» qiladi, bu usul omoch, yer haydaydigan hayvon va ishchi kuchini tejat emish. Shunday qilib, bu xomhayol olimlar uchuvchi orolga joylashib olib, yerda yuz berayotgan voqealardan butunlay bexabar ish ko'radilar. Yozuvchi barcha ilm ahlini emas, balki soxta fanni, hayotdan ajralib qolgan xayolparast olimlarni tanqid qiladi. Svift Lagado akademiklarining bu «ixtirolari», «takliflari»dan birortasi ham nihoyasiga yetkazilmaganini qayd etadi.

Muallif olimlar mamlakatini ta'riflarkan, «universal dohiy» nomini olgan mashhur bir olim haqida yozadi: «Olimning gapiga ko'ra, u o'ttiz yildan beri butun tafakkurini insoniyat hayotini yaxshilashga bag'ishlayotganmish. Uning qo'l ostida ellikta yordamchi ishlayapti. Birlari havoni quruq, zich moddaga o'xshatib quyultirishib, undan selitra olishmoqda, suv qismini suzishmoqda, boshqalari marmarlarni yostiqlik va to'g'nag'ich sanchadigan bolishchalar uchun maydalashayapti, uchinchilari tirik otning tuyog'iga toshday qattiqlik berish bilan ovora. Olimning o'ziga kelsak, ...yaqin kelajakda qirolikda yaydoqlik qo'ylar zotini yarataman, degan umidda».

Romanning to'rtinchi qismi – guigngnmlar mamlakatiga sayohat – burjua tuzumiga nisbatan g'azabli zaharxandadan iborat bo'lib, yozuvchi unda o'z vatandoshlari hayotining g'ayriinsoniy va nohaqlik asosiga qurilganligini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu mamlakatda inson qiyofasidagi ikki oyoqli mahuqlar– yexular hamda aqlli, dono, halol mehnat bilan kun kechiruvchi jonivorlar–otlar yashaydi. Otlar bilan yexular bir-biriga keskin qarama-qarshi. Yexularning ham ichki, ham tashqi qiyofasi iflos va kishini

nafratlaniradigan darajada tubandir. Ular qahramonga borgan sari uning Angliya'dagi vatandoshlarini eslatadilar. Yexular laganbardor, xunuk, urushqoq hamda axloqi tubanlashib ketgan mahluqlardir. Ular hammadan ham yaltiroq toshlarga o'ch bo'ladilar. Ana shu tosh uchun bir-birlarini o'ldirishga tayyor turadilar. Yexular o'zlarining barcha illatlari bilan Angliya zodagonlarini eslatadilar.

Shunisi diqqatga sazovorki, Swiftning qahramoni Gulliver o'zining eng so'nggi sayohatidan Angliya'ga qaytib kelgach, o'z vatandoshlari orasida yexularning xatti-harakatlariga xos xususiyatlarni uchratadi. Bu yozuvchining inson tabiati ustidan chiqargan shafqatsiz, juda alamli, tushkunlikka to'la hukmi edi.

Romanning uchinchi qismida Swift zolim va bosqinchilarni qirib tashlab, mazlum xalqlar huquqini tiklamochi bo'ladigan kishilar haqida hikoya qiladi, ammo bu narsaning realligiga uning o'zi ham ishonmaydi. Kitobning so'nggi qismida tilga olingan ideal tartib odamlar obrazi orqali emas, balki otlar timsolida beriladi. Zotan, shunday ideal tuzum odamlar tomonidan amalga oshirilishiga ishonmaydi. Swift hajviyotining g'amgin va hazinligi shunda.

Gulliver obrazi yozuvchining katta yutug'idir. Gulliver XVIII asr Angliyasining o'qimishli, ma'rifatli kishisi. Swift qahramoni zamonasining sofdil, insonparvar, haqiqatgo'y vakilidir. U Liliputiya'da ekan, bosqinchilik urushlariga qarshi chiqadi. Gulliver yerli aholiga yordam berishga, maslahatlarini ayamaslikka tayyor. U o'zining kamtarligi, samimiyligi bilan kitobxonning muhabbatini qozonadi. Qahramon o'zidagi kamchiliklarini sira yashirmaydi, ayni vaqtda maqtanish, kibrlanishga ham yo'l qo'ymaydi. Albatta, buyuk hajviyotchi Jonatan Swift o'z qahramoni obrazini yaratar ekan, o'zidagi bir qancha xususiyatlarni unda jamlagan. Gulliverdagi gumanizm, o'zgalarning baxt-saodatini o'ylash – bularning barchasi burjua adabiyotshunoslarining adib haqidagi tuhmatlarini rad qiladi. Gulliver o'tkir aql egasi, u hamma yerda ko'rgan-kechirganlarini chuqur idrok etadi. Qahramon o'zi sayohat qilib yurgan mamlakat amaldorlarining zolim bosqinchi ekanligiga qarshi bo'lsa, o'tmishning Brut singari ajoyib respublikachilari bilan faxrlanadi. Qahramon obrazidagi bu xususiyatlar yozuvchining erkin ijtimoiy tuzum tarafdori ekanligini ko'rsatadi. Gulliver obrazining xalqchilligi ana shunda.

Romanning badiiy xususiyatlari. «Gulliverning sayohatlari»da Swift xilma-xil badiiy vositalardan foydalanadi. Ayniqsa realistik

fantastika romanda juda ustalik bilan qo'llanilgan. Muallif birin-ketin aqlbovar qilmaydigan uydirmalar, mubolag'alarni to'qib tashlaydi. Ammo ana shu uydirmalar, to'qima lavha va hodisalar Svift zamonasi uchun real bo'lgan hayot voqeliklarini bayon qilishga xizmat qiladi.

Liliputlar, ulkan odamlar, yexu va otlarning hayratomuz g'aroyib obrazlari romanda ijtimoiy hodisalarni umumlashtirish uchun bir vositadir. Yozuvchi hajviyoti hamma vaqt Angliyaning davlat tuzumiga, u yerdagi ma'muriy idoralarning bajarayotgan vazifasiga, qirol va saroy amaldorlarining xatti-harakatlariga qarshi yo'naltirilgan. Liliputlar jimit kishilar ularning aqli, fikrlash qobiliyatlari ham nihoyatda tor va bachkana. Ulkan odamlar har jihatdan ham ulug'dirlar. Yexular esa yirtqich qiyofasi, olchoqligi, vahshiyligi bilan o'zlarining tubanlashgan tabiatini namoyish etadilar.

Svift o'z kitobining tiliga alohida e'tibor bergan, uning jumalari sodda, salmoqli. Har bir narsa, hodisaga beriladigan ta'rif-tavsiflar nihoyatda qisqa.

«Gulliverning sayohatlari» o'zining yuksak badiiyligi, tanqidiy yo'nalishi bilan jahon adabiyotini ajoyib asarlaridan biri bo'lib qoldi. XVIII asr ingliz ma'rifatchilik realizmi adabiyotining yaxshi namunasi «Gulliverning sayohatlari» romani bolalarning sevimli kitobi sifatida ham mashhur. Bu kitobga N. G. Chernishevskiy, I. S. Turgenev yuqori baho berganlar.

Buyuk satirik Jonatan Svift jahon adabiyoti tarixiga birinchi galda «Gulliverning sayohatlari» nomli o'lmas asari bilan kirgan.

O'zbekistonda Jonatan Svift romani bir necha bor tarjima qilindi va o'zbek kitobxonlarining sevimli asariga aylanib qoldi. 1930 yillarda va undan keyin buyuk ingliz hajvchisi asariga bo'lgan qiziqish kuchayib, 1937, 1948, 1952, 1954, 1974 yillarda «Gulliverning sayohatlari» romani Fattoh Abdullaev, Abdulla Xo'jaxonov, Sotivoldi Yo'ldoshevlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. O'zbek maktablari programmasida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya qilingan kitoblar orasida Jonatan Svift asari ham munosib o'rin olgan.

Bularning barchasi «Gulliverning sayohatlari» umri boqiy kitob ekanligidan darak beradi.

FRANSUZ MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI

XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari o'z asarlarida yetilib kelayotgan ozodlik harakatlarini aks ettirdilar.

Lesajning «Tyurkare», Volterning «Edip», Monteskening «Qonunlar ruhi», Mablning «Yevropada ommaviy huquq», Russoning «Fan va san'at to'g'risida mulohazalar», Didro bilan d'Alambning «Entsiklopediya»ni nashr etishga kirishishlari ma'rifatchilik harakatining keng avj olayotganini ko'rsatar edi.

Ma'rifatparvar-faylasuflar davlat tepasida ma'rifatli mustabid o'tirishi kerakligi haqidagi nazariyani ilgari surdilar. Ular Ozodlik, Tenglik, Birodarlik «qonun»ini targ'ib qildilar. Ma'rifatparvarlar feodalizm tuzumi bilan kurashda san'atga asosiy qurol deb qaradilar. Ular yaratgan asarlar madhiyabozligi bilan ajralib turar edi. Ma'rifatparvarlar adabiyotga yangi qahramon – oddiy xalq vakillarini olib kirdilar. Ularning asarlari o'tkir publitsistikadan, siyosiy-falsafiy yo'nalishdagi qissa va romanlardan iborat edi. Teatr sahnasi ma'rifatparvarlar uchun kurash maydoni, jar solish minbari bo'ldi. Ular aniq, ravshan, qisqa va o'tkir iboralarni adabiy iste'molda keng qo'lladilar.

FRANSUA MAPI ARUE BOLTER (1694 – 1778)

Volter XVIII asrdagi ma'rifatchilik harakatining barcha ko'rinishlarini o'z ijodida jamladi. Bu harakat adabiy-siyosiy, falsafiy-tarixiy, ijtimoiy-madaniy g'oyalar kurashidan iborat edi. Volter shoir va dramaturg, faylasuf va tarixchi, publitsist va kurashchidir. Fransuz ma'rifatparvarlarining sinalgan dohiysi Volter qariyb 60 yil davomida Yevropa ustida guldirab jar soldi. Uning ziyobaxsh qalami, yashinday o'tkir fikri zamondoshlarini hayratga solar, hukmron sinf vakillari yuragiga g'ulg'ula tashlardi. Volter feodalizm zulmi, dini va cherkovining murosasiz dushmani edi.

Fransua Mari Arue Volter Parijda amaldor oilasida tug'ildi. Yoshligidayoq adabiy qobiliyati, o'tkir zehni bilan ko'pchilikning diqqatini o'ziga tortdi. Tabaqaviy tengsizlik hukm surayotgan sharoitda kishining aql-idroki, talanti emas, balki uning nasl-nasabi qadrlanadi. Volter ana shu toifadagi amaldorlardan biri de Roganga yoqmagani uchun kaltaklanadi va Bastiliya qamoqxonasiga

tashlanadi. Bastiliya tutqunligidan so`ng, Angliyada uch yil yashaydi. U yerdan olgan taassurotlarini «Angliya haqidagi xatlar»da bayon qiladi. Hukmron doiralara nazaridan uzoqroq turish maqsadida, shoir o`zining tanish ayoli dyu Shatle xonim qarorgohida yashab, adabiy faoliyatini davom ettiradi.

1750 yili Volter Prussiya qiroli Fridrix II ning taklifi bilan Germaniyaga keladi. U qiroli saroyidan ma`rifatparvarlik g`oyalari ni targ`ib qilish maqsadida foydalanmoqchi edi, lekin tezda Volter Fridrix II u o`ylagan odam emas, balki o`ta zolim ekanligini ko`radi. Shu sabab Shvetsariya bilan Frantsiya chegarasidagi Ferneyga jo`naydi va umrining oxiriga qadar shu yerda yashab ijod etadi. Ferney Volter nomi bilan butun Yevropaga mashhur edi. «Ferney patriarxi»ni ziyorat qilish uchun bu yerga shoirlar, yozuvchilar, faylasuflar, jamoat arboblari, Volter ijodining ko`plab ixlosmandlari kelib turadilar. Volter 1778 yili 84 yoshida ona yurti Parijda vafot etdi.

Volter XVII asr klassitsizm adabiyotining vakillari bo`lgan Kornel va Rasin ijodiga chuqur hurmat bilan yondashdi, ingliz dramaturgi Shekspirning buyukligini tan oldi. Ammo u Shekspirni hech qanday san`at aqidasiga bo`ysunmaydigan «yovvoyi» deb atadi. Shekspir ijodiga ikki tomonlama munosabatda bo`lishiga qaramay, Volter Shekspirdan ta`sirlanib, bir qancha sahna asarlarini yaratdi.

Volter dramaturgiyada ham ma`rifatparvarlik g`oyalari ni ilgari surdi. Uning sahna asarlari 52 ta bo`lib, shundan 21 tasi tragediyadir.

Volterning «Brut» tragediyasida XVIII asr fransuz hokimi mutlaq tuzumi sharoitida ozodlik, vatanga sadoqat, uning xoinlariga nisbatan murosasizlik g`oyalari ilgari suriladi.

Fojia syujeti Rim tarixidan olingan. Brut Rim respublikasining yirik arbobi. U o`z hayotini vatanining ozodligi uchun kurashga bag`ishlaydi. Rim xalqi Brut boshchiligida kurashga otlanib, zolim shoh Tarkviniy ni taxtdan tushiradi. Rim respublika deb e`lon qilinadi. Ammo Tarkviniy o`z tarafdorlari bilan respublikaga tahdid solaveradi. Respublikachilar bilan shoh tarafdorlari o`rtasida keskin jang boshlanadi. Brutning o`g`li yosh Tit otasi rahbarligida ajoyib qahramonlik namunasini ko`rsatadi. Tit yosh bo`lishiga qaramay, dushmanga qarshi jangda o`z nomini shon-shavkat va jasorat bilan bezaydi. Biroq Tit beqaror yigit, buning ustiga u Rimdan quvilgan Tarkviniyning qizi Tulliyani sevib qolgan. Bundan xabardor bo`lgan dushmanlar Titni xoinlik yo`liga undaydilar. Tit bu xiyonatkorona

takliflarni g'azab bilan rad qiladi. Nihoyat, dushmanlar bu ishga Tulliyaning o'zini ham aralashtiradilar. Tulliya Tit bilan uchrashib, agar uning sevgisiga erishmoqchi bo'lsa, Tit shoh Tarkviniy tomoniga o'tishi, o'z vatani Rimga, otasi Brutga xiyonat qilishi kerakligini aytadi. Aks holda Tit Tulliyaning sevgisidan umidvor bo'lmasin. Albatta, Tit xoin bo'lishni istamaydi, ammo ma'shuqasi Tulliyadan ajralish fikri uning butun vujudini o'rtab yuboradi. U o'zining irodasizligi orqasida ixtiyorini berib qo'yadi va dushman tomonga o'tadi. Tez orada fitna oshkor bo'lib, Tit respublikachilar qo'liga tushadi. Rim respublikasining senati Brutning mamlakat oldidagi xizmatlarini hisobga olib Titni jazolamasdan, uni otasi qo'liga topshiradi, Vatanparvar ota o'g'lining xoinligidan qattiq nafratlangan edi. Endi uning o'zi o'g'lini oliy jazoga– o'limga hukm qiladi. Senat a'zolari butun umrini Rimning ozodligi uchun sarflagan, mana endi shu yo'lda o'zining eng aziz farzandini ham o'limga hukm qilayotgan otaga chin yurakdan achinadilar. Brut ularga javoban Rimning ozodligi, respublikaning daxlsizligi har narsadan ustun turishini aytadi.

Fojiada Brutning shaxsiy tuyg'ulari bilan grajdanlik burchi o'rtasidagi konflikt masalasi hal qilinadi. Brut hamma vaqt o'g'lidan vatani Rimni sevishni, ayniqsa uning sodiq grajdani bo'lishni talab qilar, o'zi esa ana shu grajdanlikning ajoyib timsoli edi. Kimki o'z vataniga, grajdanlik burchiga xiyonat qilar ekan, u Rim grajdani bo'lishga noloyiq.

Volterning «Brut» tragediyasi qaynoq vatanparvarlik qasidasi, respublika dushmanlariga shafqatsiz, murosasiz qahr-g'azab ifodasi bo'lib jarangladi. XVIII asr Frantsiyasida hokimi mutlaq tuzumi hukm surib turgan bir davrda, mamlakat yagona qirol tomonidan idora qilinayotgan sharoitda Respublika g'oyalarini yoqlab chiqish Volterning buyuk jasoratidan darak berar edi.

Ma'lumki, XVIII asrning buyuk ma'rifatparvarlari aksariyat hollarda sharq mavzusiga murojaat qiladilar. Sharq temasi va obrazlari Volter dramaturgiyasida ham ko'zga ko'rinarli o'rin egallaydi. Volter sharq temasi va obrazlarini ma'rifatchilik g'oyalarini targ'ib qiluvchi vosita qilib oldi. Volter ijodida sharq talqini diniy xurofotlarga, erkin fikrni ta'qib qiluvchi bid'atlarga qarshi kurashda qurol bo'lib xizmat qiladi. Buyuk ma'rifatparvarning fikricha, xurofot insonning tabiiy baxti bilan kelisha olmaydi.

Dramaturgning «Zaira» nomli tragediyasida ko'tarilgan masalaning mohiyati ana shunday. «Zaira» fojiasidagi qiz (Zaira) ham Shekspirning «Otello» tragediyasidagi Dezdemonaning singari halok bo'ladi. Har ikkala asarda ham aql-idrok qorong'ulik va jaholat kuchlari tomonidan bo'g'ilgan. «Zaira»da sulton Orosman, «Otello»dagi arab Otello obrazlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

Volterning o'quvchilari va tomoshabinlari uning asarlarida sevgi yo'qligiga ishora qilar edilar. Dramaturg «Zaira» fojiasi bilan o'z kitobxonlarini mamnun qiladi. Asar qahramoni Zaira xristian qizi bo'lib, Misr sultoni Orosmaning saroyida tutqunlikda yashaydi. Zaira bilan sulton Orosman bir-birlarini sevadilar, Sultonga bo'lgan sevgisi tufayli Zaira musulmon mazhabini qabul qilgan. Yevropadan xristian ritsari Nerestan pul olib kelib, asirlikdagi vatandoshlaridan o'n kishini ozod qilib ketmoqchi. Sulton Orosman uning pulini olmasdan, 100 ta asirni ozod qiladi. Ozod bo'lgan xristianlar orasida Zaira bilan Nerestanning otasi Luzinyan ham bor. Qizning otasi bilan akasi uni xristianlikka qaytishga, o'z vataniga jo'nab ketishga undaydilar. Nerestan singlisi Zaira bilan shu haqda gaplashish uchun uchrashganlarida, Orosman rashk qilib Zairani o'ldiradi. Biroq, haqiqatni anglagach, u o'zini ham halok etadi.

«Zaira» tragediyasida Volter diniy jaholatning sevishtganlar baxtiga g'ov bo'lganini ko'rsatadi. Zairadagi chinakam sevgini uning akasi va otasi tushunishni istamaydilar. Ular xristian dini urf-odatlariga ko'r-ko'rona amal qilib, Zairaning fojiasiga sabab bo'ladilar.

Asardagi Orosman obrazi ideallashtirilgan. U sharqning zolim hukmronlariga sira o'xshamaydi. Orosman katta qalb, chinakam sevgi egasi bo'lgan saxiy kishi. U Shekspirning Otello singari chin insonparvar kishi obrazidir. Asarda Shekspir dahosidan ta'sirlanish yaqqol sezilib turadi.

A. S. Pushkin aytganidek, Otello tabiatan aslo rashkchi bo'lmay, aksincha, ishonuvchan odam edi. Orosman obrazida ham shunday xususiyat ko'rinib turadi.

Diniy xurofot insonning tabiiy baxtiga to'siq bo'libgina qolmasdan, ayrim odamlarning fitnasi natijasida, yovuzlik, jinoyatlarning quroliga aylanadi.

Volterning Shekspir dahosidan ta'sirlangani, unga izdoshligining ta'siri «Muhammad» asarida ham yaqqol sezilib

turadi. Asarda birin-ketin dahshatli qotilliklar sodir bo`ladi: o`z otasini o`ldirish, zahar ichish, o`z-o`zini mahv etish kabi sahnalar Shekspir ta`siridan darak beradi. Fojiada din, cherkov – qalloblik va munofiqlikning quroli ekanligi ko`rsatiladi. Volter din, cherkov, fanatizm bilan murosasiz kurashdi.

Bu tragediyasida Volter ikki xil g`oya, ikki xil xarakterning kurashini ko`rsatadi. Bulardan biri gumanizm, ezgulik, soflik, odillik bo`lsa, ikkinchisi munofiqlik, bosqinchilikdir. Volter fojiasida ikki davr to`qnashadi. Biri jaholat, xurofot, vahshiylik bo`lsa, ikkinchisi aql-idrok, ma`rifat va yorug`lik bo`ladi.

Volter Muhammad obrazida haqiqiy maqsadini yashirib, asarini Rim papasiga bag`ishlaydi.

Volter ijodida «Zadig», «Mikromegas», «Kandid yoki optimizm», «Soddadil» kabi bir qancha falsafiy qissalari ham muhim o`rin tutadi.

Falsafiy qissalarida Volter zulm, adolatsizlik, diniy jaholat, inson erkinligi oyoq osti qilinishiga qarshi isyon ko`taradi. Hukmron sinf mafkurachilarining yer yuzida adolat garmoniyasi mavjud, deb uqtirishlarini puchga chiqaradi. Ma`rifatparvar Volter oddiy inson azob-uqubatlarga duchor qilinayotganini yaxshi bilar edi. Bundan tashqari, o`z davrida keng tarqalgan umidbaxsh falsafani ham, kelajakka ishonmaydigan tushkunlik ruhidagi falsafani ham Volter birdek rad etadi. Ulug` ma`rifatparvar olim o`z qissalarida ham cherkov safsatalariga qarshi, dunyoviy fanlar haqida, urushlarning falokati haqida fikr yuritadi. Zamonasidagi ahvolni tahlil qilish, gumanistik dunyoqarashni targ`ib etish bu falsafiy asarlarning g`oyaviy tematikasini tashkil etadi.

«Mikromegas» qissasida Volter koinotdagi sayyoralar olamiga sayohat qilib, cherkovning yer barcha sayyoralarning kattasi, boshqa planetalar yer atrofida harakat qiladilar, yer esa mutlaqo harakatsiz sayyoradir, degan cho`pchaklariga zarba beradi.

Sirius planetasining vakili Mikromegas Saturn planetasi akademiyasining sekretari bilan birga sayohat qilib, yer yuziga tushadilar. Ammo ular shu qadar ulkanki, yer yuzida biron jonli narsani ko`rolmaydilar. Volter Sirius va Saturn planetalarida yashovchilarning sayohati orqali yerning juda kichkina ekanligini majoziy ravishda bayon qilib, yer koinotning bir bo`lagi, degan haqiqatni isbotlaydi.

Volter bu qissasida juda keng ijtimoiy-siyosiy masalalar miqyosida fikr yuritib, feodalizm istibdodi, cherkov ta'limotining kishilar hayotidagi zararli oqibatini fosh qiladi.

Asar qahramoni Kandid sofdil va sodda, aqlli yigit. U baron Tunder Ten Tronk saroyida istiqomat qiladi. Kandidning ustozi faylasuf Panglos dunyodagi barcha narsalar ezgulikka olib boradi, degan umidbaxsh ta'lim beradi. Avvaliga sodda Kandid bu umidbaxsh falsafaga ishonadi. Ammo hayoti davomida dunyoning birmuncha mamlakatlarini kezib chiqqach, Kandid ongida Panglos falsafasiga ishonch yo'qoladi. Chunki qahramon hamma yerda nobakorlik, feodallarning o'zboshimchaligi kishilar o'rtasida g'arazgo'ylik, diniy taassuf hukm surayotganini ko'radi. So'ng Volter o'z qahramonini tushkunlik falsafasining vakili Marten bilan ham uchrashtiradi. Bu faylasuf dunyodagi barcha narsalar bema'nilikdan, badkirdorlikdan iborat, deb tushuntiradi. Ammo qahramon bu fikrga ham qo'shilmaydi, Kandid, har holda, dunyoda qandaydir aqlga muvofiq keladigan narsa bo'lishi kerak, deb o'ylaydi. Qahramon yer yuzida shunday yerni axtaradi.

Volter aqlga muvofiq keladigan ijobiy ijtimoiy tuzum deb afsonaviy Eldorado mamlakatini tasvirlaydi. Eldorado jannatmakon yer. Bu mamlakatda tillayu javohirlarning hisobi yo'q. Qirol olijanob, insonparvar, bu yerdagi odamlar erkinlikda yashaydilar. Birovni qamash, sud qilish, jazolash kabi noxush hodisalar Eldorado mamlakatiga butunlay begona. Bu yurtda go'zal shaharlar, ajoyib fan saroylari mavjud. Ammo Eldoradoga boradigan yo'l tog'lar, baland qoyalar bilan to'silib yotadi. Amalda unga borish mumkin emas.

Eldorado adibning xalqlar baxti va kelajagi to'g'risidagi utopiyasi edi. Volterning o'zi ham ana shunday baxtli hayotga, erkin jamiyatga erishish yo'lini topa olmagan. Asar oxirida qahramon mehnat qilishi kerak, degan xulosaga keladi. Hayotning ma'nosi mehnatda. «Mehnat bizni uch xil falokatdan: zerikish, nuqson va muhtojlikdan xalos qiladi», deydi. Volterning ajoyib qissalaridan biri «Soddadil» tabiiy, ya'ni oddiy kishi bilan madaniy jamiyat orasidagi masalaga bag'ishlangan. Asar qahramoni Guron juda ham sodda, oddiy yigit. U har narsani sodda o'ylaydi, sodda gapiradi va o'z xohishi bilan ish qiladi. Bu narsa yovvoyi Guronning axloq mezoni bo'lib, ayyorlik, yolg'onchilik unga tamomila yot. Madaniy jamiyatga aralashgan Guron har qadamda boshi berk ko'chaga kirib qolaveradi. Uni xristian diniga cho'qintiradilar, ammo bu nasroniy

dini qoidalari soddadil yigitning tabiiy tushunchalariga har xil g'ovlar qo'yadi. Guron sofdilligi tufayli Bastiliyaga qamaladi. Sevgan yigitini qamoqdan ozod qilish maqsadida Parijga kelgan Sentiv o'z or-nomusi evaziga bunga erishadi. Sevishganlar baxtiyor bo'la olmaydilar, Sentiv vijdon azobiga chidayolmay vafot etadi. Guron umrining oxirigacha, Sentiv xotirasiga sodiq bo'lib qoladi.

Bu povest bilan Volter zamonasidagi «tsivilizatsiyalashgan» tuzumning barcha yaramasliklarini, diniy xurofot, xudbinlik va buzqlikni ayovsiz fosh qilgan. Feodal tartiblarini tanqid qilish «tabiiy odam» nuqtai-nazaridan olib boriladi. Avtor qahramoni Guronga xayrixoh. Chunki Guron ham, uning sevgilisi Sentiv ham adolatsiz jamiyatdan ozor ko'radilar.

Volterning falsafiy qissalari o'ziga xos badiiy shaklda yozilgan. Uning qahramonlari dunyoning turli joylarida harakat qiladilar. «Mikromegas» qissasida sayyoralar olami, «Kandid»da afsonaviy Eldorado mamlakati, «Vavilon malikasi» va «Soddadil» qissalarida yer kurrasining bir necha qit'alari ishtirok etadi. Falsafiy povestlarning mazmuni aksariyat holda afsonaviy bo'ladi. Volter ana shu afsonaviy qobiq ostida o'z g'oyalarini, fikrlarini ilgari suradi. Volterning qahramonlari jonli tasvirlangan. Avtor kinoya, o'tkir istehzo bilan XVIII asrda hukm surayotgan, ma'rifatchilik nuqtai nazaridan yaroqsiz deb topilgan tartiblar ustidan kuladi, hukm chiqaradi.

Volterning adabiy merosi nihoyatda ulkan. U deyarli barcha janrlarda qalam tebratadi. Adib lirik va didaktik she'rlar, risolalar, «Entsiklopediya»ga maqolalar hamda dramatik asarlar yozdi. Tarixiy mavzuda yirik «Genriada» dostonini yaratdi. «Orlean qizi» poemasi Janna d'Ark nomi bilan bog'langan cherkov safsatalarini fosh qildi.

Uning falsafiy hamda tarixiy mavzuda yozgan ko'pgina asarlari mavjud. Volter Rossiya tarixiga qiziqib qaradi. Uning tarixiy mavzudagi Pyotr I zamonasiga bag'ishlangan asari, ayniqsa diqqatga sazovor.

Rossiyada Volter ijodiga va ijtimoiy faoliyatiga katta qiziqish bilan qaradilar. Fransuz adibining bir qancha dramatik asarlari XVIII asrdayoq rus tiliga tarjima qilinib, sahnalashtirildi. Rus imperatori Yekaterina II Volter bilan do'stona xat yozishib turar, o'zini ma'rifatli malika qilib ko'rsatar edi. XVIII asr oxirida, 1789 yilda Yekaterina II va uning saroyi o'zini ma'rifatning ashaddiy dushmani

sifatida oshkora ko`rsatdi. Yekaterinaning buyrug`i bilan Volterning byustlari olib tashlandi, asarlarini nashr qilish keskin taqiqlandi.

Ammo Rossiyaning ilg`or ziyolilari hamma vaqt fransuz ma`rifatparvariga ehtirom bilan yondashdilar. Pushkin va Gertsenlar fransuz yozuvchisining adabiy merosiga hurmat bilan qaradilar. Gertsen Volter asarlaridagi kulgining ahamiyatini ta`kidlagan edi. Rus demokrati V. G. Belinskiy Volterni XVIII «asr dohiysi», «Feodal Yevropasining tanqidchisi», «Frantsiyaning milliy shoiri», deb atadi. Belinskiy fransuz shoirining til ustasi ekanligini ham yuqori baholagan edi.

DENI DIDRO **(1713–1784)**

Didro XVIII asr fransuz faylasuflari, ma`rifatparvarlari orasida eng ko`zga ko`ringan, qamrovdor olim va jamoat arbobi edi. XVIII asrning o`rtalariga kelib davrning ilg`or ziyolilari bo`lgan ma`rifatparvarlar ana shu g`oyaviy kurashning haqiqiy rahbarlari sifatida maydonga chiqdilar. Didro shu kurashning eng jangovar ishtirokchilaridan, rahbarlaridan biri edi.

Didro 1751-1780 yillar mobaynida nashr qilingan fan, hunar-texnika, san`at va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining keng sohasini qamrab olgan entsiklopediyaning asoschilaridan, bosh redaktorlaridan biri edi. Entsiklopediyani nashr qilishda deyarli barcha ma`rifatparvarlar ishtirok etdilar. Entsiklopediya insonning mehnat faoliyatini atroflicha yoritishga urindi. Unda dehqon va hunarmand, ishchi va bog`bon kabi turli xil hunar egalarining mehnat faoliyati aks etdi. Yolg`iz Didroning o`zi qomus uchun mingdan ortiq maqola yozdi. Ammo buyuk faylasufning faoliyati faqat entsiklopediya bilan cheklanib qolmasdan, u bir qancha badiiy asarlar: «O`gay o`g`il» (1757), «Oila boshlig`i» (1758) dramalarini, «Monaxinya» (1760) romanini, «Ramoning jiyani» (1762), «Jak fatalist» (1773) qissalarini ham yozdi.

San`at sohasida yangilik bo`lgan estetikaga oid risolalar yaratdi. «Nikohsiz o`g`il haqida suhbatlar» (1757), «Dramatik adabiyot to`g`risida» (1758), «Tasviriy san`at haqida tajribalar» (1765), Parij ko`rgazmalari haqida yozgan «Salonlar» (1761 – 1781) kabi asarlari shular jumlasidandir.

Didro boy falsafiy meros qoldirdi. «Tabiatni tushuntirish haqida fikrlar» (1754), «d'Alamber bilan Didro suhbat» (1769), «d'Alamberning tushi» (1769), «Materiya va harakatning falsafiy prinsiplari» (1770) va boshqa asarlari shular jumlasidandir.

Deni Didro 1713 yili Frantsiyaning Langr shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. U Parijdagi Garkur kollejini tamomlab ruhoniylar bo'lishi kerak edi. Ammo uni din qiziqtirmadi. Shu tufayli otasidan moddiy yordam ololmagan Didro bir necha yil mobaynida qiyin kun kechiradi. Bo'lajak olimning birinchi asari «Falsafiy fikrlar» (1746) edi. Asar Parij parlamentining qarori bilan yoqib tashlanadi. «Ko'zi ochiq kishilarga ko'rlar haqida vasiyatnoma» asari (1749) uchun Didroni qamoqqa tashlaydilar. O'zining katta qalamkash safdoshi Volter singari, Didro ham hokimi mutlaq davlatining adolatsiz qonunlari va sudi bilan to'qnashadi. Didroning estetik qarashlari nihoyatda keng.

U ma'rifatparvarlar nuqtai nazaridan san'at nazariyasi masalalariga ham katta ahamiyat berdi. Didro muzika, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, sahna asarlari nazariyasi, aktyorlik mahorati, san'atning jamiyat hayotida o'ynaydigan roliga alohida e'tibor berdi. Didro estetikaga oid maqolalarida san'atkorlarni xalqqa xizmat qilishga da'vat etdi. Chinakam san'at asari go'zallikka, haqiqatga xizmat qilishi kerak. Go'zallik va haqiqat esa hayotdan olinadi. Chunki san'at asarining asosida hayot yotadi. Didro klassitsizm tragediyasida tasvirlangan podshohlar, malikalar, shahzodalar o'rniga kishilarning kundalik, oddiy oilaviy hayotini, uning ikirchikirlarini, g'am-g'ussalari va quvonchlarini ko'rsatadigan asarlar yaratishni talab qilib chiqdi. Bu Didroning demokratik maylga asoslangan estetikasi edi.

«Aktyor to'g'risida paradoks» asarida aktyorlik san'atiga, uning mahoratiga katta hurmat bilan qaraydi. Aktyor mahorati shoir, muzikachi, dramaturg mehnatidan, mahoratidan kamsitilmasligi kerak. Didroning bunday fikrlari zamonasida talantli aktyorlar va aktrisalar, ruhoniylar tomonidan ta'qib qilinayotgan bir davrda katta ahamiyat kasb etadi.

Didroning badiiy iste'dodi va mahorati, ayniqsa uning nasriy asarlarida yaqqol namoyon bo'ldi. San'atkorning falsafiy qissalari o'zining realistik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Bu asarlarning hayotbaxshligi falsafiy mulohazalarning chuqurligi, ma'rifat g'oyalari bilan sug'orilganligidadir. Didroning bu romani 1760

yilda yozilgan «Monaxinya» bo`lsa-da, uning vafotidan keyin bosilib chiqdi.

Yosh va go`zal qiz Syuzannani ota-onasi zo`rlab ayollar ibodatxonasiga beradi. Ammo bu ibodatxona inson sha`niga dog` tushiradigan buzqliklar, yaramasliklar makoni edi. Bu yerda sotqinlik va ifloslik hukmron, barcha ibodatxona xodimlari razil va munofiq. Syuzanna bu ahvolga qarshi norozilik bildiradi. O`zining hayotga, yashashga, baxt, erkinlikka bo`lgan huquqlarini talab qiladi. Ammo ilojsiz. Unga hech kim yordam bermaydi. Ayollar ibodatxonasining boshlig`i Syuzannaga ham ko`z olaytiradi. Xullas bu yerda hamma narsa sodda qizning tabiiy axloqiga zid. Qizning qalb iztiroblari, alamli ichki kechinmalari ishonarli tasvirlangan. Syuzannada paydo bo`lgan norozilik va nafrat tuyg`usining asta-sekin isyonga aylanish jarayoni haqqoniy chizib beriladi. Ayol shaxsini tahqirlash, diniy riyokorlik, inson erkinining oyoq osti qilinishi kabi adolatsizliklar yig`ilib qizni asab kasaliga duchor qiladi. Ibodatxonadagi «Hur qizlar» (monashkalar) Syuzannaga yordam berish o`rniga uni boshliqlarning oyoqlari ostiga tashlashga urinadilar. Dahshat ichida qolgan Syuzanna ibodatxonadan qochadi. U jamiyatning jinoyatkorona qonunlarini buzib, o`zi jinoyatchiga aylanib qoladi. Qiz o`z nomini o`zgartirib, yashirib yashaydi. Uning hayoti hamma vaqt tahlika ostida o`tadi. Muallif Syuzanna timsolida umri xazon bo`layotgan minglab qizlarning og`ir ahvolini ko`rsatadi.

Didroning asari, bir tomondan, diniy jaholatga qarshi kurashsa, ikkinchi tomondan, ayollarning shaxsiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qiladi. Dahriy Didro din va cherkovni tanqid qilishni chuqurlashtiradi. Xristian ta`limotining g`ayri insoniy mohiyatini ochib tashlaydi. Ibodatxonaning insonlarni qullarcha itoatgo`ylikda saqlashga urinishini qoralaydi.

«Ramoning jiyani» asari 1762 yili yozilgan. Asar dialog shaklida yozilgan. Bu ikki suhbatdoshning biri Ramoning jiyani, ikkinchisi muallifning o`zidir. Har ikkala suhbatdosh ham o`tkir aql egasi. Bosh qahramon real shaxs bo`lib, mashhur kompozitor Ramoning jiyani Jak Fransua Ramodir. Qobiliyatli bu odam jamiyatning foydali a`zosi bo`lishi mumkin edi. U atrofdagi voqealarni aniqlik bilan kuzatadi, muzikani sevadi. Ammo dangasaligi tufayli tartibsiz kun kechiradi. U boylar uyida o`z san`atini sotib qornini to`yg`izadi. Ramoning jiyani o`sha zamon

qashshoq, daydi ziyolilarining biri. Didro bu obrazdan zamondoshlarining tipik umumlashgan obrazini yaratishda foydalanadi.

Didroning «Jak–fatalist va uning xo`jayini» asari Gyotening tahsiniga sazovor bo`lgan. Asar kompozitsiyasi o`ziga xos bir qancha hikoya va latifalardan tashkil topgan. Fransuz hayotining turli tomonlari haqqoniy yoritilgan qissada hukmronlarining hajviy qiyofasi tasvirlanadi.

Asar qahramoni Jak chin ma`noda xalqdan chiqqan aqlli, xushchaqchaq, chaqqon, epchil kishidir. Jak qiyofasida kitobxon Rablening Panurgini, Servantesning Sancho Pansasini ko`rishi mumkin.

Jak–fatalist xo`jayini bilan safar qilmoqda. U o`z tarixidan, sevgisidan so`zlar ekan, yo`l-yo`lakay, xilma-xil hayotiy lavhalar bilan o`z hikoyasini jonlantirib boradi.

Hikoya qilishning bu yo`li odatdagi adabiy usul-uslubdan farq qilib, samimiyligi bilan ajralib turadi. «Jak–fatalist» qissasi ham dialog shaklida yozilgan. Asarda komik detallardan keng foydalaniladi. Jak bilan xo`jayini o`rtasidagi suhbatga, kitobxonga murojaat qilayotgandek, muallif aralashib turadi. Agar Jak o`zida xalq quvnoqligini ifodalasa, xo`jayin xira, og`ir tabiatli kishi.

Jak xarakterida fatalizm qarashlari jamlangan. U doim xristian dinining «vahiydan shunday hukm qilingan», «mening taqdiri-azalimga shunday yozilgan» kabi aqidalarini takrorlaydi. Chunki bu so`zlar har kuni cherkovda qaytarilaverib, siyqasi chiqib ketgan.

Didro rus imperatori Yekaterina II ning taklifi bilan 1773 yili Peterburgga keladi. Yekaterina II saroyi fransuz faylasufini tantana bilan kutib oldi. Didro bilan Yekaterina II har xil mavzuda uzundan-uzoq suhbatlar o`tkazar va bu suhbatlarning tafsilotini Yekaterina II Volterga xat orqali xabar qilib turar edi. Didro Yekaterina II ga bir qancha masalalarda maslahatlar beradi, bahslashadi.

Didro Peterburgda ekan, rus madaniyati, rus xalqi hayoti bilan tanishdi. Rus tilini o`rganishga kirishdi va to`rt oydan so`ng Frantsiyaga bir qancha rus yozuvchilarining asarlarini o`zi bilan birga olib qaytdi. Yekaterina II Didro uchun, rus xazinasi hisobidan, Parijning dvoryanlar yashaydigan mahallasidan katta uy sotib olib berdi. Didroning boy kutubxonasini sotib olib, o`zini bu kutubxonaning saqllovchisi qilib tayinladi. Bu xizmati uchun maosh ajratib, fransuz faylasufiga ellik yillik maoshi haqini bir yo`la to`lab

qo'ydi. Didro ijodi ma'rifatchilik harakati va adabiyotining yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. U falsafaga, san'at nazariyasiga katta xissa qo'shdi. Uning ajoyib asarlari XIX asr tanqidiy realizm adabiyotiga yo'l ochdi.

Didro ilg'or jamiyat a'zolarining ko'z o'ngida XVIII asr ma'rifatchilik harakatining dohiysi, fransuz milliy madaniyatining an'analarini o'zida gavdalantirgan siymo edi.

Didro ijodini Gertsen, Chernishevskiy va Pisarevlar yuqori baholadilar. Rossiyaning ilg'or fikr egalari unga alohida hurmat bildirdilar.

Didroning adabiy merosi afkor omma uchun reaksiyaga qarshi kurashda mustaqillik, erkin fikr yuritishning namunasi bo'lib xizmat qiladi.

JAN JAK RUSSO (1712 – 1778)

Jan Jak Russo fransuz faylasufi, yozuvchisi, pedagogi, talantli musiqashunos va ma'rifatparvaridir. Pycco feodal hokimi mutlaq davlatini qoralab, adolatli jamiyat qurish yo'lini axtardi. U tabiatga yaqin turadigan ideal jamiyat haqida o'yladi. Pysso pedagogik asarlarida tarbiyaning rolga va jismoniy mehnatning ahamiyatiga katta umid bog'ladi. Jan Jak Russo kelib chiqishi jihatidan quyi tabaqaga mansub bo'lib, Shveytsariyaning Jeneva shahrida soatsoz oilasida tug'ildi. Umr bo'yi oddiy mehnat kishilari orasida yashadi. Moddiy jihatdan qiynalib o'sgan Russo durustroq o'qiy olmadi. Yoshligida juda ko'p joylarni kezib chiqdi, turli xil ishlarni qilib ko'rdi. Qiyin hayot kechirsa ham, badavlat odamlarga yalinmadi, ulardan marhamat kutmadi. Russo mustaqil mutolaa qilib, musiqa bilimini egallaydi. Muzikadan dars berib, notalar yozib tirikchilik o'tkazadi. Bo'lajak olim va yozuvchi XVIII asrning 50-yillarida o'z asarlari bilan Parijda dong taratadi. Mashhur ma'rifatparvarlar Volter, Monteskye, Golbax, Didro, d'Alamberlar – entsiklopedistlar bilan yaqinlashadi.

Russo odamlar o'rtasida ham siyosiy, ham iqtisodiy tenglik tarafdori edi. 1755 yili uning «Odamlar orasidagi tengsizlikning kelib chiqishi to'g'risida mulohazalar», 1762 yilda esa «Ijtimoiy shartnoma» nomli risolalari bosilib chiqadi. Bu asarlar demokratik g'oya bilan sug'orilgan edi.

Agar ko'pchilik ma'rifatparvarlar aql-idrokni taraqqiyotning asosi degan fikrni olg'a surgan bo'lsalar, Russo progressning asosi deb sezgini birinchi o'ringa qo'yadi. Russo insonni sezgilari bilan buyukdir, deb hisoblaydi. Inson o'z sezgilari bilan tabiatning bir qismi ekanligini namoyish qiladi, deydi faylasuf.

1762 yili yozilgan «Ijtimoiy shartnoma» risolasi Russoning siyosiy dasturidir. Bu asarida Russo «Inson ozod bo'lib tug'iladi, ammo u hamma yerda kishanda», deb xitob qiladi. Russo kelajakdagi davlatni odamlar o'rtasidagi shartnomaga asoslangan davlat deb faraz qiladi. Bu davlat erkin va teng huquqli kishilarning qudratli kollektiv davlati bo'lishi kerak. Russoning bu fikrlari feodal tartiblari o'rniga keladigan erkin tuzumning go'yo konstitutsion loyihasini eslatar edi. 1789– 1794 yillardagi birinchi fransuz burjua revolyutsiyasi qonunlarida Russoning bu kitobidan keng foydalaniladi.

Fransuz adabiyoti tarixiga Jan Jak Russo sentimentalizm oqimining asoschisi sifatida kirib keldi, uning «Yuliya, yoki yangi Eloiza» nomli romani zamondoshlari o'rtasida misli ko'rilmagan darajada muvaffaqiyat qozondi. Russoning bu romani epistolyar (xat) janrida yozilgan bo'lib, unda Richardson ijodining izlari sezilib turadi.

Asarda ikki yoshning sevgisi tarannum qilinadi. Boy dvoryan qizi Yuliya qalbida o'z o'qituvchisi Sen-Prega muhabbat uyg'onadi. Sen-Pre ham qizni qaynoq ehtiros bilan sevadi. Ammo Yuliyanning otasi baron d'Etanj bundan g'azabga keladi. Chunki otaning nazarida bu harakat zodagoniy tushunchalarni oyoq osti qilar edi. Dvoryanlar muhiti, «tsivilizatsiyalashgan» tuzum sevishganlar yo'liga g'ov bo'ladi. Yuliya, oilasi xohishiga bo'ysunib, eski tartib talablariga binoan Volmar ismli boy dvoryanga turmushga chiqadi.

Romanda «tabiiy axloq» bilan soxta odat an'analari o'rtasidagi ziddiyat ko'rsatiladi. Bu ziddiyatning asl mohiyati sevishganlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikdir. O'sha zamon odatiga ko'ra, dvoryan qizi Yuliyanning quyi tabaqa vakili Sen-Prega turmushga chiqishi qonunga xilof hisoblangan. Shu sababli Yuliya o'zining qalb javhariga zid ish tutib baxtli bo'la olmaydi. Uning bevaqt o'limi ichki azoblariga chek qo'yadi.

Russo romanda sevishganlarning tuyg'ularini ajoyib mahorat bilan hikoya qiladi. Shu bilan birga, roman tabaqaviy tengsizlikni,

dvoryan odatlari sarqitlarini, jamiyatning adolatsiz qurilganini ayovsiz tanqid qiladi.

Russo sezgini insonning mezoni deb qarab, inson shaxsini birinchi o`ringa qo`yadi. Uning ana shu sezgilari bilan buyuk ekanligini ko`rsatib beradi. Bu Russo qarashining chuqur demokratizmidan darak berar edi.

XVIII asr ma`rifatparvar gumanistlari kabi, Russo ham shaxsning tabiatan teng huquqliligini tan oladi. Shu bilan birga, sentimental Russo uchun erkin shaxs sezgisi, tabiatning o`z ovozi bo`lib, haqiqatning, ezgulikning va go`zallikning mujassam timsoli edi.

Roman qahramonlari Yuliya bilan Sen-Pre obrazlarini muallif psixologik jihatdan asoslashda katta mahorat ko`rsatdi.

Russo romanining qahramonlari tabiat bag`riga intiladilar. Adibning o`zi ham tabiatni sevar, uning go`zal manzarasidan bahra olar edi. Bu xususiyat peyzaj tasvirida o`z ifodasini topdi. Jan Jak Russoning pedagogik qarashlari «Emil yoki tarbiya to`g`risida» nomli asarida o`z aksini topdi. Pycco inson tug`ilishida har qanday illatlardan xoli bo`ladi, lekin undagi barcha yaramas odatlar tengsizlikka asoslangan jamiyatning ta`sirida yuzaga keladi, deb hisoblaydi. Faylasufning fikricha, pedagogning vazifasi insonning tabiiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo`lishi lozim.

Bola yoshligidan boshlab tabiat quchog`ida yashamog`i kerak. U har jihatdan tabiiy tarbiyalanishi, mehnatsevar bo`lib o`sishi lozim. Russoning qahramoni Emil shahardan tashqarida yashaydi, axloqini buzadigan kitoblardan yiroq bo`ladi. Unga faqat Daniel Defoning «Robinzon Kruzo» romanini o`qish tavsiya qilinadi. Chunki Robinzon kimsasiz orolda, tabiat bag`rida yashagan. Russo chinakam erkin odamni tarbiyalash tabiatning ishi deydi. Shuning uchun bolani haqiqiy tarbiyalaydigan kitob tabiatdir, deydi yozuvchi.

Russoning ajoyib asarlaridan biri «Iqror» 1770 yilda yozilgan. Bu asar «Yuliya yoki yangi Eloiza» romanidan farq qilib, o`z hayotini kengroq qamrab oladi. Unda xilma-xil obrazlar, xarakterlar orqali turli tabaqa vakillarining hayoti va urf-odatlari tasvirlanadi. Asar qahramoni ana shu keng ijtimoiy, tarixiy voqealar zahirida ko`rsatiladi. «Iqror» buyuk, oddiy odam faoliyatining chuqur realistik kechinmalarini ifodalab bergan. Asar keng hayot haqiqati, butun bir davrning urf-odati, oddiy insonning yashashi uchun olib borgan kurashi tarixini hikoya qiladi. «Iqror» tor biografik kitob

bo`lib qolmasdan, keng hujjatli, badiiy asar hamdir. Unda XVIII asr Shveysariya, Italiya va Frantsiya hayotining manzarasi chizib beriladi.

Jan Jak Russoning bu asarini N. G. Chernishevskiy, L. Tolstoylar yuqori baholadilar. Asarda ilgari surilgan g`oyaviy va badiiy printsiplar XIX asr adabiyotida yanada rivojlantrildi.

Russo ijodining ahamiyati o`z davri uchungina emas, keyingi davrlar uchun ham chuqur iz qoldirdi. U ozodlik, tenglik va birodarlikning tolmas kurashchisi edi. Buyuk ma`rifatparvar Russo ulkan jasorat, ajoyib ideallar uchun kurash olib bordi. Ijodi va faoliyatining ana shu tomonlari bilan Russo barcha erksevar, demokrat kishilarning xayrixohligiga sazovor bo`ldi.

NEMIS MA`RIFATCHILIK ADABIYOTI

XVIII asr nemis adabiyotining buyuk davri bo`lib qoldi. Germaniyadagi hamma buyuk zotlar: shoirlardan Gyote va Shiller, faylasuflardan Kant va Fixte... dunyoga keldilar.

Nemis adabiyoti va uning vakillari o`z asarlarida feodal tartiblarini, cherkov va diniy taassublikni keskin qoralab chiqdi. Bu davrdagi mashhur asarlarning har biri o`sha zamonlardagi butun nemis jamiyatiga qarshi qaratilgan, g`azab to`la asar edi. Gyote «Gyos fon Berlixingen» asarini yozdi... Shiller «Qaroqchilar» asarini yozdi.

Nemis ma`rifatchiligining ma`lum darajada cheklanganligi bilan birga, uning nemis xalqi oldidagi xizmatlarini ko`rmaslik noto`g`ri bo`lar edi. Nemis adabiyoti va madaniyati Lessing va Gotshed, Gellert va Vinkelman, Mendelson va Nikolay kabi shoir va yozuvchilarni, «Bo`ron va tazyiq» adabiy harakatining ajoyib pleyadasini, Gyote bilan Shillerni, nemis muzikasining o`lmas daholari Motsart bilan Betxovenni yetishtirdi.

«Bo`ron va tazyiq» adabiy harakati yosh shoirlarning isyonkorlik ruhida yozilgan asarlari natijasida yuzaga keldi. Bu harakatning nomi F. M. Klingerning «Bo`ron va tazyiq» (1776) nomli dramasi nomidan olindi. «Bo`ron va tazyiq» harakatining asoschisi I. G. Gerder edi. «Bo`ron va tazyiq» harakatining vakillari «shtyurmerlar»– «jo`shqin daholar» deb nom oldilar. Bu harakat vakillarining asarlari o`sha zamon Germaniyasida hukm surayotgan

hayotdan norozilik, amaldorlarning zulmiga qarshi g`azab va nafrat, nemis mehnatkashlari ahvoliga achinish hislariga to`la edi.

Gyote bilan Shillerning ilk ijodlari ana shu «Bo`ron va tazyiq» harakati bilan bog`langan (Gyotening «Gyos fon Berlixingen» dramasi, Shillerning «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat» nomli tragediyalari).

XVIII asr nemis ma`rifatchilik adabiyotiga printsiplari bahoni rus demokrati N. G. Chernishevskiy berdi. U bu adabiyotning nemis xalqiga, uning milliy birligiga, o`z kuchlariga ishonch, adolatga intilish kabi olijanob tushunchalarni singdirganini qayd qiladi. Shu bilan birga, N. G. Chernishevskiy nemis adabiyotining bunday ahamiyatga Lessing ijodi tufayli erishganligini ta`kidlaydi. Tanqidchining fikricha, Lessing nemis milliy adabiyotining haqiqiy asoschisi, «yangi nemis adabiyotining otasidir».

FRIDRIX SHILLER

(1759 – 1805)

Ijodining dastlabki yillarida «Bo`ron va tazyiq» adabiy harakatining eng so`l vakillaridan biri bo`lgan Fridrix Shiller ezilgan xalq ommasini, ayniqsa, uchinchi tabaqa vakillari manfaatlarini aks ettirdi.

Germaniyaning buyuk shoirlaridan biri sifatida Shiller jahon adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo`shdi. Uning lirik she`rlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug`orilgan. Yozuvchining yorqin, hayotbaxsh asarlari chinakam xalqchilligi, isyonkorligi va mustabid hokimiyat tuzumiga qarshi keskin noroziligi bilan umumxalq ideallarini ifodalab berdi. Shiller shiddatli va isyonkor «Qaroqchilar» (1781), «Fiesko fitnasi» (1783), «Makr va muhabbat» (1784), tarixiy mavzuda yotgan «Don Karlos» (1787), «Vallenshteyn» (1799) romantik tragediyalari «Mariya Styuart» (1800), «Orlean qizi» (1802) hamda «Vilgelm Tell» (1804) kabi shohona asarlarini yaratib, jahon dramaturgiyasi xazinasini boyitdi.

Fridrix Shiller 1759 yili Vyurtemberg gertsogligida harbiy vrach oilasida tug`ildi. U ofitserning o`g`li bo`lgani uchun Vyurtemberg gertsogi Karl Yevgeniy tashkil qilgan harbiy akademiyaga o`qishga kirdi. Bo`lajak shoir akademiya o`qib yurgan yillaridan boshlab nemis sharoitining qorong`i tomonlari bilan to`qnashgan edi. O`zini ma`rifatparvar olim deb ko`rsatishga

uringan Karl Yevgeniy haqiqatda zolim edi. U akademiyasida qattiqqo'llik siyosatini o'rnatgan, hammani, jumladan talabalarni ham tobelik, itoatgo'ylik ruhida tarbiyalashga harakat qilar edi. Karl Yevgeniy nemis adabiyotiga xusumat bilan qarar edi.

Shiller studentlik yillarida ingliz va fransuz ma'rifatparvarlari ijodini o'rgandi. Zamondoshlari «Bo`ron va tazyiq» adabiy harakatining vakillari asarlari bilan yaqindan tanishdi. Russo, Lessing va Shekspir kabi genial san'atkorlar dahosidan bahramand bo'ldi. Bularning barchasi Shillerda mavjud ijtimoiy tuzumga, uning adolatsizligiga, o'zboshimcha amaldorlariga qarshi g'azab va nafrat o'tini alangalatib yubordi. 22 yoshli Shiller «Qaroqchilar» tragediyasini yozib, o'sha zamon tartiblariga norozilik bildirdi.

Yosh dramaturgning birinchi asari «Qaroqchilar» tragediyasi Mangeym shahri teatrida sahnaga qo'yildi va favqulodda muvaffaqiyat qozondi. Asar tomoshasiga borgan Shillerni gertsog Karl Yevgeniy ikki hafta qamab qo'yadi. Gertsog o'ziga tobe kishining mustaqil ish qilishini istamas edi. Mamlakat xo'jayini bilan bo'lgan bu to'qnashuvdan so'ng Shiller Mangeym shahriga ketadi. Bu yerda uning «Fiesko fitnasi», «Makr va muhabbat» asarlari sahnaga qo'yiladi.

Shillerning darbadar kezishlari davom etadi. U Mangeymdan Leyptsigga, keyin Drezden shahriga kelib joylashadi. Shiller dunyoqarashida evolyutsiya yuz beradi, avvalgi isyonkorlik o'rnini tarbiyaviy-axloqiy va ma'rifiy qarashlar egallaydi.

1787 yili Shiller Veymarga kelib, Gyote bilan tanishadi. Gyote bilan hamkorlikda Veymar teatriga asarlar yozadi.

90-yillarda Shiller estetikaga oid asarlar yaratdi. «Fojiaviy san'at to'g'risida», «Kishini estetik jihatdan tarbiyalash to'g'risida xatlar» kabi nazariy asarlarida Kant falsafasining ta'siri sezilib turadi. Erkinlik va go'zallik tushunchalari orasida o'zaro munosabatlar masalasini hal qilar ekan, Shiller inson kamolotida estetik tarbiyaning, go'zallikning roliga muhim ahamiyat beradi. Adib tarix, qadimgi yunon san'ati bilan shug'ullanib, odamlarni go'zallik ideali bilan tarbiyalash mumkin, degan nazariy xulosaga keladi. U antik dunyo san'atida o'z ideallarini ko'radi. Shiller 46 yoshida, ayni ijodiy kuchga to'lgan bir pallada vafot etadi.

“Qaroqchilar” asari voqealari ikki yilcha vaqt ichida Germaniyada bo'lib o'tadi.

Graf Maksimilian fon Moorning ikki o`g`li bor. Kattasi Karl Moor Leyptsig shahrida o`qiydi. Kichik o`g`il Frans Moor shuhratparast, amalparast bo`lgani uchun otasining o`rnini egallash maqsadida qo`lidan kelgan barcha pastkashliklarni qiladi. Karl Moor tartibsiz hayot kechirgani tufayli qarzgа botib qolgan. Uning yordam so`rab yozgan xatlarini Frans qari otasiga soxtalashtirib, buzib o`qib beradi, akasiga tuhmat qiladi. Nihoyat, graf katta o`g`lidan yuz o`giradi. Ilojsiz qolgan Karl atrofiga o`ziga o`xshagan yoshlarni to`plab, qaroqchilar shaykasi tuzadi. Karl boshliq qaroqchilar butun mamlakat bo`ylab zolimlarga, amaldorlarga, ruhoniylarga dahshat soladi. Qaroqchilar kundan-kunga ko`payib, kuchayib boradi. Hukumat askarlari ham bularni yengolmaydi. Qari va xasta graf o`g`lining bu ishlaridan xabar topadi. Buning ustiga Frans saroydagi bir kishini pulga yollab, graf huzuriga kiritadi. Bu odam xasta otaga Karlning o`limi haqida uydirma xabar beradi. Otasining o`limini toqatsizlik bilan kutayotgan Frans uni tobutga solib ko`mishni buyuradi. O`zi graflik lavozimini egallab, saroyda adolatsizlik o`rnatadi. Begona kishi qiyofasida saroyga kelgan Karl otasining vafot etganini, sevgan qizi undan yuz o`g`irganini ko`radi. Tunda qaroqchilar Amaliyani tutib o`rmonga, Karl yoniga olib keladilar. Ammo Karl sevgani bilan birga bo`lishga haqqi yo`q. U o`z qo`li bilan Amaliyaga xanjar uradi. Qaroqchilarga qarab, o`zini hukumat qo`liga topshirmoqchi ekanini aytadi.

Shiller bir to`da qaroqchilar yordami bilan adolatsiz feodal tuzumini o`zgartirmoqchi bo`ldi. Shuning uchun uning qahramoni Karl Moor o`zining monologlaridan birida: «Menga, mening o`zimga o`xshash bir necha bahodirni bering, men Germaniyani shunday respublikaga aylantiramanki, uning oldida Rim ham, Sparta ham ayollar monastiri bo`lib qoladi», deydi. Bu xitoblar Karlning oddiy qaroqchi bo`lmay, jamiyatni o`zgartirishga bel bog`lagan isyonkor ekanligini ko`rsatadi. Ammo qaroqchilar o`z boshliqlarining bu olijanob intilishlarini, uning insonparvarlik niyatlarini to`g`ri tushunmaydilar. Ular hammani yosh bolalarni ham, ayollarni ham, kambag`allarni ham talaydilar. Endi Shiller ham, uning qahramoni Karl ham jamiyatni bu yo`l bilan o`zgartirib bo`lmasligiga ishon hosil qiladilar. Shuning uchun asar qahramoni kurashni to`xtatishga, qurolini tashlab hukumatga taslim bo`lishga majbur bo`ladi.

«Qaroqchilar» fojiasining bunday xotimasi sabablarini o`sha zamon nemis sharoitidan izlash kerak. Asarning dolzarb ruhi va

jozibadorligi undagi kurashchanlik, erksevarlik g'oyalarini ilgari surganligida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Olijanob Karl ezgu niyatlar bilan zulm dunyosiga qarshi kurash ochadi. U o'z vatani Germaniya erkin, ozod respublika bo'lishini orzu qiladi.

Frans Moor Karl kurash boshlagan eski jamiyatning jirkanch vakilidir. Uning maqsadi Karl singari diyonatli, imoni basalommat kishilarga qarshi kurashish, zulm o'rnatishdan iborat. Otasining o'limiga ham, Karl bilan Amaliyaning fojiasiga ham Frans sababchi.

Tragediya qahramonining fojiasi u yashagan zamonaning fojiaiviyligida. Uning davri uni tushunmadi, shu sababli u o'zini odil sud qo'lga topshirdi.

Asarning ijtimoiy ahamiyati uning murosali xotimasi bilan chegaralanib qolmaydi. Karlning isyondan voz kechishi Germaniyadagi antifeodal harakatning zaifligida edi. Lekin asar boshdan-oyoq adolatsiz jamiyatga qarshi kurash ruhi bilan sug'orilgandir. Zotan, uning buyuk ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ham ana shunda.

Shillerning bu asarida tasvirlangan voqea - makr nemis real sharoitidan olingan, unda hukm surayotgan axloqiy pastkashlik, gertsog saroyining dabdabasi va buzuqligi ko'rsatilgan. Shiller yozgan «Makr va muhabbat» asarining eng asosiy fazilati shundaki, bu asar siyosiy birinchi nemis dramasidir.

Asarning siyosiyliigi shu qadar bo'rttirib ko'rsatilganki, natijada konflikt chinakam hayotiy bo'lib chiqqan. Fojia bir-biriga murosasiz bo'lgan ikki qarama-qarshi lager vakillarining to'qnashuvini ko'rsatadi. Bir zamonda viloyatning gertsogi, chegaralanmagan o'zboshimcha hokim. Prezident Valter uning nomidan davlat ishlarini boshqaradi. U amalparast, laganbardor saroy xodimining tipik namoyandasi. Uning sekretari Vurm o'taketgan qabih. Gertsog saroyida buzuqlik bilan nom chiqargan yengiltak ayol Milford xonim, qo'rqqoq gofmarshal fon Kalb makr, hiyla-nayrang bozorini qizdiradilar. Bu kishilar Shiller o'z ko'zi bilan ko'rgan, kuzatgan gertsog Karl Yevgeniy boshliq saroy atrofidagi tartiblarining barcha illatlarini o'zlarida aks ettiradilar. Ikkinchi tomonda ezilgan, huquqlari oyoq osti qilingan quyi tabaqa vakillari-oddiy mehnat kishilari-muzikachi Miller, uning beozor xotini, muzikachining go'zal qizi Luiza turadilar. Prezidentning o'g'li, o'zining hayotiy qarashlari bilan ikkinchi lager vakillariga yaqin turadigan mayor Ferdinand, garchi yuqori tabaqaga mansub bo'lsa-da, u yerdan o'ziga

maslakdosh, do'st, chinakam sevgini topolmaydi. Mayor kambag'al muzikachilar oilasida haqiqiy insoniy fazilatli kishilarni uchratadi. Millerdan muzika darsi olayotgan Ferdinand bilan Luiza bir-birlarini qattiq sevadilar. Ferdinand bilan Luizaning muhabbati fitnachilarning makr-hiylasiga duch keladi. Prezident boshliq saroy amaldorlari Luiza bilan Ferdinand orasidagi sevgini bo'g'ishga urinadilar. Prezident Gertsog saroyida buzuvchilik bilan nom chiqargan Milford xonimni o'z o'g'liga olib bermoqchi. Agar u shunday qilsa, viloyat xo'jayini gertsog uni o'z amalida qoldirishi mumkin. U ana shu amal deb qotillik qilgan. Endi bo'lsa or-nomusini bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, o'ziga buzuvch ayolni kelin qilib olmoqchi. Ferdinand bunga qarshi keskin norozilik bildiradi. U otasiga baxt to'g'risidagi tushunchalarimiz har xil, deb xitob qiladi. Luiza bilan Ferdinandning sevgisiga Milford xonim ham, sekretar Vurm ham zo'r berib to'sqinlik qiladilar. Prezident muzikachilar oilasini qamoqqa tashlaydi. Uning sekretari Luizaga nisbatan turli hiylanayrang, makrni ishga soladi. Nihoyat, Ferdinand Luizani boshqa odamni sevadi, deb gumon qilib, qizni ham, o'zini ham halok qiladi. O'limi oldidan Ferdinandning otasiga aytgan gaplari hukmron vakillar nomiga keskin aybnoma bo'lib jaranglaydi.

Prezident bilan sekretar Vurm tuzgan makrli, qabih reja ikki ajoyib sevishganlarning yostig'ini quritadi. Garchi asosiy qahramonlar halok bo'lsalar-da, ular axloqan o'z dushmanlari ustidan g'alaba qiladilar. Chunki o'zlaridagi poklik, halollik, hayotga yangicha qarashlari bilan yuqori tabaqa vakillaridan ustun turadilar. Ferdinand bilan Luiza obrazlari insonning tabiiy, erkin intilishlarini ifoda qiladi. Bu obrazlar talqinida Shillerning fransuz ma'rifatparvarlariga, Russoga yaqin turishi ko'zga tashlanadi.

Dramaturg realizmining qudratli kuchi shundaki, asar qahramonlarining fojiasi konkret ijtimoiy hayot sharoitlarining natijasi sifatida vujudga keladi. Ferdinand bilan Luizaning halokatiga adolatsiz ijtimoiy-siyosiy tuzum aybdor. Shiller o'z tragediyasining umumiy mazmuni bilan bu tuzumning oddiy kishilarga yot ekanligini ochib berdi. Shillerning isyonkorlik ruhidagi «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat» tragediyalari Frantsiyada keng omma o'rtasida shuhrat qozondi, ingliz, rus va boshqa tillarga tarjima qilinib, umumYevropa miqyosida tarqaldi.

Shiller hech qachon ozodlik g'oyalarini ilgari surishdan to'xtamadi. Ammo avvalgi asarlaridan farqli o'laroq, «Don

Karlos»da bu ozodlikni ma'rifatparvar mustabid orqali amalga oshirmoqchi bo'ladi. Asar voqealari XVI asr Ispaniya tarixidan olingan.

Asar syujetiga Don Karlosning go'yo o'gay onasi Yelizavetaga bo'lgan sevgisi ham kiritilgan. Lekin Don Karlos ham, qirolicha Yelizaveta ham o'z sevgilarini yengib, faoliyatlarini xalq ozodligi ishiga bag'ishlaydilar.

Ma'rifatparvar Poza Filipp II yoniga kirib, zolimni insofga, adolatga chaqiradi. Chunki u shogirdi Don Karlosni ana shunday erksevarlik ruhida tarbiyalamoqda. Kelgusida Don Karlosning adolatli, ma'rifatli hukmron bo'lishini istaydi. Ammo markiz Poza bilan Don Karlosning ozodlik haqidagi bu g'oyalari gertsog Alba bilan monax Domingoning qattiq qarshiligiga duch keladi. Ular avval markiz Pozani o'ldiradilar. Don Karlosning esa o'gay onasi bilan aloqasi bor, deb qirolni ishontiradilar. Filipp II Don Karlosni o'z qo'li bilan inkvizitsiya jallodlari qo'lga topshiradi. Shunday qilib, markiz Poza, Don Karlos halok bo'ladilar. Ularning halokati bilan birga xalqni ozodlikka chaqirish to'g'risidagi g'oyalar ham barbod bo'ladi. Hurriyat ideallarini amalga oshirish ro'yobga chiqmaydi.

Dramaturgning ideali ma'rifatli mustabid bilan xalq ozodligini uyg'unlashtirishdan iborat edi. Bu asarda «Bo`ron va tazyiq» davri asarlaridagi isyonkorlik o`rnini tenglik, ozodlik haqidagi va`zxonlik egallaydi. Shuning uchun ham Shillerning «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat» fojialari demokratlarning ijobiy bahosiga sazovor bo`lsa, «Don Karlos» tragediyasini ular «shillerchilik» deb ta`riflab, individlar o`z davrlari ruhining oddiy jarchisi bo`lib qolganini ko`rsatadilar.

90-yillarga kelib, Shiller tarixiy mavzuga murojaat qildi. O'ttiz yillik urush davrini hikoya qilgan «Vallepshteyn» trilogiyasini yozdi. «Mariya Styuart» nomli fojiasida Angliya tarixidan foydalanib, realistik asar yaratdi.

Shiller bu tragediya syujetini Angliya bilan Frantsiya o`rtasidagi yuz yillik urush tarixidan olgan. Asar qahramoni Janna d'Ark fransuz halqining vatanparvar qahramoni. U o`z yurtiga bostirib kelgan ingliz qo`shinlariga qarshi qahramonlarcha jang qilib, vatandoshlarining hurmatiga sazovor bo`lgan. Ammo fransuz ruhoniylari ayol kishidagi bu jasoratga diniy tus berib, qizni inglizlar

qo`liga topshiradi. Janna d'Arkni ingliz ruhoniylari o`tda kuydirib o`ldiradilar.

Shiller Janna d'Ark haqida asar yozar ekan, tarixiy haqiqatdan bir oz chekinadi. U qizni romantik sevgi egasi qilib ko`rsatadi. Dushman yigitni sevib qolgan qiz birmuncha vaqt jang qilish uchun o`zida kuch topa olmaydi. Bu holni atrofdagilar buzib talqin qiladilar va qizni oralaridan haydab yuboradilar. Nihoyat, Janna d'Ark o`z irodasini qo`lga olib, dushman yigitga bo`lgan yuragidagi sevgi o`tini o`chirib, yana jang maydoniga keladi. Mardlik ko`rsatib, jangda qahramonlarcha halok bo`ladi. Qiz o`limi oldidan, o`z vataniga, o`z xalqiga xizmat qilib, vatanparvar sifatida halok bo`layotganini biladi.

Nemis taraqqiyparvar yozuvchilari Gyote, Geynelar Shiller ijodidagi ijobiy tomonlarni, erksevarlik motivlarini ulug`ladilar.

Shiller ijodi bilan rus kitobxonlarini dastavval V. A. Jukovskiy tanishtirgan edi. Nemis dramaturgi ijodiga Rossiyada A. S. Pushkin, V. G. Belinskiy, N. G. Chernishevskiy, A. I. Gertsenlar katta qiziqish bilan qaraganlar. Shiller asarlari butun dunyo teatrlari sahnasidan mustahkam o`rin egalladi.

O`zbek Milliy drama teatrida ham Shillerning «Qaroqchilar», «Makr va muhabbat» asarlari sahnalashtirilib, zo`r muvaffaqiyat bilan namoyish qilindi.

Bizning kunlarimizda Shiller yaratgan boy adabiy meros nemis xalqining tinchlik, ozodlik uchun olib borayotgan kurashiga yordam bermoqda. 1955 yili Shiller vafotining bir yuz ellik yilligi munosabati bilan Germaniyada dramaturg xotirasi haftaligi o`tkazildi. Uning asarlari turli tillarda jaranglab, tinchlik ishiga xizmat qilmoqda.

IOGANN VOLFGANG GYOTE (1749–1832)

Iogann Volfgang Gyote Germaniyaning Frankfurt Mayn shahrida boy xonadonda tug`ildi. Uning otasi huquqshunoslik doktori, imperator amaldorlaridan biri edi. U kishi o`g`lining mustaqil bilim olishi uchun barcha choralarni ko`rdi. Gyote o`z uyida bir necha tillar, matematika, tarix, geografiya hamda muzika va rassomlikdan saboq oldi. Yosh Gyotedagi iste`dod, tinmay o`qish kelgusida uning buyuk mutafakkir (entsiklopedist) olim, shoir,

yoʻzuvchi hamda jamoat arbobi boʻlib yetishuviga imkon yaratdi. 1765 yilda Gyote otasining istagi bilan Leyptsig universitetiga kirib, huquqshunoslikni oʻrgana boshlaydi. 1768 yilda kasallanib, uyiga qaytib keladi. 1770 yili sogʻaygandan keyin Strasburg shahriga kelib oʻqishni tugallaydi va 1771 yili advokatlik diplomini oldi.

Boʻljak sanʼatkor yoshligidan har tomonlama bilim olishga intilgan. U Spinoza falsafasini, antik dunyo shoirlarining asarlarini qunt bilan oʻrgandi. Gomer va Vergiliy, Shekspir va Kornel, Molyer va Lessing, Gerder va Shillerlar ijodi Gyote dunyoqarashining qaror topishida muhim omillardan boʻlgan. Keyinchalik Gyote Pushkin, Bayron, Beranje hamda Stendal ijodiga hurmat bilan qaradi. Birinchi bor Shekspir ijodi bilan tanishgan Gyote uning realistik qudratidan sehlranib qoladi. Molyer asarlariga bir umr katta hurmat bilan yondoshadi.

Strasburg shahrida oʻqishni tugatib ona yurtiga qaytgan Gyote «Boʻron va tazyiq» adabiy harakatining aʼzolari Klinger, Lents, Vagner va boshqalar bilan yaqinlashadi. Bu harakatning koʻzga koʻringan vakili sifatida Gyote oʻzining isyonkor ruhdagi asarlari «Gyos fon Berlixingen» dramasini, «YOSH Verterning iztiroblari» romanini hamda shohona asari boʻlmish «Faust» tragediyasining birinchi qismini yozadi.

Gyotening tugallanmagan «Prometey» nomli falsafiy dramasi «Boʻron va tazyiq» harakati davrining mahsuli boʻlgani uchun shoirning qahramoni magʻrur va murosasiz. Prometey isyoni yosh shyturmerlarning Gyote boshliq mavjud ijtimoiy tuzumga noroziligi ifodasi sifatida jaranglaydi.

Gyote bu asarida oʻz vatani tarixiga murojaat qiladi. Drama Germaniyadagi dehqonlar urushiga bagʻishlangan. Asar qahramoni ritsar Gyos fon Berlixingen zolim knyazlar zulmiga qarshi qoʻzgʻolonning rahbari. Kitobxon koʻzi oldidan saroy amaldorlari, yepiskoplar, soldatlar, savdogarlar, loʻlilar, shaharliklar, gʻalayon koʻtargan dehqonlar birin-ketin oʻtib turadi. Imperator Maksimilian, adolatli Gyos va uning sodiq doʻstlari Frans fon Zikingen, Georg Gyotsning yoshlikdagi doʻsti Veyslingen, Gyos va qoʻzgʻolonchilarning ashaddiy dushmani yepiskop knyaz Bambergskiy, saroydagi suyuqoyoq ayol Adelgeyda, Gyotsning singlisi Mariya— bular dramaning fabulasini tashkil qiluvchi personajlar galereyasidir.

Asar voqealari dam knyazlar saroyida, goh Gyos qarorgohida, goh dehqonlar yig'ilgan keng dalada, goh qamoqxonada yuz beradi. Asar qahramoni Gyos fon Berlixingen vatani Germaniyaning birligini, xalqning farovonligini o'ylaydi.

Drama o'zining zulmga qarshi isyonkorlik ruhi bilan diqqatga sazovor. Gyotening asari keng dehqonlar harakatini ko'rsatishi, ommaviy sahnalari bilan chinakam xalqchil pesa bo'lib maydonga keldi.

«Gyos fon Berlixingen» dramasi Gyotening XVIII asr nemis hayotining diqqinafas sharoitiga qarshi ozodlik uchun intilishini ifodalar edi. Yosh Gyote romanda o'z davri uchun xarakterli bo'lib turgan hayotiy muammolarni ko'tarib chiqdi. Reaksiya hukm surgan nemis muhitida ilg'or yoshlar o'z qobiliyati va talantini sarf qilish imkonidan mahrum. Ularning olijanob intilishlari bo'g'ib tashlangan. Asar qahramoni Verter byurger oilasidan chiqqan iste'dodli yosh yigit. U zamonasiga ko'ra juda yaxshi ma'lumot olgan, klassik adabiyotni, ayniqsa Gomer asarlarini sevib o'qiydi. Qalbi olijanob his-tuyg'ularga boy. Verter tabiatning erkin farzandi. U Russo ta'limotining ixlosmandi. Nozik qalb egasi. Hammaga, ayniqsa, oddiy kishilarga behad hurmat bilan qaraydi. Verter Sharlotta ismli qizni sevib qolgan. Ammo Sharlotta boshqa yigit– Albertga unashtirilgan edi. Shu sababli Verter qizni unutish maqsadida shaharga borib, diplomatiya idorasiga ishga kiradi. Ammo bu yerda uning ishi yurishmaydi. O'z xo'jayini graf saroyidagi ziyofatda hozir bo'lgan Verter yuqori tabaqa vakillariga yoqmaydi. Kiborlar o'z oralarida plebey kishining bo'lishini istamaydilar. Verterning xo'jayini mehmonlarning bu xohishini unga aytgach, yigit bu uydan chiqib ketadi. Ertasiga butun shaharda, go'yo Verter mehmondorchilikdan haydab yuborilgani haqida bema'ni tuhmat gaplar tarqaladi. Haqoratlangan Verter ariza berib, ishdan bo'shaydi. Yana o'z sevgilisi yoniga qaytib boradi. Endi Sharlotta turmushga chiqqan, Verterning Sharlottalarnikiga kelishi bu oilani obro'sizlantirgan bo'lar edi. Chorasiz qolgan Verter o'zini o'zi o'ldiradi.

«Yosh Verterning iztiroblari» bosilib chiqqach, keng shuhrat qozondi. Asar ko'p sonli nemis yoshlarining dilidagi fikrlarni izhor qilardi. Uning keng ommalashib ketishi sababi ham shunda. «YOSH Verterning iztiroblari» XVIII asr nemis adabiyotining mashhur asari bo'lib qoldi va bu roman uning dong'ini butun dunyoga yoydi. Gyote

romani Yevropaning barcha tillariga tarjima qilindi. Muallif o`z asari haqida dunyoning turli burchaklaridan xushxabarlar oldi. Fransuz inqilobiy hukumati Gyotega fransuz respublikasining faxrli grajdani, «insoniyat va jamiyatning do`sti» degan unvon berdi. Asardagi fojiali yechim o`sha zamon nemis muhitiga qarshi keskin norozilik belgisi bo`lib jarangladi. Roman epistolyar janrda yozilgan. Avtor o`z qahramonining ichki kechinmalarini, sevgi iztiroblarini izhor qilib berish uchun juda qulay yo`l tanlagan edi. Asarning xat janrida yozilishi qahramon ichki tug`yonlarini realistik tarzda ifodalab berardi. Verterning o`y-fikrlari, Gomer asarlarini sevib o`qishi mavjud tuzum bilan qahramon qarashlari orasidagi konfliktni kuchaytiradi.

Asarning butun yo`nalishidan zulmga, adolatsizlikka, oddiy inson huquqlarining poymol qilinishiga qarshi isyonkorlik ruhi sezilib turadi. Ammo Verterning isyoni chegaralangan, tor, yolg`iz kishining his-tuyg`ulari ichida o`ralashib qolgan. Uning o`limi esa sust norozilikni bildirib, kurashdan voz kechishni ko`rsatar edi. Shu sababdan Lessing «Yosh Verterning iztiroblari» romanining yakuni bilan kelishmadi. U asarning bu xildagi yechimi o`sha zamon yoshlari uchun zararli ta`sir ko`rsatadi, deb hisobladi.

Gyote qahramoni ichki dunyosi boy sentimental obrazdir. XVIII asr yozuvchilari uchun, jumladan Gyote uchun ham, inson sezgilarining ifodasi o`sha zamon feodal tuzumida hukm surayotgan shafqatsizlik, toshbag`irlikka qarshi kurash ifodasini anglatar edi. Bu hol inson uchun, uning har tomonlama kamoloti yo`lidagi kurashni bildiradi. XVIII asr gumanistlari insonning barcha qobiliyatlari, qalbining boy his-tuyg`ulari to`la namoyon qilinishini istar edilar. Ular insonga, uning olijanob his-tuyg`ulariga qattiq ishonardilar. Insonni tabiat bekamu ko`st yaratadi, ammo adolatsiz jamiyat sharoiti undagi barcha illat va qusurlarni keltirib chiqaradi, deb hisoblaganlar.

Gyote Verter tarixini shunchaki bayon qilib qo`ymaydi. U qahramonning ruhiy dunyosini ochdi. His-tuyg`ularining boyligini ko`rsatdi. Yosh yigit nazari bilan XVIII asr Germaniyasi hayotining nobopligini isbotladi. Verter tarixini hikoya qiluvchi bu roman psixologik va ijtimoiy mazmunga ega. Qahramon taqdiri tasodifiy yoki individual hodisa emas, aksincha, ijtimoiy sharoitlar tufayli sodir bo`lgan fojiaadir. Prometey, Gyos kabi isyonkor obrazlar Gyote yashab turgan XVIII asr nemis sharoitida mavjud emas edi. Shuning

uchun «YOSH Verterning iztiroblari» romanining yakuni va jafokash Verter qismati achchiq haqiqat edi. Gyote yoshligidan boshlab xalq og`zaki ijodiga, antik dunyo mifologiyasiga qiziqib qaradi. Nemis xalq qo`shiqlari bo`ljak shoirni milliy g`urur, haqiqat uchun kurashga da`vat etdi. U xalq madaniyatiga suyangani uchun ham buyuk milliy shoir bo`lib yetishdi. Gyote lirikasi o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning poeziyasi badiiy yetuk, serma`no va hayotidir. Shoir o`z lirikasida xalq hayotiga, uning og`zaki ijodiga murojaat qilib, yana ana shu xalq folklori xazinasini ajoyib durdonalar bilan boyitadi. Gyote she`riyati kishining murakkab ichki dunyosini ochib beradi. Xalq tili, uning ohanrabo musiqiyligi, quvnoq lapar ohanglari kitobxon qalbini junbushga keltirib, lirikaning sirli sehriga maftun qilib qo`yadi. Lirikasining asosiy mavzui inson, uning sevgisi, uning tabiat bilan uyg`unlashib ketgan hayotiy, falsafiy go`zallik va ozodlik haqidagi olijanob orzularini tarannum qiladi. Gyote lirikasi insonni o`rab turgan muhitni gumanistik ravishda mushohada qiladi. Tabiatning turli fasllari, peyzaji, serhosil dalalar manzarasi, mehnatkash inson faoliyatining xilma-xil ko`rinishlari ajoyib milliy kolorit bilan chizib beriladi. Shoir vatanining qiyofasi– tog`lar, yashil daryolar, xushmanzara qirg`oqlar, atrofni ko`m-ko`k libosga burkagan daraxtzor va mevazorlar hammasi ona yerning ko`rkini tashkil qiladi. Uning M. Yu. Lermontov tarjima qilgan «Tog` cho`qqilari», V. A. Jukovskiy tarjima qilgan «O`rmon podshohi», Aleksey Tolstoy tarjimasiga mansub «Korinf kelinchagi» kabi shohona asarlari shular jumlasidandir. «Umid» she`ri ham Gyote lirikasining nodir namunasi.

*Yolboraman umid parisi,
Ish chog`lari menga bo`lgin yor!
Tugatmasdan ishning barisin
Toliqishga erk berma zinhor!
Ishonaman! Ro`yobga chiqar
Taskinlaring ketmay behuda:
Umid bilan ekilgan tayoq
Mehnat, chidam natijasida
Bir kun berar meva va yaproq,
Shukrullo tarjimasi.*

1775 yili 26 yoshli Gyote gertsog Karl Avgustning taklifiga binoan Veymar shahriga keldi. U gertsog saroyidagi mavqeidan foydalanib, ijobiy tadbirlar o'tkazish niyatida edi. Gyote bir necha vazifalarni boshqara boshladi. Unga har xil lavozimlar, jumladan dvoryanlik unvoni berildi. Veymar gertsogidan keyin ikkinchi shaxs sifatida davlat ishlarini boshqarishda qatnashdi. Bu ma'muriy vazifalar uning asosiy ishi – badiiy ijodiga xalaqit berar edi. Lekin Veymar ministri Gyote bir qancha progressiv tadbirlarni amalga oshirdi. Bular moliya ishlarini tartibga solish, xarajatlarni qisqartirish, armiya sonini kamaytirish, yo'l qurilishi hamda konlarni tiklash kabi choralar edi.

Gyote madaniyat va san'at ishlariga ham katta ahamiyat berdi. Ien universiteti, Veymar teatri qurilishiga ko'maklashdi. Ammo yillar o'tgan sari Gyote o'z faoliyatidan qanoatlanmay qoldi. 1786 yili shoir Italiyaga borib, 1788 yilgacha u yerda yashadi, Italiya safari Gyote ijodiga ilhom berdi. Uning faoliyati gurkirab, allaqancha asarlar yaratdi. Italiyadaligida Gyote antik dunyoga murojaat qildi, ya'ni uning klassitsizmi qaror topdi. Gyotening ijtimoiy va adabiy qarashlarida o'zgarish yuz berdi. U avvalgi isyonkorlik ruhidan qaytdi. Endi uning asarlarida jamiyatga qarshi isyon ko'tarib chiqadigan shaxslar yaratilmadi. Shoir Germaniyadagi ahvol evolyutsion yo'l bilan o'zgarishi mumkin, deb hisoblaydi. Shiller kabi, Gyote ham kishilarni san'at yordamida axloqiy va estetik jihatdan qayta tarbiyalash yo'liga o'tdi. U ideal san'at namunasi deb antik dunyoni tanladi.

1787 yili Gyote «Egmont», «Ifigeniya Tavridada», 1789 yili «Torkvato Tasso» fojialarini yaratdi. Shoirning bu davrda yozgan asarlari orasida «Egmont» tragediyasi isyonkorlik ruhi bilan ajralib turadi. Asar voqealari XVI asrdagi Niderlandiya xalqining Ispaniya zulmiga qarshi kurashiga bag'ishlangan.

«Mag'ribu mashriq devoni» Gyote poetik ijodining cho'qqilaridan hisoblangan. «Devon» 1814–1819 yillar mobaynida yaratildi. Bunda shoir XIV asr fors shoiri Xofiz Sheroziy ijodiga ergashadi. Shoirning sharq mavzuiga bo'lgan qiziqishi yangi hodisa emas edi. Bir qancha g'arb san'atkorlari o'z ijodlarida sharqqa murojaat qilganlar. Jumladan, Shekspir («Otello»), Rasin («Boyazit»), Monteske («Fors maktublari»), Volter («Muhammad», «Zaira»), Gyote («Muhammad»), Bayron («Sharq dostonlari»),

Viktor Gyugo («Sharq motivlari») kabi misollarni aytib o'tish kifoya.

Gyote g'arb va sharq adabiyotlarining boyib, rivojlanishini bir-biri bilan yaqinlashuvida deb biladi. U sharq bilan g'arb, o'tmish bilan hozirgi zamon, ularning urf-odatlarini, muloqot va mushohadalarini, biri orqali ikkinchisini tushunishni maqsad qilib qo'yadi.

«Mag'ribu mashriq devoni»da Gyote sharqning buyuk shoirlari Hofiz, Nizomiy, Firdavsiy hamda Sa'diy ijodini nozik talqin qilib, original falsafiy lirika javharlarini yaratadi. Shoirning «Devoni» sharq va g'arb poeziyasi bir-biriga yaqin, umumbashariy adabiyot ekanligini isbotlaydi.

«Mag'ribu mashriq devoni» o'n ikki kitobga bo'linadi. Bular: «Qo'shiqchi kitobi», «Hofiz kitobi», «Sevgi kitobi», «Mushohada kitobi», «Qobus kitobi», «Soqi kitobi», «Norozilik kitobi», «Hikmat kitobi», «Zulayho kitobi», «Temur kitobi», «Masal kitobi» hamda «Jannat kitobi»dan iborat. Bu she'riy to'plamda shoirning hayot, insonlarning taqdiri, tinchlik haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi.

«Devon»da shoir timsollar, majozlar, qochirimlar yo'li bilan she'riyat, ijodiyot, sharq madaniyatining xususiyatlari haqida fikr yuritadi. «Devon»ning «Hijrat» deb ataluvchi she'ri to'plamning muqaddimasi hisoblanadi. «Hijrat»– qochish demakdir. «Devon»ning tarixiy mazmuni shuki, unda 622 yilda Muhammad payg'ambarning Makkadan Madinaga qochib ketish voqeasi ko'zda tutiladi. Ayni vaqtda «Hijrat» shoir Gyotening ham sharqqa «qochishini», sharqqa yuz o'girishini bildiradi. U g'arbning (Veymarning) bo'g'i, diqqinafas muhitidan qochib, sharqning keng va sof havosidan to'yib-to'yib nafas olishga oshiqadi.

Quyida «Mag'ribu mashriq devoni»dan shoir Maqsud Shayxzoda tarjimasida «Hijrat» she'rini keltiramiz:

*Buzildi g'arb, janub va shimol,
Taxtu tojlar bo'ldi poymol!
Sen yiroqqa, kun chiqarga bor!
Unda qo'shiq, sevgi bor, may bor.
U tabarruk havoni shimir,
Va boshlagin yangidan umr!
Payg'ambarning duosi ila,
Qayt aslingga, ruhingni siyla!*

Gyote ijodining yirik mahsuli– «Faust» fojiasidir. Asar XVIII asrning oxirgi va XIX asrning birinchi choragida yozilgani (1773–1831) uchun ana shu xilma-xil voqealarga boy boʻlgan Yevropa hayotini aks ettiradi. Asarda inson hayotiga, uning jamiyatda tutgan oʻrniga diqqat qaratilgan. Bu fojia yozilayotgan davr buyuk oʻzgarishlar davri edi. Zamonasining ilgʻor kishilari, jumladan Gyote ham, inson hayotining maʼnosi, umrning vazifasi nimadan iborat boʻlishi kerak, degan muammo ustida bosh qotirmoqda edilar.

Tabiatning, koinotning qudratli kuchlarini inson irodasiga boʻysundirish, uning qonunlarini oʻrganish va bu sirlarni odamzod foydasiga xizmat qildirish ulugʻ mutafakkir olim Gyotening doimiy orzusi boʻlib keldi. Uning buyuk qahramoni Faust ana shu orzuni amalga oshirishdek olijanob ishga bel bogʻlaydi. Faust nemis xalqi orasida keng tarqalgan afsonaning qahramoni. Mazkur afsona Germaniyada XVI asrda paydo boʻlgan. Gyote qoʻliga qalam olgan kundan boshlab bu haqda asar yozishni orzu qilar edi. Ana shu afsonalarda Faust olim, sehrgar, shaytonlar bilan munosabatda boʻlgan kishi sifatida talqin qilinadi. Asar koinotning, tabiatning goʻzalligini, buyukligini, uning toʻxtovsiz harakatda ekanligini madh qilish bilan boshlanadi.

*Musiqiy samovot qabatlarida Azaliy yoʻlida yelarkan shitob –
Gulduros taratib falak qaʼrida Ovoz bermoqdadir jahonga oftob.*

*Aql bovar etmas surʼat-la zamin Mahvar davrasida charx
urayotir,*

*Qoya, dengizlarni yelkaga ortib, yelib bormoqdadir kurrai
olam.*

*Yoʻlida na koʻrsa otib serzarda, Junun tugʻyonida koʻtarib
suron,*

*Gohi ummonlarda, goh sahrolarda Hukm surmoqdadir
dahshatli boʻron.*

Erkin Vohidov tarjimai.

Arshi aʼloda shayton Mefistofel xudo bilan Faust toʻgʻrisida munozara qiladi. Shaytonning fikricha, koinoti azimda inson ojiz bir narsa. U baxtsiz, abadul-abad azob-uqubatda yashaydi. Agar xudo unga aql ato qilmasa, inson yomon yashamagan boʻlur edi. Buning ustiga Faust butun koinot va tabiat sirlarini ilmu fan kuchi bilan bilib olmoqchi. Mefistofel Faustning bu intilishlariga ishonmaydi, unga shubha bilan qaraydi. Xudo esa, inson adashib boʻlsa ham, izlash,

qidirish natijasida kamolot cho`qqisi tomon boradi, deb unga umid bildiradi.

Bu umid Gyotening insonparvarlik qarashlarining natijasidir. Shayton, men albatta Faustning nafsini qo`zg`ab, yomon yo`llarga olib boraman, uning intilishlarini, orzularini puchga chiqaraman, deydi. Asarning asosiy konflikti va tuguni shu yerdan boshlanadi.

Faust kabinetiga kirgan shayton Mefistofel olimning umidsizlik kayfiyatidan foydalanib, u bilan garov o`ynaydi. Faust o`z ishidan mamnun emas, ko`ngli to`lmayapti. Shayton esa uni o`z hayotidan, qilayotgan ishlaridan mamnun qilishga va`da beradi. Agar shunday bo`lsa, Faust unga o`z yuragini (jonini) berishga rozi bo`ladi. Shartga ko`ra, Faust dunyodagi nafsoniy lazatlardan qanoatlansa va «ana shu dam chiroyli, bu dam o`tib ketmasin», deb o`z xursandchiligidan tamomila qanoatlanganini bildirsa, shayton yutgan hisoblanadi. Lekin Faust shu narsaga aminki, inson orzularining cheki yo`q, shayton esa, uni ko`ngli to`ldirilsa, boshqa narsa istamay, shu bilan ovora bo`lib qoladi, deb o`ylaydi.

Iblis Mefistofel Faustning pinjiga kirib, uni har xil yo`llarga boshlab yuradi. Auerbaxning yerto`lasi, keng dalada bahor bayramini qutlayotgan xaloyiq, jodugar kampirning oshxonasi kitobxon ko`zi o`ngidan o`tadi. Shayton Faustning ko`nglini sevgi yo`li bilan to`ldirmoqchi. Keksa Faust uning sehri bilan yosharib, navqiron yigitga aylanadi. Margarita (Gretxen) nomli qizni sevib qoladi. Ular o`rtasida farzand tug`iladi. Ammo ruhoniylar jazosidan qo`rqqan Margarita farzandini suvga cho`ktirib o`ldiradi. Cherkov xodimlari bu sirdan xabardor bo`ladilar, ular Margaritani tutib zindonga tashlaydilar. Qizni qutqarish uchun kelgan Faustni Margarita tanimaydi, uni jallod deb o`ylab, o`z yonidan haydaydi – qiz aqldan ozib qolgan edi. Shu tariqa Margarita fojiali halok bo`ladi. Faust, o`zini bu ishda aybdor hisoblaydi. Faust Margaritaning fojiasidan ruhan iztirob chekadi. Faust bilan Mefistofel o`rtasidagi bahs-munozara davom etadi. Ular imperatorning saroyida bo`ladilar. Ajoyib koshonalarda, bazmu ziyofatlarda qatnashadilar. Ammo Faust bu lazatlardan qanoatlanmaydi, ko`ngli taskin topmaydi. Uning ruhi faoliyat va ijodga moyil. Boshi qotib qolgan shayton o`ylab-o`ylab Faustning ko`nglini go`zallik bilan maftun qilmoqchi bo`ladi. U Faustni qadimgi Yunonistonga olib boradi. Ko`z o`ngimizda Sparta malikasi, shoh Menelayning go`zal xotini Yelena gavdalanadi. Faust bilan Yelenadan tug`ilgan farzand Evforion (Bayron) juda erta halok

bo`ladi. Afsonaviy Yelena ham g`oyib bo`ladi. Shunday qilib, go`zallik ham, husn ham Faustni qanoatlantirmaydi. Sevgi ham, go`zallik ham Faust nazarida o`tkinchi narsa. Lekin bu ikki narsa Faust ma`naviy olamining qaror topishida muhim rol o`ynaydi. Endi alloma juda katta hayotiy tajriba to`playdi. Izlanish, fikrlash, kurash, adashishlar uning aqliy kamolotiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. U inson hayotining ma`nosi kayf-safo, o`yin-kulgi, hoyu-havas emas, sevgi va go`zallik ham emas, degan xulosaga keladi. Kishining dunyoga kelishdan, yashashdan maqsadi o`z xalqi, vatani uchun halol mehnat qilishda, degan haqiqatga tushunib yetadi. Atrofiga bir to`da kishilar to`plab, dengiz chekkasida ajoyib shahar barpo qilishga kirishadi. Mashaaqqatli mehnat samarasidan mamnun bo`lgan Faust olamdan o`tadi. Uning jonini farishtalar osmonga olib chiqib ketadilar. Faust o`lgandan keyin ham uning joniga ega bo`la olmagan shayton laqillab qolaveradi. Asar xalqi, vatani uchun halol xizmat qilgan kishining yuragi eng yuksaklikda bo`lishi kerak, degan g`oya bilan tugaydi. Fojia oxirida Gyote o`z qahramoni tilidan: Kim – erk, hayot deb jang qilolsa har kun– Erku hayot uchun o`sha munosib. Xuddi shunday mehnat, kurash va havas Band aylasa yoshu keksa – har kimni, Shunday kunda ko`rsam edim bir nafas Ozod diyorimni, ozod xalqimni, misralarini keltiradi. Bu kelajakka qaratilgan bashorat Faust anglab yetgan haqiqatning, inson umrining mazmunini belgilab beradi. Aslida Gyote asari boshdan-oyoq ana shu mehnat taronasi, erkinlik uchun kurashga da`vat qilish g`oyasi bilan sug`orilgan. Gyote o`z tragediyasida bir-biriga zid bo`lgan ikki xil kuchning to`qnashuvini ko`rsatadi. Bir-birini inkor qiluvchi kuchlar kurashi esa asarning dialektik tarzda rivojlanib borishini ta`minlaydi. Bu kuchlarning biri Faust, u ilg`or dunyoqarash, yorug`lik timsoli. Faust buyuk olim, ijodkor inson. To`xtovsiz harakat, yaratish, bunyodkorlik uning asosiy shiori. U doim yangilik qidirish bilan hayot nafasidan yiroqda turadigan Vagnerdan farq qiladi. Faust odamzodning baxt-saodati uchun kurashadi. U ilmga tashna, ilm-ma`rifatning kuchi bilan kishilarga ezgulik axtaradi. O`z xalqini ma`rifatli qilish uchun injilni tarjima qiladi. Bu kitobdagi eng avval so`z bo`lgan, deyilgan fikrga Faust qo`shilmaydi. Tarjima matnini o`zgartirib, eng avval harakat bo`lgan, deydi alloma. «Harakat– mavjudotning ibtidosidir», deb yozadi u.

Shoir tinmay olg`a yurishni, to`xtovsiz harakat qilishni, progressiv g`oyalarni ilgari surdi. Chunki u harakat, olg`a bosish

insoniyatning kelajagini munavvar qilishiga ishonardi. Shuning uchun ham Gyotening qahramoni faol, yaratuvchi mehnat egasi. Gyotening asari zamondoshlarini o'rta asr uyqusidan uyg'onishga, o'z hayotini qayta qurishga da'vat qiluvchi chaqiriq ham edi. Shoirning qahramoni davr muammolarini o'zida mujassamlashtirgan kishi. Shu ma'noda, asar odamlarni hayajonga solayotgan dolzarb savollarga javob berdi.

Asosiy qahramonlardan biri bo'lgan shayton Mefistofel o'zida shubha, inkor ham vayronalik kuchlarini mujassamlashtirgan. Shayton hamma vaqt Faustni yo'ldan ozdirishga, uning yuragida shubha qo'zg'ashga urinadi. Faustni olijanob intilishlaridan chalg'itib, haqiqat, insoniyat oldidagi burchlarini unutishga undaydi. Yana shu narsa ham aniqki, Mefistofel Faustni yo'ldan urib qolmasdan, shu bilan birga, uning dadilroq, keskinroq harakat qilishiga, tortishuviga, o'z qarashlarini himoya qilishiga, kurashiga, binobarin, olg'a qarab harakat qilishiga imkon yaratib ham beradi.

N. G. Chernishevskiy Faust bilan Mefistofel orasidagi tortishuv lavhasiga to'xtab, inkor va shubhalanish aql dushmani emas, aksincha, shubhalanish aqlning maqsadlariga xizmat qiladi, inson ikkilanishlar yo'li bilan aniq tushunchalar hosil qiladi, deydi. Aniq va chuqur haqiqat axtargan Faust shuning uchun ham Mefistofel bilan, ya'ni inkor etuvchi kuch bilan musobaqaga kirishgan edi. Bu bahsda Faust g'olib chiqadi. Qora guruhlar, reaksiyon kuchlar vakili Mefistofel mag'lubiyatga uchraydi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas edi. Chunki mutafakkir Gyote taraqqiyparvar kuchlar bilan reaksiya o'rtasidagi kurashda yorug'lik, ozodlik, yaratuvchanlik g'oyalarining tantanasi tarafdori edi. Bu obraz bilan yozuvchi yorug'lik albatta g'alaba qilajak degan fikrni olg'a suradi.

YEVROPA ROMANTIZM ADABIYOTIDA INGLIZ ADABIYOTIDA ROMANTIZM

XIX asr boshlarida Angliyada ludditlar harakati avj oladi. Ludditlar – mashina buzuvchilar, XIX asr boshida Angliyada sanoat taraqqiyoti natijasida ishsizlikdan xonavayron bo'lgan ishchilar harakatidir. Angliya parlamenti ludditlarga qarshi adolatsiz qonun qabul qilgan. Parlament qonuniga qarshi Bayron ludditlarni himoya qilib nutq so'zlagan edi.

Mana shunday sharoitda shakllangan ingliz romantizmi uch xil oqimga bo'lingan. Birinchi oqim «Ko'l maktabi» yoki «Leykistlar» deb nom oladi. Bu oqim vakillari Vordsvort, Sauti hamda Kolrij edilar. Ikkinchisi taraqqiyparvar romantizm vakillari Bayron va. Shelli edilar. Uchinchi oqim vakillari London romantiklari deb nom oladilarki, bunga Kits, Lem, Xezlitt kabi yozuvchilar birlashgan edilar.

Angliya romantiklari ham birmuncha taraqqiyparvarlik mavqeida turib ijod qilganlar. Shu tariqa ingliz romantizmi o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Angliya romantiklari mavzuni qaysi davrdan olishdan qat'iy nazar, o'z zamonasiga ishora qiladilar. Masalan, Bayronning «Kain» dramasi, Shellining «Ozod qilingan Prometey», «Islom qo'zg'oloni» dramalari XIX asr boshlaridagi ingliz hayotiga aloqador edi. Mo'jizakor tabiat tasviri, kurashayotgan xalq jasorati, Napoleon olib borgan urushlarning qonli izini nafratlash dostonning uchinchi qismidagi kishini hayajonlantiruvchi lavhalar hisoblanadi.

JORJ GORDON NOEL BAYRON **(1788 – 1824)**

Jorj Gordon Noel Bayron ingliz romantizm adabiyotining zabardast vakillaridan biri. Bayron ijodi u yashagan davrning barcha ziddiyatlarini o'zida aks ettiradi. Buyuk shoir asarlarida zamonasidagi milliy ozodlik harakatini (Ispaniya, Albaniya, Italiya, Gretsiya), irland xalqining Angliya zulmiga qarshi olib borgan kurashlarini, ludditlarning dastlabki chiqishlarini ifodaladi. Bayron 1788 yili aristokrat oilasida tug'iladi. Bo'lajak shoirning yoshlik yillari Shotlandiyada o'tadi. Bayron o'n yoshga to'lganida lord unvonini oladi hamda Nyusted qal'asining merosxo'ri bo'ladi. Maktabda Bayron antik dunyo adabiyoti, ingliz adabiyoti hamda qadimgi tillarni o'rgandi. Bo'lajak shoir maktabni tugatgach, Kembrij universitetiga o'qishga kirib, uni 1808 yili tamomlaydi va 1809 yili Angliya parlamentining lordlar palatasidan qonuniy o'rnini egallaydi. Shu yili yozda Bayron O'rta Yer dengizi bo'ylab ikki yillik safarga chiqadi. Ispaniya, Malta, Albaniya, Turkiya, Portugaliya hamda Gretsiyani kezib chiqadi. Bu mamlakat xalqlari bilan tanishish, dengiz bo'shliqlari, fusunkor janub tabiati shoir qalbini hayajonga solib, she'riy ilhomini jo'sh urdiradi. Bu

sayohatning natijasi o'laroq, Bayron «Chayld Garoldning ziyorati» nomli lirik-epik doston yaratadi. Dostonning birinchi va ikkinchi qismi 1812 yilda bosilib chiqadi va shoirga misli ko'rilmagan shuhrat keltiradi. Chuqur lirizm bilan sug'orilgan, siyosiy mavzudagi «Chayld Garold ziyorati» asari Bayron ijodida alohida o'rin tutadi. Asarda kitobxon e'tibori zamonasidagi muhim masalalarga qaratiladi. Dostonning asosiy yo'nalishi zolim va bosqinchilarga qarshi nafrat bilan to'lib-toshgan. Unda isyonkor shaxs bilan adolatsiz jamiyat o'rtasidagi to'qnashuv hikoya qilinadi. Asar qahramoni zodagon yigit Chayld Garold Angliya yaramas muhitida bo'g'iladi. O'z uyini tashlab, uzoq dengiz safariga o'tlanadi. Ammo uning o'tmishi kabi, kelajagi ham umidsizlik kayfiyatlariga to'la. Dostonning birinchi va ikkinchi qismlarida asar qahramoni muallifning o'zi safar qilgan mamlakatlar: Portugaliya, Ispaniya, Albaniya va Gretsiyada bo'ladi. Hamma yerda erksizlik, zulm hukm surmoqda. Albaniyada uning diqqatini oddiy kishilar tortadi. Go'zal tabiat manzaralari qo'ynida xalqning qashshoq yashashi uni qayg'uiga soladi. Garold g'am-alam to'fonida tog'larga, dengiz qirg'oqlariga chiqib odamlardan xoli yurishga urinadi. Garoldning passivligi hayotdan noroziligini namoyish qilgani holda unga aralashishga intilmasligidadir. Asarda asta-sekin qahramon o'rnini avtorning o'zi egallay boshlaydi. Endi dostonda ispan vatanparvarlarining Napoleon bosqinchilariga qarshi olib borayotgan qahramonona kurashlari hikoya qilinadi. Janglarda ayniqsa, Saragos, Kadiks shaharlari aholisi mardlik, jasorat namunalarini ko'rsatadi. Ispan vatanparvarlarining bu kurashi Bayronning tahsiniga sazovor bo'ladi. Ammo asar qahramoni voqealarga aralashmay tomoshabin bo'lib qolaveradi.

Bu uvani tik qoyalar aylabdi qamal, Ko'rinadi arablardan qolgan minoralar, Sal ilgari yov bu yerni qilmish poymol: Jang dahshati tepalarga cho'kkan sarosar... O'qlar izi... nari yoqda yanchilgan chaman, «Ajdar ini» degan nomni olgandir bu yer, Dehqonlardan zarba yegan bu joyda dushman, Ispanlar bu qoyalarni ko'p tabarruk der, Yovni yengish kuni albat aziz, buyukdir.

M.Shayxzoda tarjimasida keltirilgan yuqoridagi she'riy parchada ispan xalqining ozodlik kurashiga Bayronning xayrixohligini sezish qiyin emas.

Dostonning ikkinchi qismi Gretsiyaga bag'ishlangan. Bir zamonlar buyuk bo'lgan Gretsiya endi Turkiya bosqinchilarining

zulmi ostida ingramoqda. Bunda ingliz mustamlakachilarining ham hissassi bor. Adib ozod xalqlarni qullikka solayotgan hukmronlarni, ular o'tkazayotgan adolatsiz va bosqinchilik siyosatini ayovsiz tanqid ostiga oladi.

Bayron dostonining uchinchi va to'rtinchi qismlari 1816– 1823 yillarda shoir vatanidan chiqib ketishga majbur bo'lganidan keyin, Shveytsariya va Italiyada yashagan davrida yoziladi. 1815 yildan keyin monarxiya sistemasining tiklanishi, Frantsiyada Burbonlar restavratsiyasining o'rnatilishi, «muqaddas ittifoq»ning vujudga kelishi Bayron nazarida vaqtincha bir hol. U, bari-bir, ozodlik tantana qiladi, deb ishonadi.

Bayron dostonining so'nggi, to'rtinchi qismi shoirning Italiya, uning o'tmishi va buyukligi haqidagi adabiy mushohadalari bilan boshlanadi. Bir zamonlar bashariy madaniyatning beshigi bo'lgan Italiya endilikda Avstriya bosqinchilari zulmi ostida to'lg'anmoqda. Shoir dengiz to'liqlarini kuzatar ekan, g'azabkor va o'z ozodligi uchun kurashayotgan xalq harakatini ana shu dahshatli dengiz to'liqlariga qiyos qiladi.

Bayron 1811 yili safardan vataniga qaytib keladi. 1812 yili Bayron lordlar palatasida ikki marta otashin nutq so'zladi. Yosh parlament a'zosi Bayron lordlar palatasiga a'zo bo'lib kelgan kundan boshlab reaksion guruhlarning qarshiligiga duch keldi. Bayronning demokratik qarashlari, yosh bo'lishiga qaramay, o'zini mustaqil tutishi, mehnat ahlining manfaatlarini himoya qilib gapirishi uning muxoliflarini nihoyatda g'azablantirgan edi. Shoirning birinchi nutqi ludditlar (mashina buzuvchilar) himoyasiga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi nutqi irland dehqonlarining huquqlarini himoya qilishga qaratiladi.

Bayronning jo'shqin xalqona nutqlari, 1813 – 1816 yillarda yaratgan «Sharq dostonlari» nomli to'plamiga kirgan «Gyaur», «Abidoss kelinchagi», «Korsar», «Lara», «Korinf qamali» hamda «Parizina» nomli romantik poemalari uning dushmanlarini haddan tashqari g'azablantirgan edi.

Bayron 1815 yili Annabella Milbenk ismli aristokrat qiziga uylanadi. Ammo Annabella Milbenk Bayronning intilishlarini tushunmadi. Buning ustiga shoirning dushmanlari tarqatgan ig'voga ishonib, bir yildan keyin eridan ajralish haqida ish qo'zg'aydi. Bayronning siyosiy raqiblari bundan foydalanib, uni parlamentdan

siqib chiqarishga erishadilar. Natijada 1816 yili Bayron o'z vatani Angliyani butunlay tashlab ketishga majbur bo'ladi.

Bayron vatanini tashlab ketgach, Belgiyada, Shveysariyada, so'ngra Italiya shaharlarida bo'ladi. Yolg'izlik, vatandan judolik shoir kayfiyatida tushkunlikni kuchaytirib yuboradi. Yevropada reaksiyaning xuruji, xalq ommasining faol kurashga yetilmagani, zulm va adolatsizlik bilan kurashish yo'llarining noaniqligi Bayronning bu davrda yaratilgan asarlari xarakterini belgilaydi.

«Sharq dostonlari»da shoirning adolatsiz jamiyatga nisbatan nafrati yana ham ortib boradi. Asar qahramonlari hukmron jamiyatning murosasiz dushmanlaridir. Bu yakka-yolg'iz romantik isyonkorlar jamiyatdan bezgan, tog'u-toshlarga, dengiz qirg'oqlariga chiqib ketgan odamlardir. Ular o'sha jamiyatga qarshi kurashishga kuchlari yetmasligini bilsalar-da, kurashni davom ettiraveradilar. Juda bahaybatligi bilan atrofdagi odamlardan ajralib turadigan, g'ayri-tabiiy qiyofaga ega bu qahramonlar olijanob, halol, adolatli kishilardir. Ular sevgiga sodiq, ammo muhabbati adolatsiz tuzum urf-odatlarini tufayli barbod bo'ladi.

Bayron qahramonlarida aniq maqsad sezilmaydi. Bu, shoir yashayotgan zamonning murakkabligidan, muallifning kurash yo'llarini aniq tasavvur qila olmaganligidan darak beradi. «Sharq dostonlari»da Bayronning Angliya zamonasi, uning tartiblariga qarshi isyonni ifodalanadi.

«Gyaur» dostonining qahramoni Leyla ismli ayolni sevadi. Ammo Leylaning rashkchi eri Hasan o'z xotinining Gyaur bilan sevishtanidan xabar topib, uni o'ldiradi. Bunga chiday olmagan Gyaur Leyla uchun Hasandan o'ch oladi. Asar oxirida uning Leyla ishqida azob chekib vafot etishi tasvirlanadi.

«Korsar» dostonining qahramoni Konrad – dengiz qaroqchilarining boshlig'i. Konrad jamiyatdan bezib, dengizdagi orollardan birida yashaydi. Uning maqsadi madaniy jamiyatdan o'ch olish, unga qarshi kurashishdir.

Konradning nomi atrofdagilarga dahshat soladi. Kunlardan bir kun sharq sultonlaridan biri Saidning saroyiga Konrad boshliq qaroqchilar hujum qiladilar. Sulton askarlari bilan Konrad hamrohlari o'rtasida jang qizib ketadi. Qaroqchilar saroyga o't qo'yib yuboradilar. Konrad o'z hayotini xavf ostiga qo'yib o't ichidan Gulnora ismli asirani olib chiqadi. Jang sultonning g'alabasi bilan tugaydi. Asir tushgan Konrad zindonga tashlanadi. Konradni

sevib qolgan Gulnora zolim Saidni o'ldiradi. Zindon qorovuliga pul berib, Konradni ozod qiladi. Ular birgalashib, dengizdagi orolga, qaroqchilar qarorgohiga qochadilar. Bu yerda Konradning sevgilisi Medora bor edi. Medora Gulnorani ko'rgach, o'zini o'ldiradi. Bundan qattiq qayg'urgan Konrad boshini olib ketadi. Uning qayoqqa ketganligi noma'lum. Konrad Medorani sevar edi. Medora halok bo'lgach, uning uchun hayotning ma'nosi tugaydi.

Gulnora obrazi ham romantika bilan sug'orilgan. Qiz sulton haramida zolim Saidning shahvoniy nafs qurboni edi. Konradni sevib qolgach, Saidni o'ldirishga jazm qiladi. Har qanday xavf-xatarga qaramay, sevgan kishisi ketidan boradi. Ammo sevgi nima ekanligini tushungan Gulnora ham yolg'iz qoladi. Chunki Konrad uni emas, Medorani sevar edi. Gyaurlar bilan Konrad taqdiri, ular sevgisi bir-biriga o'xshab ketadi.

Bayron qahramonlari – ehtirosli, isyonkor shaxslar. Ammo ular individualist, yolg'iz kurashchilar. Bu qahramonlar ko'pchilik manfaatlarini emas, yolg'iz o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab kurashadilar. Bu isyonkor qahramonlar ijobiy idealga ega emas. Ularning xalq ommasi bilan aloqasi yo'q. Umumning manfaatlari bu yakka isyonkorlarga begona. Bayron qahramonlaridagi har qanday haqsizlikka nisbatan murosasizlik, tinimsiz kurash ruhi, tuganmas g'ayrat va shijoat kitobxon qalbini hayajonga soladi. Unda adolatsiz tuzumga nisbatan nafrat hislarini tarbiyalaydi. Bayron dostonlaridagi jozibadorlik ana shunda.

Bayron bir qancha lirik she'rlar silsilasini yaratdi. «Yahudiy melodiyalari» deb nomlangan to'plamda ham shoirning sharq dostonlarida bo'lganidek tushkunlik, hayotdan noliish kayfiyatlari aks etadi.

Bayron 1816 yili Shveysariya poytaxtiga kelib, Jeneva vatanparvari, respublikachi Bonivar jasoratini tarannum qilgan «Shilon tutquni» asarini yozadi.

1781– 1821 yillar orasida Bayron yangi adabiy romantik dramalar turkumini yaratdi. Bunga «Manfred», «Osmon va Yer», «Kain» nomli ajoyib falsafiy mulohazalarga boy dramatik asarlari kiradi.

Shoir «Manfred» dramasida umidsizlikka tushgan, murakkab sharoitda yo'l topa olmay qolgan, musibatga griftor bo'lgan obrazni yaratadi. Bayron dunyoqarashining eng tushkun davrini aks ettirgan bu asarda shoirning «jahon qayg'usi» falsafasi o'z ifodasini topadi.

Manfred obrazi ham «Sharq dostonlari»dagi Gyaur, Konrad va Lara obrazlarini eslatadi. Ammo «Sharq dostonlari»ning qahramonlari o`zlarining harakati, murosasizligi bilan Manfred obrazidan farq qiladi. Agar Gyaur va Konradlar to`xtovsiz kurash, isyon ruhi bilan yashasalar, Manfred tinchlik, osoyishtalik axtaradi. U hayotdan, kurashdan charchagan kishi obrazi. Ammo u o`zi qidirgan osoyishtalik, xotirjamlikni topolmaydi. Mavjud tuzumga bo`ysunmaydi, diniy aqidalarni rad qilib, erkini yo`qotmay vafot etadi.

Bayron 1821 yilda yozgan «Kain» dramasiining syujetini diniy kitoblardan olgan. Asar qahramoni Kain har qanday zulmga qarshi isyon ko`targan kishi. Diniy afsonaga ko`ra, Kain yer yuzida birinchi qotil – odam o`ldirgan shaxs. Bayron talqinida esa u zulmga, xudoning osmoniy tartiblariga qarshi chiqqan erksevar kishi obrazi. Bayron ijodining gultojlaridan biri bo`lgan «Kain» dramasi yozilayotganida Yevropa qit`asida reaksiya juda ham quturayotgan, reaktсион «muqaddas ittifoq» ozodlik harakatining har qanday ko`rinishini shafqatsiz ravishda bostirayotgan edi. «Kain» dramasi buyuk isyonkor, erksevar shoirning ana shu qora guruhchi kuchlarga qarshi norozilik ovoziining sadosi bo`lib jarangladi.

Xudo tomonidan yaratilgan dastlabki bani insonlar Adam bilan Yeva (Odam Ato bilan Momo Havo) jannatda istiqomat qiladilar. Yeva, keyinchalik Adam ham shayton ta`siriga berilib, man etilgan Eram bog`ining mevasidan yeb qo`yadilar. Xudo bu gunohlari uchun ularni jannatdan haydab yuboradi. Adam bilan Yeva hamda ularning o`g`il-qizlari qiyinchilik bilan kun kechiradilar. Lekin ular xudoga shak keltirmaydilar, aksincha, tangriga toat-ibodat hilib yashaydilar. Bunday sharoitga ularning to`ng`ich o`g`illari Kain norozilik bildiradi. U itoatgo`y ukasi Avelni o`ldirib qo`yadi. Kainning ota-onasi uni la`natlaydilar. Xudo ham Kainni umrbod darbadarlikka mahkum qiladi.

Kain bilan Shayton Lyutsifer butun dunyo bo`ylab kezib yuradklar. Lyutsifer Kainga hamma yerda xudoning adolatsiz qonunlari hukmron ekanini, osmoniy qudrat ozodlikning ashaddiy dushmani ekanligini tushuntiradi.

Kain asta-sekin mana shu zulmga, erksizlikka qarshi isyonkor darajasiga ko`tariladi. Uning fikricha, inson har jihatdan ozod bo`lishi kerak, zulmga, adovatga qarshi kurashishi lozim. Shuning uchun Kain ota-onasi va ukasi Avelning qullarcha itoatkorligi bilan

murosa qila olmaydi. Murosasizlik bu dramaning asosiy g'oyasini tashkil etadi. Kainning bu kurashida unga singlisi Ada ham hamroh bo'ladi, uni qo'llab-quvvatlaydi. Kain bilan birga barcha qiyinchiliklarga bardosh beradi. Bayronning isyonkor dramasi uning zamonasida hukm surayotgan hukmron siyosatga qarshi qaratilgan inqilobiy g'oya bilan sug'orilgan asar bo'lib maydonga keldi. Undagi Kain obrazi inson shaxsining erkini poymol qilgan feodal-burjua tartiblariga qarshi murosasiz kurash boshlagan kishi obrazidir.

1815 yili Napoleon ustidan g'alaba qozongan Yevropa mustabidlari «Muqaddas ittifoq»ining Verona shahrida kongressi bo'lib, unda butun qit'a bo'ylab xalq ozodlik harakatini bostirish rejalari tuziladi. Bayron bunga javoban yozgan «Bronza asri» nomli siyosiy hajviy dostonida Yevropa monarxlarining siyosatini fosh qilib tashladi. Reaktsiyaning tayanchiga aylangan «Muqaddas ittifoq» Rossiya, Avstriya hamda Prussiya davlati arboblari tomonidan tuzilib, keyinchalik bu ittifoqqa Yevropaning barcha mustabid hokimlari qo'shiladi. Bu xalqqa qarshi qaratilgan reaksion ittifoq edi. Uning asosiy maqsadi inqilobiy harakatlarni bostirishdan iborat bo'ladi. Bu ittifoqning tashabbuskorlari rus podshosi Aleksandr 1, ispan qiroli Ferdinand VII, fransuz qiroli Lyudovik XVIII edilar. «Bronza asri» hajviy poemasi faqat reaksiyani fosh qilib qolmasdan, ilg'or kuchlarni unga qarama-qarshi qo'yishi, Bayron ijodidagi satirik kuchning qudratini namoyish qilishi bilan qimmatlidir.

«Don Juan» romani (1824) Bayron ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Shoir bu asarining voqealarini XVIII asrga ko'chirgan. Shuning uchun kitobxon ko'zi o'ngida XVIII asrning muhim voqealari, davlat arboblari, sarkardalari o'tib turadi, ammo, bundan Bayron o'zi yashab turgan davrning eng dolzarb voqealarini chetlab o'tdi, degan xulosa chiqmaydi. Aksincha Bayron zamonasidagi muhim siyosiy-ijtimoiy masalalarga o'zining tanqidiy munosabatini bildiradi.

Shoirning mo'ljaliga ko'ra uning qahramoni Don Yevropaning bir qancha mamlakatlarini kezib chiqishi, 1789– 1794 yillardagi janglardan birida halok bo'lishi kerak edi. Muallifning fikricha, roman yigirma beshta qo'shiqdan iborat qilib mo'ljallangan. Ammo shoirning bevaqt vafoti tufayli, asarning o'n oltita qo'shig'i to'liq, o'n yettinchi qo'shiqdan esa bir necha sahifalargina yozib tugallangan.

Roman qahramoni Don Juan ispaniyalik dvoryan. U ayollarga nisbatan suyuqoyoq, yengiltak zodagon yigit sifatida tasvirlanadi. Don Juan ayni paytda zamonasida hukm surayotgan urushlarni, adolatsizliklarni, xalq boshiga tushgan og'ir kulfatlarni fosh qiluvchi odil hakamlik rolini o'ynaydi. Shuning uchun ham Don Juan obrazi doim o'sishda, o'zgarishda ko'rsatiladi.

Don Juanning ota-onasi uni diniy maktabga beradilar. Ammo quruq sxolastik bilimlar uni qiziqitirmaydi. Bola maktabda yomon o'qiydi. Qip-yalang'och ayollarning haykali uning diqqatini ko'proq o'ziga tortadi. Voyaga yetgach, qo'shnisi qari grafning go'zal xotini Yuliyani sevib qoladi. Bu uyga tez-tez kirib turishi rashkchi grafga yoqmaydi. Ikki o'rtada janjal chiqadi. Don Juanning ota-onasi bu mojarolardan qutulish uchun o'g'lini safarga jo'natib yuboradi. Kema halokatiga uchragan Don Juan Gretsiya qirg'oqlaridagi orollardan biriga tushib qoladi. Dengiz qaroqchisi Lambroning qizi Gayde hushsiz yotgan yigitni topib oladi. Gayde bilan Don Juan bir-birlarini qattiq sevib qoladilar. Ammo Lambro Don Juanni Turkiyaning qul bozoriga olib borib sotib yuboradi. Bundan qattiq qayg'urgan qiz Gayde vafot etadi. Qul bozorida chiroyli yigit sotilayotganini eshitgan turk sultonining kichik xotini Don Juanni sotib oladi, unga ayol kiyimi kiydirib, sulton haramiga olib kiradi.

Bu vaqtda rus sarkardasi Suvorov turklar bilan Izmail qal'asi uchun jang qilmoqda edi. Don Juan saroydan qochib, rus armiyasiga qo'shiladi. U ham jangda qahramonlik ko'rsatadi. Izmail qal'asini Suvorov qo'shinlari ishg'ol qiladilar. Sarkarda Suvorov bu xushxabarni imperator Yekaterina II ga yetkazish uchun Don Juanni Peterburgga jo'natadi. Don Juan rus saroyida yaxshi kutib olinadi. Bir necha vaqtdan so'ng Yekaterina II uni maxsus diplomatik topshiriq bilan Angliyaga yo'llaydi. Don Juan Polsha, Germaniya orqali Londonga keladi. Bayron qahramoni ko'zi bilan Angliyada sodir bo'layotgan voqealarni keskin tanqid qiladi. Uning nazarida Angliya ozodlikni bo'g'uvchi, erkin fikrlarni ta'qib qiluvchi jandarmga aylangan. Ingliz amaldorlarining munofiqligi Don Juanni g'azabga keltiradi.

Don Juan hamma yerda zulm, zo'ravonlik, adolatsizlikni ko'radi. Qahramon o'z vatani Ispaniyadan qochib chiqib ketishga majbur bo'lgan edi. Uzoq dengiz qirg'og'ida Gaydeni uchratib, chinakam sevgisini topdi. Ammo uning va Gaydening bu baxti uzoqqa cho'zilmadi. Sevishganlarning biri qul bo'lishga, ikkinchisi

o'limga mahkum etiladi. Uzoq dengizdagi orolda ham sevgi erkin emas. Turkiya sultoni saroyiga tushib qolgan Don Juan bu yerda hukm surayotgan shafqatsizlik bilan buzuqliklarning guvohi bo'ladi.

Ixtiyorsiz urushga aralashib qolgan Don Juan urush dahshatlarini, yong'in va vayronaliklarni ko'radi. Urush juda ko'p odamlarning yostig'ini quritadi.

Bayron asarda rus askarlarining jasoratini ham ko'rsatadi. Ayniqsa, sarkarda Suvorovning aqli, harbiy zakovati, sarkardalik talanti yuqori baholanadi.

Rus saroyiga kelib qolgan Don Juan bu yerda hukm surayotgan va oddiy kishilarga yot bo'lgan tartiblarni, saroy amaldorlarining xalq hayoti bilan mutlaqo qiziqmayotganligini ko'radi. Shoir Angliya davlat arboblarning munofiqligini ham qahramon nuqtai nazari orqali keskin fosh etadi.

Ko'rinadiki, Don Juan obrazi shoirning romantik qahramonlaridan farq qiladi. Don Juan mutlaqo real voqealar, real odamlar bilan to'qnashadi. Uning hayoti ham, tarjimai holi ham oddiy odamlarnikidek. Shu sababdan Don Juan obrazi realizmga yaqin turadi.

Qahramonni xilma-xil davlatlar hayoti bilan to'qnashtirib, muallif o'z zamonasida hukm surayotgan tartiblarga hajviy munosabatini bayon qiladi. Bayronning romani xalq hayotini keng yoritib bergan asar bo'lib maydonga keldi. Uning tanqidiy nayzasi XVIII asr oxiri, XIX asr boshlaridagi feodal-burjua tartiblariga qaqshatqich zarba berdi. Hamma yerda xalq ozodlik harakatining kelajagiga ishonch bildirdi. Asar boshdan-oyoq siyosiy-ijtimoiy masalalar, xalq hayoti haqidagi o'ylar bilan to'lib-toshgan.

Asar tilining boyligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. Lirik chekinishlar, satirik sahifalar, nasr bilan nazmning almashib turishi, so'z o'yinlari, uslubiy tarbiya vositalarining xilma-xilligi, yumoristik, kinoyaviy o'xshatishlar asar muallifining zakovati, o'tkir aql-idroki va yetuk san'atkorligidan darak beradi.

Bayronning «Don Juan» romani muallif zakosini butun dunyoga namoyish qildi. Romantik qobiq ostida zabardast realist shoirni ko'rgan qora guruhchilar larzaga keldilar.

Bayron barcha asarlarida zulmga qarshi murosasiz kurashchi bo'lib qoldi. U Italiyada ekan, Avstriya zulmiga qarshi kurashayotgan vatanparvarlarning siyosiy tashkiloti karbonarlar harakatiga faol qatnashdi.

1823 yili Bayron Gretsiyaga keladi. Uning «Suliotlarga bag'ishlangan qo'shiq», «Kefaloniya daftarlari», «Gretsiya haqida so'nggi so'zlar» (1823– 1824) kabi asarlari erksevar grek xalqining turklar asoratiga qarshi kurashiga bag'ishlangan.

Shoir Gretsiyaga, uning turk bosqinchilari zulmi ostida ezilayotgan xalqiga xayrixohlik bilan qaradi. Grek vatanparvarlariga qo'shilib, ular olib borayotgan milliy-ozodlik harakatining rahbarlaridan biriga aylandi. Bayron o'zini insoniyatning ozodligi uchun kurashchi deb bildi.

Rus yozuvchilari, demokratlari A.C.Pushkin, M.Yu. Lermontov, V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov, A.I.Gersenlar ingliz shoiriga yuqori baho berdilar. Belinskiy uni XIX asrning Prometeyi, deb atadi, Bayron ijodining yuksak g'oyaviyligini ta'kidlab o'tgan edi.

Jahon adabiyotining zabardast siymolaridan biri bo'lgan Bayronning asarlari dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan. O'zbek tiliga uning she'rlarini tarjima qilgan san'atkorlarimiz orasida Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Shukrullo, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Rauf Parfi kabi so'z ustalari bor. Ingliz shoirining qator she'rlari, «Chayld Garoldning ziyorati», «Shilion tutquni», «Manfred» dramatik dostoni va boshqalarni o'zbek kitobxoni o'z ona tilida o'qish baxtiga muayassar bo'lgan.

VALTER SKOTT (1771– 1832)

Angliyaning yirik yozuvchilaridan biri Valter Skott ajoyib san'atkor, tarixiy romanlar muallifi sifatida jahon adabiyoti xazinasiga barakali hissa qo'shdi. Valter Skott yashab ijod qilgan davr muhim voqealarga, o'zgarishlarga juda boy eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashlar, Angliyadagi sanoat o'zgarishi, Napoleon olib borgan bosqinchilik urushlari yozuvchi asarlariga syujet bo'lib xizmat qildi. Uning tarixiy mavzuda yozgan romanlari XII asrdan tortib to XIX asrgacha bo'lgan xilma-xil voqealarni qamrab oladi. Valter Skott hali hayot ekanidayoq, uning nomi keng tarqalgan va buyuk zamondoshlarining tahsiniga sazovor bo'lgan edi. Adibning ijodiga A. S. Pushkin, V. G. Belinskiy, Onore de Balzaklar yuqori baho berdilar.

Valter Skott tarixiy jarayonlarning rivojlanishini sinchkovlik bilan kuzatdi. Xalq ommasi harakatining tarixda o'ynagan ob'ektiv rolini odilona aks ettirdi. Ana shular yozuvchi yaratgan tarixiy romanlarning haqqoniyligini ta'minlagan omillar edi.

Skott kishilar taqdirini tarixiy voqealar oqimi bilan bog'liq ravishda ko'rsatib berdi. Uning har bir qahramoni konkret tarixiy sharoit va milliy xususiyatlari bilan uzviy ravishda gavdalanitiriladi. V. G. Belinskiy Valter Skott ijodiga yuqori baho berib, uning Yevropa san'atiga ijtimoiy va tarixiy yo'nalish berganini ta'kidlab, yozuvchi o'z romanlarida «tarix prujinasini» ko'rsatganini qayd qiladi.

Valter Skott 1771 yili Shotlandiyada dvoryan oilasida tug'ildi. Uning otasi huquqshunos edi. Bo'lajak yozuvchi Shotlandiya tabiatiga, uning tarixiga qiziqib qaradi. U maktabda o'qib yurganidayoq xalq afsonalari, balladalariga maftun bo'lib qolgan edi. Skott Edinburg universitetiga kirib, huquqshunoslik kasbini egallaydi.

Advokatlik ishi bilan birga u ona yurtning tarixiga oid materiallarni, xalq og'zaki ijodining durdonalarini yig'a boshlaydi. Skottning tarixga bo'lgan qiziqishi 1796 yili Gyotening «Gyos fon Berlixingen» tarixiy dramasini tarjima qilishiga ham turtki bo'ldi.

Endi u butunlay adabiy ijod bilan shug'ullana boshlaydi. 1802– 1808 yillarda uch tomlik Shotlandiya xalq qo'shiqlarini, allaqancha romantik poemalarini nashr ettiradi. Bu qo'shiqlar va poemalar yozuvchining vatani tarixini, uning folklorini mukammal bilishini ko'rsatadi. Shotlandiya manzaralari, qadimiy feodal qasrlari, fantastika va sarguzasht unsurlarga boy bo'lgan bu asarlar unga keng shuhrat keltiradi.

Valter Skott ijodini, xarakteriga qarab, uch davrga ajratsa bo'ladi. Birinchi davr – 1796– 1813 yillar– dastlabki romantik poemalari yaratilgan davr. Ikkinchi davr – 1814– 1818 yillar bo'lib, bu yillarda Skott Shotlandiya tarixidan olib yozgan ajoyib romanlarini («Ueverli», «Gay Mannering», «Antikvari», «Puritanlar», «Rob Roy», «Edinburg zindoni») yaratadi. Uchinchi davr – 1819– 1832 yillarni qamraydi. Bu davrda yozuvchi Angliya, Frantsiya hamda Shotlandiya tarixiga, boshqa davlatlarning uzoq o'tmishiga murojaat qilib, «Ayvengo», «Kenilvort», «Kventin Dorvard», «Vudstok» «Pert go'zali» kabi romanlarini yozadi.

Shotlandiya romanlari sikliga kiruvchi birinchi romanni «Ueverli» (1811) XVIII asr tarixidan olingan. Shotlandiyaning klanlari (qadimgi urug`chilik tuzumi boshliqlari) XVII asrdagi ingliz burjua tartiblarga qarshi qo`zg`olon ko`targanlar. Bu qo`zg`olondan maqsad taxtdan ag`darilgan styuartlar dinastiyasi hokimiyatini qaytadan tiklashga urinish edi. Bu qo`zg`olonga shotland klanlari oddiy dehqonlarni ham jalb qiladi. Chunki mamlakat hayotiga singib borayotgan burjua tartiblaridan keng xalq ommasini ham norozi edi. Ammo yozuvchi bu yakobitlar qo`zg`olonining halokatga mahkum ekanligini, tarixiy jarayon to`xtovsiz o`lg`a qarab rivojlanib borishini ko`rsatib bergan, xalq ommasining reaksiya kuchlari qo`lida qurol bo`lib qolgani aks ettirgan bu tarixiy haqiqatga mos ekanini, san`atkorning ijtimoiy kuchlari harakatini to`g`ri talqin qilib bergani bu romanda tasvirlanayotgan davr koloritini ishonarli ko`rsatadi.

«Puritanlar» (1816) nomli romanida Skott shotlandiyalik tog`li dehqonlarning styuartlar dinastiyasiga qarshi qo`zg`olonini ko`rsatadi. Bu asar xalq ommasining qirolik zulmiga qarshi norozilik harakatini aks ettiradi.

«Rob Poy» (1817) romanida qashshoqlashgan shotland dehqonlarining yer egalariга qarshi kurashi hikoya qilinadi. Yirik zamindorlar shahar sanoatchilari bilan til biriktirib, dehqonlarning yerlarini, mollarini tortib olib, u yerlarni sanoat uchun jun yetkazib beruvchi xom ashyo maydoniga aylantirgan edilar. Yeridan, mol-mulkidan ajralgan Rob Roy o`ziga o`xshashlarga boshchilik qilib, shotland dehqonlarining yer egalariга qarshi kurashuvchi qasoskor rahbariga aylanadi.

Valter Skott Shotlandiya tarixiga oid barcha asarlarida o`sha xalq hayotini, urf-odatlarini, kiyim-kechaklarini hayron qolarli darajada ustalik bilan tasvirlab beradi. Kitobxon ko`zi o`ngida birin-ketin tarix sahifalari jonlanib o`taveradi.

Valter Skott ijodining uchinchi davrida yozgan asarlarining tarixiy doirasini yanada kengaytiradi. Bu davrda yozuvchi XII asr Angliya hayotiga oid («Ayvengo»), XV asr Frantsiya tarixiga oid («Kventin Dorvard»), salbiy yurishlari tarixiga oid («Tilsimot») xilma-xil romanlarini yozdi.

«Kventin Dorvard» (1723) romanida yozuvchi XV asr Frantsiyasi tarixini, urf-odatlarini aks ettirgan. Qirol Lyudovik XI ning mamlakatni markazlashtirish uchun dushmanlari bilan olib borayotgan siyosatini ko`rsatgan. Skott tarixiy haqiqatga sodiq qolib,

fransuz qirolining aniq psixologik qiyofasini chizib beradi. Mamlakatda absolyutizm siyosatining tantanasi hamda fransuz qirol Lyudovik XI ga qarshi kurashayotgan tarqoq feodallar vakili sifatida gertsog Burgunskiy obrazi yaratilgan

Roman Valter Skottning bu davrdagi asarlari orasida alohida o`rin tutadi. Bu roman markazida XII asrda Angliyada kuchayib borayotgan qirollik hokimiyati bilan o`zboshimcha feodallar o`rtasidagi kurash voqealari turadi. Asarda yozuvchi o`zining sevimli qahramonlari ritsar Ayvengo, qirol Sheryurak Richard va ular atrofidagi personajlarning romantik qiyofasini gavdalantirib beradi. Asar qahramonlari mard, sevgisiga sodiq kishilar.

Ayniqsa, asardagi xalq vakillarining obrazlari juda mukammal: qiziqchi Vamba, cho`chqaboqar Gurt, xushchaqchaq monax Tuk, o`rmondagi kamonchilar boshlig`i jasur Robin Gud ana shunday personajlardir. Asarda anglosaks feodallari hamda dehqonlari bilan normand bosqinchilari o`rtasidagi kurash aks etgan. XI asrda Angliyani bosib olgan normandlar haddan tashqari zulm va adolatsizlik qiladilar. Normand feodallari Fron de Bef, Buagklber de Brasi va boshqalar anglosakslarni ezadilar, ularning yer-mulkini tortib olib, o`zlarini tahqirleydilar. Ular mahalliy aholiga qo`pol muomala qiladilar. Anglosaks feodallari – Sedrik, Atelston va boshqalar o`z yer-mulkini normand bosqinchilaridan himoya qilish uchun kurashadilar. Oddiy xalq ham o`z feodallari, ham bosqinchi normandlar zulmidan ozor chekadi. Ular nihoyatda qashshoqlashib, xonavayron bo`lganlar. Shuning uchun o`rmonlarga yashirinib, bosqinchilarga qarshi kurash olib boradilar. Bu qashshoq ommaga Angliya xalqining sevimli qahramoni Robin Gud boshchilik qiladi. U romanda Lokslı nomi ostida berilgan. Xalq o`z boshlig`i Robin Gudni (Lokslini) sevadi va uning ketidan ergashadi. Yozuvchi asarda Robin Gud haqidagi xalq qo`shiqlari va balladalaridan ustalik bilan foydalangan.

Asarning bosh qahramoni Uilfred Ayvengo saksoniyalik feodal Sedrikning o`g`li bo`ladi. Ayvengo qirol Sheryurak Richardga sodiq bo`lganligi uchun, otasi uni uyidan haydab yuborgan. Ayvengo qirol Richard bilan birga sharqqa, salb yurishlariga borib, ajoyib qahramonliklar ko`rsatgan.

Valter Skott «adolatli monarx» tarafdori bo`lgani uchun normand qirolı Sheryurak Richardning ezilgan xalq tomonida turib, o`zboshimcha feodallarga qarshi kurashganini ko`rsatgan. Sedrik

yirik feodal bo`lganligidan qirolga bo`ysungisi kelmaydi. O`g`li Ayvengo bilan ham ana shu sababli kelisha olmaydi. Qirol Sheryurak Richard salb yurishlarida ekanida uning ukasi shahzoda Jon taxtga o`tirib, o`z atrofiga normand feodallarini yig`ib olib, mamlakatda o`zboshimchalik, adolatsizlik qilmoqda edi. Salb yurishlaridan qaytib kelgan qirol vaqtincha noma'lum ritsar qiyofasida yashirilib yurishga majbur bo`ladi. Qirol Sheryurak Richard o`rmondagi Robin Gud kamonchilari bilan birga harakat qiladi..

Ayvengoning otasi chol Sedrik o`zi tarbiyalagan go`zal qiz Rovenaga, savdogar yahudiy Isaak va uning qizi Ravekka normand ritsarlariga asir tushadilar. Normand feodallari – Fron de Bef, Buagilber va de Brasilari asirlarni qamab, ulardan juda katta to`lov berishni talab qiladilar. Lekin qirol Sheryurak Richard, Ayvengo o`rmondagi Robin Gud kishilari bilan birgalikda feodal Fron de Bef qo`rg`onini yondirib, asirlarni ozod qiladilar. Buagilber nomli normand ritsari Ravekkani olib qochadi. Qiz Buagilberga turmushga chiqishga rozi bo`lmaydi. Cherkov magistri Luki Bomanoara Ravekkani sehgargilikda ayblab, olovda kuydirishga hukm chiqaradi. Ayvengo qizning himoyasiga otlanib, yakkama-yakka jangda Buagilberni o`ldiradi va Ravekkani ozod qiladi. Nihoyat, qirol Sheryurak Richard dushmanlarini yengib, taxtga o`tiradi. Ayvengo otasi Sedrik bilan yarashadi. U go`zal qiz Rovenaga uylanib, qirolning sodiq yordamchisi sifatida saroyda xizmat qiladi. Ravekka esa otasi Isaak bilan o`z yurtlariga ketadi. Shunday qilib, romanda mayda, tarqoq feodal o`zboshimchaliklari ustidan yirik, markazlashayotgan mustabid davlatining g`alabasi ko`rsatiladi.

Asardagi anglosakslar – Sedrik ham, Atelstan ham, normandlar Fron de Bef ham, de Brasi hamda Buagilberlar mag`lubiyatga uchraydilar.

Asarda feodallarning qiyofasi, yirtqichligi, shafqatsizligi real gavalantirilgan. Roman syujeti rang-barang voqealar, romantikaga boy lavhalarga to`la. Ayniqsa, Robin Gud boshliq ommaviy sahnalar, zulmga qarshi g`azab va nafrat bilan yonayotgan xalq harakati tasvirlangan sahifalar yozuvchining demokratizmidan darak beradi.

Asardagi feodal qasrini qamal qilish, uni yondirib yuborish, ritsarlik musobaqalari tasvirlangan sahnalar Valter Skott o`zi hikoya qilayotgan davr tarixini, xalq tarixini nihoyatda chuqur bilishini ko`rsatadi. Mehnat ahlining og`ir ahvoli, hukmron sinf vakillarining

o'taketgan shafqatsizligi singari faktlarning real tasviri Skott romanining qimmatini oshiradi.

Asar qahramonlarining, ayniqsa xalqdan chiqqan qahramonlarning tili ham ifodali bo'lib, unda xalq og'zaki ijodi xazinasining durdonalari ko'p ishlatiladi.

Valter Skott 20-yillarda bir qancha tarixiy, tarixiy-adabiy mavzularda asarlar yaratdi. «Napoleon Bonopart hayoti» (1827), «Shotlandiya tarixi» (1830), «Romannavislar hayotining tasviri» (1824), Drayden va Svift (1826) haqidagi kitoblarni yozadi.

Valter Skott umrining so'nggi yillarida juda ko'p ishladi. Bu esa uning sog'lig'ini izdan chiqardi. Vrachlarning maslahati bilan Skott janubga davolanishga boradi. Ammo sog'lig'i yaxshilanmasdan, 1832 yili Shotlandiyaga qaytib kelgach, vafot qiladi.

Uning asarlari o'z mohiyati e'tibori bilan romantizm doirasidan chiqib, tanqidiy realizmga yo'l ochib berdi. Uning bu xususiyatini Onore de Balzak, Prosper Merime, A.C.Pushkin, Viktor Gyugo singari san'atkorlar o'z vaqtida payqadilar. V. G. Belinskiy Valter Skottni «san'at dargohidagi Kolumb» deb atadi.

Valter Skottning tarixiy romanlari Yevropa va Amerika adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning ayrim hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

FRANSUZ ADABIETIDA ROMANTIZM

Frantsiyada romantizm adabiy yo'nalishining zahirida yangi tartiblardan qanoat hosil qilmaslik kayfiyati yotadi. Bu hol shunday izohlanadi: «Fransuz ma'rifatparvarligiga dastlabki munosabat shundan iborat bo'lgan ediki, hamma narsa o'rta asr yog'dusida, romantiklik yog'dusida ko'rildi... Ikkinchi munosabat... o'rta asr chegaralaridan chiqib, har bir xalqning ibtidoiy davriga ko'z tashlashdan iboratdir». XIX asrning boshlarida bir qancha faylasuf va yozuvchilar ma'rifatparvarlik g'oyalariga qarshi keskin xuruj boshladilar. Reaktsion romantiklar deb nom olgan bu guruh vakillari aqlni har qanday jinoyatlarning manbai, deb hisobladilar. Dinni, cherkovni qayta tiklashni talab qilib chiqdilar. Ular ma'rifatparvarlikni gunohi uchun tangri tomonidan yuborilgan jazo, deb baholadilar. Bu gunohdan qutulish uchun yana monarxiya

tuzumini tiklash, katolik cherkovining nufuzini ko'tarish kerak, deb jar soldilar. Bu lagerning boshliqlaridan biri Shatobrian fransuz adabiyotida tushkunlik kayfiyatlarini, individualizmni, hayotdan yuz o'g'irib, tarkidunyochilik, fanga nisbatan ishonchsizlikni targ'ib qildi. Reaktsion romantiklar ma'rifatparvarlik g'oyalarini yo'qqa chiqarishga, aql-zakovatning kuchiga shubha bilan qarashga chaqiradilar. Ana shunday reaksioner faylasuf va yozuvchilardan Frantsiyada Bonald (1753– 1840), Shatobrian (1768– 1848), Alfred de Vini (1797– 1863), qisman Alfred de Myusse (1810– 1857) larni ko'rsatib o'tish mumkin.

Agar reaksion romantiklar ma'rifatparvarlik g'oyalarini inkor qilsalar, ikkinchi lager vakillari taraqqiyparvar va demokratik ruhda romantiklar Viktor Gyugo (1802– 1885), Jorj Sand (1804– 1876) lar diqqati oddiy kishilarning orzu-umidlarini amalga oshirishga qaratildi. Shu bilan birga, taraqqiyparvar romantiklar burjuaziya tuzumining mohiyatini ham, uning qonunlarini ham tushunib yetmadilar. Ularning burjuaziyaga nisbatan aytgan tanqidiy fikrlari mavhum xarakterga ega edi. Klassitsizmning «qoidalari»ga qarshi kurash ochgan romantiklar adabiy janrlarning xilma-xilligini, rang-barangligini yoqlab chiqdilar. Ular hayotda uchraydigan qarama-qarshiliklarni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni kontrast usulda tasvirlab berishni talab qildilar. Romantiklarning qahramonlari alohida taqdiri, kuchli xarakteri bilan ajralib turadilar. Taraqqiyparvar romantiklar burjuaziyaning zerikarli, bo'g'iq muhitiga qarama-qarshi o'laroq, janub va sharq mamlakatlariga xos ekzotik, ehtirosli xarakterlarni, milliy kolorit va bo'yoqlarni bo'rttirib ko'rsatdilar. Ular qahramonlar xarakterini mavhum sxemaga solib, yaxshi va yomon kishilarga ajratib tasvirlaydilar. Taraqqiyparvar romantiklar ijtimoiy taraqqiyotga umid bog'lab, u insoniyatni ozodlikka olib keladi, deb ishonadilar. Taraqqiyparvar romantizmning vakillari ijodkor erkinligi, san'at erkinligini himoya qildilar. Ilg'or romantiklar oddiy insonning his-tuyg'ularini, kuchli ehtiroslarini kuyladilar. Ular san'atda milliylik bayrog'ini ko'tarib chiqdilar. Agar klassitsizm san'ati syujetni qadimgi Yunoniston va Rimdan olgan bo'lsa, taraqqiyparvar romantiklar syujetni o'z xalqi tarixidan, milliy tarixdan axtardilar. Bu esa ular ijodining demokratizmi, vatanparvarligidan darak berar edi.

VIKTOR GYUGO (1802–1885)

Viktor Gyugo Frantsiyaning zo'r iste'dodli shoiri, dramaturgi, romannavisi va publitsistidir. U ijodining takomili davomida fransuz taraqqiyparvar romantizmining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan yirik san'atkordir. Viktor Gyugo 1802 yili Bezanson shahrida ofitser oilasida tug'ildi. Otasining harbiy xizmati tufayli Gyugolar oilasi bir shahardan ikkinchisiga, bir mamlakatdan, ikkinchi mamlakatga ko'chib yurishga majbur edi. Bo'lajak yozuvchi yoshligida oilasi bilan Italiyada, Ispaniyada, Frantsiyaning bir qancha shaharlarida bo'lgan Viktor Gyugo yoshligidan boshlab fransuz ma'rifatparvar yozuvchilari va faylasuflari Volter, Russo asarlari ta'sirida bo'ladi. U litseyda fizika, matematika, falsafadan dars tinglaydi. O'quv yillarida adabiy qobiliyati tez o'sadi. 20 yoshli Viktor Gyugo «Qasidalar» nomli birinchi she'riy to'plamini nashr qildiradi. Gyugo bu davrdagi she'rlarida mustabid tuzum tarafdori bo'lib chiqadi. Faqat 1827 yili o'zining birinchi dramatik asari «Kromvel»ni yaratib, bunga kengaytirilgan muqaddima yozadi. Bu muqaddima Gyugoning taraqqiyparvar romantiklar lageriga o'tganligidan darak berar edi. Gyugo dramasiga yozgan so'zbohisida adabiy asarlarning voqealarini kontrast usulida yoritishni ilgari surdi. Adabiy asarlarda keng mubolag'alar, grotesk usulidan foydalanishni yoqladi. Klassitsizmning dogmatik qonunlariga qarama-qarshi o'laroq, Shekspir ijodidagi hayotiylikni quvvatladi. Klassitsizmning joy birligi, vaqt birligi printsiplariga, yuqori tabaqa vakillarining balandparvoz nutqiga qarshi Gyugo san'atda yozuvchining mutlaqo erkin bo'lishini talab qilib chiqdi.

U o'z asarlarida fransuz xalq tilining boyliklaridan unumli foydalandi, fransuz she'r tuzilishini yangi vaznlar, xilma-xil qofiya, milliy kolorit, keng xalq lug'ati bilan boyitdi. Viktor Gyugoning «Kromvel» dramasiga yozgan muqaddimasi taraqqiyparvar romantizm adabiyotining amaldagi manifesti, programmasiga aylanib qoldi.

O'zi ilgari surgan nazariy qarashlarini amalda isbotlash uchun Gyugo 1830 yilda «Marion Delyuro» (1829), «Ernani» (1830) kabi romantik dramalarini yaratdi. «Mapion Delyuro» dramasi syujeti

XVII asr taryaxidan olingan boʻlib, qirol Lyudovik XSVIV va uning ministri Kardinal Rishele davrini tasvirlash bilan zamonasidagi restavratsiya va qirol Karl X ning hajviy karikaturasini chizib beradi.

«Ernani» dramasida oddiy qaroqchi Erdani bilan qirol Karlos obrazlarini bir-biriga qarama-qarshi qoʻydi. Asarda yuqori tabaqa vakili boʻlgan qirolidan qaroqchi Ernani har jihatdan ustun ekanligi koʻrsatiladi. Ernani olijanob, jasur, halol, sevgida barqaror. Shuning uchun ham yuqori tabaqa vakili Dyus Sol qirolidan koʻra Ernanini afzal koʻradi. Gyugoning romantik dramasi «Ernani» Parij sahnasida qoʻyilib, keng shuhrat qozondi va yangi adabiy yoʻnalishning gʻalabasini mustahkamlashga xizmat qildi.

«Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romani (1831), «Oʻlimga hukm qilingan qizning oxirgi kuni» (1829), «Klod Gyo» (1834) kabi qissalarida Gyugo ijtimoiy mavzuga murojaat qilib, restavratsiya davrining qonxoʻrligini fosh etdi. Endi yozuvchi ijodida oddiy xalq hayoti, demokratik mavzu yetakchi oʻrinni egallay boshladi. Oʻsha-yillar voqealari Gyugo ijodida ijtimoiy masalalarga nisbatan qiziqishni kuchaytirib yubordi. Roman mavzuini Gyugo XV asr Frantsiya tarixidan oldi. Inson tarixida dinning mashʼum rolini boʻrttirib koʻrsatish maqsadida diniy boʻyoqlarni quyuglashtirib chizish uchun XV asr Parij hayoti yozuvchiga juda keng ijodiy imkon beradi.

Gyugo romanni yozishdan avval Parijning mashhur ibodatxonasini bir necha bor aylanib chiqqan, uning arxitekturasi, gotik naqshlari bilan tanishgan. Yozuvchi ibodatxonani aylanib yurib, ustunlardan biriga oʻyib yozilgan yunoncha «Ananke» soʻzini oʻqiydi - «Anadke» soʻzi taqdir, qismat degan maʼnolarni anglatar edi. Yozuvchi bu soʻzning maʼnosini kengaytirib, unga uch xil mazmun beradi. Yaʼni: din anankesi, jamiyat qonunlari anankesi hamda tabiat ofatlari anankesi. Viktor Gyugoning fikricha, inson oʻz hayoti davomida oʻsha uch xil «ananke», uch xil dogma, uch xil yovuzlik bilan kurash olib boradi.

Yozuvchi insonning dinga qarshi olib borgan kurashini tasvirlash uchun «Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romanini, shaxsning jamiyatning adolatsiz qonunlariga qarshi kurashini tasvirladi. «Xoʻrlanganlar» romanini, nihoyat, insonning tabiat ofatlariga qarshi kurashini koʻrsatish uchun «Dengiz zahmatkashlari» nomli romanini yozadi.

«Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romanida butxona atrofida roʻy bergan voqealar aks etadi: ibodatxonaning ruhoniysi Klod Frollo oʻz umrini din yoʻliga tikkan, bu dunyo quvonchlaridan voz kechgan, mutaasib odam. Butun umrini ibodatxonada oʻtkazgan bu odamning oʻzi ham din kabi juda sovuq kishiga aylanib ketgan. Ammo yoshi bir joyga borib qolgan boʻlishiga qaramay, Klod Frollo Parij koʻchalarida oʻyinga tushib, shu orqali tirikchilik oʻtkazib yuruvchi goʻzal Esmeraldani sevib qoladi. Esmeralda yosh, goʻzal va xushchaqchaq qiz. U tabiiyki, Klod Frolloning sevgisini rad qiladi. Ammo Klod Frollo qizni taʼqib etish fikridan qaytmaydi. Kunlardan birida, qorongʻida qolgan qiz Esmeraldani Klod Frollo bilan ibodatxonaning qoʻngʻiroqchisi Kvazimodo oʻgʻirlamoqchi boʻladilar. Esmeraldaning najot soʻrab qichqirgan tovushini eshitib, qirol armiyasining koʻcha patrullari yetib keladilar. Klod Frollo bilan Kvazimodo koʻzdan gʻoyib boʻlishadi. Koʻcha tartibini saqlovchi ofitser Febni Esmeralda yoqtirib qoladi. Klod Frollo endi kapitan Feb bilan Esmeraldani kuzatib yuradi. U bir kuni tunda Febni yaralab, yashirinadi. Feb jarohatidan, qiz esa qoʻrqqanidan hushsiz yiqiladi. Ofitserni kasalxonaga, Esmeraldani qamoqxonaga olib ketadilar. Qizni qirol armiyasining ofitseriga suiqasd qilishda ayblab, oʻlimga hukm qiladilar. Ammo, uni jazolash maydoniga olib ketayotganlarida, Kvazimodo qizni ibodatxonaga olib kirib ketadi. Shu tufayli qiz bir necha vaqt ibodatxonada jon saqlab qoladi. Esmeralda oʻzi singari qashshoq odamlar, loʻlilar, masxarabozlar, xullas jamiyatning eng tubanligida yashashga majbur boʻlgan odamlar orasida – tashlandiq «moʻjizalar saroyida» yashar edi. Bu yerdagi odamlar Esmeraldani qutqarish uchun ibodatxonaga yopirilib hujum qiladilar. Tunda gʻazabnok olomonga qarshi Kvazimodo yolgʻiz oʻzi kurashadi. Shaharning markazida yuz berayotgan bu toʻpolonni qurolli askarlar kelib bartaraf etadilar. Shu kuni tunda Esmeralda ham ibodatxonadan gʻoyib boʻladi. Klod Frollo yana bir bor qizga oʻz sevgisini majburan oʻtkazishga urinadi. Ammo befoyda. Natija chiqmagach, ruhoniylar qizni jallodlar qoʻliga topshiradi. Esmeraldani Grez maydonida dorga osib jazolaydilar. Kvazimodo bunga sababchi boʻlgan Klod Frolloni oʻldiradi. Oʻzi ham ibodatxonani tark qilib, Esmeraldaning jasi yonida jon beradi.

Yozuvchi asarda romantik boʻyoqlardan keng foydalanadi. Asardagi har bir voqea, har bir personaj, oʻrta asr ibodatxonasi, «moʻjizalar saroyi» tasviri romantik kayfiyat bilan hikoya qilinadi.

O`rta asr me`morchiligining, xalq dahosining ajoyib obidasi bo`lmish ibodatxona roman voqealari markazida turadi. Asar qahramonlarining deyarli ko`pchiligi taqdiri ibodatxona bilan bog`langan. Ibodatxona har bir personaj hayotida muhim rol o`ynaydi. O`rta asrchilik, feodalizm, dinning qo`rg`oni, zulm, adolatsizlik maskani sifatida tasvirlangan.

Ibodatxona vakili bo`lgan Klod Frollo o`zida oddiy kishilarga yot bo`lgan diniy aqidani mujassamlashtirgan. Uning sevgisi ham hech kimga yaxshilik, quvonch bag`ishlamaydi, aksincha atrofda qilarga o`lim urug`ini sochadi. Klodning sevgisi undagi mutaassiblikning, tarkidunyochilik aqidasining inqirozga yuz tutganidan darak beradi. Klod Frollo go`zal qiz Esmeraldaga zidlashtirib berilgan. Qiz sodda, xalq vakili. U diniy mutaassiblikdan uzoq, hayot quvonchlari, chinakam go`zallik, samimiylik barq urib turadi. Xalq farzandi Esmeralda barchaga xursandlik, zavq, quvonch bag`ishlaydi. U o`zi singari jamiyatning eng kambag`al, qashshoq vakillari orasida yashaydi. Qiz o`z atrofida qilarga sidqidildan, samimiy munosabatda bo`ladi. Kvazimodoga qilgan mehribonchiligi ham qizning olijanobligini ko`rsatuvchi fazilatlaridan biridir. Shuning uchun ham Kvazimodo Esmeraldani dildan sevadi. Uni o`limdan qutqarib, ibodatxonadan boshpana beradi. Esmeralda chinakam go`zal qiz, Feb ham xushro`y, ammo ichki dunyosi quruq berahm, sevgida beqaror. Esmeralda bu olifta yigitni chin dildan sevadi. U o`z muhabbatiga oxirigacha sodiq bo`lib qoladi. Ammo kapitan Feb kuchli ehtiros egasi emas. U Esmeraldaning cho`ng sevgisiga arzimaydigan, ichki dunyosi qashshoq bir dvoryan.

Qo`ng`iroqchi Kvazimodo ham, Esmeralda ham Feb obraziga zidlab chizilgan. Shu bilan birga, bu badbashara, xunuk, o`taketgan baxtsiz odamning qo`rqinchli tashqi qiyofasi uning boy, benihoya go`zal ichki dunyosiga nisbatan ham qarama-qarshi qilib tasvirlangan. Kvazimodo yuqori tabaqa vakillari tomonidai tahqirlangan kishi. U buyuk insoniy tuyg`u bilan Esmeraldani sevadi. Kvazimodo o`z sevgisida Klod Frollo va Febdan ustun. Chinakam xalqchil yozuvchi Gyugo Kvazimodo, Esmeralda obrazlari bilan xalqning asl farzandlarining boy ma`naviy qiyofasini tasvirlagan.

«Mo`jizalar saroyida» yashovchi qashshoq aholi, tashlandiq saroyda istiqomat qiluvchi odamlar ibodatxonaga qarama-qarshi qo`yilgan. Aslida bular feodal jamiyatining adolatsizligidan azob chekadilar. Ular ibodatxonani zulm va adolatsizlik maskani deb

tushunadilar. Shuning uchun Esmeraldani qutqarish maqsadida ibodatxonaga hujum qilgan olomon obrazi Bastiliyani ag`darib tashlagan xalqni eslatadi. Esmeraldani ibodatxona quchog`idan qutqarib olishga uringan olomon o`z ozodligi uchun zulmga qarshi kupashga otlangan isyonkor xalq harakatini gavdalantiradi. Romanning ana shu sahifalari Gyugo ijodining xalqchilligini, romantik san`atkor qalamining qudratini namoyish qiladi. Frantsiyada davlat tepasiga Lui Filipp keldi. Bankirlar qirolli Frantsiyada burjua monarxiyasi tartibini tikladi. Viktor Gyugo hali o`zining xom xayollaridan tamomila voz kechgan emas edi. Shuning uchun qirolli Lui Filipp Viktor Gyugoni o`ziga yaqin tutish maqsadida unga graflik unvonini berib, merlar palatasining a`zosi qilib tayinlaydi. 1841 yilda Gyugo fransuz akademiyasiga saylanadi. Lekin u o`zining demokratik qarashlaridan yuz o`girmaydi. Gyugo 1848 yilda qonun chiqaruvchi majlisning deputati qilib saylandi. 1848 yil inqilobi vaqtida Viktor Gyugo burjua respublikasi tuzumini qo`llab-quvvatlaydi. Ammo Lui Bonapart 1851 yili davlat to`ntarishi qilib, o`zini imperator deb e`lon etgach, Gyugo Napoleon III siyosatiga keskin qarshi chiqadi va u 1851 yilda Frantsiyadan chiqib ketib, Gernsey orollarida muhojirlikda yashaydi. Yozuvchi Napoleon III ni qoralab, «Kichik Napoleon» pamfleti hamda «Qasos» nomli hajviy to`plam yaratadi. Viktor Gyugo davlat to`ntarishining mohiyatini tushunmasdan, o`z pamfletida Napoleon III roliga ortiqcha baho beradi. Viktor Gyugo bu voqeani ayrim kishining zo`rlilik qilishi debgina biladi. U bu kishini kamsitish o`rniga, uni shaxsiy tashabbuskorlik jihatidan jahon miqyosida tarixda misli ko`rilmagan kuchli kishi deb ulug`laganini payqamaydi.

Viktor Gyugo ikkinchi imperiya davrida (1851–1870) Gernsey orollarida yashab ijod qiladi. Viktor Gyugo quvg`inda yurar ekan, ijtimoiy adolatsizlik bilan kurashni to`xtatmadi.

«Gernsey quvg`ini»ning ovozi hamma vaqt insof va adolatning odil sudyasi bo`lib jaranglab turdi. Gyugo quvg`inda ijtimoiy mavzudagi «Xo`rlanganlar», «Dengiz zahmatkashlari», «Kulgich kishi» nomli romanlarini yozdi. Adib ijtimoiy masalalar bobida, sinfiy jamiyatni o`zgartirish borasida idealist-utopist bo`lib qoldi. Uning so`nggi yillarda yaratgan asarlaridagi qarama-qarshiliklar yozuvchi dunyoqarashida idealistik falsafaning, gumanistik tushunchalarning davom etayotganini ko`rsatadi. Viktor Gyugo «Xo`rlanganlar» romanini yozar ekan, burjua tuzumi

sharoitida xor-zorlikka, tubanlikka tushgan, xo'rlangan kishilar qismatining ayanchli ekanini ko'rsatadi. Ammo ularni bu ahvoldan qutqarishning to'g'ri yo'lini belgilab bera olmaydi. U jamiyat a'zolarini axloqiy jihatdan tarbiyalab, adolat o'rnatish mumkin deb hisoblaydi. Yozuvchining fikricha, burjua tuzumidagi jinoyatlarni qonun, qamoq, surgunlar bilan, yoki jazo usuli bilan tuzatish mumkin emas. Burjua jamiyatining qonunlari yomon odamlarni qayta tarbiyalashdan o'jiz. Shuning uchun u o'z qahramoni Jan Valjan obrazi misolida ana shu fikrini isbotlashga urinadi. U kishilarni tarbiyalashga insof, saxiylik, yomonlikka yaxshilik qilish, gunohni kechirish yo'li bilan erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Roman qahramoni Jan Valjan oddiy kambag'al kishi. U bir bo'lak non o'g'irlab, o'n to'qqiz yil mobaynida surgunda yuradi. Nihoyat, uni ozod qiladilar. Jan Valjan o'ziga boshpana bergan yepiskop Mirielnikida tunab, uning kumushlarini o'g'irlab ketadi. Jan Valjanni tutib kelgan politsiya vakillariga qarab yepiskop Miriel: bu kishi o'g'ri emas, kumushlarni unga o'zim sovg'a qilib berganman, deydi. Mana shu bir og'iz so'z, yomonlikka yaxshilik qilish, go'yo Jan Valjan fikrini, ichki dunyosini tamomila o'zgartib yuboradi. Endi u mutlaqo to'g'ri, olijanob odamga aylanadi. Bundan buyon Jan Valjanning qiladigan ishi hammaga yaxshilikdan, mehribonlikdan iborat bo'lib qoladi. U o'zi tashkil qilgan korxonasiga kambag'allarni, qari chol, yosh bolalar, ayollarni ishga oladi. Bu saxiy odam tezda hurmat qozonib, janob Madlen nomi bilan mashhur bo'ladi. Bu saxiy fabrikant Shgantrop hamda shahar meri Fantina ismli kambag'al ayolga, uning qizi Kozettaga yordam beradi. Politsiya uning o'rniga Shanmate ismli bir kishini nohaq tutib olganda, sudda o'zining Jan Valjan ekanini e'tirof qiladi. Begunoh odamni qutqarib yuboradi. O'zi politsiya qo'lga tushib qolmaslik uchun Kozettani olib Parijga qochib ketadi.

Agar Jan Valjan yepiskop Miriel targ'ib qilgan oliy haqiqatni o'zida ifodalasa, politsiya inspektori Javer burjuaziya jamiyati qonunlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ular ikkalasi bir-biriga qarama-qarshi harakat qiladi. Asar davomida Javer asta-sekin o'z prinsiplaridan qaytib, Jan Valjanning olijanobligi oldida taslim bo'ladi va oxirida o'zini o'zi o'ldiradi. Agar Jan Valjan yepiskop Mirielning ta'sirida rahm-shafqatli kishiga aylansa, Javer Jan Valjan ta'siri ostida o'z tushunchalaridan qaytib, o'zining qattiqqo'lligini ko'ngilchanlikka almashtiradi. Har ikki obraz Gyugoning xohishi

bilan, real hayotiy qonun mantiqi asosida emas, balki mavhum haqiqatlar qonuni bilan ish ko`radilar. Gyugo asarining bunday utopik g`oyasi burjua sharoitida xom xayollik edi. «Xo`rlanganlar» romanining pafosi shundaki, yozuvchi burjua tuzumining adolatsizliklarini fosh qiladi. O`sha jamiyat tomonidan xo`rlangan Fantina, Kozetta singari ayollarning, Gavrosh singari ko`cha bolalarining ayanchli ahvolini ko`rsatib beradi. Ming-minglab xo`rlanganlar taqdiriga burjua tuzumi aybdor ekanligiga kishi diqqatini tortadi. Gyugo o`z qahramonlari Miriel, Jan Valjan orqali xalqqa, uning kelajagiga bo`lgan ishonchini ifodalagan.

Asardagi eng jozibador lavha – 1832 yilgi Parij qo`zg`oloni va barrikada janglari tasviri hisoblanadi. Gyugo respublikachilarni, hukumat qo`shinlariga qarshi qahramonlarcha jang qilgan Sen-Deni ko`chasi bahodirlarini madh qiladi. Qo`zg`olonchilar boshlig`i Anjolras, ko`cha bolasi Gavroshlarning jasoratini tasvirlaydi. Xalq qo`zg`olonini aks ettirgan barrikada janglari tasviri Viktor Gyugo ijodining chinakam demokratizmini namoyish qiladi. «Xo`rlanganlar» romani, yozuvchi dunyoqarashidagi ziddiyatlarga qaramay, keng ijtimoiy masalalarni o`rtaga tashladi. Gyugo bu asarida oddiy kishilar, jabrdiydalar, xo`rlanganlarning himoyachisi bo`lib chiqdi. Yozuvchining demokratik va insonparvarlik qarashlari, ayniqsa Gavrosh qatnashgan ko`cha janglari manzarasida namoyon bo`ladi. Gavrosh kurashayotgan Parij xalqining timsolidir. Bu bola fransuz xalqining milliy xarakterini o`zida mujassamlashtirgan.

Gavrosh boshpanasiz ko`cha bolasi, ammo u sira tushkunlikka tushmaydi. Hamisha xalq bilan birga, qo`zg`olonchilar orasida bo`ladi. Quvnoq qo`shiq aytib qo`zg`olonchilarni jangga ruhlantiradi, ularga o`q-dori topib beradi. «Gavrosh... hamma bilan so`zlashar, shamolday hamma yerda izg`ib yurardi. U ishyoqmaslarni uyaltirar, yalqovlarni rag`batlantirar, charchaganlarga dalda berardi; bir minut ham to`xtamas va jim turmas edi».

1870 yilgi Frantsiya-Prussiya urushi Frantsiyaning mag`lubiyati bilan tugadi. Napoleon III hukmronligi yemirilgach, Viktor Gyugo vataniga qaytdi. Gyugo Frantsiya-Prussiya urushi voqealariga bag`ishlab «Dahshatli yil» (1872) to`plamini yaratadi. Bu she`riy to`plamda ham yozuvchi dunyoqarashidagi ziddiyatlar aks etgan.

Respublika konventi markiz de Lantenak boshliq to`daga qarshi kurashish uchun Goven rahbarligida otryad yuboradi. Goven

muvaqqiyatli operatsiyalar olib borib, dushman kuchlarini tor-mor qiladi. Markiz de Lantenak o'ziga odamlari bilan eski qal'aga yashirinadi. Qal'ani o'rab olgan respublikachilarga taslim bo'lishni istamay, Lantenak uyga o't qo'yib yuboradi va tutundan foydalanib, qal'adan chiqib ketadi. Dushman o'zi bilan Fleshar ismli kambag'al ayolning uchta yosh-yosh bolalarini ham ergashtirib olgan edi. Flesharning dod-faryodini ko'rgan markiz de Lantenak yana yonayotgan qal'aga qaytib kiradi va yosh bolalarni ko'tarib respublikachi soldatlar yoniga tushadi. Bu yerga komandir Govenning faoliyatini tekshirish uchun Parijdan konvent a'zosi Simurden kelgan edi. Simurden markiz de Lantenakni qamoqqa oladi. Uni o'lim jazosi kutmoqda. Shu kuni kechasi Lantenak yoniga Goven kirib, uni ozod qilib yuboradi. Ertasi kuni markiz de Lantenakni jazolash uchun kelgan Simurden uning o'rnida Govenni ko'radi. Ashaddiy yovuz dushmanni qo'yib yuborgani uchun Simurden Govenni o'linga hukm qiladi. Ammo Govenning kallasi olinishi bilanoq, Simurden ham o'zini-o'zi o'ldiradi.

Gyugo bu romanida uch toifadagi kuchning vakillarini ko'rsatdi. Birinchisi respublikaning ashaddiy dushmani markiz de Lantenak. Ikkinchisi yakobinchi, terrorist, mutaassib Simurden. Uchinchisi respublikachi Goven. U respublikani himoya qiladi. Respublika dushmanlariga qarshi kurash olib boradi. Ammo u o'zida dushman taslim bo'lgach, uni kechirish kerak, degan Gyugoning rahmdillik qarashlarini ifodalaydi. Goven Lantenakka qarshi kurashsa ham, o't ichidan yosh bolalarni olib chiqqani uchun uni kechiradi, qochirib yuboradi. Yirtqich dushmanga nisbatan rahm-shafqat qiladi. Aslida Goven Lantenakka qarindosh, lekin buning uchun emas, bolalarga rahm qilgani uchun uni afv etadi. Simurden esa Govenning tarbiyachisi. Lekin Simurden kimki respublika ishiga xiyonat qilsa, uni albatta jazolash kerak, deb hisoblaydigan yakobinchi terrorist.

Shunday qilib, asar qahramonlari taqdiri misolida mehr-shafqat falsafasi ilgari suriladi. Jamiyat taraqqiyoti qonunlari mohiyatini to'g'ri tushunmagan Gyugo mehr-shafqat hurriyatini ko'rsatadi.

Bularga qaramay, romanda tasvirlangan voqealarning keskinligi, romantik lavhalar, asosiy qahramonlar obrazining zidlov usulida chizib berilishi san'atkorning juda katta mahoratini ko'rsatadi. Asar xalq ommasi qatnashgan sahnalarga, ko'tarinkilik bilan yozilgan voqealarga juda boy. Roman tafsiloti keskin

ziddiyatlar, notiqlik uslubi, xalq iboralari, maqollari va matallari bilan to'lib-toshgan. Asar kompozitsiyasi ham murakkab qurilgan. «To'qson uchinchi yil» romanining tili ohangdor, rang-barang. Gyugo bu asarda ham ramziy obrazlardan foydalanadi. Masalan, eski feodal qal'asi Turg xuddi Bastiliyani eslatadi. Roman san'atkor ijodidagi ziddiyatli to'qnashuvlar bilan birga, yozuvchi mahoratining azamat kuchini, qudratini ham namoyish qildi. Bu tarixiy romani bilan Gyugo davrning ulkan epopeyasini, kurash romantikasini gavdalandirib berdi.

Viktor Gyugo uzoq yillik umri davomida juda ko'p she'rlar, dramalar, yirik romanlar hamda publitsistik asarlar yaratdi. Deyarli barcha asarlarida bu buyuk inson xalq baxtini, ozodligini, tengligini kuyladi. Uning kitoblari sahifalaridan oddiy, faqir odamlarning haq-huquqlarini talab qilib chiqayotgan buyuk adolatparvar kishining, insonparvar oliy bir zotning ovozi eshitilib turadi. Butun XIX asr davomida demokrat yozuvchining tinchlik deb jar solgan qat'iy so'zi yangradi. U umrining oxirigacha mustabidlarga, din arboblari, burjua reaksionerlariga qarshi kurash olib bordi. Shuning uchun ham umrining oxirigacha reaksiya lageri ulug' yozuvchiga bo'lgan salbiy qarashini yashirmadi.

Viktor Gyugoning hayoti va ijodi kishilar uchun qimmatli va tushunarlidir. Gyugo demokratiya va ozodlikning, hayot quvonchlarining, insonga, uning mehnatiga bo'lgan muhabbatning kuychisi edi. U xalqlarning erkinligi, mustaqilligi va milliy madaniyatining qizg'in tarafdori edi. Bosqinchilik urushlari, reaksiya, xoinlik, kishining kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishining murosasiz dushmani edi.

Viktor Gyugo ijodiga qiziqish milliy respublikalarda, jumladan O'zbekistonda juda erta boshlangan. 1928 yili To'lakov tomonidan Viktor Gyugoning «Xo'rlanganlar» nomli romanidan «Gavrosh» parchasi o'zbek tiliga tarjima qilingan edi. Tarjimachilik 30-yillarga kelib avj ola boshlaganda, Nabi Alimuhamedov tomonidan V. Gyugoning «Dengiz zahmatkashlari» (1938 yil) romani o'zbek tiliga ag'darildi va alohida kitob bo'lib bosilib chiqdi.

Urush yillarida (1941 yil) Viktor Gyugoning «Xo'rlanganlar» romanidan «Kozetta» nomli parcha o'zbek tiliga tarjima qilinib, alohida kitobcha holida bosilib chiqdi.

Maktablar dasturida buyuk fransuz yozuvchisining o'tkir ijtimoiy romani «Xo'rlanganlar»dan «Gavrosh» parchasi berildi. Ana

shularning barchasi o'zbek kitobxonlarining Viktor Gyugo ijodiga katta hurmatini ko'rsatadi.

JORJ SAND (1804–1876)

XIX asrning 30-40-yillari Frantsiyada keskin kurashlar davri bo'ldi. Iyuldan keyin o'rnatilgan monarxiya tartiblari adabiyotga yangi mavzu, yangi qahramonlar olib kirdi. Bu davrga kelib mehnatkash xalq ahvoli juda ham og'irlashib ketdi va bir qancha yozuvchilarning diqqatini o'ziga tortdi. Bular orasida Jorj Sand o'zining ijtimoiy mavzudagi asarlari («Sayyoh shogirdlar», «Oras», «Janob Antuanning gunohi») yaratildi. Bu yozuvchilarning har biri xalq hayoti, ijtimoiy masalalarni har xil talqin qiladi. Mehnat ahlining og'ir ahvolini ko'rsatgan asarlar «Kontinentdagi harakatlar» nomli maqolada alohida qayd qilingan. «Romanning xarakterida,— deb yoziladi,—keyingi o'n yil ichida qahramonlari bo'lgan qirollar va shahzodalarning o'rnini hozir tahqirlanuvchi, turmushi va taqdiri, shodligi va azob-uqubatlari romanlarga mazmun bo'layotgan kambag'allar egallayotganini nemislar fahmlay boshladilar; nihoyat, ular yozuvchilar o'rtasidagi bu yangi oqim,— Jorj Sand, Ejen Syu va Boz (Ch. Dikens— *Red.*) shu oqimga mansub yozuvchilardir,— bu shubhasiz, zamon belgisidir».

Aytgan yozuvchilar, jumladan, Jorj Sand xalqning og'ir ahvolini xayoliy sotsialistlar targ'ib qilgan yo'l bilan o'zgartishni maslahat berdilar. Lekin ularning ana shu kamchiliklariga qaramay, oddiy xalq vakilini, mehnat kishisini, uning azob-uqubatlarini asarga olib kirish o'z davri uchun katta jasorat edi.

Jorj Sand o'zining ko'p sonli romanlarida ana shu demokratik mavqeda turdi. Asl ismi Avrora Dyudevan, ammo adabiyotda Jorj Sand taxallusi bilan mashhur bo'lgan bu ayol 1804 yili Parijda tug'ilgan.

Bo'lajak adibaning otasi dvoryanlarga mansub bo'lib, onasi oddiy tabaqadan edi. Uning otasi o'lgach, buvisi qo'lida tarbiya oladi. Katolik monastiri qoshidagi pansionda o'qiydi. Russo, Volter, Shatobrian hamda Bayron asarlarini sevib o'rganadi. 1822 yili baron Kazimir Dyudevanga turmushga chiqadi. Ammo eri bilan Jorj Sand o'z qarashlariga ko'ra boshqa-boshqa odamlar bo'lib chiqadilar.

1831 yili erining nikohidan chiqib, mustaqil hayot kechira boshlaydi. U Parijning adabiy muhiti, jurnalistlar, xayoliy sotsialistlar bilan yaqinlashadi. «Figaro», «Mustaqil kuzatish», «Islohot», «Xalq ishi» hamda «Respublika byulleteni» kabi gazetalarda adabiy hamkorlik qiladi.

Jorj Sand ijodini, xarakteriga ko'ra, uch davrga bo'lish mumkin. Birinchi davrda yozuvchi o'zining «Indiana» (1831), «Valentina» (1832), «Leliya» (1833), «Jak» (1834) singari asarlarida yakka-yolg'iz romantik qahramonlar hayotini hikoya qilib berdi. Jorj Sand bu davrdagi romanlarida ayollar ozodligi masalasini ko'tarib chiqdi, oilada davom etib kelayotgan, ayollarning insoniy yetukligini oyoq osti qiladigan tartiblarga, erkaklarning zulmiga qarshi kurash ochdi.

Jorj Sand ijodining ikkinchi davri 40-yillardan boshlanadi. Bu davrda Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Frantsiyada siyosiy kurash ko'tarinkiligi hukm surar edi. Jorj Sandning ijtimoiy temadagi «Sayyoh shogird» (1840), «Oras» (1841), «Konsuelo» (1842–1843), «Anjibolik tegirmonchi» (1845) hamda «Janob Antuanning kufr ishlari» (1847) kabi asarlari ana shu davr ta'sirida yaratilgan.

Jorj Sand ijodining uchinchi davrida siyosat maydonidan uzoqlashib, uning asarlarida ijtimoiy-siyosiy tema ko'rinmay qoladi. Adibaning shundan keyingi ijodi uchun qishloq dehqonlari hayotidan olingan «Kichkina Fadetta» (1848), «Topildiq-Fransua» (1848) qissalari, «Qo'ng'iroqchilar» (1853) romani xarakterlidir. Yozuvchi umrining so'nggi yillarida xalq og'zaki ijodidan foydalanib, «Momo ertaklari» (1873) nomli to'plamini nashr qildiradi.

Yozuvchining «Indiana» nomli birinchi romani o'z huquqi, erki, sevgisi uchun bosh ko'targan isyonkor ayol hayotini hikoya qiladi. Asar qahramoni Indiana romantik siymo. U mustaqil, irodali ayol. Indiana harbiy kishi Delmarga turmushga chiqqan. Ammo Delmarning qo'polli, xotinini kamsitishi Indianani undan uzoqlashtiradi. Indiana Raymon nomli olifta yigitni sevadi. Yigit ham meni chin yurakdan sevadi, deb o'ylaydi. Indiana erini tashlab, sevgani bilan bo'lishni ochiq aytganda, Raymonning soxtaligi, qo'rqqoq odam ekanligi ravshan bo'ladi. Chunki Raymon chuqur muhabbat tuyg'ularidan yiroq. Indiana eri polkovnik Delmardan qanchalik nafratlansa, sevgani Raymondan ham yuz o'giradi. Asarga

uchinchi qahramon – Ralf kiritiladi. Ralf Delmar, Raymonlarga nisbatan Indianani jon-dili bilan sevadi. Umidsizlikka tushib, halokat yoqasiga kelib qolgan, odamlardan aldangan Indianani Ralf hayotga qaytaradi. Ralf bilan Indiana odamlardan yiroqda, uzlatda, tabiat quchogʻida yashashga qaror qiladilar. Jorj Sand oʻzining romantik qahramonlariga boshqa yoʻl, oʻzga bir manzilgoh topib bera olmaydi. Yozuvchi Delmar obrazida Napoleon armiyasi ofitserining dagʻalligini fosh qilsa, Raymon obrazida restavratsiya davrining printsipsiz vakillari basharasini ochib tashlaydi. Shunday qilib, «Indiana» romani faqat ayollar ozodligi mavzuini emas, balki 30-yillar Frantsiyasida hukm surayotgan zoʻrlilik, adolatsizliklarni keskin ayblagan qamrovdor roman hamdir.

Jorj Sandning «Indiana» romani uning buyuk zamondoshi Balzakning tahsiniga sazovor boʻldi.

Adibaning «Valentina» nomli romani ham ayollar huquqi mavzuiga bagʻishlangan. Bu romanda yozuvchining oʻz davri tartiblarini tanqid qilishi yana chuqurlashadi.

Frantsiyada sodir boʻlayotgan ijtimoiy hodisalar keng xalq vakillarini, barrikada jangchilarini kuylashni taqozo qiladi. Endi Jorj Sand ijtimoiy temadagi «Sayyoh shogird», «Anjibolik tegirmonchi», «Janob Antuanning kufr ishlari» kabi romanlarini yaratdi. Bu asarlarida adiba taʼmagirlikni, boylikka mukkasidan ketgan kishilar obrazi galereyasini yaratadi. Oʻz farzandlarining baxtini pulga almashtirgan («Anjibolik tegirmonchi»), qoʻl ostida mehnat qilayotgan odamlarni ayovsiz talayotgan («Janob Antuanning kufr ishlari») Brikolen va Kardonnellarining jirkanch qiyofasini ochib tashlaydi.

Jorj Sandning «Oras» romani(1841)da oʻtgan asrning 40-yillari uchun tipik boʻlgan burjua vakili obrazi yaratilgan. U orqali qoʻlidan biror ish kelmaydigan, ammo oʻzini har jihatdan qahramon qilib koʻrsatishga uringan vaysaqi odam fosh qilingan. Oras obrazi roman yaratilayotgan yillar Frantsiyasi uchun tipik edi.

Ota-onasining erka arzandasi Oras Parijga kelib shuhrat qozonish, nom chiqarishni oʻylaydi. Ammo na mehnat, na ijob qilish, na kurashishning uddasidan chiqmaydi. 1832 yil iyunidagi barrikada janglaridan qochadi, mehnat qilishni or deb hisoblaydi. Oras mahmadonachilikdan nariga oʻtmaydigan, birovlar hisobiga yashab, birovlar hisobiga shuhrat qozonish payida yurgan yigitlarning xarakterli obrazidir. Jorj Sand Oras obrazi orqali romantik

qahramonning sharmandasini chiqaradi. Faol harakat qilishdan mahrum bo'lgan, quruq vaysash bilan ovora bo'lgan tekinxo'mi masxara qiladi. Asarda Oras obraziga qarama-qarshi qilib, oddiy ishchi Pol Arsen, student Laravinerlar obrazi yaratilgan. Agar Oras 1832 yilgi Sen-merri ko'chasidagi barrikada janglaridan qo'rqoqlarcha qochgan bo'lsa, Pol Arsen bilan Laravinerlar jonbozlik ko'rsatadilar. Yozuvchi burjua vakillarining vaysaqiligiga xalqdan chiqqan oddiy kishilarning olijanob fazilatlarini qarama-qarshi qo'yib, mehnat kishilarining axloqiy jihatdan yuksak odamlar ekanligini ta'kidlaydi.

Jorj Sand «Konsuelo» (1842– 1843) nomli romanida jamiyatda san'at va san'atkorning burchi masalasini ko'tarib chiqadi. O'zining demokratik qarashlariga sodiq yozuvchi qahramonlarini xalqqa xizmat qilishga, o'z san'atini xalq uchun bag'ishlashga undaydi.

Jorj Sand ijodining uchinchi davri 1848 yilga to'g'ri keladi. Bu vaqtda ziddiyatlar yanada keskinlashib, chuqurlashib ketdi. Shu paytgacha qadar Jorj Sand utopik sotsialist Sen-Simonning shogirdlari bo'lgan Per Leru hamda Lamennelar ta'sirida bo'lib, xalqlarning baxtini tinchlik yo'li bilan amalga oshirish g'oyasini ilgari surib kelgan edi, keyinchalik siyosiy masalalardan uzoqlashadi,

Iste'dodli romannavis Jorj Sand ijodini rus tanqidchiligi yuqori baholagan. V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, A.I.Gertsen, M.E.Saltikov-Shchedrinlar fransuz yozuvchisining ijodiga katta hurmat bilan qaranlar.

XIX ASR TANQIDIY REALIZM ADABIYOTI

Jahon adabiyoti tarixida tanqidiy realizm XIX asrning 20-yillari oxirida paydo bo'lib, 30–40-yillarda o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tarildi. Bu jarayonning yuzaga kelishi Yevropada (Angliya va Frantsiya) XIX asrning birinchi yarmiga, Amerika Qo'shma Shtatlari hamda slavyan mamlakatlarida XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Tanqidiy realizm, asosan, ijtimoiy roman janrida (Balzak, Dikens) o'z ifodasini topadi. Bu adabiyot jamiyat ziddiyatlari kuchayib borayotgan paytda, qarama-qarshilik keskinlashgan sharoitda kelib chiqadi.

XIX asrning birinchi choragiga kelib Yevropaning bir qancha mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlari avj olib ketadi

Tanqidiy realizm adabiyotining buyuk namoyandasi Onore de Balzak o`z asarlarida o`zi yashab turgan davr hayoti qonunlarini, bu qonunlarni boshqarayotgan kuchni, uning xarakterini, tipik belgilarini kashf etdi. Balzak «Inson komediyasi» deb nomlangan ulkan romanlar silsilasida burjua jamiyatining axloqiy, falsafiy tomonlarini chuqur tahlil qilib berdi. U burjua tuzumini harakatga keltiradigan asosiy kuch pul, oltin ekanligini isbotladi.

Balzak «Beyl haqida etyud» nomli risolasida Stendalning «Parma ibodatxonasi» romanini tahlil qilib, bu asardagi obrazlar va voqealarning tipikligini ko`rsatdi, badiiy umumlashma hayotiy haqiqat bilan qo`shilib ketganligini ta`kidladi. Chunki Balzakning o`zi detallarni haqqoniy, xarakterlarni tipik tarzda ifodalab berar edi.

Tanqidiy realizm ijtimoiy muhitni chuqur aks ettirdi. Agar romantik yozuvchilar o`z qahramonlarini real muhitdan ajratib tasvirlagan bo`lsalar, tanqidiy realistlar qahramonni o`zi yashab turgan muhit bilan uzviy bog`liq holda ko`rsatadilar. Tanqidiy realizm adabiyotidagi tipik qahramon xarakteri ijtimoiy xarakterdir.

Margaret Garknessga yozilgan xatda: «Realizm detallarning haqqoniyligidan tashqari, tipik xarakterlarning tipik sharoitda haqqoniy tasvirlanishini ham taqozo etadi», deb ko`rsatilgan. Bu talab Stendal, Balzak, Dikens, Flober kabi san`atkorlar ijodida o`z ifodasini topgan.

Stendalniig Jyulen Sorel, Balzakning Votren, Rastinyak, Dikensning Nikolas Nikklbi, Tekkereyning Rebekka Sharp kabi qahramonlari tipik sharoitning tipik obrazlari hisoblanadi.

Tanqidiy realizm san`atining qaror topishida Stendal qarashlari ham muhim rol o`ynadi. Stendal o`ziniig «Rasin va Shekspir» (1825) risolasida san`at va san`atkorning roli haqida gapirar ekan, XVIII asr ma`rifatparvarlariga ergashadi. Klassitsizm san`atining qotib qolgan dogmalariga qarshi, san`at ijtimoiy hodisa ekanligini, u davrlar o`tishi bilan o`zgarib turishini ko`rsatadi. Stendalning fikricha, san`at ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishi, o`z davrining o`tkir kurash quroli bo`lishi kerak. San`atkor o`z san`atiga ommani ishontirishi, o`zi ketidan ergashtirishi lozim. Uning «Rasin va Shekspir» risolasi o`z g`oyasiga ko`ra tanqidiy realizmning manifesti vazifasini o`tadi.

Tanqidiy realizm romantizmdan farqli o`laroq, tasvirlayotgan voqea va hodisalarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. U har bir voqea va hodisaga tarixiy jihatdan konkret yondashadi. Shuning uchun tanqidiy realizm adabiyotida tarixiylik muhim rol

o'ynaydi. Tanqidiy realizm adabiyoti ekspluatatsiyaga asoslangan tuzumni, uning vakillarini ayovsiz fosh qilib tashlaydi. Agar yozuvchi tasvirlayotgan voqea-hodisalarga tanqidiy yondashmasa, tanqidiy realizm adabiyotining vakili bo'la olmaydi. Chunki burjua tuzumi haqida haqiqatni gapirish o'sha tuzum illatlarini ko'rsatishni taqozo qiladi. «Ajoyib ingliz romanistlar pleyadasi»ni tashkil qiluvchi Dikkins bilan Tekkerey, miss Bronte va mister Gaskell hamda Balzaklar o'z asarlarida kapitalizm dunyosiga nisbatan ana shunday murosasiz munosabatda bo'lganlar. Bu yozuvchilar o'z qahramonlarining ichki dunyosini butun murakkabligi va psixologizmi, bilan yoritib bera olganlar.

FREDERIK STENDAL **(1783 – 1842)**

Frederik Stendal Frantsiyaning Grenobl shahrida advokat oilasida tug'ildi. Bo'lajak yozuvchining onasi erta vafot etib ketadi, otasi esa o'g'lining tarbiyasi bilan shug'ullanmaydi. Stendal maktabda tahsil ko'rar ekan, XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlarining asarlarini qiziqib o'qiydi. Natijada u erksevarlik g'oyalari bilan tarbiyalanib, din va reaksiyaga nafrat bilan qaraydi. O'qishni tamomlagach, Stendal Parijga politexnika maktabiga keladi. Ammo o'qishga kirolmaydi va harbiy ministrlikka ishga joylashib, Napoleon Bonapartning harbiy yurishlarida ishtirok qiladi. Stendal fransuz armiyasi safida Italiya, Germaniya va Rossiyada bo'ladi. 1812 yili Moskvaga kelgan Stendal rus xalqining Vatan urushiga otlanganini, uning fidoyiligini ko'radi.

1814 yilda Napoleon taxtdan tushgach, reaksiya avjga chiqib, hurriyatchilik g'oyalarga barham beradi. Stendal Italiyaga ketadi. Bu yerda Italiya vatanparvarlarining Avstriya zulmiga qarshi olib borayotgan milliy-ozodlik kurashi – karbonarlar harakatiga xayrixohlik bildiradi. Italiyani, uning quvnoq, mehnatsevar xalqini sevib qolgan Stendal bu mamlakat hayotiga oid bir necha asarlar yaratadi. 1821 yili karbonarlarga yaqinlikda ayblangan Stendal Frantsiyaga qaytishga majbur bo'ladi. 1830 yili Italiyaning Chivita – Vekkia shaharchasiga fransuz konsuli bo'lib tayinlanadi. Tashqi ishlar sohasidagi vazifasi tufayli Parijga tez-tez kelib turadi. 1842-yili Stendal Parijda to'satdan vafot etadi.

Stendal zamonasining keng iqtidorli kishisi edi. Uning ijodi xilma-xil janrlarni, san'atning turli sohalarini qamrab oladi. Uning beshta romani, «Italiya yilnomalari» nomli novellalar to'plami, «Anri Bryular hayoti», «Avtobiografik maktublar», «Egoistning esdaliklari» kabi asarlari, kundalik va xotiralari saqlanib qolgan.

Stendalning fransuz imperatori to'g'risida yozgan «Napoleon hayoti», «Napoleon haqida xotiralar», shuningdek, «Rim», «Neapol», «Florentsiya» nomli yo'l lavhalari, «Rim bo'ylab sayohat», «Turist xatlari» nomli esdaliklari bor. Avtorning bu asarlarida falsafiy, siyosiy hamda estetik mulohazalari bayon etilgan.

Stendal muzika, teatr va boshqa san'at turlarini juda yaxshi his qila olgan, «Italiyada tasviriy san'at tarixi», «Gaydn, Motsart va Metastazio hayoti» nomli asarlari buni ko'rsatib turibdi.

Stendal XVIII asr ma'rifatparvarlarining falsafiy va estetik qarashlarini chuqur o'rgandi, ayniqsa Gelvetsiy ta'limotini targ'ib qildi. U din va ilohiyot g'oyasini rad etdi. Adib san'atda haqqoniylikni yoqlab chiqdi. «Rasin va Shekspir» nomli risolasida realizm printsiplarini ilgari surdi. Klassitsizm epigon taqlidchilarini tanqid ostiga oldi. «Rasin va Shekspir» risolasi yozuvchining badiiy programmasi sifatida maydonga kelgan edi. Stendal ikki buyuk tragik shoir ijodini tahlil qilarkan, Shekspir asarlaridagi hayotiylikni alohida qayd qiladi. Shekspir ijodidagi xalqchillik, realizm uni Rasin ijodidan ajratib turadigan xususiyatlar ekanini uqtiradi. Stendalning fikricha, Shekspir ingliz xalqi uchun ijod qilgan bo'lsa, Rasin ijodi Lyudovik XIV ning saroy amaldorlariga bag'ishlangandir. Fransuz yozuvchisi klassitsizm adabiyotining vaqt va joy birligi qonunlarini qoraladi. «Rasin va Shekspir» risolasida buyuk ingliz dramaturgi ijodiga ijobiy baho berish bilan Stendal o'zining realistik printsiplarini himoya qilib chiqdi. Stendal o'z zamonasining hayotini, ijtimoiy kuchlarning harakatini, ijtimoiy tiplarni chuqur o'rganishga chaqirdi.

Stendal Italiyada ekanligida bu mamlakat vatanparvarlarining Avstriya zulmiga qarshi olib borayotgan milliy-ozodlik kurashiga xayrixohlik bilan qaraydi. Yozuvchi ajoyib novellasi «Vanina Vanini»ni ana shu kurash mavzuiga bag'ishladi. Asar qahramoni – yosh karbonar Petro Missirilli. Bu jo'shqin erksevar yigit vatanini ozod qilishga bel bog'lagan yoshlar tashkilotining taniqli rahbari. U yarador holda politsiya ta'qibidan qocha turib, bir zodagon xonadoniga yashirinadi. Bu xonadonning qizi Vanina Vanini bilan

Petro Missirilli sevimli qoladilar. Petro Missirilli vatani ozodligini o'z hayotining mazmuni deb biladi. Bu hol Vanina Vanini uchun g'ayritabiiy tuyuladi. Qiz sevgan yigitini karbonarlar harakatidan ajratish va uni tamomila o'ziga qaratib olish maqsadida maxfiy tashkilot a'zolarining nomlarini politsiyaga ma'lum qiladi. Bu Petro uchun sotqinlik bilan barobar bo'ladi va o'z sevgisidan kechib yuboradi.

«Qizil va Qora» romani syujeti 1827 yili gazetada bosilgan sud voqealaridan olingan. Antuan Berte nomli yigit o'zi o'qituvchilik qilgan xonadon bekasi Mishu xonimga suiqasd qilgan va buning uchun u o'lim jazosiga hukm etilgan. Stendal ana shu sud xronikasini olib, uni badiiy jihatdan qayta ishlab yirik, salmoqdor asar yaratadi.

«Qizil va Qora» romanining qahramoni kambag'al duradgorning o'g'li Jyulen Sorel. U maktabda yaxshigina bilim olgan, qobiliyatli, shuhratparast yigit. Jyulen Sorelning harakat doirasi Verer, Bezanson, Parij shaharlari bilan belgilangan.

Verer shahrining meri zodagon janob de Renal Jyulen Sorelni bolalariga tarbiyachi qilib oladi. Sorel bu xonadonda yuqori tabaqa vakillari bilan yaqindan tanishadi. Uy bekasi Renal xonimning sevgisini qozonadi. Renal xonim bilan Jyulen Sorelning xatti-harakatlarini qoralagan xatlar ko'payib ketganidan so'ng janob de Renal bu gap-so'zlarga chek qo'yish uchun tarbiyachi yigitni Bezanson shahariga diniy seminariyaga o'qishga jo'natadi.

Sxolastik bilim berish usuli, har qadamda studentlarni ta'qib ostiga olish, ular ketidan josuslik qilish singari seminariya tartiblari qobiliyatli qahramonni qanoatlantirmaydi. Endi Jyulen Sorel diniy seminariyani tashlab, o'z baxtini sinab ko'rish maqsadida Parijga qarab yo'l oladi. Jyulen Sorel Parijda yirik zodagon markiz de lya Mol saroyiga kotib va kutubxona mutasaddisi bo'lib ishga kiradi. Qobiliyatli yigit tez orada markiz de lya Mol saroyida ko'zga tashlanib qoladi. YOSH Sorel markiz de lya Molning qizi Matildaning diqqatini o'ziga tortadi. Bundan xabar topgan markiz qizini kambag'al fuqaro yigit – plebeyga berishga rozi bo'lmaydi. Oxirida ota qizining istagiga moyillik bildiradi. Lekin, baribir, markiz bo'lajak kuyovining avval ishlagan joyidan, ya'ni Verer shahridan u haqda xarakteristika so'raydi. Renal xonim katolik ruhoniysining tazyiqi ostida Jyulen Sorelga salbiy xarakteristika yozadi. Tabiiyki, markiz de lya Mol endi Jyulen Sorelni kuyov qilishdan bosh tortadi. Bundan g'azablangan yigit Renal xonimdan o'ch olish uchun Verer

shahriga oshiqadi. Uni ibodatxonada uchratib, to'pponcha bilan otadi. Yuqori tabaqa vakili bo'lgan ayolga suiqasd qilganligi uchun yigit qamoqqa tashlanadi. Sud unga o'lim jazosi hukmini chiqaradi.

«Janobi maslahatchilar! – deydi Jyulen Sorel sudda,– ...Siz oldingizda o'zining ayanchli qismatiga qarshi isyon ko'targan oddiy bir fuqaroni ko'rib turibsiz. Men sizlardan rahm-shafqat so'ramoqchi emasman... meni o'lim kutmoqda, meni qattiq jazoga hukm qiladigan odamlarni ko'rib turibman. Ular yo'qsillikda ezilgan, lekin yaxshi ma'lumot olishga muvaffaq bo'lgan va shu boisdan takabbur boyonlar, yaxshi jamiyat, deb ataydigan muhitga suqulib kirishga jur'at etgan past tabaqa yig'itlariga ibrat bo'lsin uchun ham shunday qiladilar».

Qahramon o'zining tamomila dushman doiralari orasida bo'lib, kuch uning dushmanlari tomonida ekanini yaxshi biladi, ammo ulardan marhamat kutmaydi. Mag'rur turib o'lishni afzal ko'radi.

Roman qahramoni Jyulen Sorel oddiy kambag'al oiladan chiqqan yigit. U chaqqon, aqlli, ishbilarmonligi bilan yuqori tabaqa kishilaridan ustun turadi. Shuning uchun ham Renal xonim va Matildalarning muhabbatini qozonadi. O'zidan bir necha pog'ona ustun turgan bu xonimlarning sevgisiga sazovor bo'lish Jyulen Sorelda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Chunki har ikkala ayolning diqqatini o'ziga torta olgan yosh qahramon bu holni yuqori sinf vakillari ustidan qozongan g'alabasi deb qaraydi. Shuning uchun Jyulen Sorel atrofidagi hukmron sinf vakillaridan, o'sha tuzumdan uni tan olishlarini, o'z qobiliyatiga yarasha joy berishlarini talab qiladi. Bu esa erksevar plebey Sorelning o'sha zamon qora kuchlariga qarshi kurash ochganini bildirar edi.

Hukmron sinf kambag'al tabaqadan chiqqan kishini, uning aql-idroki, qobiliyatini ko'rolmaydi. Shuning uchun Jyulen Sorel talablari qora guruhchi kuchlar tomonidan keskin qarshilikka uchraydi. Natijada kuchlar teng bo'lmagan jangda roman qahramoni halok bo'ladi. Jyulen Sorel faqat zodagon ayolga nisbatan qilgan suiqasdi uchun emas, balki adolatsiz tuzumga qarshi o'zining insoniy xaq-huquqlarini talab qilib chiqqanligi uchun ham raqiblar undan o'ch oladilar. Garchi qahramon halok bo'lib, qora kuchlar g'alaba qozongan bo'lsa-da, asar kitobxonda tushkunlik kayfiyatini tug'dirmaydi. Chunki qahramonning qora kuchlarga bo'yin

egmasligi, o`zini ulardan past tutmasligi, mustaqil va mag`rur holda ularga qarshi sudda keskin so`zlar aytishi yigitning obrusini oshiradi.

Agar respublika davrida qahramonlik, jasorat, aql kishini ulug`lagan bo`lsa, burbonlar restavratsiyasi davrida munofiqlik, murosachilik, laganbardorlik avjga chiqadi. Jyulen Sorel orzu qilgan zamon o`tib ketgan. Hozir hayotda janob de Renal, markiz de Iya Mol singari zotlar hukmron. Shu sababdan roman qahramonining yengilishi va halok bo`lishi restavratsiya davrining oqibati edi. Yozuvchi hayot realizmiga sodiq qolib, respublikachilik, ozodlik kuchlari bilan restavratsiya davri qora guruhlarini o`rtasidagi kurashni ko`rsatadi. Realist san`atkor Stendal «Qizil va Qora» romani bilan zamonasidagi ijtimoiy tuzumning sinfiy mohiyatini va unda davom etayotgan kurashni haqqoniy ochib beradi. Stendal bu kurashning o`sha jamiyat mohiyatidan kelib chiqishini anglab yetadi. U qahramonlarining taqdirini ana shu jamiyatning tabiatidan kelib chiqadigan bir hol deb ko`rsatadi. Jyulen Sorel taqdiri ham, halokatga uchrab borayotgan eski aristokratiya tartiblari ham, tantana qilib kelayotgan burjua munosabatlari ham yozuvchining e`tiboridan chetda qolmagan.

Ijtimoiy romanning ajoyib ustasi, Frantsiya hayotining restavratsiya davri «yilnomasi»ni aks ettirgan Stendal ayni vaqtda o`z qahramonlari qalbini chuqur ifodalay olgan mohir psixolog hamdir. U yaratgan Jyulen Sorel, Renal xonim, Matilda kabi personajlar boy ichki dunyosi, his-tuyg`ulari, sevgisi bilan kitobxon qalbini o`ziga rom qiladi. Stendalning romani bosilib chiqqan paytda ko`p zamondoshlari uni to`g`ri tushunmadilar. Balzak, Gyote singari yirik yozuvchilar asarning buyukligini qayd etdilar. «Qizil va Qora» XIX asrning oxirlariga kelib ko`pchilik diqqatini o`ziga tortadi. Fransuz yozuvchisining bu asarini jahon klassik adabiyotining yaxshi namunasi deb hisoblangan. «Qizil va Qora»ni o`zbek kitobxonlari ham H. To`rabekov tarjimasida sevib o`qimoqdalar.

Yuqorida aytib o`tilganidek, Stendal Italiya hayotiga qiziqib qaragan. «Parma ibodatxonasi» nomli romanining (1839) mavzui ham Italiyaga bag`ishlangan.

Stendal bu asariga shimoliy Italiyaning Parma knyazligida ro`y bergan voqealarni asos qilib olsa-da, unda restavratsiya davridagi Yevropa hayotini umumlashtirib ko`rsatadi. Romanda karbonarlar harakati davrining aks-sadosi, 1795 yilgi Napoleon yurishlari davrida Avstriya zulmidan ozod qilingan, so`ngra Napoleon fransuz taxtidan

ketgach, 1814 yilda qaytadan Avstriya hukmronligi ostiga o'tgan shimoliy Italiyada yuz berayotgan siyosiy voqealar ifoda qilinadi.

«Parma ibodatxonasi»ning qahramoni ham Jyulen Sorel singari erksevar, o'z vatani Italiyaning ozodligi uchun kurashga tayyor turgan yosh yigit Fabritsiodir. Fabritsio XIX asr boshlaridagi italiyalik vatanparvar kishi obrazi. Yosh Fabritsio Napoleon Bonopartga katta umid bilan qaraydi. Uni o'z vatani Italiyani Avstriya zulmidan xalos qiladi, deb tushunadi. Shuning uchun Fabritsio Napoleonning eng so'nggi jangi – Vaterloo yaqinidagi urushda ishtirok etish uchun boradi. Qahramon bu jangda jasorat va mardlik ko'rsatib, buyuk siymo hisoblangan Napoleonning tahsiniga sazovor bo'lmoqchi. Ammo Vaterloo jangi Napoleonning mag'lubiyati bilan tugaydi. Shunday qilib, Fabritsio qahramonlik haqidagi niyatlarini amalga oshirolmaydi. U ham Jyulen Sorel singari restavratsiya davrida o'ziga yo'l topa olmaydi, o'z kuchlarini ishlata bilish imkonidan mahrum. Parma knyazi Ernest IV Fabritsio singari erksevar kishilarni doim ta'qib qiladi. Bu knyaz o'z atrofiga eng razil shaxslarni to'plagan. U hukmron bo'lgan Parma knyazligining qamoqxonalari mahbuslarga to'lib-toshgan. Ozgina bo'lsa-da mustaqillik, erkinlik kayfiyatini knyaz Ernest isyon, o'z hukmronligiga qarshi norozilik deb biladi. Ernest o'zining barcha xatti-harakatlarida fransuz qiroli Lyudovik XIV ga taqlid qiladi.

Romanda Fabritsio, uning xolasi – jasoratli ayol gertsoginya Sanseverina, qo'rqmas qasoskor Ferrante Pallalar knyaz Ernest siyosatiga qarama-qarshi qo'yilgan. «Italyan tiynati» (xarakteri) deb nom olgan bu kishilar qanday bo'lmasin zulmni, knyaz zug'umini jilovlashga, undan qasos olishga urinadilar. Gertsoginya Sanseverina o'zi zodagonlar tabaqasiga mansub bo'lishiga qaramay, Avstriya zulmiga, knyaz Ernest IV siyosatiga qarshi kurash olib boradi. Fabritsio zolimlar tomonidan qamoqqa tashlanganda, grafinya Sanseverina o'zining obro'siga, nufuzli tabaqa vakilasi ekanligiga qaramay, knyazga qarshi ish ko'radi. U jiyani Fabritsioni qamoqdan qutqaradi. Olijanob isyonkor Ferrante Palla orqali Parma knyazini o'ldirtiradi. Italiyaning chinakam vatanparvarlari bo'lgan bu kishilarni hayotga, ozodlikka intilish, kuch va iroda birlashtirib turadi.

Stendal romanida graf Moska obrazi ham bor. O'z yurtining vatanparvari bo'lmish bu odam restavratsiya davrida ozodlik ideallariga, karbonarlar harakatining istiqboliga ishonmaydi, chunki

bu harakatlarning xalq ommasi bilan aloqasi yoʻq edi. Shuning uchun oʻzboshimcha knyaz saroyida xizmat qilib, oz boʻlsa-da, oʻz vatani taqdiriga koʻmaklashishni oʻylaydi. Stendal bu ehtiyotkor graf Moska obrazidan koʻra vatanparvar karbonar Ferrante Pallaga xayrixohlik bilan qaragan. Lekin Ferrante Palla obrazi yozuvchining «Italiya yilnomalari» silsilasiga mansub boʻlgan «Vanina Vanini» novellasining qahramoni Petro Missirillidan farq qiladi. Agar Petro Missirilli karbonarlar harakatisiz oʻz hayotini tasavvur qilolmagan boʻlsa, Ferrante Palla Italiyada yaqin orada oʻzgarish boʻlishiga umid qilmaydi. Chunki restavratsiya davrining mudhish reaksiyasi hukm surayotgan bir davrda ish koʻrayotgan Ferrante Palla Petro Missirilli singari birinchi planda koʻrsatilmaydi. U romanda epizodik obraz sifatida berilgan. Stendalning XIX asrning 20-yillarida yozgan asari «Vanina Vanini» qahramoni Petro Missirilli bilan 30-yillarda yozgan «Parma ibodatxonasi» romanidagi qahramon Ferrante Palla oʻrtasidagi tafovut ana shu tarixiy sharoit taqozosi bilan belgilanadi.

Yozuvchining «Qizil va Qora» romanidagi Jyulen Sorel kabi «Parma ibodatxonasi» romanining qahramonlari ham kitobxon qalbini oʻziga rom qilish qudratiga ega. Yevropada reaksiya hukm surayotgan, «muqaddas ittifoq» tahdid solayotgan bu sharoitda jasoratli, kuchli, irodali ajoyib qahramonlar galereyasini yaratish Stendal ijodining demokratizmini koʻrsatadi.

Romanning Vaterloo jangiga bagʻishlangan manzaralari Onore de Balzak bilan Lev Tolstoylarning tahsiniga sazovor boʻlgan. Stendal romanidan taʼsirlangan Balzak u haqda «Beyl haqida etyud» nomli maqola yozadi. Bunda Balzak, fransuz yozuvchisi asariga yuqori baho berib, uni «shohona» asar deb atadi.

Stendal asarlari hayotiy realizm bilan sugʻorilgan. Yozuvchining har bir qahramoni maʼlum davr gʻoyalarini oʻzida aks ettiradi. Yozuvchi hamma vaqt hayot haqiqatlariga sodiq boʻlib qoldi. Oʻz asarlarida dvoryanlar oʻrniga kelayotgan burjuaziya sinfining jirkanch tomonlariga oʻt ochgan yozuvchi hukmron sinfga qarama-qarshi qilib quyi tabaqa orasidan chiqqan ajoyib xalq vakillarini qoʻyadi. Bularga Petro Missirilli, Jyulen Sorel, Ferrante Pallalarni koʻrsatish mumkin.

Stendal qahramonlari: Fabritsio, gertsoginya Sanseverina, Ferrante Palla, Jyulen Sorel zamonasidagi mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini qoralaydilar, oʻsha tuzum qabohatlariga qarshi murosasiz kurash olib boradilar. Stendal qahramonlari oʻtkir aql egasi,

qo'rqmas, irodali, keng mushohadali shaxslar. Qahramonlar xarakterining shakllanishi, fikr-o'ylari, o'zlari qilgan xatti-harakatlarni taroziga solib ko'rishlari, yozuvchi tomonidan haqqoniy aks ettiriladi. Buni, ayniqsa, Jyulen Sorel va Fabritsio del Dongo obrazlari evolyutsiyasida yaqqol ko'rish mumkin. Yozuvchi personajlarining ichki kechinmalariga katta ahamiyat beradi. Bu hol jahon adabiyoti tarixida Stendalni ko'zga ko'ringan psixologik realizmning taniqli vakillaridan biriga aylantirdi. XVIII asr ma'rifatparvarlarining merosxo'ri sifatida Stendal ozodlik, tenglik hamda qardoshlik g'oyalari hamisha sodiq bo'lib qoldi.

Stendal asarlarining tili sodda, aniq va ifodali til. Uslubi ixchamligi, lo'nda iborasi bilan romantiklar tasvir-tavsifiga xos jimjimadorlik, bejamadorlikdan yiroq.

Fransuz adabiyotining buyuk realist san'atkori, «Qizil va Qora», «Parma ibodatxonasi» kabi ajoyib romanlar muallifi Stendalning nomi jahon miqyosida mashhurdir.

Adibning asarlari, maqolalari, esdaliklari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Ijodining bu qadar ommalashuvi boisi shuki, u zomanasining yetakchi mayllarini chuqur ko'rsatib bera oldi, kurashayotgan kuchlar orasidagi ziddiyatlarni vaqtida anglab etdi.

Yozuvchi yirik ijtimoiy kuchlar, tabaqalar, axloq va xilma-xil kishilar tabiatidagi o'zgarishlarni seza bildi. Uning ijobiy qahramonlari zulm-istibdodga asoslangan tuzum bilan murosaga kela olmaydilar. Ular hayotdagi eskilik, xudbinlik, zo'ravonlik, inson shaxsining kamsitilishiga qarshi isyon ko'taradilar.

Yozuvchi barcha asarlarida fikr erkinligini, faol harakatni, umumning baxti uchun olib borilayotgan kurashda jasoratni targ'ib qildi. Uning sevimli qahramonlari Petro Missirilli, Fabritsio, Ferrante Palla, Sanseverina va Jyulen Sorel singarilar bizning kunlarimizda ham kishi qalbini hayajonga soladi.

Janob de Renal, markiz de Iya Mol singari salbiy tiplar allaqachon tarix hukmiga duchor bo'lgan, ammo Stendal romanlaridagi ehtiroslar hamon yashab kelmoqda. Bu buyuk san'atkor ijodining davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tib, tanqidiy realizm adabiyotining o'lmas namunalari aylanib qolganini isbotlovchi dalildir.

ONOPE DE BALZAK (1799 – 1850)

Fransuz adabiyotining buyuk siymolaridan Onore de Balzak ijodida tanqidiy realizm o`zining yuqori cho`qqisiga ko`tarildi. Balzak Frantsiyaning Tur shahrida tug`ildi. O`sha davr odatiga ko`ra u ham Sorbonn universitetining huquq fakultetini tugatadi. Ammo adabiyotga qiziqib, o`z ustida tinmay ishlaydi. Balzakning birinchi tragediyasi «Kromvel» muvaffaqiyatsiz chiqadi. Lekin yozuvchi umidsizlikka tushmay, adabiyot bilan zo`r berib shug`ullanadi. U uzzu kun 14 – 16 soatlab ishlab zamonasining ajoyib san`atkori darajasiga ko`tariladi.

Balzakning yozuvchi sifatida nomini shoyon qilgan va shuhrat keltirgan asari «Shuanlar» (1829) romanidir. Shundan keyin uning «Gobsek», «Sag`ri teri tilsimi», «Noma`lum navodir», «Polkovnik Shaber», «Evgeniya Grande», «Gorio ota», «Yo`qotilgan illyuziyalar», «Nyusinjenning savdo uyi», «Dehqonlar» va boshqa asarlari birin-ketin bosilib chiqa boshlaydi.

Balzak o`z asarlarini «Inson komediyasi» degan umumiy nom ostida birlashtiradi va ularni quyidagi uch qismga bo`ladi:

1. «Xulqlar haqida etyudlar», 2. «Falsafiy etyudlar», 3. «Analitik etyudlar».

«Inson komediyasi» yozuvchi plani bo`yicha 143 ta roman va novelladan tashkil topishi kerak edi. Lekin undan 96 tasi yozib tugallangan. «Inson komediyasi» yozilgan tarixiy davr chegarasi 1830– 1848 yillarni, ya`ni iyul monarxiyasi davrini qamrab oladi. Lekin Balzak asarlari restavratsiya davri (1815–1830) hayotini ham aks ettiradi. Bu vaqtda Fransiya davlat tepasiga yirik moliya burjuaziyasi kelgan, dvoryanlar bilan aristokratlar tarix sahnasidan surib chiqarilayotgan edi. Real munosabatlarni chuqur tushinishi bilan ajralib turgan Balzak zamonasining ana shu ijtimoiy jarayonlarini o`z asarlarida katta mahorat bilan aks ettiradi.

O`zini «ijtimoiy fanlar doktori» deb hisoblagan Balzakning ulkan epopeyasi «Inson komediyasi»da ikki mingdan ortiq personaj qatnashadi. Agar fransuz jamiyati tarixchi bo`lsa, Balzak o`zini uning kotibi deb atadi. Bu bilan yozuvchi yirik epopeyasida Frantsiya hayotining barcha tomonlarini yoritmoqchi ekanligini aytadi. «Inson komediyasi»ning aksariyat asarlarida ko`tarilgan mavzu – pul, boylik, tilla bo`lib, bu boylik asar qahramonlari

hayotida mash'um rol o'ynaydi. Balzak asarlarida pul kishi xarakterini, psixologiyasini o'zgartiruvchi, yemiruvchi, izdan chiqaruvchi salbiy kuch sifatida ko'rsatiladi. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazadi, er-xotin orasidagi sevgi-muhabbatni, otalar bilan bolalar o'rtasidagi hurmat-izzatni belgilovchi qabih mezonga aylanadi. Yozuvchining «Gobsek», «Evgeniya Grande», «Gorio ota» hamda «Sag'ri teri tilsimi» kabi asarlarida pulning ana shunday buzg'unchilik rolini ko'ramiz. Aqcha dunyosi Balzak qahramonlarining ayrimlarini halokatga duchor qilsa, ayrimlarini muvaffaqiyatga olib keladi.

Balzak o'zi tasvirlayotgan voqea-hodisalarni tipiklashtirib ko'rsatadi. U o'z qarashlariga ko'ra legitimist (eski burbonlar tarafdori) edi. U aristokratlar, dvoryanlarga xayrixohlik bilan qaradi. Ammo san'atkorning dunyoqarashidan real hayot voqeliklarini tasvirlashi ustun chiqib, Balzak o'zi sevgan zodagon va dvoryanlarning halokatga mahkum etilganini ko'rsatib berdi.

Balzak «Osori-atika muzeyi», «Vasiylik to'g'risidagi ish» kabi asarlarida eski aristokratiyaning insofli vakillari markiz d'Egrinon, markiz d'Esparlarni ko'rsatadi. Bu qahramonlar Balzakka yaqin bo'lsalar ham, ularning davri tugab borayotganligi ishonarli mantiq kuchi orqali ifodalangan.

Aksincha, Balzak o'zining siyosiy dushmanlari bo'lgan respublikachilarning jasoratidan zavqlanadi, ularga qoyil qoladi. Xalq manfaatlarini himoya qilayotib halok bo'lgan Mishel Kreten yozuvchining «Yo'qotilgan illyuziyalar» nomli romanining qahramonidir. Balzak o'zining simpatiyalariga... qarshi chiqishga majbur bo'lganligini, ...u kelajakning haqiqiy kishilarini o'sha vaqtda topish mumkin bo'lgan birdan-bir joyda ko'rganligini,– mana shularni realizmning eng katta yutuqlaridan biridir, deb hisoblaydi.

Balzak burjua tuzumi tantanasi davrida kishilar jamiyati orasidagi barcha munosabatlar pul asosiga qurilganini juda yaxshi anglab yetdi. Uning «Inson komediyasi»ga jamlangan asarlaridagi barcha qahramonlar deyarli ana shu boylik dunyosi atrofida harakat qiladilar.

«Gobsek» hikoyasining qahramoni ham o'z hayotida oddiy haqiqatni, ya'ni puling qancha ko'p bo'lsa, sen shuncha qudratli bo'lasan, degan oddiy falsafani o'zlashtirib, yoshligidan aqcha, oltin to'playdi. Uning qarindosh-urug'lari ham, do'st-birodarlari ham yo'q. Gobsek juda eski-tuski kiyim kiyadi, xaroba kulbada yashaydi.

U hayotning barcha noz-ne'matlaridan, huzur-halovatlaridan voz kechgan. Chol uchun dunyoning lazzati u to'plagan tillalarning jarangida, undan qarz so'rab yolvorgan kishilarning iltijolarida. Gobsek obrazi o'zida pul dunyosini mujassamlashtiradi.

Pulga, boylikka xudoga sig'ingandek sajda qiladigan Gobsek aytadi: «Mening yoshimga yetsangiz, dunyoda baxt-saodatdan ham ishonchli, ketidan quvsa arziydigan faqat bir narsa borligini bilasiz. Bu... oltin. Insonning barcha kuchi oltinda mujassamlashgan... Hamma yerda kambag'allar bilan boylar it-mushuk. Demak, seni ezishlariga yo'l qo'ymay, o'zing boshqalarni ezganing tuzuk», – mana tilla jamg'arishni o'z hayotining ma'nosi qilib olgan mumsik Gobsekning hayot falsafasi. Sudxo'r Gobsek dunyoning rohat-farog'atini shuhratparastlikda, deb biladi: «Shuhratparastlik! Bu narsa bizning qonimizda bor. Xo'sh, shuhratparastlikni nima qondirishi mumkin? Oltin! Haddi-hisobsiz oltin... Hamma narsa oltinda kurtak holatda. Turmushda u hamma narsani beradi».

Tilladan boshqa hech narsani tan olmaydigan bu chol: «Bordiyu mendan qirol qarz bo'lganda va qarzini muddatida to'lamaganida, men uni boshqa qarzdorlardan oldinroq sudga berardim», – deydi qarzdorlaridan biriga.

Sudxo'r Gobsek o'zi ko'zga ko'rinmas kichik odam bo'lsa-da, Parij ko'chalarida yurib, qarzdorlarga dahshat soladi. Yuzlab odamlarning, xilma-xil oilalarning fojiasiga jonli guvoh bo'ladi. Asta-sekin u o'z tillalarining quliga aylanib qoladi. Shunday qilib, o'zi yemagan, ichmagan boyliklarga emas, hatto Gobsek hayotining o'zi ham ma'nisiz bo'lib qoladi. Bu narsa hikoyaning finalidagi sahnada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Grande Somyur shahrining yirik savdogari. U bozorda mollarning qachon narxi oshishi-yu, qachon arzon bo'lishini juda yaxshi biladi.

Qisqasi, Grande ishning ko'zini biladigan, faqat o'z foydasigagina ish qiladigan odam. Juda ham ziqna, xasis, pastkash bo'lishiga qaramay, puldorligi sababli, hamma unga xushomad qiladi. Grandening xasisligi shu darajadaki, hatto ishlari yurishmay qarzga botib qolgan o'z ukasiga ham yordam berishni istamaydi. Natijada og'ir ahvolda qolgan uka o'zini o'zi o'ldirishga majbur bo'ladi. Grande ziqnalik qilib, Parijdan kelgan ukasining o'g'li Sharlga ham o'zini juda kambag'al qilib ko'rsatadi. Grande xonim bilan qizi Yevgeniya yiqqan pullarini Sharlga yordam sifatida

beradilar. Sharl bu pullar orqali savdo bilan shug'ullanib boylik orttirishi, so'ngra qaytib kelib, Yevgeniyaga uylanishi lozim edi. Bundan xabar topgan Grande xotini va qiziga zulm o'tkazadi. Azob ichida qolgan Grande xonim vafot etadi. Grandening o'zi ham kasallanib yotib qoladi. Qizini chaqirib, oltinlarni yaxshi asra, hisobini narigi dunyoda olaman, deb vafot etadi. Savdo ishiga aralashib boyigach, Sharl ham o'zgaradi, tipik xasis burjua kishisiga aylanadi. Parijga qaytib kelgach, zodagon ayolga uylanadi.

Agar Gobsek bilan Grande obrazlari kitobxon ko'zi oldida boshdan-oyoq tipik burjua vakillari bo'lib gavdalansa, Sharl oddiy, sodda yigitchadan asta-sekin burjuaziyaning yirtqich, muttaham, yulg'ich vakiliga aylana boradi.

«Inson komediyasi»ning muhim asarlaridan biri bo'lgan «Gorio ota» romani (1834) otalar va bolalar o'rtasidagi munosabat masalalariga bag'ishlanadi. Yozuvchining bu asarida uning epopeyasida uchraydigan asosiy obrazlardan bir nehasi qatnashadi.

Gorio ota mayda burjua muhitidan chiqqan. U uzoq yillar makaron fabrikasini boshqargan, katta boylik orttirgan. Uning xotini o'lib, ikki qizi qolgan. Bular Anastazi va Delfina. Ota qizlarini nihoyatda sevadi va ulardan sira ham pulni ayamaydi. Qizlar zodagonlar doirasida o'sadilar, katta qizi graf de Restoga, kichik qizi baron Nusingenga turmushga chiqadilar. Qizlar erga tekkanlaridan keyin ham otadan pul olib turadilar. Nihoyat, Gorio otaning pullari tugab, kuyovlari uyidan quviladi. Shundan keyin u Parij chekkasidagi Voke xonimning xarob mehmonxonasida istiqomat qila boshlaydi. Gorio ota hali ham qizlarini qaynoq otalik mehri bilan sevadi. Bu mehmonxonada kambag'al student Rastinyak, surgun bandasi Votren ham yashaydilar. Rastinyak Frantsiyaning uzoq viloyatidan Parijga o'qish uchun kelgan. Ular kambag'allashib qolgan dvoryanlardir. Tez orada Rastinyak o'qishdan soviydi. Atrofdagi zodagonvachchalar singari kiyinishni, tuzukroq mavqega erishishni mo'ljallaydi. Uyiga xat yozib pul so'raydi. Uyidagilar Rastinyakka pul bilan birga xat ham yo'llab, Parijdan vikontessa de Bosean nomli ayol qarindoshlarini qidirib topishni so'raydilar. Rastinyak vikontessa de Boseanni axtarib topadi. U ayol bu yigitga yordam berishni va'da qiladi. Bu jamiyatda durustroq joy egallab olish uchun juda ham berahm bo'lishni, odamlarni pochta aravasining otlari singari savalashni maslahat beradi. Votren esa Rastinyakning maqsadlarini sezib, unga millioner Tayferning

merosxo`r o`g`lini o`ldirishni, so`ngra boy otaning barcha millionlari yolg`iz qizi Viktorinaga qolishini, Rastinyak bu qizga uylanib, millionlarning egasi bo`lib olishini aytadi. Shu ma`noda ham vikontessa de Bosean, ham Votren Rastinyakka burjuaziya tuzumining yovuzlik, bosqinchilik qonunlarini o`rgatuvchilardir. Agar vikontessa de Bosean burjuaziya jamiyatida muvaffaqiyatga erishish yo`llarini silliqroq, pardaliroq qilib o`rgatsa, Votren oshkora ravishda razolatga undaydi. Yozuvchi Votren obrazi orqali burjuaziya tuzumining bosqinchilikka asoslangan qonunlarini oshkora fosh etadi. Rastinyak vikontessa de Boseanning yordamida aristokratlar doirasiga aralashadi. Ularning hayoti va makr-nayranglarini ko`radi. U Gorio otaning kichik qizi Delfina bilan tanishadi. O`rtadagi yaqinlik muhabbatga aylanadi. Gorio kasal bo`lib yotadi. Qizlarini sog`inadi. Lekin shunda ham ular otani ko`rgani kelmaydilar. Vafot etgan Gorioni Rastinyak, uning o`rtog`i Byanshon va yana bir necha kishi dafn qiladilar. Ota bilan vidolashish uchun qizlari ham, kuyovlari ham kelmaydilar.

«Gorio ota» romani qahramonlarining hayoti favqulodda keskin voqealarga boy. Balzak qahramoni Gorio ota Shekspirning Qirol Lirini eslatadi. Qirol Lir ham butun davlatini qizlari Regana va Gonerilya o`rtasida taqsimlagan edi. Gorio ota ham bor pullarini ikkala qizlariga sarfladi. Ota qizlariga katta sep qilganidan, zodagon avlodidan kuyovlar topganidan xursand bo`lsa, kuyovlar makaronchining qizlariga uylanib, juda katta sepga ega bo`lganidan xursandlar. Gorio otaning qizlariga bo`lgan mehri, muhabbati cheksiz. Qizlar otaning ana shu behad mehr-muhabbatini suiiste`mol qiladilar. Gorio ota o`limi oldidan qizlaridan yuz o`giradi. Agar qizlar otani oyoq osti qilsalar, vatan halokatga uchraydi, deb xitob qiladi u.

Burjuaziya jamiyatida hamma narsa pulga bog`liq ekanini, boylik oilaviy munosabatlarni ich-ichidan buzib yuborayotganini Balzak katta mahorat bilan ko`rsatib berdi. Asarda Gorio ota fojiasidan tashqari yana bir necha oilaning xonavayron bo`lishi ko`rsatiladi.

Mana, millioner Tayfer o`z qizi Viktorinani uyidan haydagan, chunki merosni u yolg`iz o`g`liga qoldirmoqchi. Gorio otaning katta qizi Anastazining eri graf de Resto o`z xotinining Maksim de Tray ismli kishi bilan uzoq yillardan buyon aloqada ekanligini sezib, bolalarining qaysi biri o`ziniki ekanligini aniqlaydi, natijada Maksim

de Traydakdan boʻlgan bolalar hech qanday merosga ega boʻlmaydilar.

Rastinyak romandagi barcha voqealarning jonli guvohi. Ayollar yordamida Rastinyak asta-sekin burjua hayoti pogʻonasidan koʻtarila boradi. Albatta, uning yuqoriga qarab oʻsishi undagi insoniy fazilatlarining yoʻqolib borishi, buzuvchilik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik burjua sharoitiga moslashish evaziga boʻladi. Rastinyakning Gorio ota qabri ustida turib, kim kimni, degan xitobi, uning burjua Pariji qonunlarini oʻziga singdirib olayotganidan, bu qonunlarni oʻsha jamiyatning oʻziga nisbatan ishga solib, uning hayot pogʻonalaridan koʻtarilib borayotganligidan darak berar edi.

Bu dunyoning egalari mol-dunyo toʻplash vasvasasiga uchragan jinoyatkor shaxslar. Bu yerda ming xil jinoyiy nayranglar bilan oʻz millionlarini jamgʻargan Tayfer, «birja dunyosining Napoleoni» boʻlmish Nusingen, oʻz pullarining gadosiga aylanib qolgan Gobsek va Grandelarni uchratamiz. Shon-shuhrat yoʻlida hech narsadan qaytmaydigan Sharl, Rastinyak, «jinoyat olamining Napoleoni» Votren, yana qancha-qancha personajlar galereyasi sanʼatkor qalami naqadar sehrli ekanligini koʻrsatadi.

Balzak qahramonlaridan biri, advokat Dervil oʻz suhbatida cherdakda jon berayotgan qashshoq otani, oʻz bolalarini xonavayron qilgan onalarni, asta-sekin erlarini oʻlimga mahkum qilgan buzuq ayollarni koʻrganligini hikoya qiladi. Bu haqiqat oldida,– deydi advokat Dervil, – yozuvchilarning xayolot olami hech narsaga arzimay qoladi.

Yozuvchi yirik epopeyasini yaratish davomida fan yutuqlariga doimo murojaat qiladi. Olimlardan Kyuve, Jofrua Sent-Iler nomini tez-tez tilga oladi.

Balzak ijodida tipiklik problemi alohida oʻrinda turadi. Uning fikricha, sanʼatkorning vazifasi tabiatdan nusxa koʻchirish emas, balki uni ifoda qilib berishdir. Sanʼatkor tip yaratar ekan, uning muayyan sifatlarini kuchaytirishi, boʻrttirib koʻrsatishi mumkin. Balzak oʻzi yaratayotgan qahramonlarning tashqi, ijtimoiy muhit taʼsiri ostida oʻzgarib, oʻsib borishiga alohida eʼtibor beradi. Shuning uchun uning ijobiy qahramonlari burjua muhiti tufayli David Seshar, markiz d' Espar, polkovnik Shaber va boshqalar hamma vaqt magʻlubiyatga uchraydilar.

Qahramon xarakteri tashqi muhit, uni oʻrab olgan ijtimoiy sharoit taʼsirida qaror topgani uchun Balzak ana shu tashqi dunyoga,

uning tafsilotiga katta ahamiyat beradi. Shuning uchun adibning har bir asarida qahramon va voqealar holatini belgilab beruvchi atrof-muhit, narsalarga keng o`rin beriladi. Natijada uning har bir asari mukammal, jozibali bo`lib, kitobxon qalbini o`ziga rom qiladi.

Adabiyotning tolmas zahmatkashi Balzak umr bo`yi tinmay mehnat qildi, asar yozdi. Ammo bir umr qarzdor bo`lib yashadi. Uning buyuk asarlarini nashr etgan nashriyotchilar boyidilar. Balzakning moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida Sardiniyada kumush konlari topish, mevazor bog` tashkil qilish, XVII asr Frantsiyasining talantli yozuvchilari Molyer va Lafontenning tanlangan asarlarini nashr qilish kabi harakatlari hech qanday natija bermadi, aksincha, uning qarzlarini ko`paytirdi. Buyuk yozuvchiga xiyonat qilmagan narsa uning qalami bo`ldi.

Balzak o`tgan asrdayoq rus kitobxonlarining muhabbatini qozongan edi. Buyuk yozuvchi asarlarining birinchi tarjimoni F. M. Dostoevskiy bo`ldi. U «Evgeniya Grande» romanini rus tiliga o`girdi. G. V. Plexanov Balzak ijodining naturalistlar ijodidan ustun turishini, uning asarlaridagi hayot haqiqatini o`z maqolalarida isbotladi.

Buyuk yozuvchining asarlari Rossiyada juda katta tirajda nashr qilindi. Balzak ijodi haqida A. Fadeev, K. Fedinlar ehtirosli maqolalar yozganlar. Balzakning «Evgeniya Grande», «Gorio ota», «Sag`ri teri tilsimi» romanlari, «Gobsek» hikoyasi o`zbek tiliga tarjima qilindi va o`quvchilarning sevimli kitoblari bo`lib qoldi.

PROSPER MERIME **(1803 – 1870)**

Fransuz adabiyotida tanqidiy realizmning ko`zga ko`ringan namoyandaligidan biri Merimedir. Merime Parijda rassom oilasida tug`ildi. San`at va adabiyotdan juda yaxshi ma`lumot oldi. Merime ham Stendal singari XVIII asr faylasuflarining asarlarini sevib o`rgandi. Sorbonn universitetining huquq fakultetini tamomladi. U 1834 yildan boshlab, yigirma yil davomida Frantsiya tarixiy yodgorliklari inspektori lavozimida ishladi. Bu narsa uning ijodi uchun keng imkoniyat yaratib bergan edi. Merime 1825 yil «Klara Gasul teatri» nomi bilan pesalar to`plamini nashr ettirdi. Bu to`plamda asosan din, cherkov va ruhoniylarning jirkanch kirdikorlari fosh qilinadi.

XIX asrning birinchi choragida fransuz adabiyotida tarixiy temada drama va romanlar paydo bo'la boshlaydi. Merimening «Jakeriya» dramasi (1828) ham ana shu temada yaratilgan bo'lib, bu asarida yozuvchi vatani tarixiga murojaat qiladi va XIV asrdagi dehqonlar qo'zg'olonini aks ettiradi. Merime o'rta asrlarda dehqonlar bilan zolim feodallar o'rtasidagi urush qonuniy ekanini ko'rsatgan. Asarda keng xalq g'alayoni realistik tarzda tasvirlanadi. Pesada qashshoqlik joniga tegib, sabr kosasi to'lgan dehqonlar, ikkinchi tomonda feodallar, shaharning o'ziga to'q xonadonlari, hunarmandlar ahli, monaxlar hamda qaroqchi galalari ishtirok etadi. Dehqonlardan Reno, Simon, qo'zg'olon boshlig'i monax Jan barcha ezilgan, haq-xuquqlari poymol qilinganlar nomidan harakat etsalar, baron d'Apregon, uning o'g'li Konrad, qizi Izabella, amaldor Sivard va boshqalar hukmron lager vakillari sifatida qatnashadilar.

Dehqonlar qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragan bo'lsa ham, yozuvchi uning juda katta kuch ekanligini tasvirlaydi. Lekin bu kurashdagi bir-biriga qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi konflikt asarning ruhini ko'tarib turadi. Drama zolim dvoryan feodallarning yirtqichligiga va o'zboshimchaligiga qarshi xalqning qahr-g'azabini, bitmas-tuganmas nafratini ifodalaydi. Bu bilan yozuvchi reaksiyaga, din vakillari va hukmronlarga nisbatan o'zidagi demokratik ideallarni qarshi qo'yadi. Merime 1829 yili o'zining diniy urushlar saltanati solnomasi zamonasidan olib yozgan tarixiy romanini nashr ettiradi. Bu roman mavzui XVI asrda – 1572 yildagi katoliklar bilan gugenotlar o'rtasidagi diniy xunrezlik voqealariga bag'ishlangan. Restavratsiya davri hayoti yozuvchiga Frantsiyaning uzoq o'tmish voqealari bilan bog'liq holda zamonasida avj olayotgan diniy reaksiyani fosh qilishga imkon berdi.

Merime romanida hikoya qilingan qonli Varfolomey kechasi (24– 25-avgust) diniy taassublikning oqibati ekanini ko'rsatadi. Zamonasining erksevar kishisi bo'lgan Merime bu qonxo'rlikning asosiy aybdorlari bo'lgan saroy amaldorlari bilan din homiylarini keskin qoralaydi.

Qirol Karl IX ni o'z ta'siriga olgan katoliklar gugenotlarga qarshi qirg'in uyushtiradilar. Diniy jaholat, fanatizmning qurboni bo'lgan odamlar bir-birlarining qonini to'kishga, xunrezlikka qadam qo'yadilar. Muallif romanida aka-uka Jorj va Bernar de Merjilar tarixini ko'rsatadi. Jorj de Merji katoliklar tomonida tursa, uning ukasi Bernar de Merji gugenotlar safida bo'ladi. Aka-ukalar bir-

birlarini juda sevadilar. Ammo diniy jaholat ularni bir-biriga dushman bo'lgan ikki toifaga bo'lib yuborgandi. Bernar de Merji katolik ayol Dianani sevasdi. Diana qancha yolg'irlasini, Bernar o'z e'tiqodiga xiyonat qilishni, katoliklar tomoniga o'tishni istamaydi. Shunday bo'lsa ham, yigit bilan qiz o'rtasidagi sevgi ularning ajralishiga yo'l qo'ymaydi. Diana, aksincha, Bernarni yanada qattiqroq sevasdi. Demak, chin insoniy sevgi diniy mutaassiblikdan ustun turadi. Katoliklar bilan gugenotlar o'rtasidagi to'qnashuvda Bernar o'z akasi Jorjni o'ldiradi. Diniy jaholat ukani o'z akasining qotiliga aylantiradi. Merime bu jinoiy xunrezlikni tasvirlar ekan, dinga, dvoryanlar reaksiyasiga nisbatan o'z nafratini yashirolmaydi. Roman voqealari Napoleon Bonapart imperiyasi ag'darilgach, Yevropadagi «Muqaddas Ittifoq»ning va u tufayli avj olayotgan diniy reaksiyaning jirkanch basharasini fosh qilib tashlaydi.

Merime jahon adabiyotida novella janrining taniqli ustasi sifatida nom chiqargan. Yozuvchining bu sohadagi ajoyib asarlari orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega: «Tamango» (1829), «Mateo Falkone» (1829), «Etruss guldoni» (1830), «Ikkiyoqlama xato» (1833). Merime novellalari drammatizmga boy, sodda, aniq, ravon tilda yozilgan. «Tamango» nomli novellasida Merime oq tanli qulfurushlarning kirdikorlarini fosh qiladi. Tamango Afrikadagi qora tanli qabilalardan birining boshlig'i. U oq tanli qul savdogarlariga o'z vatandoshlarini tutib sotadi. Shunday savdo paytida oq tanlilar kapitani Ledu Tamangoning o'zini ham hiyla bilan asir oladi. Qullar ortilgan kemada Tamango boshliq negrlar qo'zg'olon ko'taradilar. Barcha oq tanlilar qirib tashlanadi. Ammo qora tanlilarning bu g'alabasi ularga yangi falokat keltiradi. Ochlik, chanqoqlik natijasida ularning barchasi halok bo'ladi. Merime Afrika hayoti, ekzotikasiga murojaat qilsa ham, uning novellasi realizm bilan sug'orilgan. Asarda negrlar hayoti, Tamango ko'rsatgan ayyorlik hamda jasoratlar, oq tanlilar yurgizayotgan qul savdosi siyosati – barcha epizodlar o'zining haqqoniyligi bilan kishini hayron qoldiradi.

«Mateo Falkone» novellasida Korsika oroli, u yerda istiqomat qilayotgan xalqning urf-odatlarini o'z aksini topgan.

Hukumat askarlari ta'qibidan qochayotgan Janetto Mateo Falkone xonadoniga kelib yashirinadi. Ammo Mateo Falkonening o'g'li Fortunato qochoqni axtarayotgan serjant Gamba bergan kumush soat evaziga Janettoning yashiringan joyini ko'rsatadi. Bu voqeadan xabar topgan Mateo Falkone o'g'lining xoinligi uchun uni

otib tashlaydi. Chunki korsikali Mateo Falkone o'z oilasidan xoin chiqishini istamaydi.

Merime personajlari qayerda bo'lmasin, o'sha muhit, o'sha sharoit taqozosiga bo'ysunib ish ko'radilar. Ya'ni qahramonlar xarakteri atrofdagi hayot qonunlariga va urf-odatlariga moslashtiriladi.

Fortunato fojiasi ham, Tamango fojiasi kabi hayotiyiligi bilan kitobxonda kuchli taassurot qoldiradi. Yozuvchi har ikkala novellada ham qahramonlarning achchiq qismatini ko'rsatib, bu holni vujudga keltirgan voqealarning sababini ochib beradi. Kapitan Ledu, serjant Gamba kabilarning Tamango hamda Fortunato fojiasi sababchilari ekanini ko'ramiz. Chunki burjua dunyosining vakillari bo'lgan bu kishilar ayyorlik, hiylakorlik, pora berish, aldash, ko'zbo'yamachilik singari illatlarni ishga qilib, Tamango va Fortunato hayotiga aralashadilar va barbod qiladilar.

«Etruss guldoni» novellasida Merime yuqori tabaqa vakillari orasidagi g'iybat, quruq tuhmat kabi illatlarni fosh qiladi. Ogyust Sen-Kler dvoryan yoshlari orasida o'zini yolg'iz sezadi. Maqtanish, sergaplik unga begona. Sen-Kler Matilda de Kursi nomli beva ayolni sevadi. Yuqori doira vakillari orasida Sen-Kler bilan Matilda orasidagi munosabatga soya tashlovchi har xil gaplar ko'payadi. Bunga chiday olmagan Sen-Kler o'zi yoqtirmagan kishi bilan duelga chiqib halok bo'ladi. Oradan bir necha vaqt o'tgach, bu voqeadan azoblanib Matilda ham o'ladi. Shunday qilib, yuqori tabaqa yoshlari orasidagi bo'lmag'ur gaplar ikki yoshning halokatiga sabab bo'ladi.

Sen-Kler fojiasi uning safdoshlarida aslo g'am-alam va qayg'u tug'dirmaydi. Aksincha, ular duelda ishlatilgan ingliz pistoletining singan tepkisini tuzata oladigan usta Frantsiyada topilmasligi to'g'risida afsus bilan gapiradilar. Yozuvchi ana shu yaramas muhitga nisbatan o'zining nafratini yashirmaydi. Merime 1844 yili «Arsena Giyo», 1845 yili «Karmen» nomli ajoyib qissalarini yaratdi.

«Arsena Giyo»da tasvirlanishicha, kambag'al qiz Arsena Giyo hamma yerda tahqirlanadi. Uning birdan-bir quvonchi Maks nomli yigitga bo'lgan sevgisidir. Arsena Giyo bu sevgini muqaddas bilib ardoqlaydi. Yuqori tabaqa vakili de Pen xonim o'lim to'shagida yotgan Arsena Giyoni sevgisidan yuz o'girishga undaydi. Ammo bu munofiq ayolning o'zi Maksga bo'lgan sevgisini bo'g'a olmaydi. Shunday qilib, boshqalarga taqvdor, halol, pokiza bo'lib ko'ringan de Pen xonim o'taketgan axloqsiz, yuzsiz ayol sifatida gavdalanadi.

«Karmen» qissasida yozuvchi loʻlilar hayotiga murojaat etib, hamma narsadan oʻz shaxsining erkin boʻlishini birinchi oʻringa qoʻygan magʻrur, jasoratli erksevar ayol obrazini yaratadi. Karmen obrazi romantik qahramonni eslatsa-da, yozuvchi realist sifatida kishi qalbining qaynoq ehtiroslarini ishonarli qilib chizib bergan.

Soʻnggi yillarda Merime Rossiya tarixiga qiziqib qarab, bir qancha rus yozuvchilari va ziyolilari bilan yaqindan tanishadi. Bular orasida I. S. Turgenev, A. I. Gertsen, S. A. Sobolevskiy va boshqalar bor edi. U A. S. Pushkin, N. V. Gogol, I. S. Turgenev ijodiga qiziqib qaradi. Rus tilini oʻrgangan Merime yuqoridagi yozuvchilar asarlaridan tarjimalar qildi, ular ijodi haqida maqolalar yozdi. Merime oʻz vatandoshlarini Stepan Razin, Bogdan Xmelnitskiy, Pyotr I kabilar hayoti bilan tanishtirgan tarjimon sifatida ham qimmatlidir.

Merimening bir necha qissa va hikoyalari oʻzbek tiliga tarjima qilingan va muvaffaqiyat qozongan.

1848 YILDAN SOʻNGGI DAVR FRANSUZ REALIZMI

XIX asr fransuz realizm adabiyotining soʻnggi vakillaridan biri boʻlgan Flober ijodi ana shunday sharoitda rivojlandi. Uning ijodida barcha qarama-qarshiliklar toʻlaligicha aks etadi. Haqiqatga chanqoqlik, burjua tuzumi tartiblaridan nafratlanish, shu bilan birga, xalq ommasiga ishonchsizlik bilan qarash yozuvchi dunyoqarashidagi tushkunliklarning asosiy sabablarini tashkil qiladi.

GYUSTAV FLOBER (1821– 1880)

Gyustav Flober Parij shahrida vrach oilasida tugʻildi. U litseyi tugatgach, Ruan yaqinidagi otasining yeri Kruasseda yashab, ijod qiladi. Flober ahyon-ahyonda Kruassedan Parijga adabiy ishlari yuzasidan borar, tanish yozuvchilari bilan uchrashar edi. Flober ikki marta uzoq cafarga chiqadi. Bular sharq safari hamda «Salambo» romanini yozish bilan bogʻliq Afrika safari edi. Flober zamonasidagi mashhur yozuvchilar Gonkur, Dode, Turgenev va Zolya bilan yaqin boʻlgan. Bu besh nafar yozuvchining oʻzaro adabiy toʻgaragi mavjud edi. Floberning adabiy merosi u qadar katta emas. Uning «Bovari

xonim» (1856), «Salambo» (1862), «Sezgilar tarbiyasi» (1869), «Avliyo Antoniyning aldanishi» (1874), tugallanmagan «Bugar va Pekyushe» (1881) kabi yirik asarlari, uchta povesti, hamda bir necha dramatik asarlari bor.

1848 va 1871 yillarda Flober o'zi yashab turgan jamiyatning rivojlanish jarayoniga tushunmadi, uni fojiali tarzda qabul qildi. U zamonasidagi meshchanlikni, soxtalik va xudbinlikni, umuman burjuacha turmush tarzini yoqtirmadi. Flober zamonasining bema'ni tashvishlaridan qochishga, «sof san'at»dan boshpana axtarishga urindi, o'zi xayol qilgan «fil suyagidan yasalgan minora» tepasiga chiqib berkinishni mo'ljalladi. Ammo uning oyoqlaridagi etiklarining mixlari uni yerga tortib turar ekan, yozuvchi «fil suyagidan yasalgan minora»ga chiqib berkinish faqat xayoliy bir narsa ekanligini tan olishga majbur bo'ladi. Shuning uchun ham uning har bir asari uzoq muddat talab qilgan tinimsiz mehnatning, o'ta fidoyilik bilan bajarilgan izlanishlarning samarasi o'laroq maydonga keladi. Flober asarlari romantik yozuvchilarning asarlarida uchraydigan balandparvoz iboralardan, behad mubolag'alardan yiroq turadi. Flober yozuvchi o'zi yozayotgan asar voqealariga aralashmasligini targ'ib qiladi.

Flober to'ng'ich asari «Bovari xonim»da hayotni romantik xayolparastlikka qarama-qarshi qilib qo'yadi. Yozuvchi bu romanida ikki xil vazifani oldinga suradi. Biri reaksion-romantik asarlarning hayotga yaroqsiz, g'oyasiz ekanligini fosh qilsa, ikkinchisi hamma narsa pul bilan o'lchanadigan burjuaziya sharoitida qahramon Emmaning chinakam sevgi, do'stlik, go'zallikka intilishlarining zaminsizligini ko'rsatadi. Roman qahramoni Emma meshchan oilasidan chiqqan. U ayollar monastirida tarbiyalanadi. Emmaning bu yerda o'qigan asarlari orasida hayotni buzib ko'rsatadigan romantik romanlar ham ko'p edi. Bu romanlarda olijanob xushtorlar bilan sohibjamol ayollar, ularning ehtirosli sevgisi, bir-birlariga intilishlari kuylanar edi. Emma xuddi ana shu kitoblardagiga o'xshash turmush qurishni orzu qiladi. Mana, u qishloq vrachi Charl Bovari ismli yigitga turmushga chiqadi. Lekin Emma umr yo'ldoshi bilan bo'layotgan munosabatlarida o'zi xayol qilgan shirin onlarni uchratmaydi. Natijada u o'zini eridan aldangan hisoblab, hayotidan norozi bo'ladi. Zerikarli turmush kechiradi. Orzu qilgan olijanob oshiq sifatida Rodolf ismli dvoryan yigitga ko'ngil qo'yadi. Emma endi baxtiyor bo'laman, qidirganimni topdim, deb quvonadi. Ammo

Rodolf Emma o'ylaganicha sevgini qadrllovchi olijanob odam emas, aksincha, beburd, axloqsiz, har qadamda uchrab turadigan yengiltak bir odam edi. Emma yana o'zini aldangan deb hisoblaydi, taqdiri bilan kelishmay, xayoliy orzular og'ushida keizishda davom etaveradi. O'z taqdirini sinab ko'rishga urinishi uni Leon ismli yigit bilan yaqinlashtiradi. Ammo Leon bilan ham munosabatlari uzoqqa cho'zilmaydi. Emma sevizhanlari bilan uchrashgan damlarni xushchaqchaq o'tkazish, yaxshi kiyinish maqsadida sudxo'r Leredan qarz olishga majbur bo'ladi. Leon ham tashlab ketgach, Emma uchun hayotning qizig'i qolmaydi. Sudxo'r Lere qarzlarini to'lashni talab qiladi. Endi ma'naviy inqirozlar ustiga moddiy qiyinchiliklar qo'shiladi. Ilojsiz qolgan qahramon zaharli modda – margimush ichib o'ladi.

Flober do'stlari davrasida «Bovari mening o'zim»,– deb aytgan. Haqiqatda Flober o'z qahramoni singari shirin orzular kishisi edi. Ammo u bunday orzularning amalga oshmasligini biladi. Shuning uchun Emma xayollari ustidan istehzo bilan kuladi. Flober o'z qahramoni misolida romantik xayollarning qotib qolgan xira hayoti bilan duch kelishi va real haqiqat bilan to'qnashib chilparchin bo'lishini ko'rsatadi.

Burjuaziyanning chirkin hayoti Floberga go'yo qo'lansa hid kabi yomon ta'sir etadi. Shu tufayli yozuvchi yangi romanida eramizdan avvalgi III asrdagi Karfagen davlati tarixiga murojaat etadi va Afrikaning shimolidagi Karfagen respublikasining Rim bilan olib borgan urushlarini tasvirlaydi. Karfagen bu urushda yovvoyi qabilalardan qo'shin yollaydi. Lekin yovvoyi qabilalarga haq to'lashdan bosh tortadi. Bunga javoban yovvoyilar Mato rahbarligida Karfagenga hujum qilib, ko'p talafot yetkazadi. Ular shaharga g'alaba ato qiluvchi ma'buda Tanit choyshabini o'zlari bilan olib ketadilar. Endi g'alaba yovvoyilar tomonida bo'lib qoladi.

Karfagen sarkardasi Gamilkarning qizi Salambo xudojo'y bo'lgani tufayli tunda yovvoyilar orasiga boradi. U yerda Matoni uchratadi. Mato bilan Salambo sevizhib qoladilar. Salambo ma'buda Tanit choyshabini qaytarib olib keladi. Shundan so'ng g'alaba yana karfagenliklar tomoniga o'tadi. Karfagen respublikasining arboblari hiyla-nayranglarni ishga solib, yovvoyi qabilalarni qirib tashlaydilar. Qo'zg'olonchilarning boshlig'i Matoni vahshiylarcha jazolab o'ldiradilar. Bunga chiday olmagan Salambo azob tortib o'ladi.

Yozuvchi asarda eramizdan avvalgi III asrda ham zulm, adolatsizlik, zo`ravonlik hukm surgan dahshatli manzarani chizib beradi. U Karfagen respublikasi arboblari orasida o`zaro kelishmovchiliklar, ziddiyatlar silsilasini real aks ettiradi. Flober hikoya qilinayotgan davr tarixini, urf-odatlarini haqqoniy yoritib berishi bilan kitobxonni hayron qoldiradi. «Salambo» romani voqealarga juda boy. Jang manzaralari, cheksiz Afrika sahrosining kengliklari, ma`buda Tanit ibodatxonasining boyliklari, son-sanoqsiz bolalarni qurbonlikka keltirish marosimlari, shafqatsiz ochlik, rahmsizlik va misli ko`rilmagan vahshiyliklar birin-ketin kitobxon ko`zi o`ngidan o`tib turadi.

Yozuvchi «Salambo» romanini yaratish uchun yuzlab tarixiy kitoblarni o`qib chiqqan edi. «Bovari xonim» romaniga katta kuch sarflagan Flober bu asarini yaratish uchun ham bir necha yil tinimsiz mehnat qiladi. Ana shu tarixiy fonda yovvoyi yigit Mato bilan Salamboning romantik sevgilari beriladi. Mato tabiatning erkin farzandi, u butun qalbi bilan Salamboga intiladi.

«Salambo» dolzarb zamonaviy asar. Karfagen respublikasidagi zulm-dahshatlar orqali yozuvchi jamiyatdagi adolatsizlik va urushlarni fosh qiladi. «Salambo» haqqoniyligi jihatidan o`tmish ideallashtirilgan romantik romanlardan tubdan farq qiladi. Flober bu asarida ham «Bovari xonim» romanida bo`lganidek, realistik pozitsiyada qoldi. Unda ham yozuvchining zamonasiga nisbatan pessimistik kayfiyati aks etgan. Agar birinchi romani uchun yozuvchi sudga berilgan bo`lsa, «Salambo»ni cherkov taqiqlab qo`yadi.

«Sezgilar tarbiyasi» (1869)da yozuvchi an`anaviy yosh yigit obraziga murojaat qiladi. Yozuvchining qahramoni Frederik Moro Stendal va Balzakning qahramonlari (Rastinyak, Jyulen Sorel) kabi harakat qilmaydi. Frederik Moro harakatsiz, qobiliyatsiz, beburd, loqayd ekanligi bilan ko`zga tashlanib turadi. Qahramon ko`p narsaga intiladi, lekin hech narsaga erisholmaydi. Masalan, uning yozuvchi, tarixchi, rassom bo`lish, siyosatga aralashish kabi umidlari puchga chiqadi. Flober qahramoni sevgida ham beqaror. U butun umr sevgan ayoli Arnu xonim bilan birga bo`la olmaydi. Garchi u Arnu xonimni sevsa ham, ayni vaqtda yengiltak ayol Rozanetta va Dambrez xonimlar bilan intim aloqada bo`ladi.

Romanda yana bir qator yoshlarning maqsadsiz hayot yo`li ko`rsatilgan. Bular Delore, Pelleren, Senekal hamda Dyussardelardir.

Masalan, Delore gazeta nashr qilmoqchi, ammo u gazetaning yo`nalishi qanday bo`lishini aniq bilmaydi. Rassom Palleren katta-katta polotnolar yaratishni orzu qilgan edi, lekin birorta ham diqqatga sazovor rasm chiza olmaydi. Senekal xayolparast bo`lib, so`nggi vaqtlarda respublikachilarga qarshi lager tomoniga og`ib ketadi. Bu qahramonlar orasida respublika g`oyalariga sodiq qolgan Dyussarde barrikada janglarida halok bo`ladi. Shunday qilib, «Sezgilar tarbiyasi» romanidagi barcha qahramonlar o`z maqsadlariga erisha olmay umr o`tkazadilar. Ular o`sha yaramas muhitning kishilaridir.

Flober ijodining so`nggi yillarida «Bugar va Pekyushe» (tugallanmagan) qissasini yozib, inson aqlining fanga, turli xil bilimlarga bo`lgan munosabatini bayon qiladi. Floberning bu asari uning dunyoqarashida murakkab qarama-qarshiliklar davom etayotganidan darak beradi. Yozuvchi burjua fanining yuzakiligi, tushkunlikka uchragani haqida gapiradi. Bugar va Pekyushe shaxsiyatlari burjua olimlarining chegaralanganini ko`rsatuvchi obrazlardir.

Yozuvchi soxta demokratizmni, axloqni va diniy aqidaparastlikni ayovsiz ravishda fosh qildi. Flober ikkinchi imperiya davrida fransuz xalqining milliy iftixori oyoq osti qilinganidan azoblanadi. Lekin ulkan san'atkor Flober ko`zi o`ngida bo`lib o`tayotgan tarixiy voqealar, ijtimoiy o`zgarishlar ta'sirini sezmasdan iloji yo`q edi. Yozuvchi uchinchi respublikaning ikkinchi imperiyadan aslo qolishmasligini, aksincha bu davrda burjua reaksiyasi yanada battarroq avjga chiqqanini ko`rgan va uni tanqid qilgan yirik realist yozuvchi bo`lib qoldi.

INGLIZ TANQIDIY REALIZM ADABIYOTI

Chartistlar harakatining adabiyotdagi namoyandalari Tomas Gud, Elizabet Barret-Brauning, Ebenzer Eliot, Linton, Missi hamda Ernest Charlz Jonslardir. Bu yozuvchilar o`z asarlarida zamonaviy mavzuga murojaat qildilar. Ular ishchilar hayotining, ayollar mehnatining ayanchli tomonlarini ko`rsatdilar, xalqning muhtojligini, mamlakatda islohot o`tkazish zarurligini talab qilib chiqdilar. Chartistizm vakillaridan, ayniqsa, Ernest Charlz Jons ijodida xalq manfaatlar masalasi, mehnat ahlining yuksak axloqiy tomonlari kabi muhim siyosiy-ijtimoiy masalalar o`rin oladi.

Ana shu kurashlar bag`rida ingliz realist yozuvchilarining ajoyib avlodi maydonga keladi. «Yorqin va mazmunli kitoblarda hamma professional siyosatchilar, publitsistlar va nasihatgo`ylarning jamidan ko`ra ko`proq siyosiy va sotsial haqiqatlarni ochib dunyoga ko`rsatgan hozirgi zamon ajoyib ingliz romanistlar pleyadasi biron ish bilan shug`ullanishni uyat gap deb hisoblovchi «juda olijanob» rantedan tortib mayda savdogargacha va advokat kontorasida ishlaydigan xodimgacha, hamma qatlamlarni ta`riflab berdi.

Yevropa qit`asida, jumladan Angliyada o`zaro kurashlar nihoyatda qizib ketgan bir paytda ingliz adabiyotining yirik vakillari Dikkensning «Dombi va o`g`li», Tekkereyning «Shuhratparastlik bozori», Sh. Brontening «Jeyn Eyr», E. Gaskellning «Meri Barton» kabi romanlari yaratiladi. Bu asarlarda chartistlar harakati ta`sirining kengayib borayotganligi sezilib turadi.

CHARLZ DIKKENS **(1812– 1870)**

Charlz Dikkens ingliz realist yozuvchilari avlodining ulkan namoyandasidir. Dikkens Angliyaning janubida dengiz xizmatchisi oilasida dunyoga keldi. Bo`lajak yozuvchining yoshlik yillari katta qiyinchilikda kechadi. U durustroq maktab ko`rmasdan, hayot sabog`ini puxta o`rganadi. O`zining mashaqqatlarga to`la yoshligini Dikkens keyinchalik yaratgan avtobiografik romani «David Kopperfild»da hikoya qilib bergan. Dikkens uchun maktab vazifasini o`tagan kitoblar Servantesning «Don-Kixot», Defoning «Robinzon Kruzo», Fildingning «Tom Jons» romanlari, Smollet, Goldsmit hamda Lesajning asarlari bo`ldi.

Dikkens jahon adabiyoti tarixida o`zining chinakam xalqchil asarlari bilan o`chmas iz qoldirdi. Uning ijodi ingliz adabiyotida butun bir davrni tashkil qiladi. U haqli ravishda Angliyaning xalq yozuvchisi, uning milliy iftixori sifatida tan olingan.

Dikkens ingliz adabiyotida birinchi bo`lib oddiy xalq hayotini realistik kuch bilan tasvirlab ko`rsatdi. Kishilar orasidagi keskin qarama-qarshiliklarni ifodalagan yozuvchi hamma vaqt quyi tabaqa kishilarining manfaatlarini himoya qildi.

Dikkens romanlari ijtimoiy adolatsizliklarni fosh qildi, oddiy insonning haq-huquqlari tarafdori bo`ldi, mehnat ahlining qadr-

qimmatini ulugʻladi, uning goʻzalligini, ezgu maqsadlarini kuylab, xudbin jamiyatning jirkanch manzarasini ayovsiz tanqid ostiga oldi.

Dikkens qizgʻin kurashlar davrida yashab ijod qilsa-da, jamiyatni islohot yoʻli bilan tuzatish kerak, degan tushunchada boʻldi. Ammo yozuvchining demokratik qarashlari, undagi insonparvarlik va optimizm kelajakka sobit ishonch bilan qarashga, yomonlik ustidan ezgulikning tantanasiga ishonishga olib keldi.

Dikkens ijodini toʻrt davrga boʻlish mumkin.

Birinchida (1833– 1841) Dikkens, asosan, yumoristik asarlari bilan nom chiqaradi. «Boz ocherklari», «Pikvik klubining maktublari», «Oliver Tvist», «Nikolas Niklbi» kabi asarlari yozuvchining shuhratini beqiyos shoyon qilib yuboradi.

Ikkinchida (1842 – 1848) Dikkens «Amerika xatlari», «Martin Chezlvit», «Dombi va oʻgʻli» singari muhim asarlarini yaratadi. Bu palla Yevropada kurash kuchaygan yillar edi, Dikkens asarlarining siyosiy oʻtkirligi ana shu omillar bilan belgilanadi.

Uchinchida (1849– 1859) Dikkens, asosan, hajvnavis yozuvchi sifatida taniladi. Bu yillarda «David Kopperfild», «Sovuq uy», «Mudhish zamonlar», «Mitti Dorrit» kabi oʻtkir ijtimoiy masalalarga bagʻishlangan asarlarini yaratadi.

Soʻnggi, toʻrtinchi davrida (1859– 1870) Dikkens qarashlarida umidsizlik kayfiyatlari ustunlik qiladi. Bu yillarga kelib adib «Ikki shahar haqida qissa», «Katta umidlar», «Bizning umumiy doʻstimiz» kabi asarlarini yaratadi.

1842 yili Charlz Dikkens Amerika Qoʻshma Shtatlariga safar qildi. U yerdan olgan taassurotlarini yozuvchi «Amerika xatlari» (1842) nomli kitobida bayon qilib berdi. Dikkens Amerika Qoʻshma Shtatlarini boy mamlakat deb, oʻz vatani Angliyadan afzal deb oʻylar edi. Ammo u yozuvchi oʻylaganidan boshqacha boʻlib chiqadi. Chunki AQSh barcha qarama-qarshiliklar jamul-jam boʻlgan davlat. Bir toʻda odamlarning boylik, koʻpchilik ommaning qashshoqlik ichida yashayotganliklarini, shuningdek, u yerda sharmandali qulchilik davom etayotganligini koʻradi. Dikkens, keyinroq, 1844 yili Amerika hayotiga bagʻishlangan «Martin Chezlvit» nomli romanida ham AQShdagi dahshatli voqealar: zulm, irqchilik, millatchilik, bosqinchilikdan iborat imperialistik siyosatni nafratladi. Dikkensning «Amerika xatlari» kitobi bizning kunlarimizda ham oʻzining aktualligini yoʻqotgan emas. Yozuvchining Amerika

Qo'shma Shtatlari haqidagi achchiq fikrlari chinakam fosh etuvchi asar sifatida qimmatlidir.

Dikkensning adabiyotga qo'ygan qadami ana shu asarlarning muvaffaqiyati bilan boshlanib, bu muvaffaqiyat umrining oxirigacha yozuvchiga yo'ldosh bo'lib qoldi. Chunki Dikkens ana shu dastlabki asarlaridayoq ijodining xalqchilligini namoyish qilgan edi. Shuning uchun ham Dikkensni Jorj Sand, Ejen Syu kabi yozuvchilar qatorida tilga olinadi.

Dikkensning birinchi yumoristik asari bo'lgan «Pikvik klubining maktublari» (1837) uning shuhratini butunlay mustahkamladi. Bu asar tez orada dunyoning barcha mamlakatlariga tarqaldi. Dikkensning nomi ommalashib ketishiga sabab bo'ldi.

Londonda turli klublar bo'lgan. Shulardan biri mamlakatning urf-odatlarini o'rganishga qaratilgan klubdir. Uning boshlig'i Pikvik janoblardir. Pikvik o'z hamrohlari bilan birga mamlakat bo'ylab sayohatga chiqadi. U juda ham sodda odam. Ancha yoshga borib qolgan bo'lsa ham yosh bolalardek xayol qiladi. Hammaga, jumladan, ayollarga yordam qilishni yaxshi ko'radi. Tez yurish, sakrash qobiliyatidan mahrum, ko'zoynagi dumaloq halqani eslatadigan odam. Pikvik shu qadar sodda va kulgiliki, hatto tentaklarcha harakat qilishdan ham qaytmaydi. U o'ziga qo'yilgan tuzoqqa osonlik bilan tushadi. Sud hukmi bilan qamalgan Pikvik janoblari burjua sudi va qamoqxonasining adolatsiz, poraxo'r va shafqatsiz basharasi bilan tanishadi.

Pikvik janoblari fan yo'lida «ilmiy izlanishlar» qilib, uning natijalarini o'zi rahbarlik qilayotgan klub a'zolariga tanishtirish niyatida bo'ladi. Asarning komizmi yana shu bilan kuchaytiriladiki, o'taketgan sodda, har narsaga ishonuvchan, hayotni mutlaqo tushunmaydigan Pikvik London ko'chalarida chamadoni bilan, paltosining cho'ntagiga solib olgan durbini bilan hammaning diqqatini tortadi. Uning do'stlari ham o'zi kabi g'alati odamlar. Hissiyotga beriluvchan janob Tapmen, shoirtabiat Snodgress, qo'rqoq, ammo o'zini mohir ovchi deb maqtanuvchi Uinkl janoblari birgalikda Pikvik obrazini to'ldiradilar. Bu sodda, oddiy kishilar obrazlari burjua vakillariga qarama-qarshi chizilgan.

Pikvikning xizmatkori Sem Ueller o'tkir mushohadali, ziyrak, pishiq-puxta, tadbirkor hamda chaqqon odam. Agar Pikvik Don Kixotni eslatsa, Sem Ueller Sancho Pansani xotirga keltiradi. Yozuvchi qahramoni va uning hamrohlari nigohi bilan Angliyada

yuz berayotgan voqealarni kuzatib boradi. Asarda Pikvik hamda uning sheriklari burjuaziya tuzumining xudbinligiga, aqcha, boylik ketidan quvgan vakillariga qarama-qarshi qilib qo'yilgan. Dikkins Angliyada yuz berayotgan adolatsizliklarga qarshi kurash yo'lini axtarmaydi. Uning qahramonlari ham bunday fikrdan yiroq. Yozuvchi romanida mavjud tuzumga qarshi nafrat, norozilik emas, balki o'tkir kulgi, bitmas-tuganmas yumor yetakchi rol o'ynaydi.

«Pikvik klubining maktublari» adabiyot xazinasiga komik roman namunasi bo'lib qo'shildi.

Charlz Dikkensning «Dombi va o'g'li» romani yozuvchi ijodida alohida o'rin egallaydi. Ingliz adabiyotida tanqidiy realizmning ajoyib namunasi bo'lgan bu asar markazida yirik kapitalist, savdogar Dombi obrazi turadi. Dombi o'z korxonasining boyishi, gullab-yashnashidan bo'lak hech narsani tan olmaydi. U ayollarni odam deb hisoblamaydi. Uning fikricha, ayollar korxonaning boyishi uchun xizmat qila olmaydilar. Shu sababli, Dombi xotini va qizini mensimaydi. Uning o'g'li tug'ilganda farzand ko'rgani uchun emas, balki korxona ishlarini davom ettiruvchi o'rinbosar, merosxo'r tug'ilgani uchun quvonadi. O'g'li Polni savdo maktabiga berib, uning juda erta – olti yoshda vafot etib ketishiga sabab bo'ladi. Dombining birinchi xotini o'lgach, Edit ismli go'zal ayolga uylanadi. Bu ayolga ham sovuq munosabatda bo'ladi. Natijada Edit Dombining ish boshqaruvchisi Karker bilan korxona pullarini o'g'irlab qochadi. Otasining og'ir ahvolidan xabar olish uchun kirgan qizi Florensni Dombi o'z yonidan haydab chiqaradi. Florens ham otasi uyidan ketib, sevgan yigiti kambag'al Uolterga turmushga chiqadi. Florens baxtini o'z sinfi orasida emas, balki kambag'al ishchilar, matroslar, oddiy odamlar orasida topadi.

Dikkins faqat pulni tan oladigan Dombi obraziga oddiy mehnat kishilarini qarama-qarshi qo'yadi. Yozuvchining butun simpatiyasi ana shu mehnatkash kishilar tomonidir.

Yozuvchining barcha asarlari baxtli yechim bilan tugallangani kabi, «Dombi va o'g'li» romanining finali ham «yumshatiladi». Asarning boshlaridagi berahm, shafqatsiz, sovuq tabiatli Dombi asar oxirida o'zgarib, kuyovi, qizi bilan gaplashadigan, nabirasi Polni o'ynatib yuradigan kishi sifatida tasvirlanadi. Yozuvchining bu murosasozligi, albatta, roman realizmini pasaytirgan. Lekin Dombi singari burjua savdogarining to'laqonli obrazi yaratilishi kitobning juda katta yutug'i edi.

Dikkins barcha asarlarida bo'lganidek, «Dombi va o'g'li» romanida ham mubolag'adan keng foydalanadi. Dombi janoblarining pulga, korxonaning boyishiga bo'lgan xirsini quyidagi o'xshatishlar bilan bo'rttirib ko'rsatadi. Osmondagi barcha sayyoralar yerga shuning uchun nur sochadiki, yerning markazida Dombi janoblarining korxonasi bor. Dengiz va daryolardagi kemalar «Dombi va o'g'li» korxonasining mollarini jahon bozoriga tashiydilar. Hatto osmondagi kamalak ham shu korxona uchun ob-havoni oldindan xabar qilib turishi kerak. Xullas, yozuvchi jamiyatning tipik vakili obrazini yaratish bilan katta ijodiy muvaffaqiyatni qo'lga kiritgan.

V.G.Belinskiy «Dombi va o'g'li» romaniga yuqori baho bergan.

Angliya adabiyotining zabardast vakili Charlz Dikkins zamonasidagi inqilobiy voqealar, jumladan, chartistlar harakatini tushunmadi. Lekin u mehnat ahlining chinakam himoyachisi, do'sti bo'lib maydonga chiqdi. Dikkins bir necha asarlarida yoshlik nima ekanini bilmagan norasida bolalar haqida katta hurmat, mehr-muhabbat bilan gapirdi. Ularning fojiali taqdiriga chin yurakdan achindi. Jamiyatni islohotlar bilan, axloqiy jihatdan kishilarni tarbiyalash orqali, yomonlik ustidan yaxshilikning tantanasi bilan ahvolni o'zgartirish, adolat o'rnatish mumkin deb hisobladi. Dikkins yirik san'atkor, xalq yozuvchisi bo'lib qoldi. Uning butun ijodi bo'ylab oddiy xalq hayoti, xalq vakillarining obrazlari o'tib turadi. Yozuvchi xalqdan chiqqan oddiy kishilar obrazlarini juda katta mehr-muhabbat bilan tasvirlaydi.

Dikkins bitmas-tuganmas yumorga ega san'atkor edi. U ana shu qurol bilan hayotning barcha illatlari ustidan zaharxanda qilib kuladi. Yomonlikni qoralab, yaxshilikni ulug'laydi.

Dikkinsning barcha asarlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U qahramonlar taqdirining ayanchli manzarasini tasvirlayotganida ham, quvnoq insoniylik kayfiyati sezilib turadi. Yozuvchi badiiy o'xshatishlar, romantik jilolar hamda jozibali poetik priyomlardan keng foydalanadi.

Charlz Dikkins ijodi Rossiyada keng shuhrat qozondi. Lev Tolstoy Angliya yozuvchisi ijodidagi gumanizmni, xalqchilikni ulug'ladi. Dikkins asarlari bizning kunlarimizda ham adolat, tenglik, do'stlik jarchisi sifatida keng xalq ommasi o'rtasida sevilib o'qilmoqda.

30-40-YILLARDA NEMIS ADABIYOTI

XIX asrning boshlaridagi Napoleon yurishlari Germaniyadagi feodal tartiblariga bir qadar zarba berib, bu yerda burjua munosabatlarining rivojlanishi uchun yoʻl ochadi. Ammo 1815 yildan keyin, Yevropa monarxlarining birlashgan kuchlari Napoleon ustidan gʻalaba qozongach, hamma yerda «muqaddas ittifoqning» reaksiyasi kuchayadi. Napoleonga umid bogʻlagan xalqlarning orzulari yoʻqqa chiqadi. Bu davrda yashab ijod qilgan buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Genrix Geyne asarlarida ana shu ozodlik gʻoyalarning ifodasi yaqqol koʻrinadi.

GENRIX GEYNE (1797– 1856)

Genrix Geyne 1797 yilda Reyn daryosi qirgʻogʻidagi Dyusseldorf shahrida savdogar yahudiy oilasida tugʻiladi. Boʻlajak shoirning tarbiyasi bilan asosan uning onasi shugʻullanadi. Otasi Samson Geyne va onasi Betti Geyne oʻz oʻgʻillarining kelajakda harbiy kishi boʻlib yetishini orzu qiladilar. Ular Geyneni Napoleon armiyasining ofitseri mundirida koʻrmoqchi edilar. Ammo Napoleon ittifoqchilar tomonidan yengilgach, ota-onaning umidlari puchga chiqadi. Endi ular Geynening savdo xodimi boʻlishini moʻljallab Gamburg shahriga boy savdogar amakisi Solomon Geyne huzuriga joʻnatadilar. Yosh Geyne savdo-tijorat ishlariga aslo qiziqmadi. Uni kitoblar olami oʻziga tortar va tinmay sheʼr yozishni mashq qilar edi. Faqat savdo bilan band boʻlgan amakisi Solomon Geyne jiyanining bu xatti-harakatlarini yoqtirmadi. Buning ustiga Geyne amakisining takabbur qizi Amaliyani sevib qoladi. Otasi singari boylik va zebziyatga mukkasidan ketgan Amaliya kambagʻal qarindoshining sevgisini rad etadi.

Geyne dastlabki sheʼrlaridan birida sevgi iztiroblarini quyidagicha ifodalab beradi.

Ular meni qiynadi rosa
Qon qolmadi, rangi-roʻyimda,
Baʼzilar sevgandan boʻlsa,
Baʼzilar dushmanligidan.
Ular ogʻu qoʻshdi oshimga,

Ular qotdi suvga ham zahar.
Ba'zisi do'st, kelar qoshimga,
Ba'zilari dushmandan battar.
Lekin o'sha dilbarki-dilbar,
Sitamidan hanuz dil nolon,
Yomonlik ham qilmadi menga,
Ham sevmadi meni hech qachon.

Mirtemir tarjimasini.

Bu davrdagi Geyne she'rlari hali mustaqil bo'lmasa-da, romantik ohanglarga boy, o'sha zamon amaldorlari, meshchanlariga qarshi norozilikni ham bildirar edi.

Geyne Gamburgda uch yil yashagach, amakisi Solomon Geyne undan savdo xodimi chiqishiga ko'zi yetmagach, jiyaniga javob berib yuboradi. Geyne Bonn, Gettingen hamda Berlin universitetlarida o'qiydi. Zamonasining mashhur olimlaridan, jumladan, Gegeldan lektsiyalar tinglaydi. Huquqshunoslik diplomini olgan bo'lsa ham, bu sohada ishlamaydi. 1824 yili Gamburg shahrida Geynening ko'p yillik mehnati samarasi bo'lgan «Qo'shiqlar kitobi» nomli lirik she'rlar to'plami bosilib chiqadi. Bu to'plam Germaniya adabiyotida ulkan shoir paydo bo'lganidan darak berar edi. Geynening «Qo'shiqlar kitobi» besh qismdan: «Yoshlik azoblari», «Lirik intermetstso», «Vatanga qaytish» hamda ikki qismdan iborat «Shimoliy dengiz» silsilasiga bo'linadi. Mazkur majmua xalq qo'shiqlariga nihoyatda yaqin turishi bilan kitobxonni maftun etadi. Lirik qahramonning ichki dunyosini ochib berish, sevgi va tabiatni mohirona tasvirlash Geynening lirik iste'dod egasi ekanligini namoyish qiladi.

1830 yili Geynening ikkinchi yirik asari «Yo'l lavhalari» ocherklar to'plami bosilib chiqdi. Bu to'plam avtorning g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetilib borayotganini ko'rsatib turar edi. «Yo'l lavhalari» Germaniyaning Yevropa davlatlariga nisbatan hali ham qoloq, tarqoq holda ekanligini ko'rsatadi. Shoir Germaniya bo'ylab qilgan sayohatini ocherk shaklida yozib, zamonasidagi feodal mustabidlarni, qoraguruhchi din peshvolarini ayovsiz tanqid ostiga oladi. Frantsiyadagi kurashlar xabaridan shod bo'lgan shoir vatani manzarasini chizar ekan, uning qoloqligidan, sustkashligidan tushkunlikka tushmaydi. «Qo'shiqlar kitobi»da bo'lgani kabi, bu to'plamda ham adib xalq afsonalaridan, mubolag'a va romantik bo'yoqlardan keng foydalanadi. Gartsning go'zal manzarasi, nemis

yerlarining o`ziga xos milliy rang-barangligi katta mahorat bilan chizib berilgan. Pruss feodallari, o`zboshimcha dvoryanlar, mutaassib takabbur olimlar, o`taketgan nemis shovinistlari Geyne hajviyotining tig`iga duchor bo`ladi.

1830 yildan so`ng Geyne Parijga ketadi. Shoir umrining yigirma besh yilini Parijda (1831–1856) o`tkazadi. U Parijning adabiy-siyosiy hayotiga faol aralashadi. Shu yerda ulug` yozuzchilar, sotsial-utopistlar bilan tanishadi.

Bu yillarda Geyne ijodi g`oyaviy va siyosiy jihatdan yuksak kamolot bosqichiga ko`tariladi. Shoir o`zining ajoyib asarlari – «Sileziya to`quvchilari» she`rini hamda «Germaniya. Qish ertagi» dostonini, «Qullar kemasi» nomli balladasini yaratadi.

Ularda siyosiy mazmun va mundarija birinchi o`ringa chiqadi. Shoir siyosiy hajviyot ustasi bo`lib tanildi. Hayotning ma`nosi to`xtovsiz kurashdan, olg`a qarab borishdan iborat, deydi u. Shoir o`zini insoniyatni azob-uqubatlardan ozod qilish uchun bo`ladigan urushda «jangchi soldat» deb ataydi.

«Sileziya to`quvchilari» (1844) she`ri Germaniyadagi Sileziya ishchilarining qo`zg`olonidan keyin yozilgan. To`quvchilar kurashiga bag`ishlangan asarlar orasida Geyne she`ri o`zining g`oyaviyligi, kurashning tub mohiyatini anglab yetganligi bilan ajralib turadi. Mazkur she`r kurashga otlanganlar qasidasi yanglig` jarangladi.

Garchi Sileziya to`quvchilarining qo`zg`oloni bostirilgan bo`lsa-da, Geyne ularning kelajakdagi g`alabasiga ishonch bilan qaraydi. Shoir mehnat ahlini oyoq osti qilgan, ezilganlarning arzig quloq solmaydigan zolimlarni la`natlaydi. Ishchilar dastgoh yonida turib, tishlarini g`ijirlatib, qo`llarini mushtlab, eski Germaniyaga kafan to`qiyotganligini alohida bo`rttirib ko`rsatadi. Hajman kichik siyosiy she`rning ahamiyati ham shunda.

Shoir doston nomidagi qish so`zi orqali Germaniyaning qoloqligiga, u yerda hukm surayotgan jaholatga ishora qiladi.

Genrix Geyne vatanini bir butun demokratik davlat sifatida ko`rish orzusi bilan yashaydi. Lekin hayotda buning aksi. Shu sababli tanqid tig`ini qoloq Germaniya tuzumi, mamlakatni og`ir ahvolga solib qo`ygan Prussiya mustabid sistemasiga qaratadi. Harbiylar va dvoryanlar, pomeschchiklar va cherkov peshvolari, qisqasi mamlakatni reaksiya iskanjasida saqlayotgan qora kuchlar shoir satirasining nayzasiga giriftor bo`ladilar. Asar chinakam

xalqchillik ruhida yozilgan. Xalq afsonalari, tarixiy voqealar tavsifi birin-ketin almashib turadi. Shoir Vatani chegarasiga qadam qo'yar ekan, ona tilini eshitib, ko'zlaridan o't chaqnaydi, xursandchilikdan yuragi to'lib-toshadi. Ammo bu quvonch uzoqqa cho'zilmaydi. Chegarada uning chamadonlarini tintuv qiladilar. Shoir zaharxanda bilan pruss soqchilari ustidan kuladi. Geyne diniy hazin qo'shiqni eshitib, reaksiyon ruhoniylar safsatasidan nafratlanadi. Chunki poplar oddiy xalqni aldab, narigi dunyo «jannati»ni targ'ib qilar, bu dunyoda tinmay mehnat qilishga undar edilar. Shoir ularga qarshi haqiqiy real hayotdagi baxt-saodatni kuylab, narigi dunyo «jannati» haqidagi safsatalarni fosh qiladi. «Biz yangi qo'shiq, eng yaxshi qo'shiq boshlaymiz. Yer bizning jannatimiz bo'ladi», – deb xitob qiladi u. Geyne buning uchun kurashish lozimligini aytadi. Nemis amaldorlarining Germaniyaning orqaga, o'rta asr zulmatiga sudrayotgani, diniy jaholat tomonga boshlayotganini qattiq qoralaydi. Murtdalar o'rta asrdagi imperator Fridrix Barbarossa haqidagi afsonani o'z manfaatlari yo'lida targ'ib qiladilar. Bu afsonaga ko'ra, Barbarossa Rotbart Kifgayzer g'orida uxlab yotar emish. Bir kun kelib u o'z g'oridan chiqar va Germaniyada eski monarxiya tartiblarini o'rnatib emish. Bu reaksiyon nemis amaldorlarining Germaniyaning o'rta asrchilik vayronalariga boshlash niyatlariga mos bo'lib tushadi. Shoir Fridrix Barbarossa haqidagi bu afsonalarga qaqshatqich zarba berib, zolimlarga qarshi jangga otlangan Yevropa xalqlarining ozodlik harakatini birinchi planga olib chiqadi.

Geyne vatani Germaniyaning birligi masalasiga e'tiborni qaratadi. Hali ham o'ttizdan ortiq mayda davlatchalarga bo'linib yotgan Germaniya shoirida achinish, o'kinch hislarini uyg'otadi. Asarning oxirida shoir pruss qiroliga zolimliklari uchun narigi dunyoda Dantening do'xaxida kuyishini eslatadi. Doston Germaniyada hukm surayotgan reaksiyaga nafrat, nemis xalqiga, uning kelajagiga muhabbat va ishonch ruhi bilan sug'orilgan.

1845 yildan keyin Geyne dunyoqarashida burilish yuz beradi. Sog'lig'i yomonlashib, o'z ta'biri bilan aytganda, «to'shak qabriga» giriftor bo'ldi. Geyne og'ir betob bo'lishiga qaramay, ko'p she'rlar yozdi.

Geyne kurashuvchilar qatorida turdi, demokratiya kelgusida g'alabaga erishadi, deb ishonadi. Shoirning jangovar ijodiy an'analari nemis taraqqiyparvar adabiyotida davom ettirilmoqda.

Genrix Geyne asarlari Rossiyada keng tarqalgan. Uning she'riyati deyarli barcha mashhur rus shoirlari tomonidan tarjima qilingan. Geyne she'riyatining bir qismi o'zbek tiliga ham o'girilgan. Oybek, Mirtemir, Shukrullo, Xayriddin Saloh, Abdulla Sher va boshqalar o'zbek kitobxonini buyuk nemis shoiri lirikasidan bahramand qilganlar.

1871-1917 YILLARGACHA BO`LGAN FRANSUZ ADABIYOTI

XIX asrning oxirlarida Frantsiya Afrikada ko'p mustamlakalar bosib oladi. Reaksiya nihoyat kuchayadi. Xalq ommasi qattiq ekspluatatsiya qilinadi.

Bir vaqtlari siyosatdan chetda turgan adiblar endi jamiyat ishlariga, turli-tuman voqealarga aralashadilar, haqiqat himoyachilari bo'lib chiqadilar. Endi ijtimoiy mavzular, hodisalar, xalq hayoti fransuz adabiyotidan salmoqli o'rin egallay boshlaydi.

San'at va adabiyotning asosiy burchi masalasi ko'p yozuvchilarning diqqatini o'ziga jalb qiladi.

Adabiyotda yangi ijtimoiy muammolar paydo bo'ladi. XIX asrning birinchi yarmida yashagan buyuk realist – Stendal, Balzak, Flober adabiy an'alarini Zolya, Mopassan, Frans, Rollanlar davom ettiradilar. Realizm bu davr Frantsiya adabiyotida asosiy adabiy yo'nalishga aylanadi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshidagi badiiy tafakkurning rivojiga Ogyust Kant falsafasi katta ta'sir etgan. Kant pozitivizm (mavjudlik, ijobiylik) falsafasi bilan fanni o'rganishga, uni hamma narsadan yuqori qo'yishga intilgan, faktlarga suyangan, lekin u umumlashmadan qochib, ijodkor oldida turgan asosiy masala faqat voqealarni qayd qilishdan iborat, deb ko'rsatgan.

Ogyust Kantning «Ijtimoiy hodisa insoniy hodisa sifatida fiziologik hodisa qatoriga kiritilishi kerak» degan tezi fiziologik omilni ustun qilib qo'yadi va insonning sinfiy tushunchaga ega ekanini inkor etadi. Kant pozitivizmi zamonning tarixiy, badiiy-estetik qarashlariga, ayniqsa naturalizm adabiyotiga salbiy ta'sir etmay qolmadi.

Pozitivizm falsafasiga asoslangan Ippolit Ten irq, muhit, vaqt tezisini ilgari suradi va uni taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladi.

Naturalizm. XIX asrning 60–70-yillarida – burjua reaksiyasi kuchaygan sharoitda Frantsiyada kelib chiqqan va rivojlangan adabiy oqimlardan biri naturalizmdir. *Natura* (lotincha)– *tabiat* demakdir. Naturalistlar Ogyust Kant va Ippolit Tenning falsafiy qarashlariga asoslanadilar. Ular ko`proq faktlarni o`rganishga chaqiradilar.

Naturalistlarning fanga berilishlari, shubhasiz, ijobiy hodisa, lekin ular ilmni chuqur, ob`ektiv o`rganishga kirishmasdan, balki unga yuzaki yondashadilar. Naturalistlar pozitivizm falsafasiga amal qilib, shaxsga ijtimoiy hodisa deb emas, balki biologik voqealar mahsuli deb qaraydilar. Insonning shakllanishida, umuman, muhit va irsiyatning ta`siri katta, deb biladilar. Shu sababli inson hayot oqimiga qarshi turishga zaif va ojiz, degan xulosaga keladilar.

Naturalist yozuvchilar uchun saxovat ham, qabohat ham bir xil qimmatga ega. Ular tabiatni qanday bo`lsa, ya`ni tozalanmagan, bo`yalmagan shaklda ko`rsatishga urinadilar. Ular turmushning bir parchasini olib, uni fotografik aniqlik bilan mayda-chuydasigacha qoldirmay tasvirlaydilar. Shuni ham aytish kerakki, yirik yozuvchilarda naturalizm realistik tasvir bilan qorishiq holda davom etadi. Bu narsani aka-uka Jyul va Edmon Gonkurlar hamda Emil Zolya ijodida uchratish mumkin.

XIX asr o`rtalarida tabiat ilmining rivojlana boshlashi, shuningdek ko`p ijtimoiy sistemalarning yemirilishi va boshqa sabablar Zolyani «ilmiy» yoki «eksperimental» roman yaratish zarurati g`oyasiga olib keladi. Ilmiy roman, fan kabi, ob`ektiv va aniq, lekin bir-birini almashtirib turuvchi ijtimoiy tuzumlardan mustaqil deb o`yladi.

Emil Zolya «Eksperimental roman» (1879) kitobida naturalizm nazariyasini yaratdi. U fanni o`rganish usulini asarga tatbiq qilish g`oyasini ilgari surdi. Adib o`zining naturalistik romanini «ilmiy roman» deb ham atadi. Zolya fikricha, yozuvchi – kuzatuvchi, ya`ni tajribachidir. San`atkor turmush qanday bo`lsa, uni o`sha holatda berishga, ya`ni olim sifatida dalillarni o`rganish va ularni tasvirlashga, ayniqsa, «man etilgan» mavzu–patologiya va unga bog`liq bo`lgan turli irsiy kasalliklarni ko`rsatishga urinadi, insoniyat jamiyatini fiziologik jarayon deb ko`rsatadi.

Zolya naturalizmni realizmning davomi deb tushundi. Shuning uchun u o`z ijodida naturalizm doirasidan chetga chiqadi, ishchi mavzuiga murojaat qiladi («Tuzoq», «Hamal»).

Aka-uka Jyul va Edmon Gonkurlar real borliq chegarasidan tashqariga chiqmaslikka intiladilar. Olimlar kabi, odamlar haqidagi hujjatlarni o'rganadilar. Adabiyotning asosiy printsipi umumiylikni xususiylik bilan almashtiradilar.

60-yillarda aka-uka Gonkurlar oltita roman e'lon qiladilar. Bu asarlar naturalistik ruhda yozilgan bo'lib, ularda qarama-qarshi mayllar kurashi seziladi. Lekin ular o'zlarini realistlar, ya'ni Balzak yo'lini davom ettiruvchilar, deb hisoblaydilar. Gonkurlar yozgan romanlarida dunyo illatlari tanqid qilinadi. Biroq ularning barchasida naturalistik romanlarga xos nuqsonlar ko'zga tashlanib turadi. Gonkurlarning qahramonlari asabiylashgan, tez o'zgaruvchan, xasta kishilar. Bular, odatda, odamni ruhiy inqirozga, o'limga olib boruvchi hodisadir. Gonkurlar tasvirlayotgan kishilar o'zlarini halokatga duchor etuvchi illatlarga qarshi kurashga noqobil, zaif. Shu bilan birga, eng yaxshi romanlarida ular realizmga yaqinlashadilar. Bunga «Jermini Lyaserte» (1865) romani misol bo'ladi. Bu– oqsoch haqidagi qayg'uli hikoyadir.

Jermini– nozik his-tuyg'uli ayol. Baxtsiz voqea ro'y berishi va qizg'in tabiatliliigi natijasida u yuz tuban ketadi, telba xoliga tushadi, shahvatga beriladi. Jermini o'z davrining qizi edi. Mualliflar xizmatchi ayolning ma'naviy buzilishini, «sevgi klinikasi»ni ko'rsatdilar. Ular o'z zamonasining «ma'naviy tarixi»ni yaratmoqchi bo'ldilar-u, lekin o'sha jamiyatdagi voqelikning ma'nosini to'la ochib beradigan katta siljishlar– ijtimoiy hodisalardan yiroqda turdilar.

70-yillarda Edmon Gonkur bir nechta roman yaratdi. Ulardan «Aka-uka Zemganno»da (1879) insonga bo'lgan iliq munosabat ochiq ko'rinadi. Lekin E. Gonkur oxirigacha izchil demokratik pozitsiyada turolmadi.

Dekadentlik adabiyoti. XIX asrning 80-yillarida Frantsiya jamiyatining ziddiyatlari kuchayib borayotgan bir sharoitda dekadentlik adabiyoti kelib chiqadi. Individualizm, umidsizlik, sirli voqealar, oxiradunyosiga murojaat etish bu adabiyotning asosiy belgisidir. Romantik shoir Teofil Gote *dekadans* (fransuzcha– *tushkunlik* demak) iborasini birinchi bo'lib adabiyotda qo'llagan. Simvolistlar va ularga yaqin turgan yozuvchilar ham o'zlarini dekadentlar, deb ataganlar.

Dastlab ko'p dekadentlar mavjud tartiblarga qarshi norozilik ifodachisi sifatida chiqdilar. Biroq haqiqatda ular yangilik

yaratuvchilar emas, balki san'atning realizmi va xalqchilligi, g'oyaviyligidan qochish bilan o'sha jamiyat qabohatlaridan qutulolmagan yozuvchilar edilar. Keyinroq dekadentlik termini san'at va adabiyotdagi barcha xasta hodisalarni ifodalovchi so'z bo'lib qoldi. Masalaning murakkabligi shundaki, turli adabiy oqimlarga mansub parnaschi, simvolist, asr boshidagi modernistlar, hatto naturalistlarni ham dekadentlar deb atashadi va bu yozuvchilar mavjud tartiblarning himoyachilari emas, balki unga qarshi norozilik bilan chiqqan san'atkorlar, lekin ulardan eng qobiliyatli ham umidsizlikka tushgan, o'zlaridagi illatlarni bartaraf etolmagan kishilar edi.

Parnaschilarning estetik printsiplari ziddiyatli. Bir tomondan, ular voqealarni aniq hujjat bilan tasvirlash talabini qo'yadilar, fanga sig'inadilar, san'atkorni oddiy ro'yxatchiga aylantiradilar. Ikkinchi tomondan, har qanday aniqlikni rad etib, xira, ilg'ab bo'lmaydigan narsalar, «sof san'at» qoidasini himoya qiladilar. Parnaschi Lekont de Lil ochiqdan-ochiq «biz tushkunlikdamiz», deydi.

Impressionizm (fransuzcha – *taassurot*) oqimi XIX asrning 60–70-yillarida dastlab tasviriy san'atda, so'ngra she'riyatda kelib chiqqan. U rassomlik san'atini ham tematik, ham shakl (yorqin bo'yoq, toza va ochiq havo) jihatidan boyitgan. Impressionizm insonning ichki dunyosiga kirib borish va uni yoritishga intilgan. Lekin badiiy obrazni tekshirishda taassurotni asosiy mezon deb bilish, individualizm va sub'ektivizmga berilish bu oqimning hayotdan va realistik an'analardan uzoqlashib ketishiga olib boradi.

Dekadentlikka xos oqimlardan biri *simvolizmdir*. XIX asrning 70–80- yillarida reaksiya kuchaygan sharoitda yangi adabiy oqim–simvolizm yuzaga keladi va rivoj topadi. Uning yirik vakillari Pol Verlen, Artyur Rembo, Stefan Mallarmedir. Simvolistlar tanqidiy realizm adabiyotini eskirgan, uning tipiklashtirish va umumlashtirish printsiplarini ham yangi davr san'ati uchun mos emas, deb qaraganlar. Ular uchun parnaschilar printsiplari ham maqbul emasdek. Lekin simvolizmning boshlovchilaridan Mallarme dastlabki she'rlarini «Hozirgi zamon Parnasi»da bostirgan. U Bodlarning «Yovuzlik gullari»dagi g'amginlik, estetizm va shaklga yuzaki berilish motivlaridan qanoat hosil qilgan. Haqiqatda simvolistlarning tutgan g'oyaviy yo'li parnaschilarning g'oyaviy pozitsiyasidan kam farq qiladi. Ularda ham dekadentlarga xos kayfiyat – yolg'izlik, umidsizlik, g'am-g'ussa, mavhum obrazlar hukmron. Parnaschilar

«iblis bolalari» haqida yozadilar. Simvolistlar o`zlarini «la'natlanganlar», deb ataydilar. Rembo «Ro'shnolik» kitobini yozuvchilarning piri «Muhtaram Shayton»ga bag'ishlaydi.

Biroq Rembo, Verlen o`z o`tmishdoshlarining adabiy programmasiga tanqidiy qaraydilar. Parnaschilarning ifodalash usuli, ravon tili simvolistlarga yoqmaydi. Ular narsaning tashqi ko`rinishini vazminlik bilan tasvirlashga diqqat qilib, ichki mohiyatiga, mantiqiy aniqligiga ahamiyat bermaydilar.

Simvolistlar, aksincha, dunyoning «ichki sirlari»ni bilishga intiladilar, lekin ifoda qilib bo`lmaydigan narsalarni musiqiy ramzlar bilan ko`rsatishga urinadilar. Ularga xos narsa mistik va simvolistik tarzda fikrlashdir. Simvolistlar qo`llayotgan usul shartli belgi – simvol falsafiy idealizm bilan bog`liq bo`lib, u real voqealarni bildiruvchi simvollarga sira o`xshamaydi. Simvolistlar hikoya qilmasdan, balki imo-ishora bilan cheklanadilar. Ular mavjud hayotni aks ettirishdan qochib, oxiratni tasvirlashga chaqiradilar. Mallarning «Oq qush» she'ri har bir so`zi va ishoralarida yolg`izlik, parokandalik xislatlarini ko`rish mumkin.

E M I L Z O L Y A **(1840 – 1902)**

Zolya 1840-yilning 2-aprelida Parijda tug`ildi. Uning yoshligi Frantsiyaning janubidagi Eks shaharida o`tdi. Otasi injener-quruvchi bo`lib, o`sha yerda xizmat qilar edi. U vafot etgach (1847), Zolyalar oilasi Parijga qaytadi va juda og`ir turmush kechiradi.

XIX asrning 60-yillari o`rtalarida Zolya o`zining dastlabki hikoyalari «Ninon ertaklari», ilk romanlari («Klodning tavbasi», «Marsel sirlari» va boshqalar)ni yaratadi. Bular romantiklarga taqlidan yozilgan asarlar edi. Yosh yozuvchida sekin-asta realistlar (Balzak, Flober)ga va naturalistlarga qiziqish orta boradi. «Tereza Raken» (1867) asarining muqaddimasida Zolya o`zining «ilmiy» romanlarida xarakterlarni emas, balki temperamentlarni o`rganishi haqida so`z yuritadi. Lekin mazkur romanlarida faqat «mijoz»gina emas, shu bilan birga, oz bo`lsa-da, ijtimoiy hayot ham aks etgan.

«Tereza Raken» va «Madlen Fera» (1868) romanlari Zolyaning naturalistik ta`limotini aks ettirgan asarlardir. Har ikkala roman konfliktining rivoji va xotimasi naturalistik adabiyot printsiplariga mos, ularda personajlarning ijtimoiy hayotlari emas,

balki «kasallik tarixi», fiziologik masalalar berilgan. Qahramonlarning ruhiy kechinmalari ularning jamiyatda tutgan insoniy mavqelari bilan emas, balki ularning mijoz va kelib chiqishlari bilan izohlanadi. Terezaning jinoyati uning temperamenti bilan muhit oʻrtasidagi ziddiyat sifatida namoyon boʻladi. Romanda faktlar qayd qilinadi, yozuvchining tutgan mavqei koʻrinmaydi.

Naturalizm adabiyoti nazariyasi Zolyaning «Eksperimental roman» (1880), «Romanist-naturalistlar», «Naturalizm teatri» (1881) maqolalarida toʻla bayon qilingan.

E.Zolya bir nechta hikoyalar toʻplami, adabiy-tanqidiy kitoblar, publitsistik xarakterdagi maqolalar, dramatik asarlar yaratgan boʻlsa-da, romanlari bilan mashhurdir. Bu asarlarining koʻpi «Rugon-Makkarlar» nomi bilan ataladigan turkumga kiradi. Mazkur turkum Balzakning «Inson komediyasi» kabi koʻp tomli epopeyadir.

E.Zolya bu epopeyasi ustida qariyb 25 yil ishlaydi va yigirmata roman yozadi. Bu asarlar turkumida muallif «Ikkinchi imperiya davridagi bir oilaning tabiiy va ijtimoiy tarixi»ni bermoqchi boʻladi. Lekin haqiqatda u hayotning turli tomonlarini qamrab olgan voqealarni aks ettiradi.

Yozuvchi dunyoqarashi atrofida boʻlayotgan sotsial hodisalar taʼsiri ostida oʻzgarib boradi. Naturalizm nazariyasining asoschisi Zolya obʼektivizm, jamiyat taraqqiyotining «tabiiy» biologik tomonlariga emas, balki uning ijtimoiy rivojlanishiga eʼtiborni qaratadi. XIX asrning ikkinchi yarmida roʻy bergan voqealar Zolyaga taʼsir etmay qolmaydi. Frantsiya-Prussiya urushini u «Tormor» romanida koʻrsatgan. U versalchilarning qonli terrorini qattiq qoralagan.

Zolya hayotining soʻnggi yillarida yangi seriyadagi romanlari «Uch shahar» (1894– 1898) trilogiyasi va «Toʻrt injil» (1899– 1902) siklidagi asarlarini yaratdi.

Zolya naturalizm adabiyotining asoschilaridan biridir. Lekin uning adabiy qarashlarini naturalizm nazariyasi haqidagi taʼlimoti bilan cheklab boʻlmaydi. Yozuvchining ijodiy yoʻli ziddiyatlidir, ularda realizm bilan naturalizm tendentsiyalari toʻqnash keladi, bu kurashda realizmning hayot haqiqati bilan uzviy bogʻliqligi ochiq koʻrinadi. Zolya oʻzining naturalizm metodini asoslab bergan «Ilmiy roman» nazariyasini yaratishda O. Kantning pozitivizm falsafasiga va oʻsha vaqtda rivojlangan tabiat fanlariga, xususan Darwin

ta'limotiga asoslangan. O'sha yillari u Laturno («Ehtirosning fiziologiyasi»), Lyuk («Irsiyatning tabiiyligi haqida traktat»), Bernar («Eksperimental meditsinaga kirish») asarlarini o'rganadi. Shularga tayanib Zolya yozuvchi– san'atkor, olim, tajriba o'tkazuvchi kishi bo'lishi kerak, voqealarni qanday kuzatsa, shu holicha ko'rsatishi zarur, deb adabiyot bilan fan o'rtasida aloqa darkorligi fikrini ilgari suradi. Fiziolog jonli buyumlar, fizik va ximik jonsiz buyumlar ustida tajriba o'tkazgani kabi, yozuvchi ham odamning shaxsiy va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq xarakterlar, ehtirosli faktlar ustida tajriba o'tkazishlari lozim, deydi.

Zolya fiziologiya asosida irsiyat qonunlari va inson yashayotgan muhit ta'siri katta ekanligini ko'rsatadi. Kishi ehtirosi va aql-idrokining tarkib topishiga, irsiyatning xizmatiga ortiqcha o'rin berish va ijtimoiy muhitga tegishli baho bermaslik odamning ijtimoiy kuchi va intilishlarini kamsitishga olib borar edi.

«Rugon-Makkarlar» (1871– 1893)– 20 romandan iborat epopeyadir. Zolya bu asarlar turkumining maqsadini quyidagicha izohlagan: 1.«Bir oila misolida qon va muhit masalalarini tekshirish». 2 «Davlat to'ntarishidan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan butun Ikkinchi imperiya hayotini tasvirlash... Hozirgi zamon jamiyati jinoyatchilari va qahramonlarini tiplarda gavdalantirish».

«Ikkinchi imperiya davridagi bir oilaning tabiiy va ijtimoiy tarixi»ni ko'rsatgan bu katta epopeyada Zolya Frantsiya o'tmishida eng og'ir zamon bo'lgan XIX asrning 50– 60- yillariga murojaat etadi. Mamlakat hayotida ro'y bergan bu jiddiy voqealar Zolya ijodida ham ijtimoiy siljishlar tomon o'zgarish yasaydi.

Epopeyaning birinchi romani «Rugonlar mansabi»(1871)da Rugon-Makkarlar xonadonining nasl-nasabi haqida hikoya qilinadi. Asarda faqat bu oilaning kelib chiqishi tarixigina emas, shu bilan birga, burjuaziyaning boyishiga katta imkoniyatlar tug'dirgan 1851 yil dekabridagi davlat to'ntarishi natijasida yuzaga kelgan ikkinchi imperiya tarixi ham beriladi. Bu roman mohiyati jihatidan respublikani yemirib, uning o'rniga kelgan monarxiya tuzumini ham, Lui Napoleon hokimiyatini ham fosh etadi.

Rugon-Makkarlar avlodining tarixi Plassan sabzavotchisining qizi Adelaida Fuk haqidagi hikoya bilan boshlanadi. Adelaida asabiy kasal ayol. U ota-onasi vafotidan keyin o'z xizmatkori batrak Rugonga tekkan. Undan Per ismli o'g'il ko'rgan. Eri vafot etgach, Adelaida sayoq va aroqxo'r Makkar bilan topishadi. Bu eridan

Ursula va Antuan ismli farzandlar tug`iladi. Romanda Adelaidaning bolalari va nabiralarining hayoti ko`rsatilar ekan, ularga ota-onalaridan o`tgan fiziologik holat– asabiylik va alkogolizmning ta`siri kuzatiladi. Masalan, Rugon bolalariga dehqonlarga xos abjirlik, ayyorlik, xasislik belgilari o`tsa, Makkarlar qonida esa ichkilikka va maishatga moyillik ko`rinadi.

Rugonlar avlodining sog`lomligi va abjirligi ularning ijtimoiy pog`onadan yuqoriga ko`tarilishlariga yordam bersa, ichkilikbozlik va maishatga moyillik Makkarlarning ijtimoiy pog`onadan pastga tushib ketishlariga sababchi bo`ladi. Asarda odamlarning sog`lom va xasta bo`lishlariga faqat fiziologik holat emas, shu bilan birga, ijtimoiy muhit ham sababchi ekanligi ko`rsatiladi.

Zolya «Rugonlar mansabi» romanida bir kichik shahardagi hayot misolida ikkinchi imperiya tartiblariga qarshi kurashlarni aks ettiradi. Respublika tartiblariga qarshi turuvchilar orasida sobiq do`kondor Per Rugon va uning ochko`z oilasi ko`zga tashlanib turadi. Provintsiya hayotidan qoniqmagan Per Rugonning bolalari markazga yo`l oladilar. Markazda Bonapart to`ntarishidan xabar topgan katta Rugonlar epchillik bilan shahar hukmronligini qo`lga kiritadilar. Shunday qilib, Rugonlar xonadoni respublika tartiblarini yemirishda ishtirok etib, uning boyligini talashda qatnashadilar.

Romanda «aqlsizlik va sharmandalik davri»ga qarshi qaratilgan ommaning isyoni ko`tarinki romantik tasvirga ega. Lekin romantik bo`yoqlar o`sha davr tarixiy voqealari bilan bog`liq ravishda ko`rsatilgan va realistik mazmun olgan Adelaida Fuk avlodining taqdiri irsiy holat, qon ta`siri– fiziologik hodisalar natijasi sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy voqealar natijasi tarzida berilgan.

Romanda Rugon-Makkarlar oilasidagi kishilarning barchasi bir xil xarakterda emas. Masalan, Adelaidaning o`g`li Per Rugon aqchaga sajda qiluvchi, boylik oldida vijdonni sotishdan ham qaytmaydigan shaxs. U kasal va bechora hol kekxa onasiga nisbatan ham beshafqatdir. Adelaidaning nabirasi Silver esa, uning aksi. Silver saxovatli, jasur, beg`araz, sof ko`ngilli yigit.

«Xonimlar baxti» romanida magazinda ishlovchi kambag`al qiz Deniza magazin egasi, boy, shafqatsiz Oktav Murega ta`sir etadi va o`z fikrlarini ma`qullatishga uriadi. Deniza asarda xo`jayinni o`ziga bo`ysundiruvchi, kattakon savdo do`konida ishlovchi

kambag'allarni hurmat qilishga majbur etuvchi bir kimsa sifatida berilgan.

«Aqcha» (1891) romanida ham pozitivizm ta'limoti asosida, «Xonimlar baxti»da bo'lgani kabi, uddaburonlik targ'ib qilinadi. Romanda Sakkar bilan Gunderman degan bankirlar o'rtasidagi shaxsiy kurashning monopoliyalar o'rtasidagi raqobatga o'sib chiqishi tasvirlanadi. Zolya, bundan tashqari, fan bilan aqcha o'rtasidagi hamkorlik qonli to'qnashuvlarga olib kelsa-da, jamiyatni olg'a harakat qildiradi, degan fikrni ham asar ruhiga singdirib yuboradi. U Sakkarni shu nuqtai nazardan chapdast, tadbirkor kishi, deb maqtaydi, ideallashtiradi.

Zolyaning oddiy xalq hayoti mavzuiga bag'ishlangan romanlaridan «Tuzoq» (1877) da kambag'al oila taqdiri hikoya qilinadi.

Mehnatkash ayol Jerveza Makkar tunukasoz Kupoga turmushga chiqadi. U kirxona ochib, tinchgina yashashni, bolalarini tarbiyalab, oxirida «o'z to'shagida jon berish»ni orzu qiladi. Lekin uning bu istagi amalga oshmaydi. Chunki kutilmaganda eri Kupo tomdan yiqilib mayib bo'ladi. Ancha vaqt ishlamaydi. Bekorchilikdan ichkilikka beriladi. Mayxona – «tuzoq»qa tushib qolib, yuz tuban ketadi. Jervezaning ham ishi yurishmaydi. Unga ham ichkilik ta'sir etadi. Mayxo'rlik har ikkalasini ham halokat yoqasiga olib boradi. Kupo alkogolizmdan tuzalmas dardga muhtalo bo'lib, kasalxonada vafot etadi. Muhtojlik Jervezani ko'chaga chiqarib tashlaydi va u ochlikdan o'ladi.

Zolya ishchi, kosib va boshqalarning nihoyat og'ir va achinarli ahvolini ko'rsatsa ham, lekin ularga «tuzoqdan» qanday qilib qutulish yo'llarini to'g'ri ko'rsata olmadi. U faqat aybni ichkilikka-mayga qo'ydi. U «alkogolizm xalqni holdan toydiradi», deb qahvaxonalarni bekitish, ish haqini oshirishga undash bilan cheklandi.

Yozuvchi «Hamal» (1885) romanida Mansudagi ko'mir konida ishlovchi shaxtyorlarning benihoya og'ir ahvoli va kurashlarini aks ettiradi. Ishchilarning qashshoqlik bilan kun kechirishlariga asosiy sabab kapitalistik ekspluatatsiya ekanini u birinchi marta to'g'ri ko'rsatadi. Yozuvchi asarda betinim mehnat qilsalar ham, shaxtyorlarning rohat degan narsani bilmasligini, oilalari bilan birga ochlik va halokatga mahkum etilganligini zo'r haqqoniyat bilan tasvirlaydi.

Romanda sanoat ishchilari sulolasidan bo'lgan Mae oilasi markaziy o'rinda turadi. Bu xonadondan bo'lganlar bir asr muddatdan ortiq vaqtdan beri bir xo'jayinga xizmat qiladilar. Uning boyligiga boylik qo'shadilar, o'zlari esa nochor turmush kechirib, ko'plari shaxta buzilishlari vaqtida bevaqt o'lib ketadilar. Shu oiladan chiqqan Mae ham halol ishlaydi. U shaxta bilimdoni, obro'li, jamoat ishlarida qatnashuvchi ongli ishchi. «Tuzoq» romanida muallif o'limga olib boruvchi narsa ichkilik (alkogol), deb ko'rsatgan edi. Bu asarida maelar ichmasalar ham, lekin o'limga mahkum etilganlar. Maening xotini bolalarini qo'l uchida, qiyinchilik bilan boqadi. Shuning uchun bu mehnatkash ayol qirq yoshga kirmasdan qarimsiq kampir tusiga kirib qoladi. Demak, baxtsizlik va o'limga duchor qiluvchi narsa alkogolning o'zigina emas, balki kapitalistik ekspluatatsiyadir.

«Mehnat»ning bosh qahramoni Per Fromanning o'g'li injener Lyuk Froman «Mehnat, kapital, talant» hamkorligi ostida jamiyatni qayta qurishni o'ylaydi. U boy fizik olim Jordan madadi bilan Kreshrida metallurgiya zavodi barpo etadi. Uning tevarak-atrofida shahar va yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga keladi. Bu yangi shaharchada erkin mehnat hukmron. Shunday qilib, yomonlik yo'qoladi, baxtli jamiyat qaror topadi.

Zolya «Eksperimental roman» majmuasining fransuzcha nashriga yozgan muqaddimasida asarlarini o'z mamlakatida bosib chiqarish mumkin bo'lmagan hayotidagi o'sha og'ir yillarda unga yordam qo'lini cho'zgan Rossiyaga nisbatan cheksiz minnatdorlik so'zlarini izhor qilgan.

Zolyaning Rossiyaga bo'lgan qiziqishi XIX asrning 60 – 70-yillarida Frantsiyada yashagan I. S. Turgenevning bevosita ta'siri ostida yuzaga kelgan. Rus yozuvchisining yordami bilan Zolya ruscha «Yevropa vestnigi» jurnalida o'zining adabiy-tanqidiy maqolalarini bostirib turgan (1875– 1880 yillar). «Ilg'or rus yozuvchilari ulug' fransuz adibining ijodi va reaksiyaga qarshi kurashdagi faoliyatiga yuksak baho berganlar, O'zbekistonda ham Zolya ijodiga qiziqish tug'iladi. Uning «Tegirmon qamali» (1942), shuningdek, realistik romani «Hamal» (1981) o'zbek tilida nashr qilindi.

GI DE MOPASSAN **(1856 – 1893)**

Gi de Mopassan XIX asrning ikkinchi yarmida yashab, o`z ijodida o`sha davr fransuz voqeligini aks ettirgan yirik realist yozuvchidir.

Mopassan Normandiyada kambag`allashib qolgan eski dvoryan urug`iga mansub oilada tug`ilgan (otasi Parijda birja dalloli bo`lgan). Dastlab u litseyda, so`ngra Ruanda kollejda ta`lim olgan. Mopassan Frantsiya-Prussiya urushi vaqtida (1870) armiyaga olingan. Fransuzlarning mag`lubiyati bilan tugagan bu urushning butun mashaqqatlarini ham o`z boshidan kechirgan.

Mopassan qisqa umri davrida 16 ta hikoyalar to`plami, 6 ta roman va ko`plab maqolalar yozgan. Uning ijodi uch davrga bo`linadi. Adabiy faoliyatining ilk davrida (1863– 1879) asosan, she`r va hikoyalar yozadi. Bu yillar mashaqqatli mashq qilish davri bo`ladi. Bu yillarda u og`ir, zerikarli idora ishi tugaganidan so`nggina ijod bilan shug`ullanar edi.

«Yetti yil mobaynida men she`rlar yozdim, ertaklar yozdim, novellalar yozdim, hatto juda yomon drama ham yozdim», deydi keyinroq shu haqda Mopassan. Uning bu asarlari nashr etilmagan.

«Do`ndiq» hikoyasi bilan Mopassan ijodining ikkinchi davri boshlanadi. Agar Flober uning ilk hikoyalarini qattiq tanqid qilgan bo`lsa, «Do`ndiq»ni maqtagan va yosh yozuvchini o`sha zamonning Turgenev, Zolya kabi yetakchi adiblari bilan tanishtirgan. XIX asrning 70–80-yillari Frantsiya tarixida jiddiy voqealar Mopassan dunyoqarashining demokratik yo`sinda shakllanishiga ta`sir etadi. Mopassan ijodiyotida novella janri alohida o`rinda turadi. U novellalarida tinchlik, gumanizm g`oyalarini targ`ib qiladi, insoniylikka zid bosqinchilik urushlarini qattiq qoralaydi.

Mopassanning ko`pchilik novellalari bosqinchilik urushlarini fosh etishga bag`ishlangan. Ularda nemis ofitserlarining vahshiyliklari ko`rsatilgan, oddiy fransuzlarning vatanparvarlik his-tuyg`ulari va kurashlari yorqin obrazlarda ochilgan («Do`ndiq», «Fifi xonim», «Aqldan ozgan qiz», «Duel», «Ikki oshna», «Milon amaki», «Asirlar» va hokazo).

Frantsiya-Prussiya o`rtasidagi urush butunlay mehnatkash omma manfaatiga zid edi. Shuning uchun xalq dushmanga qarshi kurashga otlanib, o`z ichidan haqiqiy vatanparvar-qasoskor qahramonlarni yetkazib chiqardi. Bu jihatdan «Milon amaki»

novellasi xarakterlidir. Boshqa novellalari kabi «Milon amaki»da ham oddiy kishilarga xos «ko`z ilg`amas», lekin qudratli kuch, haqoratlangan el-yurt uchun o`ch olish hissi ustalik bilan ochib berilgan.

Dushman fransuz qishlog`iga bostirib, dehqonlarni talab, xotin-qizlarni xo`rlayotgan bir paytda 68 yoshli keksa Milon bunday haqoratlarga befarq qarab turolmaydi. Kechalari «ovga» chiqib, dushmandan o`ch olishini davom ettiradi. Oxirida nemislar Milon otaning harakatlarini sezib qoladilar va uni o`lim jazosiga hukm qiladilar. Bu keksa vatanparvar dehqon hech narsadan qo`rqmay, qachon, qanday vaziyatda, kimni o`ldirganini birma-bir so`zlab berar ekan, o`tgan urushda nemislar tomonidan otib tashlangan otasi uchun 8 nemisni, bu urushda o`ldirilgan kichik o`g`li uchun qasos olib, yana 8 dushmanni halok etganini bildiradi.

«Asirlar» novellasining qahramoni o`rmon nazoratchisining qizi Bettina ham jasoratligi bilan ajralib turadi. U milliy gvardiyadan bo`lgan noshud tabaqalaridan farq qilib, yakka o`zi bir to`da nemis soldatlarini asir qilib oladi. «Kampir Sovaj»da esa dehqon ayolning dushman soldatlari yashayotgan o`z uyiga o`t qo`yib yuborishi hikoya qilinadi.

Mopassanning mehnatkash ommaga bo`lgan xayrixohligi, uning chuqur gumanistik qarashlari ko`p hikoyalarida, shu jumladan «Simonning dadasi» novellasida, ayniqsa, ravshan namoyon bo`ladi.

Bolalar bir sinfda o`qiydigan qonunsiz tug`ilgan va o`z otasini bilmaydigan Simonni masxara qila boshlaydilar. Shunday og`ir kunlarning birida temirchi Filipp qishloqda kuchli bo`lgan eski urf-odatlariga rioya qilmay, Simonning onasiga uylanadi va bolani turli gap-so`zlardan qutultiradi.

Mopassan hikoya janriga ravonlik kiritdi. Uning doirasini kengaytirdi.

Mopassan qahramonlaridagi vatanparvarlik ruhi dabdabali so`zlar orqali ifodalanmaydi. Ular dushmanni o`ldirsalar ham, yoki o`zlari og`ir ahvolga tushib qolsalar ham, bu haqda lom-mim demaydilar, shovqin ko`tarmaydilar. Chunki oddiy kishilardagi bu holat yashirin ijobiy xislatlar sifatida ifodalanib, ular dushmanga qarshi jiddiy kurashda namoyon bo`ladilar. Yozuvchi ommadagi bu yashirin, ichki his-tuyg`ularni katta mahorat bilan ocha bilgan («Milon amaki», «Ikki oshna» va hokazo). Mopassanning «Hayot» (1883) romanida sof qalbli, go`zal, aqlli Janna ismli qizning tarixi

berilgan. Janna kamtar, XVIII asr ma'rifatchilik g'oyalari ruhida tarbiyalangan baron de Voning qizi. U tabiatdan zavqlanadi. Shuning uchun Janna Russoning «Tabiiy inson» ideali mujassamidek ko'rinadi. U shirin sevgi xayoli, baxtli oila qurish ishtiyoqi bilan yashaydi.

Hayotdan ajralgan holda monastirda tarbiyalangan, endigina o'n yetti yoshga kirgan Janna Vo uyga qaytganida uni bezatilgan xonalar qarshi oladi. Tevarak-atrof Janna tasavvur qilganidek yoqimli va go'zal. Janna o'zi bilmagan, hatto nomini ham eshitmagan vikont Jyulen de Lamarga turmushga chiqadi. Tez vaqt ichida Janna erining qo'pol, yuzsiz, beodob kishi ekanini biladi va baxtli hayot haqidagi xayollari zarbaga uchraydi. Jyulen de Lamar shaxsiyatida chaqqon, ishbilarmon, faqat o'z manfaatini ko'zlab ish tutuvchi xasis va olg'ir burjua kishisi ko'rinadi. U hatto Jannaning, ota-onasi uning xizmatkordan tug'ilgan bolasini parvarish qilmoqchi bo'lganda g'azabga keladi va ona-bolani uydan haydab chiqarishga tayyor turadi. Jannaning baxtli ona bo'lish haqidagi umidlari ro'yobga chiqmaydi. O'g'li Polning yoshlik vaqti kasallik bilan o'tgan. Voyaga yetgach, u sut berib boqqan va tarbiyalagan onasini ham unutib yuboradi. Onaning butun bor-yo'g'ini u ma'shuqasiga sarf qiladi.

Janna dadil harakat etish qobiliyatidan mahrum passiv ayol edi. Yozuvchi bu ayol shaxsiyatida tasodifiy bir holni emas, balki o'sha zamon uchun real voqelikni, ya'ni dvoryanlarning mulklaridan ajralishi va qadimgi dvoryan madaniyati va turmush tarzining yemirilishini tipik obrazlarda ko'rsatdi.

Janna obrazi harakatda berilgan. Dastlab u voyaga yetgan jozibador qiz, asar oxirida esa, bema'ni va dahshatli hayot natijasida erta qarib, dardman va keksa kampir qiyofasiga kirib qolgan baxtsiz bir xotin sifatida tasvirlanadi. Kannaga qaraganda xizmatkor Rozali turmush mashaqqatlarini boshidan kechirgan, chiniqqan mehnatkash ayol. U o'g'lini Janna kabi erkalatib emas, balki odobli va ishchan qilib tarbiyalashga erishadi. Bundan tashqari, u xasta Jannaning og'irini yengil qiladi. Unga tasallilar beradi.

Mopassanning demokratizmi xalq ichidan chiqqan Rozali obrazi tasvirida o'zining yaxshi ifodasini topgan. Bu ayol Jannaning nima uchun baxtsiz ekaniga, qisman to'g'ri javob beradi. «...Siz yomon kishiga tegdingiz» deb erining ablah odam ekanini aytadi. Rozali Jannaning achchiq hayoti haqidagi shikoyatlariga javoban:

agar bir burda non uchun sizga har kuni ertalab soat oltida turib mehnat bilan shug'ullanish va yollanib ishlashga to'g'ri kelganda edi, siz bunga nima der edingiz, deydi-ki, bu Jannalar oilasidagi hayotning juda cheklangan, yuzaki ekanini ko'rsatadi.

Rus yozuvchisi Lev Tolstoy «Hayot» asariga «ajoyib roman» deb yuqori baho bergan. Bu kitob jamiyat qabohatlarini qattiq fosh etgan tanqidiy realizm adabiyotining ajoyib namunasidir. «Azizim» (1885) Mopassanning fransuz jamiyati illatlarini, avj olgan sotqinlikni fosh etgan ikkinchi muhim romanidir.

Asarning bosh qahramoni qishloq qahvaxonachisining o'g'li Jorj Dyuruadir. U Afrikada soldat bo'lib xizmat qilgan va mustamlaka xalqlarini kamsitish va qo'lga o'lja kiritishga qaratilgan harakatlarda qatnashadiki, bular uning xarakterining qo'pol, shaxsiyatparast bo'lib shakllanishiga ta'sir etadi.

Martaba orttirolmay Frantsiyaga qaytgan Jorj Dyuruaning ahvoli og'ir. Bu vaqtda otasining boyligidan hech narsa qolmagan edi. U temir yo'l idorasiga xizmatga kiradi. Yuqoriga ko'tarilishiga tanishlari ham, iste'dodi ham yo'q edi. Jorjning boshqalardan ajralib turadigan tomoni baland bo'lyi va tashqi tuzilishining ko'rkamligidir.

Bu unter ofitser boy janoblarni kuzatar ekan, ularni «ablahlar» deb haqorat qiladi. Mansabi ko'tarilgach, endi u ministr va boshqa boylarni ham nafratlaydigan odat chiqardi. Undagi bunday munosabat mazlumlarning zolimlarga qarshi g'azabli nafratlari ifodasi emas, balki ko'rolmaslik, hasad bilan qarashi natijasi edi.

Jorj Dyurua «Fransuz hayoti» gazetasida muxbir sifatida ishga kirar ekan, oddiy maqola ham yozolmaydi, chunki u savodsiz edi. Bu ishda Madlena Forste yordamga keladi. Bu ayolga uylanganidan so'ng uning ishi yurishib ketadi. Boyish yo'lida Jorj har qanday razillikdan ham qaytmaydi. Ayniqsa u yuqori mansablarga erishishning yaxshi usuli sifatida o'ziga moyil boy ayollarga yaqinlashadi. Jorj endi davlat apparatining yuqori pog'onasiga ko'tarilishni mo'ljalga oladi. U boy redaktor Valterning yosh qizi Syuzannaga uylanmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham u janjal chiqarib xotini Madlena Forstedan ajrashadi.

Dyurua va Syuzannaning tantanali to'yi kinoyali ma'no kasb etadi. Yepiskop uylanayotgan yigitni o'z qobiliyati bilan olamning «Sara odamlari jumlasidansiz», deb uni boshqalardan yuqori qo'yadi, o'z ishi bilan Jorjni boshqalarga o'rnak bo'ladi, deydi, bu aslida qahvaxonachi o'g'lining butun Parijni o'ziga qaratayotganligi,

yuzsizlik va ta'magirlikdan iborat yaramasliklarning avj olib borayotganini ko'rsatar edi.

Yozuvchi o'z asarlarida mustamlakachilik siyosatini qoralaydi. «Fransuz hayoti»ning xo'jayini millioner Valter gazetaga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yorituvchi bir ko'zgu deb emas, balki o'zining shaxsiy boyishi uchun foyda keltiradigan, birjada moliya operatsiyasini o'tkazishiga qulay bir qurol, deb qaraydigan kimsa. Valter sotqin ministr Larosh-Mate bilan til biriktirib, gazeta orqali soxta xabarlar tarqatib, Marokko bilan bog'liq aktsiyalarning qimmatini tushirib yuborib, so'ngra ularni arzonga sotib oladi. Bosqinchilik urushi boshlanganida ularning bahosi yana ko'tarilib ketadi. Shunday qilib, yuqoridagi nayranglar natijasida bu ikki shaxs yigirma milliondan ko'p foyda orttiradi. Valter esa, bir necha kun ichida qirolidan ham qudratli moliyachiga aylanadi. Frantsiya esa, Afrikada o'z hukmini o'tkazuvchi eng kuchli mustamlakachi davlatlardan biri bo'lib qoladi.

Mopassan «Fransuz hayoti» gazetasida xizmat qiluvchilarning siyosiy qiyofasini, unda umumiy sotqinlik, bir-birini ko'rolmaslik, ta'magirlik avjga chiqqanini ochiq ko'rsatdi. Gazeta birona siyosiy partiyaning organi bo'lmay, balki u foydani ko'zlovchi «Bir to'da o'tkinchi betayin siyosatdonlar» manfaatiga bo'ysundirilgai gazetaga aylanadi. U hamma partiyalar bilan til biriktira oladi, lekin ularning biron-tasiga ham sodiq emas. Redaktsiya xodimlaridan biri uni «mayda-chuyda bilan savdo qiladigan boqqollik do'koni», deb ataydi.

Gazeta redaktsiyasida hukm surayotgan yaramas muhit Jorj Dyuruuga juda qo'l keladi. Aql-idrokdan mahrum, lekin ayyor bu shaxs gazetadan ustalik bilan foydalanadi. U boyish va mansabga ko'tarilish yo'lida vijdonini ham, sha'nini ham sotadi. Shular evaziga «aziz» kishiga aylanadi. Jorj «Fransuz hayoti»da hal qiluvchi o'ringa ko'tariladi va ministr lavozimini egallash xayoli bilan ham yashaydi. Bu «muttaha»ning o'ziga yarasha davlati bor va u bo'lg'usi saylovda o'z nomzodini qo'yimoqchi bo'ladi.

«Azizim» romanida Mopassan kichik qahvaxonachining o'g'li Jorj Dyuruaning shubhali xronikaning kichik xabarchisidan, turli nayranglar ishlatib, hukumat organining redaktori mansabini egallab olishgacha bo'lgan yo'lini realistlik manzaralarda tasvirlab berdi. Xullas, yozuvchi bu romanida «firibgarlar dunyosi» bo'lgan jamiyatni ayamay fosh etdi.

XIX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Mopassan romanlarida ham, novellalarida ham o'zgarish ro'y beradi. Bunday hodisa ijtimoiy-siyosiy voqealarni psixologik yo'sinda tasvirlashda, sevgi tarixini ko'rsatashga ko'p o'rin berishda namoyon bo'ladi. Asarlarida ijtimoiy problematika torayadi. Endi uning qahramonlari ijtimoiy muhitdan uzoqlashtiriladi. Bu hol «Per va Jan» (1887), «Qazoday kuchli» (1889), «Bizning qalbimiz» romanlarida ochiq ko'rinadi.

Mopassan ijodining so'nggi davrida yuz bergan o'zgarish va kamchiliklarga qaramay, u o'z zamonasi jamiyati illatlarini fosh etgan yirik tanqidiy realist va insonparvar yozuvchidir.

Mopassan ijodiga Flober, I. S. Turgenev, L. N. Tolstoy, A. P. Chexov va boshqalar yuksak baho bergan.

ANATOL FRANS **(1844 – 1924)**

Anatol Frans taxallusi bilan mashhur Anatol Tibo Parijda sahhob oilasida tug'iladi. Uning yoshligi otasining kitob do'konidagi ko'p sonli kitoblarni o'qish va mutolaa qilish bilan o'tgan. Bu narsa uning madaniyat tarixi, xalqlarning xulq-odatlari, adabiyot va san'atdan keng ma'lumot olishiga, bilim doirasini kengaytirishga yordam bergan. Frans shu kitoblar tufayli fransuz ma'rifatchilari g'oyalari bilan tanishib, butun hayoti davomida Volter ijodiga, uning aql-idrokka asoslangan falsafiy qarashlariga murojaat etadi.

Frans ijodining dastlabki bosqichi parnaschilar ta'siri ostida bo'ladi. Ularning shaklni birinchi o'ringa qo'yib, qadim o'tmishga (antik davrga) qiziqishlari Frans ijodida ham o'z aksini qoldiradi. Dastlabki asarlarini u «Hozirgi zamon parnasi» to'plamlarida chop ettira boshlaydi. XIX asrning 70-yillarida «Oltin dostonlar» majmuasini va «Korinf to'yi» she'riy dramasini nashr qildiradi. Ularda insoniy his-tuyg'ularni tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Bu asari «Silvestr Bonnarning jinoyati» (1881) romani edi. Asar bosh qahramoni Silvestr Bonnar umr bo'yi eski kitoblar orasida, ularni titkilash va mutolaa qilish bilan o'tkazgan kekxa olim – kitob muhibi. Uning uchun kitob donolarning mangu barhayot ishi, chuqur fikr va katta his-tuyg'ularning mag'izi, o'tmishning madaniy boyligidir. U o'z xotiralarida hayot oqimida ketayotgan, turmushdan rohatlana biladigan odamlardan ranjimaydi, bu odamlarga xayrixohlik bilan

qaraydi, aksincha, ulardan ajralib yakka holda qolgan o`zidan koyinadi. Lekin ko`hna qo`l yozmalar uning jon-dili. To`g`ri, «o`z kunlarini eski tekstlarga sarf qilish bu hali hayot emas»ligini e`tirof etadi. Bu sodda olimning jinoyati shundan iborat ediki, u yoshligida sevganining nabirasi Janna Aleksandr pansionda og`ir sharoitda qolganini bilib, yashirinchalik borib, uni olib keladi va bu qizga erkin tarbiya bermoqchi bo`ladi. Lekin qonun uning olijanob ishini jinoyat deb topadi. Yozuvchi shunday ziddiyatli, hayratomuz fikrlar orqali zamon adolatsizliklarini qoralaydi, ularga qarshi kinoyali so`zlar aytadi.

Romanning birinchi qismida shunday lavha bor. Olim Bonnar o`rta asr noyob eski qo`lyozmasini qidirish va topish ishtiyoqi bilan yashamoqda. Shunday qo`l yozmaning mavjudligini aniqlagan vaqtda o`zi yashab turgan uyning chordog`ida bir kambag`al oilaning muhtojlikda va sovuq uyda yashayotganidan xabar topadi va darhol o`sha oilaga bir bog`lam o`tin chiqarib yuboradi. Garchi bunday ko`mak tasodifiy bo`lsa-da, lekin bu narsa keksa professor Bonnarning gumanistik tiynatidan kelib chiqadi.

Ancha yillar o`tgandan so`ng, o`sha kambag`al oiladan bo`lgan ayol rus knyaziga turmushga chiqadi. U olim izlab yurgan qo`lyozmani topib, uni sotib oladi va guldastaga o`ralgan bir bog`lam o`tin bilan birga professorga sovg`a qilib yuboradi. Bu olimning bir vaqtlar ko`rsatgan yordamiga qilingan iltifot edi.

Janna turmushga chiqayotgan vaqtida Bonnar bir umr yiqqan kutubxonasidagi kitoblarni sotib, pulini uning to`yiga sarf qiladi. O`zining sevgan kitoblaridan ajralish Bonnar uchun nihoyatda azob. «Lekin jonli kishining baxti dunyodagi barcha qimmatli buyumlardan ham muhimroq» ekanini u yaxshi biladi.

Frans Jannani og`ir ahvoldan qutqarish va unga erkin tarbiya berish masalasida ijtimoiy adolatsizliklar, o`sha zamon qonunining kishilik axloqiga zid kelishini ham ko`ra bildi. Muallif Bonnar tilidan muhim falsafiy fikrlar izhor qiladi. Xristian dini va cherkovining tabiiylik va insoniylikka yot ta`limotiga Uyg`onish davrining xushchaqchaq hayoti va umidbaxsh qarashlarini qarshi qo`ydi. Uning e`tiqodiga ko`ra, dunyoda ezgulik, go`zallik va sevgidan ko`ra olijanob his-tuyg`u yo`q, hamma narsa o`tkinchi, foniylar, faqat hayot mangu, boqiydir. Shu tariqa Frans umidvorlikni parokandalikdan ustun qo`yadi.

Frans ziddiyatli, hayratomuz fikrlar asosida o`sha eski jamiyat qonunlarining insoniylikka zid, tahsin o`qilayotgan narsalarning ters ma`noga ega ekanini ko`rsatdi. Olimning baayni zindonga o`xshagan pansion – maktabdan qizning qochishi uchun yordam qilib, unga erkin tarbiya berish kabi olijanob ishi o`sha zamon qonuni bo`yicha jinoyat sanaladi.

Eski qo`lyozmalar ichida ko`milib ketgan zahmatkash kitob muhibi va tadqiqotchisi Bonnar– bashariy madaniyat tarixini o`rganishga mehr qo`ygan haqiqiy fransuz olimi. Frans esa, XIX asr oxirida reaksiya, diniy-jaholat kuchaygan bir davrda dastlabki asarlaridayoq adolat, go`zallik, haqiqat g`oyalarini katta jasorat bilan ilgari surgan yirik gumanist yozuvchidir.

A.Frans ijodining birinchi davriga xos ikkinchi yirik asari «Tais» (1890) romanida ikki dunyo axloqi – yemirilib borayotgan antik madaniyati va majusiylik dini bilan tug`ilib kelayotgan va hayotiylikka zid xristianlik aqidalari o`rtasidagi to`qnashish ko`rsatiladi. Bu to`qnashuv erkinlikni o`zida mujassamlantirgan majusiy raqqosa Tais bilan xristianlik aqidasi– jaholatparastlikni targ`ib qilgan monax Pafnutiy shaxsiyatida namoyon bo`ladi. 90-yillarning oxirlariga borib uning ijodida o`zgarish ro`y beradi. Bunday yangilik to`rt tomдан iborat «Hozirgi zamon tarixi» epopeyasida ochiq ko`rinadi. Bular: «Shahar qayrag`ochlari tagida» (1897), «Toldan qilingan maneken» (1897), «Yoqut ko`zli uzuk» (1899), «Janob Berjere Parijda» (1901) romanlari umumiy g`oya bilan bog`langan yaxlit asardir.

«Hozirgi zamon tarixi» voqeasi kichik viloyat shaharida boshlanib, asta-sekin kengayib, rivojlanib boradi va so`ngra Parijga ko`chadi.

Asar qahramoni – kitob sevuvchi olim Berjere bir viloyat universitetining o`qituvchisi. U muhokama va mushohadaga moyil shaxs. Lekin Berjere endi ijtimoiy-tarixiy voqelikka aralashishga majbur bo`ladi. Ilgarigi asarlarining qahramonlaridan farqi shundaki, u atrofini yaramas muhit o`rab olganini ko`radi. Suhbatlashib o`tirgan shahar qayrag`ochlari tagidagi skameykalar ham, kitob do`koni ham qahramon surgun qilingan joyga o`xshaydi.

Berjere Bonnarga qaraganda real voqelik bilan tez to`qnash keladi. U o`zidagi loqayd kuzatuvchilikni bartaraf etib, Dreyfus voqegasiga aralashadi. Berjere Parijda uchratgan birdan-bir halol, sof qalbli kishi ishchi Rupordir. Berjere o`z zamonasi qabohatlaridan

qutulish yo'lini, baxtini kelajakdan izlaydi. Uning nazarida, kelajakda xususiy mulkchilikni bilmaydigan respublika tuziladi. Bu yangi jamiyatda hamma ishlaydi, mehnat mahsuli ham to'g'ri taqsim qilinadi. Lekin, bundan qat'i nazar, bu yangi yo'lga kirib borayotgan A. Frans ijodi uchun xarakterli belgidir.

A. Fransning ijtimoiy-falsafiy xarakterdagi «Oq tosh ustida» romani endigina tashkil etilgan «Yumanite»da e'lon qilinadi. Unda yozuvchining kelgusi baxtli jamiyat haqidagi xayollari aks etgan. Asar fantastik romanlarga xos tush shaklida yozilgan.

1905 yilda Rossiyada yuz bergan voqealar butun dunyoga tarqaldi. «Rus xalqi do'stlari jamiyati»ning faol tashkilotchilaridan biri sifatida Frans mitinglarda chorizmning qonli repressiyasini fosh etadi. U «Neva, Visla, Volga qirg'oqlarida Yevropa taqdiri va insoniyatning kelajagi hal etilmoqda» deb yozdi. Fransda tushkunlik tug'iladi, kelajak haqidagi qarashlari mavhum tus oladi. Bunday kayfiyatlar uning «Pingvinlar oroli», «Tashna xudolar», «Farishtalar isyoni» romanlarida o'z ifodasini topgan. Pingviniston bu roman–pamflet (1908) insoniyat tarixiga; frantsiyaning o'tmishi va hozirgi zamon jamiyatiga achchiq hajvdir. Jaholatparastlik va nodonlikni tarqatishda katolik butxonasi, ayniqsa dahshatli ish qiladi. Shuning uchun Frans aqidachi-ruhoniylarni qattiq qoralaydi.

Missionerlik xizmati– majusiylarni xristian diniga kiritish yumushi bilan Shimoliy Muz dengizi tomon yo'l olgan avliyo Mael nodon qush–pingvinlar yashaydigan orolga borib qoladi. Kexsa avliyoning ko'zlari ojiz bo'lganidan o'sha qushlarni odamlar, deb bilib, ularni xristian diniga cho'qintiradi.

Shunday qilib, hozirgi Frantsiya tuprog'ida birinchi odam–pingvinlar istiqomat qila boshlaydilar. Endi ular ustilariga kiyim kiyadigan, pingvin-oyimlar esa boshlariga ro'mol o'raydigan bo'ladilar. Shu bilan birga, ular birinchi nuqsonlar – maishatga berilish, ta'magirlik va ko'rolmaslik kabi illatlarni ham orttiradilar. Ajdaho qiyofasiga kirib, qishloqlarni talayotgan bosqinchi qotil Kraken birinchi marta uzun ko'ylak kiygan, yengiltak, go'zal pingvin-xonim Orberozaga uylanadi. Ular til biriktirib, sodda avliyo Maelni laqillatadilar. Bu odamlar xususiy mulkchilik va zo'ravonlikka asoslangan yangi jamiyat quradilar. Yozuvchi kishilar o'rtasida tengsizlik, adolatsizlik va ziqnaliklarni keltirib chiqargan sharoitni ham hajv qiladi. Gavdasi so'loqmon sariq pingvin, jussasi kichik qora pingvinning boshiga cho'qmor bilan urib, uni behush

qilib bular meniki, deb uning yerlarini tortib oladi. Atrof-tevarakda shu kabi ur-yiqit, zo`ravonlik avj olgan. Alohida shaxslar shunday yo`llar bilan boyiydilar, o`z manfaatlarini qo`riqlovchi qonunlar chiqaradilar, mulk orttiradilar, o`sha jamiyat negizini yaratadilar, «madaniyat» barpo etadilar. Bunday sharoitda odamlar yirtqich hayvonlardan ham xavfli qiyofaga kiradilar. Ular boshqalarni talaydilar, bosqinchilik bilan shug`ullanadilar. Dastlabki pingvin-qirollardan biri taxtdan ajralmaslikni ko`zlab, merosxo`r bo`ladigan o`z yaqinlarini o`ldiradi ham.

Yuqorida tasvirlangan o`rta asrlardan so`ng yangi davr ham yaqinlashib keladi. Lekin odamlar o`rtasida bir-birlariga yaxshilik qilish, degan narsa ko`rinmaydi. Frans asarida tarixning faqat qorong`i tomonlarini olib, kishilarning diqqatini voqelikning hajviy tasviriga jalb etadi.

XIX asr jamiyatidagi hayot yana ham fojiali tus olganini Frans ustalik bilan tasvirlaydi. Urush hokimlarning yo`ldoshi bo`lib qoladi. Ular bosqinchilik urushlarisiz yashay olmaydilar. Zo`ravon jahongirlar Trinkoni ko`kka ko`taradilar. Bu obrazda barcha zolim xukmronlar, shu jumladan to`xtovsiz urushlar olib borib, mamlakatni xonavayron qilib, ko`p odamlarning yostig`ini quritgan shuhratparast Napoleon Bonapart berilgan.

Frans bu asarida ham Dreyfus voqeasiga to`xtaydi. Agar reaksiya Dreyfusni nemislar foydasiga josuslik qilishda qasddan ayblagan bo`lsa, Piro esa 80 ming bog` yo`q pichanni o`g`irlashda qoralanadi.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida jamiyatda ziddiyatlar kuchayib ketadi. Bu narsa asarning oxiri «Kelajak zamon– takroriy tarix» deb ataladigan bobida ochiq ko`rinadi. Pingvinistonning kelajagi borgan sari xira tus oladi. O`sha vaqtda, bo`zchi belboqqa yolchimas deganlaridek, eng zarur buyumlarni ishlab chiqaruvchilarning o`zida bunday narsalar butunlay yo`q edi. Ularni ishlab chiqarmaydiganlarda esa bu buyumlar to`lib yotardi. Ma`naviy sohada ham turg`unlik paydo bo`ladi. «An`analar, san`at, madaniyat mahv etilgan. sivilizatsiya odamga tajovuz qiladi...» Texnika rivojlangan, shaharda 30 – 40 qavatli binolar qad ko`targan. Lekin umumiy ahvol yomon. Anarxistlar qo`poruvchilik ishlari olib borib, binolar tagiga dinamitlar qo`yib, uylarni yer bilan yakson qiladilar. Yovvoyilar kelib shaharni talaydilar va unga o`t qo`yib yuboradilar. Asta-sekin kultepa o`rnida qishloq yuzaga keladi, u shaharga o`sib

chiqadi. Yana uning bag`rida millionlab odamlar yashay boshlaydilar. Xullas, ilgari bo`lgan narsalar qayta takrorlanadi. Shu sababli Frans uchun kelajak zamon– takrorlanuvchi tarixdan iboratdir.

Frans o`z zamonasi ziddiyatlarini ko`rsatdi, boyishga hirs qo`ygan, urushqoq va yovuz pingvinlarni qattiq zaharxandalik bilan masxara qildi. Bu o`sha jamiyat madaniyatining muqarrar halokatiga ishora edi. Shu bilan birga, bu asar yozuvchining eng pessimistik romanidir.

ANRI BARBYUS (1873 – 1935)

Anri Barbyus fransuz xalqining sodiq farzandi, o`zining butun ongli hayoti va ijodini xalq ishiga bag`ishlagan, imperialistik urush va fashizm yirtqichliklarini fosh etgan jamoat arbobi, kurashchidir. Barbyus fransuz adabiyotida birinchi bo`lib realizmga asos solgan. Anri Barbyus 1873 yilning 17 mayida Aner shahrida (Sena departamenti) tug`iladi. Barbyus maktabda o`qib yurgan yillaridayoq adabiyotga beriladi, poeziya bilan bir qatorda, tarix va falsafani o`rganadi. Barbyus juda erta she`rlar yoza boshlagan, adabiy konkurslarda qatnashgan.

Barbyus dastlab Parijda litseyda, so`ngra Sorbonnada filologiya fakultetida tahsil ko`radi, falsafa bo`yicha magistrlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqlaydi. O`qish tugagach, u 1894 yilda o`z shahri Anerga qaytib, jurnalistika bilan shug`ullanadi. Birmuncha vaqt o`tgach, Barbyus ilk mashqlarini Parijga olib borib, «Yig`lovchi ayollar» nomida bostirib chiqaradi. To`plamning qayg`uli ruhi uning sarlavhasidan ham sezilib turadi. Bu davr jamiyatida yuzaga kelgan tanglik, ko`pchilik xalq ommasining og`ir ahvoli, hukmron doiralardagi munofiqlik va buzilishlar natijasida fransuz yoshlarining bir qismi o`sha vaqtda avj olgan tushkunlik adabiyoti – dekadentlik ta`siriga beriladi.

Qayg`u-alam, yolg`izlik motivlari jamiyatdagi hayotdan qoniqmaslik oqibatida yuzaga keladi. Shunday yaramas muhit ichida yashayotgan yosh shoir adolat, haqiqat, yorug`likka intiladi. Lekin o`sha tuzumdan ularni topolmaydi. Kishilar taqdiriga qayg`urib qarash, ko`z yoshi to`kish dekadentlik adabiyoti ta`siri edi. Lekin dastlabki she`rlaridagi gumanistik tendentsiya, ezilganlarga

xayrixohlik bilan qarash («Tikuvchi ayol» she'ri) uning ijodining tushkunlik adabiyotidan farq qilishini ko'rsatadi.

Barbyus dastlab «Lafet», so'ngra «Ashet» jurnalida ishlaydi. «Men hamma narsani bilaman» jurnalini nashr etadi. Unda keng xalq ommasi o'rtasida ilmiy-ommabop bilim targ'ib qilinadi.

She'rlar to'plami chiqqanidan so'ng sakkiz yil o'tgach, Barbyusning birinchi romani «Yolboruvchilar» (1903) yuzaga keladi. Bu asarida ham yolg'izlik, umidsizlanish hollari mavjud. Lekin jamiyat qabohatlariga qarshi norozilik ochiq ko'rinadi.

Barbyus ikkinchi yirik romani «Do'zax»(1908)da hayotga ancha yaqinlashadi. Yangi asrning birinchi o'n yilligidagi voqealar, iqtisodiy inqiroz yozuvchi dunyoqarashining kengayishiga ta'sir etadi. Jamiyatdagi zulm-dahshatdan boshqa do'zax yo'q, deydi u. Bu narsa uning tushkunlik – dekadentlik adabiyotidan uzoqlashib borayotganini ko'rsatadi.

Shu yillari Barbyus kichik hikoyalar ham yozadi. 1914 yilda uning «Biz o'zgachamiz» nomi ostida novellalar to'plami chiqadi. Hikoyalarining personajlari turli ijtimoiy toifa kishilaridir. Mopassan novellalari ruhida yozilgan bu kichik hikoyalarda Barbyus yirik yozuvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'p novellalarda taqdir, tasodifiy voqealar ustunlik qilsa ham, lekin har holda, hayotga real yondashish ham ochiq ko'rinadi.

Anri Barbyusning asarlari fransuz progressiv adabiyotining bundan so'nggi rivojida ma'lum rol o'ynaydi. Birinchi jahon urushi vaqtida Barbyus oddiy askar sifatida urushda qatnashib og'ir okop hayotini boshidan kechiradi. Yozuvchi urush taassurotlari asosida o'zining ajoyib antimilitaristik kitobi «O't» (1916) romanini yaratadi. U G'arbiy Yevropa adabiyotida hammadan oldin imperialistik urush dahshatlarini fosh etibgina qolmay, keng xalq ommasiga bu urushdan qutulish yo'lini ham ko'rsatib berdi.

Romanning kichik sarlavhasi «Vzvod kundaligi» deb ataladi. Asar qahramonlari alohida shaxslar emas, balki soldatlar ommasidir. Bular – kon ishchilari Paterlo va Bekyuv, ustaxonada usta bo'lib ishlagan kapral Bertran, farmatsevt Andre Menil, batrak Lamyuz, idora xizmatchisi Kokon va boshqalardir.

Urush yoshga ham, keksaga ham ta'sir etmay qolmagan. Masalan, chol Blerning ahvoli achinarli. «U qisq ko'zlarini pirpiratadi. Uning yuzlarini chang qoplagan. Tishsiz lablari ustida

qalin sariq mo'ylovlari tikkayib turadi, qo'llari haddan tashqari qora».

Barbyus Bler obrazi orqali imperialistik urush bunday «qomati bukilgan», «oyoqlarini zo'rg'a ko'tarib bosadigan» kekxa odamlarni ham o'z holiga qo'ymaganini ta'kidlaydi. Bler ota va boshqa oddiy jangchilar fransuz soldatlari bilan nemis soldatlari o'rtasida uncha farq yo'qligini ko'radilar. Chunki ular ham aldangan, urushga haydab kelingan, har daqiqada o'lim xavfi ostida yashayotgan kishilardir.

«O't» romanining yuzaga kelishi favqulodda voqea bo'ldi. Chunki Barbyus unda imperialistik agressiya maddohlarini fosh etdi. Ularning yuzidagi niqobini yirtdi. Urush, chirkin sistemaning oqibati ekanini ko'rsatdi. Urush bu— ayrim yozuvchilar tasvirlaganidek tantanali paradga o'xshamaydi. Okoplar qulay mayxonalar emas, balki suv bosgan chuqurlar, unda yashovchilar esa, insoniylik qiyofasini yo'qotgan, och qolgan, darmonsizlangan, beligacha balchiqqa botgan soldatlar, shuningdek o'liklar bilan to'lib yotgan chuqurlardir.

«O't» romanidagi soldatlar afsonaviy qahramonlar emas, balki nihoyat holdan toygan, azob chekkan, ular mansab va mukofotlarni emas, balki tinch ijodiy mehnat va o'z oilasiga qaytishni xayol qiluvchi jonli kishilardir.

Kitobdagi kapral Bertran obrazining o'ziga xos belgilari bor. Barbyus uning shaxsiyatida burjua jamiyati soxtaliklari ta'siridan sekin-asta qutulayotgan kishini ko'rsatadi. Asar boshida Bertran sodda va ishonuvchan bir kimsa. U ichkilikbozlikni qoralashdan nariga o'tolmaydi. Urush dahshatlari, bema'ni o'lim uning o'zining ham, vzwoddagi soldatlarning ham ongida o'zgarish yasay boshlaydi. U front orqasida so'z orqali «jang qiladigan», «azamat»larni emas, balki jismonan zaif kimsalarni qoldirish kerak, degan xulosaga keladi. Bo'layotgan urush haqida u «agar boshlar (nemislar) bizning yerimizga bostirib kelgan ekan, ularni tezdan haydab chiqarish zarur», degan fikrni aytadi. Bertran urush dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgach, bunday urush xalqqa butunlay yot ekanini angelaydi. U G'arbiy Yevropada son-sanoqsiz odamlarni o'lim girdobiga tortayotgan urushni la'natlovchi nemislarni tilga olgan edi.

Bertran odamlarni goh «to'p yemiga», goh «yovuz jallodga» aylantiruvchi bosqinchilik urushini fosh etadi. U kelajakka ishonch bilan qaraydi, chunki «kelajakning ishi hozirgini yo'q qilmoq, uni

butunlay o'zgartirmoq, qabih va sharmandali narsa sifatida uni yer yuzidan supurmoqdir».

Barbyus Bertran obrazi orqali xalqqa cheksiz kulfatlar keltirgan urushni la'natlab, odamlardagi tushunchasining o'sib borishini ko'rsatibgina qolmay, bir-biriga qarshi tashlangan o'ttiz million qulning ko'zi ochilishini, bu ezilgan odamlar o'z ozodliklariga qanday yo'l bilan erishishlari kerakligini ham ochiq ko'rsatdi.

Endi fransuz askarlarining ko'pi oq-qorani ajratadi, urush xalqqa zarar, kapitalistlarga foyda keltirishini, urushga faqat nemislar emas, balki barcha kapitalistik davlatlar aybdor ekanliklarini tushuna boshlaydi. Shuning uchun soldatlar «nemislarni emas, urushni yengish kerak», «urushning urug'ini barcha mamlakatlarda yo'q qilish kerak», degan fikrga keladilar. Yozuvchi ko'pchilik ommaning istak-orzusini ifodalab, «Kelajak bu qullar qo'lida bo'ladi va ravshanki, soni va azoblari cheksiz bo'lganlar, qachonlardir, ittifoq tuzganlaridagina eski dunyo yangilanadi», deydi. Bu asarning g'oyaviy mazmuni, uning antimilitaristik mohiyatini ko'rsatadi.

Barbyus ideologlarni fosh etib, haq gapni aytgani uchun reaksiya yozuvchiga qarshi hujum qiladi. Lekin Barbyus romanning chuqur ma'nosini o'tmaslashtirishga yo'l qo'ymaydi. Undagi har bir so'z va ibora uchun qattiq kurash olib boradi.

Shunday qizg'in olishuvlar ketayotgan bir paytda fransuz progressiv jamoatchiligi, xususan zamonning ilg'or adiblari Frans va Rollan «O't» asariga yuqori baho beradilar.

Adabiyotda yangilik bo'lgan bu romanni Rollan «katta jur'at bilan yozilgan asar», «shafqatsiz urush oynasi» deb atadi. Bu kitob Frantsiyada juda tez va ko'p tirajda tarqaldi. Nemis soldatlari o'rtasida ham katta muvaffaqiyat bilan o'qildi.

«O't» romani fransuz adabiyotida realizm metodining dastlabki namunasi, novatorlik ruhidagi xalqchil asar bo'lishi bilan qimmatlidir.

«Ravshanlik» (1918) romani o'zining chuqur g'oyaviy mazmuni va realizmi bilan imperialistik urush xonavayronliklarining klassik tasvirini bergan «O't» romaniga yaqin turadi,

Roman kompozitsiyasi ikki qismdan iborat. Birinchi qismda Barbyus kichik shahardagi meshchanlarning og'ir va achinarli hayotini aks ettirgan. Asar qahramoni oddiy xizmatchi Simon Polendir. U o'z qobig'iga o'ralib qolgan, ijtimoiy turmushdan chetda

turgan tipik meshchandır. Simon Polen o'z hayotida biron-bir o'zgarish bo'lishini istamaydigan, xo'jayinlarning barcha buyruqlarini bajarishga tayyor turuvchi passiv kishidir.

Asarning ikkinchi qismida Simon Polenning frontdagi turmushi ko'rsatilgan. Urush boshlangach, u shovinistik targ'ibot ta'siri ostida, boshqa hamkasblari bilan bir qatorda, dushmanga qarshi kurash ishtiyoqi bilan frontga otilib boradi.

Simon Polen soldatlarning okopdagi og'ir hayotlarini, bema'ni urush juda ko'p odamlarni halok etayotganini ko'radi. Shular ta'siri ostida endi unda urushga nisbatan o'zgacha munosabat yuz beradi. Urushdagi muvaffaqiyatsizliklar, chekinish, ko'p qurbon berish va boshqa illatlar asta-sekin jangchilarda tanqidiy qarashlarni yuzaga keltiradi. «U yerda sim to'siqlar bo'lganda edi, ularni to'xtatish mumkin edi», «Bizning pulemyotlarimiz qayerda qoldi?», deb taajjub bildiradilar. Simon ham ishning bunday salbiy natijalar berishi sabablarini axtara boshlaydi, bu «qo'mondonlikning katta xatosi», «beparvolik natijasi», umuman bu ishda «boshliqlar aybdor» degan fikrga keladi.

Boshqa soldatlar bilan bir safda turib jang qilayotgan va urush dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan Simon bu urushning xalqqa yot, bir to'da kapitalistlar manfaati uchun olib borilayotgan bosqinchilikdan iborat mohiyatini va bunda soldat kiyimidagi oddiy odamlarning bekordan-bekorga bir-birlarini o'ldirib, qon to'kayotganliklarini idrok eta boshlaydi.

Shunday qilib, vatanni himoya qilish kerak, degan yolg'on tashviqotga uchib, ko'r-ko'rona frontga borgan «go'zal Frantsiya» uchun jonini fido qilmoqqa tayyor turgan meshchan Simon Polen urushda yaralanib, ko'zi ochilgan holda imperialistik urush, nobop sistemaga qarshi kurashchi bo'lib uyga qaytadi.

Barbyusning badiiy ijodi bilan bir qatorda uning siyosiy publitsistikasi ham agressiya, uning qabohatlarini fosh etishga qaratilgandır. Barbyus fransuz xalqining kurashchan an'alarini davom ettiruvchilar safidan joy oldi.

Uning urushdan so'nggi dastlabki yillarda yozgan «Klarte» gruppasining manifesti bo'lgan «Jahannam qa'ridan nur» (1920), «Kurashchi nutqlari» (1920), «Pichoq tishlab. Ziyolilarga» (1921) nutq va maqolalar to'plamlarida reaksiya va imperializmga qarshi kurashda taraqqiyparvar intelligentsiyaning roli alohida ko'rsatilgan.

«Klarte» gruppasining tor patsifistik doirasi Barbyusning qarashlarini qoniqtirolmay qoladi. Barbyus o'zi uchun mavjud barcha xavf-xatarlarga qaramay, umrining oxirigacha tinchlik, ozodlik, sotsial taraqqiyot kurashchisi bo'lib qoladi.

Barbyusning ijtimoiy-siyosiy faoliyati bundan so'ng yanada faollashadi. Bolqonda oq terror kuchaygan, u 1925 yilning sentyabrida yarim orolga borib, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviyada yashovchi mayda millat vakillar hayoti bilan tanishadi. Politsiya ta'qibi ostiga tushib qolgan xalqlarning og'ir ahvolini, «bolqon do'zaxi»ni ko'radi. Bolgariya va Bessarabiyadagina o'n minglab kishilar terror qurboni bo'lgan edilar. Shu tekshiruvlar natijasida hujjatlarga asoslangan «Jallodlar» («Bolqonda oq terror», 1926) pamfleti yuzaga keladi. Unda Yevropaning janubidagi fashist jallodlarning jinoyatlarini fosh etadi. U yerda osish, otish, qiynoqqa solish avj olgan edi. Barbyus qamoqdagilar haqida insonlarcha g'amxo'rlik qiladi. Ularni qutqarish haqida butun dunyoga jar soladi.

Barbyus Frantsiya sharoitida realizm adabiyotiga asos soldi. Barbyus Frantsiyada yangi adabiyotning asoschisi sifatida, yangi estetik g'oyalarini, adabiyotning imperialistik urush va reaksiyaga qarshi kurashda o'tkir qurol ekanini targ'ib qildi. Barbyusning «Zolya» (1932) kitobi san'at uchun kurashda katta ahamiyatga ega. Barbyus Zolyani faqat naturalistlar doirasiga kiritib qo'ygan tanqidchilardan farq qilib, bu fransuz adibining qora kuchlarga qarshi qizg'in kurashchi ekanini, eng yaxshi romanlarida realizm ustun bo'lganligini ko'rsatdi.

Birinchi jahon urushida qatnashgan Barbyusning sog'lig'i yomonlashgan edi. Shunga qaramay, u Rollan bilan birga urushga, fashizmga qarshi kurash va tinchlik ishini mustahkamlashga bag'ishlangan Berlin (1927), Amsterdam (1932), Parij (1933) kongresslarini tashkil etishda faol qatnashadi. 1935 yili vafot etdi.

GENRIX MANN **(1871 – 1950)**

G.Mann XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan nemis taraqqiyparvar adabiyotining yirik vakili, antifashist yozuvchidir. U murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Yozuvchining ilk asarlarida mavhum gumanizm hukmron bo'lsa, so'nggi ijodida xalq manfaatlari o'zining chuqur aksini topdi. Genrix

Mann Lyubek shahrida boy va madaniyatli byurger – savdo ishi bilan shug'ullanuvchi oilada tug'iladi. U yoshligidan tijoratni o'rganadi. Frantsiya va Italiya bo'ylab sayohatdan so'ng unda adabiyotga qiziqish kuchayadi. Birinchi mustaqil asari «Sharbat qirg'oqlari»da («Orzu qilingan joyda», 1900) uning fosh etuvchi satirasi ochiq ko'rinadi.

«Sharbat qirg'oqlari» romanining qahramoni chekka viloyatdan kelgan kambag'al student Andreas sumzedir. Unga Berlinning g'arbiy kvartali – birjachilar, bankirlar, savdogarlar, jurnalistlar yashaydigan boy mahalla, tekin daromad manbai– sharbat qirg'og'i, sut bulog'i bo'lib ko'rinadi va o'sha yerni orzu qiladi. Andreas qiynalib bo'lsa ham o'sha muhitga kirib oladi, so'ngra uning yaramas ta'siri ostida tez buziladi.

Turkxeymerlar muhitiga tushib qolgan student Andreas sumze bankirning xotini Turkxeymer xonimning diqqatini o'ziga tortadi. Dastlab u o'z baxtiga ishonmaydi, asta-sekin o'zini ushlab oladi, so'ngra u surbetlik bilan Turkxeymer xonimga ham, xo'jayinning ma'shuqasi Agnessa Matskega ham yaqinlashadi. Bu esa jimit odamning boyligi va hukmronligi uchun o'z xo'jayinidan olgan qasosining bir turi hisoblanadi. Nayranglari fosh bo'lgach, orzu qilingan joy – sharbat qirg'oqlaridan quvilgan Andreas sumze taqdiriga bo'ysunadi. Xo'jayin «odamgarchilik» qilib, uni Agnessaga uylantirib qo'yadi va kichik nafaqa belgilash bilan undan xalos bo'ladi.

Salbiy qahramonning ko'tarilishi printsipsizlik va faqat shaxsiy manfaatni ko'zlash asosida yuzaga kelishini, so'ngra turli ziddiyatlarga uchrab, oxirida yuztuban ketishini yozuvchi Andreas sumze obrazida yorqin ko'rsatib berdi.

«Ma'budalar» (1902– 1903) trilogiyasida ijtimoiy hayot, san'at va muhabbat masalalari tasvirlanadi. Asar qahramoni gertsoginya Violenta Assidir. U shimoldan Italiyaga bostirib kelgan qadimgi jahongir normannlar urug'iga mansub bo'lib, yoshlikdan o'z avlodining bosqinchilik urushlari va jasoratlari haqidagi xotiralar bilan yashaydi. Undagi favqulodda iroda, yuksak go'zallik, manmanlikka intilish ham o'shaning oqibatidir. Assi ongli ravishda turmush shod-xurramligini, go'zallik nashidasini totib ko'rmoqqa intiladi, oddiy odamlar hayotiga esa, loqaydlik bilan qaraydi.

Genrix Manning sotsial-psixologik va hajviy ruhdagi «Unrat muallim» (1905) romanining bosh personaji erlar gimnaziyasining

keksa o`qituvchisi Rat bo`lib, o`quvchilar unga «Unrat» laqabini qo`yganlar. Chunki u bolalarni monarxga sadoqat, «mangu xizmatga muhabbat» ruhida tarbiyalashga intiladi. Unda hammaga dahshat solish kabi istak zo`r. Uning nutqlarida rasmiy (yuzaki) tantanalilik bor. «Agar men,— deydi u,— o`quvchilarga klassik ideallarni faqat bekorchi xayol sifatida tushuntirsam, u vaqtda o`zimga bo`lgan hurmatni yo`qotgan bo`lur edim». Uning tilida *chunki, hattoki, binobarin, ya`ni, masalan*, so`zlari ko`p va o`rinsiz ishlatiladi. Yozuvchi bu nochor odam obrazi orqali miskin nemis hayotini masxara qiladi.

Birinchi jahon urushi yillarida G. Mann urushga qarshi antiimperialistik mavqeni egalladi. Germaniyada kuchayib borayotgan ozodlik harakatiga ijobiy munosabatda bo`ldi.

G. Mann xajviyotining yuksak namunasi «Imperiya» trilogiyasining birinchi romani «Sodiq fuqaro»(1914)dir. Unda zo`ravonlik va monarxiya tartiblarining himoyachisi, «mas`uliyatni his etmaydigan shovinist» obrazi yaratiladi. Romanning bosh qahramoni Didrix Gessling. Ijtimoiy hayotdan uzoq, qo`rqoq, filistr-meshchan bu odam ekspluatator bo`lib qolgach, jamiyat taraqqiyoti uchun xavfli kishiga aylanadi.

Yozuvchi, Didrix Gessling xarakterini yuzaga keltirgan yaramas muhitni, yomon ta`sirni ko`rsatadi. Kichik bir qog`oz fabrikasiga xo`jayinlik qilgan otasi oilada qo`pol bir odam bo`lgan. Lapashang Didrix otasidan qo`rqadi va shu tufayli hurmat qiladi. Didrix maktabga ham yig`lab boradi. Darslarini bilmagan vaqtda ko`zlariga yosh oladi. Bunday holat naf keltirgach, endi bu narsa odat tusiga kiradi. Maktabni bitirgach, Berlinga o`qishga boradi. U yerda millatchi yoshlar tashkiloti «Yangi tevtoniya» safiga kiradi.

Didrix voyaga yetgach, uyida zulm o`tkazuvchi zolim erga aylanadi. U xotinini o`ziga tobe tutadi, ona esa bolalarini o`ziga bo`ysundiradi. Didrix bolalarini kichik xonaki itga ozor berishga o`rgatadi. Otasi vafotidan so`ng o`zini erkin tutgan Didrix fabrikaning egasi bo`ladi va ishchilarni qattiq ekspluatatsiya qilishi natijasida katta foyda ola boshlaydi.

Didrix o`ziga bo`ysunuvchilarga nisbatan o`ta qo`pol va shafqatsiz, aksincha o`zidan yuqori turuvchi amaldorlarga esa, itoatkor shaxs. Bir kuni u Berlinda kayzerning o`tib ketayotganini ko`rib qoladi. Turgan joyi balchiq bo`lishiga qaramay, o`sha yerda tiz cho`kib, imperator Vilgelmga ta`zim qiladi. Bu esa unga sodiq

fuqaro ekanini bildirar edi. Didrix ishchilarga «ichki dushman» deb, ularning o'z ahvollarini yaxshilashga qaratilgan har bir harakatiga «isyon» deb qaraydi, ularni «yanchib tashlash»ga undaydi. «Biz qo'rqmaymiz, kayzerimiz biz bilan», deb chiranadi. Unda agressorlik kuchli, ayni choqda mehnatchilardan qattiq qo'rqadi ham.

«Sodiq fuqaro» romanida G. Mann nemis meshchanlarining miskin hayotini, millatchilik, bosqinchilikdan iborat siyosatni masxara qildi. Didrix Gessling nemis hukmron tabaqalarining munofiqlik va yovuzliklarini aks ettirgan tipik obrazdir. «Imperiya» trilogiyasi («Sodiq fuqaro», «Kambag'allar», «Boshliq»)dan so'ng yozuvchi ijodining yangi davri boshlanadi. 1933 yilda fashistlar davlatni bosib olgach, Mann ijodida katta burilish ro'y beradi. U Germaniyani tashlab ketishga majbur bo'ladi. Gitlerchilar adib asarlarini yoqadilar, o'zini esa san'at akademiyasi a'zolidan chiqaradilar. Dastlab u Pragada yashaydi, so'ngra Frantsiyaga ketadi. U yerda fashizmga qarshi faoliyatini davom ettirib maqolalar yozadi. Agar u dastlabki ijodida («Unrat muallim», «Sodiq fuqaro») fashizmni yuzaga keltirgan muhitni ko'rsatsa, endi u sariq vabo– fashizmni, uning qonxo'r boshliqlari – Gitler, Gering, Gebbelsning kirdikorlarini keskin fosh etadi («Nafrat», 1933). Bundan so'ng yozgan «Shunday kun keladi», «Mardlik» kabi publitsistik asarlarida esa haqiqat uchun mardonavor kurashchilar – Ernest Telman, Rudolf Klaus va Edgar Andre obrazlarini fashistlarga qarshi qo'ydi.

G. Mann shu davrda Genrix IV haqidagi epopeyasini yaratdi. Bu «Genrix IV ning yoshligi» va «Genrix IV ning yetuklik davri» (1935–1939) deb ataluvchi ikki tomdan iborat romandir.

G.Mann Genrix haqidagi asarida Frantsiyaning XVI asriga murojaat etadi. O'sha vaqtda o'zaro urush, diniy nizolar avj olgan edi. Ayni chog'da bu davrda absolyutizm hokimiyati mustahkamlanib, uning o'zboshimcha feodallarga qarshi kurashi ham kuchaygan edi. Asar personajlarining ko'pi tarixiy shaxslar. Frantsiya taxtida feodalizmning so'nggi vakillaridan biri qirolicha Yekaterina Medichi o'tiradi. U o'z hukmronligini saqlab qolish uchun har qanday jirkanch vositalarni qo'llashdan ham qaytmaydi. Xanjar foyda bermagan joyda zaharni ishga solib, o'z raqiblarini bartaraf etadi. Bu vaqtda protestantka-qirolicha Navvarrskayaning o'g'li, yosh shahzoda Genrix (so'ngra Genrix IV) qishloqda, buvasi qo'rasida, dehqon bolalari o'rtasida o'sadi. Qirolicha Yekaterina

dushman partiyasini zaiflashtirish va davlatni o'z qo'lida saqlab qolish maqsadida qizini protestantlarning boshlig'i Genrixga berib, shunday yo'l bilan uni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Yekaterinaning o'z o'g'illari Karl IX va Genrix III mamlakatni idora etishga noqobil kimsalar edi. Genrixning saroy qo'shinida xizmat qilayotgan otasi to'satdan o'ladi, ko'p o'tmay onasi katoliklar qo'lida zaharlanadi. Uning o'zi uchun ham katta xavf tug'iladi.

Genrix Yekaterinaning qizi Margarita Valuaga uylanish va to'yni o'tkazish maqsadida o'zining protestant (gugenot) qo'shinlari bilan saroyga keladi. Lekin bu qadar ko'p protestantlarning kelishi Parij katoliklarini g'azabga soladi. Yekaterina shahar aholisining bunday kayfiyatidan ustalik bilan foydalanadi. U tinch dam olayotgan protestantlarga qarshi 1572 yilning 24 avgusti (avliyo Varfolomey kuniga o'tar kechasi)da yoppasiga ur-yiqit uyushtirib, ko'plab kishilarning boshini tanasidan judo qildiradi. Genrix esa Luvr saroyida tutqunde qoladi. Varfolomey kechasidagi qonli voqealardan ko'zi ochilgan yigit saroydan qochadi.

Bundan so'ng Genrix IV o'z protestant– gugenot qo'shinlari safini mustahkamlab, o'z ta'sir doirasini kengaytiradi. Dehqonlarning ahvolini yaxshilashga va'dalar berib, ular bilan yaxshi munosabatda bo'ladi, xushchaqchaq hazillar qiladi. Genrix hamma janglarda bevosita o'zi qatnashadi, ko'p shahar, qishloqlarni qo'lga kiritib, yanada obro' orttiradi. U endi Parijga hujum qilib, uni qo'lga kiritadi va tarqoq Frantsiyani birlashtiradi, xalqdan olinadigan soliqlarni kamaytiradi.

Endi uning oldida Frantsiyani ispan qiroli Filippga bo'lgan qaramlikdan xalos etish vazifasi turar edi. Lekin Genrixning bu orzusi amalga oshmaydi– u katta jangga tayyorgarlik ko'rayotgan bir vaqtda yollangan chet el agentlari tomonidan o'ldiriladi.

Qahramon Genrix IV asarning birinchi qismida gugenotlarning boshlig'i sifatida kamsitishlarga qarshi shaxsiy o'ch olish yo'lidan borsa, keyinchalik sekin-asta aqliy takomilga erishib, mamlakatning birligini yuzaga keltiruvchi yirik harbiy qo'mondon va xalqparvar davlat boshlig'iga aylanadi.

Asarda Genrix IV Uyg'onish davrining ilg'or kishisi sifatida beriladi. Uning do'stlari orasida faylasuf Monten, shoir Agrippa d'Obine ham bor. Yozuvchi Genrix IV ni «qo'lida quroli bor otdagi gumanist», deb ataydi. U ham mutafakkir, ham sarkardadir. Bu bilan G. Mann moddiy va ma'naviy kuchlar birlashtirilgandagina adolatga

erishish, yovuz dushman ustidan g'alaba qilish mumkin, degan fikrga keladi.

Yozuvchi «Sodiq fuqaro» romanida fashizmni keltirib chiqargan yaramas muhitni tasvirlagan bo'lsa, Genrix IV haqidagi epopeyada uni qanday yo'l bilan yengish mumkinligini aniq ko'rsatib beradi. Yozuvchi Genrix IV ni «xalqparvar arbob», deb ta'riflaydi. Tarixiy Genrix juda ham bunday ijobiy sifatlarga ega emas. Biroq bu asar fashizm ta'qibiga uchragan adib tomonidan yozilganini nazarga olganda, Genrix IV ning ideallashtirilishi sababi ravshanlashadi.

1940 yilda fashistlar Germaniyasi Frantsiyani bosib olgach, Genrix Mann Amerikaga ketishga majbur bo'ladi. Keksa adib muhojirlikda ham fashizmga qarshi asarlar yaratadi. Jumladan, 1943 yilda chiqqan «Liditsa» kinoromanida fashistlarning Chexoslovakiyada qilgan vahshiyliklari, Liditse va Leshchan qishloqlariga o't qo'yishi, butun erkaklarning otib o'ldirilishi voqealari ko'rsatiladi.

Yozuvchi «Davr obzori» (1944) publitsistik asarida Germaniyaning o'tmishi, fashizmning kelib chiqishi va unga qarshi nemis xalqi olib borgan mardonavor kurashlar, shuningdek fransuz qarshilik ko'rsatish harakati haqida so'z yuritadi. Ayniqsa, o'z Vatanini va Yevropa xalqlarini fashizm asoratidan qutqargan ulug' xalq haqida, g'alabaning olamshumul ahamiyati xususida katta hayajon bilan hikoya qiladi. Genrix Mann gitlerizmning tor-mor etilishi bilan nemis xalqini tabriklaydi. Kasal bo'lishiga qaramay, bu kekse antifashist yozuvchi yangi Germaniyani tuzishda qatnashmoqni istaydi. Lekin yaxshi niyatlari amalga oshmaydi. Chunki AQSh reaksiyon doiralari uning o'z vataniga qaytishiga imkon bermaydilar. Buning ustiga ezgu ishlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiladilar. Shu tufayli otashqalb yozuvchi Genrix Manning yaxshi niyatlari nihoyasiga yetmaydi. G.Mann 1950 yilning 12 martida to'satdan vafot etadi.

XX ASR NEMIS ADABIYOTI

Xalqlar Vatan urushida gitlerizmni tor-mor etishi bilan o'z erki va mustaqilligini saqlab qoldi. Shu bilan birga, Yevropa xalqlarini fashizm qulligidan ozod qildi. Germaniyada yashovchi ilg'or yozuvchilarning ijodida g'oyaviylik va mahorat birligi

masalasiga alohida diqqat etildi. I. Bexer, E. Veynert, F. Volf, B. Brext va boshqalar ilg'orlik mavqeda turib ijod qila boshladilar. Anna Zegers, Villi Bredel, Gans Marxvitsa, Lyudvig Renn, Kuba, Klaudius, Xerlinlar Germaniya va uning yangi madaniyati uchun hormay-tolmay xizmat qilib keldilar.

ANNA ZEGERS (1900 – 1983)

Anna Zegers nemis adabiyotida realizm metodi bilan ijod eta boshlagan yozuvchi, yirik jamoat arbobi, Germaniya yozuvchilar tashkilotining rahbarlaridan biri edi. U jahon Tinchlik kengashi a'zosi edi.

Anna Zegers – yozuvchining adabiy taxallusi. Uning o'z nomi Netti Radvani bo'lib, Reyn daryosi sohilida joylashgan Mayns shahrida badavlat ziyoli oilasida tug'iladi.

Radvanilar xonadoni va ular doirasidagilar liberal qarashdagi kishilar edilar. Ular imperator Vilgelmning militaristik siyosatiga e'tiborsiz qaraganlar. Veymar respublikasi davrida esa ular Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqasini rivojlantirish tarafdorlari tomonida turganlar.

Netti Radvani Kyoln, so'ngra Geydelberg universitetlarida o'qigan, adabiyot, tarix, san'atshunoslik fanlarini o'rgangan. U rus yozuvchilari F. M. Dostoevskiy, L. N. Tolstoy asarlarini berilib o'qiydi va studentlar doirasiga yaqinlashadi.

«Grubech», «TSiglerlar» novellalarining qahramonlari ishsiz va xonavayron bo'lgan kosiblardir. To'plamdagi xarakterli asar «Amerika vakolatxonasiga boradigan yo'l bo'ylab»da gunohsiz Amerika ishchilari Sakko ham Vantsettining reaksion hukmronlar tomonidan qatl qilinishiga qarshi Yevropa shaharlarida kuchayib ketgan norozilik namoyishlari aks etgan. Sakko ham Vantsettining jazolanishlari noodil sudning adolatsizligi va insoniylikka zid ekanligini yana bir bor ko'rsatdi.

1928 yilda chop etilgan «Baliqchilar qo'zg'oloni» qissasi endi yozuvchining adabiy taxallusi – Anna Zegers nomi bilan chiqadi. Bu asar Germaniyada avj olgan kurashlar bilan bog'lanib ketadi. Asarda Shimoliy dengiz qirg'oqlarida joylashgan baliqchilar posyolkasidagi voqea tasvirlanadi. Og'ir ekspluatatsiya va muhtojlik natijasida ezilgan va sabr-toqatlari tugagan baliqchilar qo'zg'olon ko'taradilar.

Isyonchilar kema egasi – xo`jayinning o`g`lini uradilar, kontorani vayron qiladilar. Isyonni bostirishga yuborilgan askarlar bilan olishadilar.

Kurash ruhi bilan yongan yigitlardan biri Andreas Bruindir. Ota-onadan yosh yetim qolgan bu bolaning baxt haqidagi orzulari o`sha sharoitda barbod etilgan. U och qolgan yaqinlariga yordam berishga o`jiz. Haqorat qilgan xo`jayinga tashlangan bu o`smir qo`zg`olonchilarning oldingi qatorida boradi. Uning fikr va harakatlarida g`o`rlik, tajribasizlik ko`rinsa ham, unda o`z ozodligi uchun kurashuvchi mard kishilarning asosiy xususiyatlari mujassamlangan.

1930 yilning noyabr oyida A. Zegers birinchi marta Rossiyaga keladi. U ham chet ellik boshqa mehmonlar bilan Xarkovga boradi. U yerda yozuvchilarning II Xalqaro konferentsiyasida qatnashadi. Ko`pgina mamlakatlar chuqur inqiroz ichida qolgan bir paytda bu yerdagi xalqlar erishayotgan g`alabalarni ko`rib, behad quvonadi.

A. Zegers Germaniyaga qaytgach, rus xalqining bunyodkorlik mehnatlari haqida lektsiyalar o`qiydi, suhbatlar o`tkazadi. Bu vaqtda fashistlar har qanday yo`l bilan bo`lsa ham davlatni qo`lga kiritishga urinmoqda edilar.

1932 yil saylovlarida fashistlar ancha ko`p ovoz oladi. Xalq ommasidan cho`chigan hukmron burjuaziya va boshqa reaksion doiralar Gitlarning hokimiyat tepasiga kelishiga yo`l ochib beradilar.

Yozuvchi E. Voynert, I. Bexer, V. Bredel, shuningdek A. Zegers ham og`ir sharoitda tushuntirish ishlari olib boradilar, maqola va she`rlar yozadilar. Zegers fashizmga qarshi kurash sharoitida chiniqadi, yangi tipdagi yozuvchi bo`lib yetishadi. Gitlerchilar to`ntarishidan sal oldin xalqlarning internatsional birligi ifodalangan «Yo`ldoshlar» (1932) kitobi yozuvchining hayotni o`sishta ko`rsatgan birinchi asaridir. Romanda Yevropa mamlakatlarida ommaga rahbarlik qilayotgan ilg`or kishilarni ko`rsatadi.

1933 yilning boshida fashistlar davlatni bosib olgach, A. Zegers Frantsiyaga ketadi. O`sha yerda fashizm yirtqichliklarini fosh etgan asarlar yozadi. «Telman va Gitler» kitobida Telmannning yorqin qiyofasini tasvirlaydi, Gitler avantyurizmini qoralaydi.

1939 yilda boshqa nemis antifashistlar qatorida A. Zegers ham Frantsiyani tashlab ketadi. U Kanadada yashaydi. Germaniya fashizm asoratidan ozod etilgach, A. Zegers Vataniga qaytadi (1946) va yangi Germaniyani barpo etishda faol qatnashadi.

A. Zegers ijodida fashizmni tug'dirgan qabohatlarni tahlil qilish asosiy o'rinda turadi.

«Ettinchi but» romanida 1937 yilning kuzida Vestgofen kontslageridan qochgan yetti mahbus haqida hikoya qilinadi. Ulardan oltitasi qo'lga tushadi va qatl etiladi. Fashistlar ularni mixshiydali krestga bog'lab, qiynab o'ldiradilar. Yettinchisi Geogr Geysler Gollandiya kemasida chet elga o'tib ketadi. Geogrni jazolash uchun tayyorlangan yettinchi but (krest) bo'sh qoladi.

Adiba Zegers kontslagerdan qochganlarga, xususan Georg Geyslerga bo'lgan munosabatni to'g'ri ko'rsatgan. Kitobxon odamlar uni ushlab berarmikanlar yoki yordam ko'rsatarmikanlar, deb katta hayajon bilan voqeani kuzatib boradi.

Ko'pchilik nemis aholisi gitlerizmning dahshatli illatlari bilan zaharlangan va insoniylikni yo'qotib qo'ygan kishilar edi. Bunga bir dehqon uyida yashiringan qochoqni qishloq bolalarining tutib berishga intilishlari misolida ko'rish mumkin. Geogrning ukasi Geni ulardan qolishmaydi. Georg o'z yelkasiga o'tqazib namoyishlarga olib borgan ukasi natsistga aylangan va endi unda akasini gestapoga tutib bermoq niyati ham yo'q emas. Bir vaqtlari sevgan qizi nozik Leni ham natsistga erga tegib, qo'pol ayolga aylangan. U Georgni tanimagandek bo'ladi va daydi kishidek uyidan haydaydi.

Fashistlarning qo'rqitish, aldash, ta'qib qilish metodlari natijasida ongsiz va qat'iyatsiz kishilar ularning mo'min qullari bo'lib qoladilar va ular jinoiy ishlar qilishdan ham qaytmaydigan yirtqichlarga aylanadilar. Fashistlar dahshati oldida dovdirab qolgan keksa ishchi Baxman o'z do'sti Vallouni gitlerchilarga ushlab beradi. Lekin u oxirida sotqinligidan nafratlanib, o'zini halok etadi.

Fashizmning vahshiy antigumanistik xomxayollariga berilgan va gitlerizmga ko'r-ko'rona ergashgan laqma obivatellar, shuningdek, kamsitish, taxqirlash va dahshatli jazolar oldida o'zini yo'qotib qo'ygan kishilar o'rtasida natsistlar ideologiyasi ta'siriga berilmagan va oxirigacha insoniylikni saqlab qolgan odamlar ham bor.

Frans Marker va Paul Reder – oddiy ishchilar. Lekin ularda asta-sekin o'zgarishlar ro'y beradi. Ular siyosat bilan ham qiziq boshlaydilar. Bir amallab tirikchilik o'tkazishni o'ylaydigan, ikkilanib, tashvishli xayollarga beriladigan bu do'stlar o'z zaifliklarini yengib Georgga yordam qo'lini cho'zadi.

Paul Reder to'rt bolaning otasi. U xavfdan qo'rqmay, Georgni bir kecha uyida saqlaydi va tanish kishilar orqali uning chegaradan o'tib ketishiga yordam beradi. Fashizm dahshati oldida tiz cho'kmagan jasur odamlar qatorida doktor Levenshteyn ham bor. U ham oilasi hayotini xavf ostida qoldirgani holda o'z huzuriga kirgan Georgning yarasini bog'lab qo'yadi.

Yetti mahbusdan ikkitasi savdo ishi bilan shug'ullangan kishi, uchtasi sof qalbli dehqon, kosib va ziyoli. Yetti qochoqdan faqat ikkitasi haqiqiy antifashistlar. Bular Ernst Vallou va uning shogirdi Georg Geyslerdir. Vallou kollektiv qochishni uyushtirgan kishi. U sotqinlik natijasida halok bo'ladi, lekin uning yo'lini shogirdi davom ettiradi. A. Zegersning «Barhayot o'liklar» (1949) romani 1918 yildan 1943-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Bular Saksoniya va Rurdagi kurashlar, prezident saylovlari, Prussiya hukumatining ag'darilishi, fashistlar ig'vosi va Reyxstagga o't qo'yilishi, natsistlarning davlat tepasiga chiqishi, Myunxen bitimi, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, nemis-fashist armiyasining Stalingrad bo'sag'asida tor-mor etilishi va boshqalardir.

1919 yil yanvar oyida Berlindagi chiqishlar vaqtida ishchi Ervin o'ldiriladi. Uning o'limiga ofitserlar Klemm, Ventslov va Livenlar bevosita aybdorlar. Bu kishilarning o'tmishi qorong'i va shubhalidir. Liven Pribaltikada rus oq gvardiyachilari qatorida turib kurashadi. Ventslov esa, Xitoyga revolyutsion harakatni bostirishda Chan Kay Shiga yordam berishga jo'nagan. Sanoatchi boylar Klemmga o'xshagan avantyuristlarda millatchilik ruhini kuchaytirishga intiladilar va ayni choqda boshqa mamlakat hukmronlari bilan iqtisodiy va siyosiy aloqa bog'laydilar.

Asarda reaksiya, fashizm vahshiyiligiga nemislarning boshqa mamlakat mehnatkashlari, xususan Rossiya xalqlari bilan internatsional bardamligi va kurashlari qarshi qo'yilgan.

Butun voqea ishchi Ervin, uning oilasi va ishchi do'stlari hayoti bilan bog'liq tasvirlanadi. Ervin sevgan qizi Mariyaga o'zining yashirin ishi haqida gapirmoqchi bo'ladi, lekin aytishga ulgurmaydi. Chunki uni to'satdan qamoqqa oladilar va qochishga intildi, deb otib tashlaydilar. Mariya Ervindan bo'lgan bolasi Gansni boqish va tarbiyalash maqsadida katta yoshdagi ishchi Geshkega tegadi. Ular qiyinchilik bilan bolani tarbiyalaydilar.

Mariya fashistlar aldoviga uchmagan, mustaqil, sog'lom fikrli kishilardan biri. U fashizmning siyosiy qiyofasini to'la tushunib

yetmasa ham, lekin uning boshliqlari xalqni aldayotganliklarini fahmlaydi. Gans ham fashistlarga qarshi maxfiy kurashda ishtirok etadi. U fashistlar armiyasi safida urushga yuboriladi. Bir vaqtlari uning otasi Ervinni o'ldirgan ofitser Ventslov buyrug'i bilan Gansni ham otadilar. Lekin Ventslovning o'zi ham sarosimaga tushgan, chunki fashistlar armiyasining halokati yaqinlashib qolgan edi. Ventslov Gansning jasadini ko'rib, uning otasini eslaydi. Ervinning o'limi oldidan «Sizlar hozir meni o'ldirishlaringiz mumkin! Lekin shoshilmanglar, sizlarning ham navbatingiz keladi!» degan so'zlarini xotirlaydi. Ko'p o'tmay, fashistlar armiyasining halokati yaqinlashib qolganini sezgan Ventslov jinoyatlari uchun xalq g'azabiga uchrashidan qo'rqib, o'zini o'ldiradi.

Asarda Ervin, Gans obrazlari qahramonlik timsoli, hamisha navqiron yoshlik ramzi sifatida tasvirlanadi.

Anna Zegers «Barhayot o'liklar» romanida fashizmning dahshatli qiyofasini fosh etadi. Uning kelib chiqishi sabablari, kuchayishi va davlat tepasiga kelishida unga yordam berganlarning aybini ham ochiq ko'rsatadi. Adiba nemis xalqining kelajagiga umidvorlik bilan qaraydi. Xalqni yo'q qilish mumkin emas, ozodlik yo'lida fashizmga qarshi kurashib halok bo'lgan uning azamat o'g'illarining ishi va obrazlari hamisha barhayotdir.

Yozuvchining «Ahd» (1959) romanida gitlerizm tor-mor etilganidan so'ng vujudga kelgan Germaniyada juda qiyin sharoitda (oziq-ovqat ham, asbob-uskunalar ham yetishmas edi) yangi hayot qurish jarayoni aks ettiriladi. Roman voqealari 1947– 1957 yillarni qamrab oladi. Ishchilar bombardimon qilinishi natijasida zarar ko'rgan Kosindagi metallurgiya zavodini ishga tushirishga kirishadilar. Mashinalarni o'z kuchlari bilan tuzatadilar. Yetishmagan qismlar, asboblarni o'zlari yasaydilar. Zavodda turli yosh va turli qarashdagi ishchilar, xizmatchilar ishlaydilar. Ulardan ba'zilar hali eski an'analardan aloqalarni uzmagan bo'lsalar, boshqalari yangilik bilan eskilik o'rtasida ikkilanib turuvchilar va nihoyat, uchinchi toifadagilar yangi turmush qurishga aktiv kirishgan kishilardir.

Amerika razvedkasi zavodni texnika mutaxassislaridan mahrum etishga urinadi. Razvedka shu maqsadda ilgari ma'muriyatga yaqin turgan injener Byutnerni o'z ta'siriga olib, zavodda sabotaj uyushtirmoqchi bo'ladi. Byutner G'arbg qochishga qaror qiladi va o'z orqasidan ba'zi bir qat'iyatsiz kishilarni

ergashtirib ketadi. Lekin keng ko'lamda qurilayotgan yangi hayot, demokratik o'zgarish ko'pchilikni o'ziga to'g'ri yo'l tanlashga undaydi. Zavod yoshlari kelajakdagi porloq taqdirларini o'ylab, o'z vatanlari – Germaniyaga astoydil xizmat qilishga qat'iy qaror qiladilar.

Hayot haqiqatiga hamma vaqt sodiq bo'lgan Zegers «Yettinchi but», «Barhayot o'liklar» va boshqa romanlarida nemis, shuningdek, jahon xalqlari boshiga og'ir kulfatlar solgan gitlerchi fashistlarning yirtqichliklarini fosh etdi. Dunyoga hukmron bo'lishga intilgan bu qora kuchlar butunlay tor-mor etilib, mamlakatda demokratik tuzum o'rnatilgan bir paytda yozgan asarlarida («Tinchlik», «Qaytish», «Ahd») endi adiba natsistlar tomonidan aldangan, azob chekkan va ko'zi ochilib, yangi Germaniyani barpo etishda ongli ravishda qatnashayotgan fidoyi kishilarning realistik obrazlarini yaratdiki, bular Zegers ijodining chin mohiyati, uning novatorlik xarakterini ko'rsatadi.

JORJ BERNARD SHOU **(1856 – 1950)**

Jorj Bernard Shou ingliz dramaturgiyasini boshi berk ko'chadan olib chiqqan va unga yangi ijtimoiy tiynat bag'ishlagan yirik yozuvchi, dramaturg. Ingliz teatri ikki siymo – Uyg'onish davrida Shekspir, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Bernard Shou ijodi natijasida o'zining eng yuqori bosqichiga ko'tarildi, taraqqiyparvar bashariyatga kamar basta bo'ldi.

Bernard Shou 1856 yilda Irlandiyaning Dublin shaharida mayda xizmatchi oilasida tug'ildi. Muhtojlikda yashagan oilada ro'zg'or tashvishlari, asosan, musiqa muallimasi bo'lgan ona zimmasida edi. Shouning ota-onasi o'z dunyoqarashlari bilan Irlandiyaning progressiv maslakdagi kishilari toifasiga kirar edi. Bernard maktabda muntazam bilim ololmaydi. U yoshlik chog'laridayoq ingliz mustamlakachilari zulmi ostida qolgan irland xalqining milliy-ozodlik kurashini ko'radi. 15 yoshida Shou tirikchilik orqasida yer savdosi bilan shug'ullanuvchi muassasaga xizmatga kiradi. Qambag'allar yashaydigan mahallalardan ijara haqi yig'uvchi xizmatini bajaradi. 20 yoshida Londonga borib telefon kompaniyasidan ish topadi. Shu yillari u o'ziga o'xshagan son-sanoqsiz kambag'allarning og'ir hayoti bilan tanishadi. Turmushning

o`zi Bernardga maktab bo`ladi. U mutolaa qilish bilan o`z bilimini kengaytiradi.

Barnard Shou 70-yillarning oxiri va 80-yillarda «Yetilmagan», «Nomatlub nikoh», «Artistlar muhabbati», «Keshel Bayronning kasbi», «Yakka sotsialist» romanlarini yozadi. Bu asarlarda zamonasining dolzarb masalalari – oilaning buzilishi, odamlar tengligi zarurati haqida gapirilsa-da, lekin bu ijtimoiy mazmundagi romanlarida fikr sayoz, badiiy tomondan zaif ediki, shu tufayli ular shuhrat qozonmagan.

Shou 1884 yilda fabian jamiyatiga a`zo bo`lib, uning targ`ibot-tashviqot ishlarida faol qatnashadi. Mazkur jamiyat Rim lashkarboshisi fabian Kunktator nomi bilan atalishining boisi shu ediki, fabi harbiy ishda kutish, jiddiy to`qnashishdan o`zini chetga olish, dushmani chalg`itib turib, so`ngra hujumga o`tish taktikasini qo`llagan edi.

Shouga dramatik asarlari katta shuhrat keltirdi. U yangi drama uchun kurashini bilimdon nazariyotchi-ibsenchi bo`lib boshlaydi va Ibsen dramaturgiyasining asosiy mohiyatini targ`ib qiladi. Shouning Ibsen ijodi haqida o`qigan leksiylari negizida «Ibsenizmning kvintessentsiyasi» (1891) yuzaga keladi. Unda sotsial dramaning asoschisi bo`lgan Ibsenga yuqori baho beriladi. O`zining adabiy dasturi hisoblangan bu kitobda Shou dramaturgiya haqidagi qarashlarini izhor qiladi. Shouning ingliz teatriga kiritgan novatorligi uning yangi tipdagi pesa, intellektual drama yaratishi bilan xarakterlanadi. Bu tipdagi dramada intriga va jiddiy syujet emas, balki keskin munozara asosiy rol o`ynaydi. Shouning dramatik faoliyati «Mustaqil teatr»ning (1891) tashkil bo`lishi bilan bog`liqdir. U shu teatrga atab «Yoqimsiz pesalar» siklini yaratadi. Bunga «Bevaning hujralari» (1892), «Sansalorlik» (1893), «Uorren xonimning kasbi» (1893–94) pesalari kiradi.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida Shou London chetidagi o`z uyida og`ir ahvolda yashadi. Bu vaqtda nemis fashistlari Londonni bombardimon qilmoqda edi. Shunday mashaqqatli yillarda u «Hamma uchun siyosiy ma`lumotnoma» yozdi. Shou antifashist yozuvchi sifatida natsizmni qoraladi.

Eng yangi zamon ingliz adabiyotida Shou yirik taraqqiyparvar yozuvchi, novator-dramaturg sifatida tanildi. Uning o`tkir muammolarni aks ettirgan pesalari ingliz teatrini boshi berk

ko`chadan keng yo`lga olib chiqdi va unga siyosiy-ijtimoiy mazmun kiritdi.

GERBERT JORJ UELLS **(1866 – 1946)**

Gerbert Jorj Uells – eng yangi zamon ingliz adabiyotining yirik vakili, sotsial-psixologik, ilmiy-fantastik roman va hikoyalarning mohir ustasidir. Gerbert Uells London yaqinidagi Bromli shaharchasida tug`iladi. Otasi mayda savdogar bo`lib, bu ishda muvaffaqiyatsizlikka uchragach, bog`bonlik bilan shug`ullanadi. Onasi esa boy xonadonida xizmat qiladi. O`smir Gerbert dastlab tabiiy fanlar bo`yicha muallimlar tayyorlaydigan maktabda bilim oladi, so`ngra Londondagi oliy maktabda fiziolog olim Geksli lektsiyalarini tinglaydi. U sil bilan kasallanib to`shakda yotgan vaqtida ko`plab yozuvchilarning kitoblarini o`qiydi, o`zi ham ijodga beriladi.

Gerbert Uells ijodida texnika taraqqiyoti masalasi markaziy o`rinda turadi. Lekin nopok jamiyat sharoitida texnika xalq manfaatlariga emas, bir to`da monopoliyalarning boyishiga xizmat qilishini va u jamiyat uchun katta xavf-xatar tug`dirishi mumkinligini ko`rsatdi. Uells insoniyat jamiyati kelajagiga to`g`ri qaray olmadi. U 1895 yilda birinchi fantastik romani «Vaqt mashinasi» bilan muvaffaqiyat qozongach, ketma-ket boshqa asarlari ham dunyoga keladi. Bular «Doktor Moroning oroli» (1896), «Ko`zga ko`rinmas odam» (1897), «Dunyolar kurashi» (1898), «Uxlab yotgan qachon uyg`onadi» (1899), «Oydagi birinchi odamlar» (1901), «Havodagi kurash» (1908) va boshqalar.

Uells ilmiy-fantastik romanlar turkumidan tashqari maishiy mavzuda ham romanlar yozdi. «Sevgi va mister Lyuishem» (1901), «Kipps» (1904), «Tono-Bengey» (1909), «Anna Veronika» (1909), «Mister Polli tarixi» (1910), «Uylanish» (1912), shuningdek «Ser Ayzek Xarmanning xotini» (1914).

Gerbert Uells ilmiy-fantastik romanlarida, ayniqsa «Vaqt mashinasi», «Dunyolar kurashi», «Ko`zga ko`rinmas odam»da fan-texnika sohasidagi yirik ixtirolar, tabiatni odam irodasiga bo`ysundirish imkoniyatlari haqida fikr yuritadi. Bu romanlarida Uells planetalararo uchish, marsliklarning Yerga hujumi haqida gapiradi. Shu bilan birga, bu asarlarida o`z zamonasi ijtimoiy ziddiyatlarini ham aks ettiradi.

Uells faqat texnika va biologik hodisalarnigina emas, balki ijtimoiy voqealarni ham fantastik doiraga ko'taradi. Jamiyat ziddiyatlarini xastalarcha sezish, o'sha tuzum qarama-qarshiliklarini bartaraf etish yo'lini bilmaslik oqibatidir.

«Vaqt mashinasi» romanida Uells jamiyat texnika taraqqiyoti bilan kishilarning ijtimoiy hayoti o'rtasida uyg'unlik yo'qligi, kapitalizm ziddiyatlari insoniyat uchun halokatli ekanligini ko'rsatdi. Vaqt bo'yicha sayohat qiluvchi, o'zi ixtiro etgan mashinasi bilan bir daqiqada 802.701 yilga borib qoladi, ya'ni hozirgi zamondan kelajakka uchadi. U go'zal shaharlarda, ajoyib tabiat qo'ynida barkamol odamlar yashasa kerak, deb o'ylaydi. Lekin manzara boshqacha bo'lib chiqadi. Yarim xaroba saroylarda turuvchi eloylarni ko'radi. Bu zaif, kichik, chiroyli odamlar tabiat bag'rida erkin yashaydilar. Mehnatsiz va ijtimoiy faoliyatsiz hayot kechirish ularni shunday achinarli ahvolga solib qo'ygan. Xuddi shu vaqtda yana ham og'ir vaziyatda, yer ostida maymunsimon mahluqlar – morloklar tirikchilik o'tkazar, eloylar uchun xizmat qilar ekanlar.

Qadimgi zamonda morloklar ham eloylar bilan yer ustida yashaganlar. Ularning qullari bo'lganlar. So'ngra ular eloylarning zo'ravonliklari oqibatida yer ostiga tushib ketishga majbur etilganlar. Qorong'ilikda yashash va ishlash oqibatida morloklar vahshiylarcha hayot kechiradilar. Ular faqat kecha qorong'iligida yer betiga chiqib, eloylarni tutib, ularning qonlarini so'rganlar va go'shtlarini yeganlar.

Uells zolimlar bilan mazlumlar o'rtasida kuchayib ketgan ijtimoiy ziddiyatlar insonlarni shunday og'ir ahvolga olib borgan, deb ko'rsatadi. U o'z zamonasi jamiyatdagi qarama-qarshiliklarning nihoyat darajada kuchayib ketganiga ishora qilsa ham, bunday ziddiyatlarni bartaraf etish zarurligi haqida hech narsa demaydi. Garchi u xo'rlanganlar sifatida morloklarni nazarda tutsa ham, ammo ularni zulmga qarshi kurashga noqobil kimsalar, deb tasvirlaydi.

Asarda kishilarni xo'jayinlar va xizmatkorlarga ajratgan jamiyat ijtimoiy hayotida taraqqiyot bo'lishi mumkin emas, bunday sharoit oqibat-natijada dunyoni halokatga olib boradi, deb ko'rsatadi.

Uells jamiyatdagi ziddiyatlarning keskinlashib ketganini tushungani holda, kelajakni eloy va morloklar qiyofasida tasvirlab, insoniyatning rivojlanish yo'lini to'g'ri anglab yetmadi.

Fan-texnikaning monopoliyalar qo'lida qurol bo'lishi insoniyat uchun juda katta xavf-xatar tug'dirishi «Doktor Moroning oroli», «Ko'zga ko'rinmas odam» romanlarida haqqoniy tasvirlanadi.

«Doktor Moroning oroli»da odamlar ta'qibidan qochib, inson zoti yashamaydigan orolga borib qolgan doktor Moro o'sha yerda hayvonlar ustida jarrohlik tajribasini davom ettirib, cho'chqa, shoxli mol va boshqa hayvonlarni odamsimon mahluqlarga aylantiradi, Moro «qudratli shaxs» sifatida bir tomondan, o'ziga tobe kimsalarni yuzaga keltirishni istasa, ikkinchi tomondan, dushman hisoblangan insonlardan qasos olish maqsadida, umuman, ularga qarshi qo'pol parodiya yaratadi. Demak, olim nazaridan odamlarga foyda keltirishni ko'zlagan ilmiy tajriba g'oyib bo'ladi va uning o'zi savdoyi kishiga aylanadi. Doktor yaratgan oroldagi dunyo istiqbolsiz va dahshatlidir. Yakkalikda baxtsiz yashagan olim oxirida o'sha yerda o'ladi.

Aqcha-oltinga asoslangan jamiyatda olimning fojiali hayoti «Ko'zga ko'rinmas odam» fantastik romanida ham aks etgan. Asar qahramoni yosh fizik olim Griffin ko'p mashaqqatli mehnat va izlanishlardan so'ng narsalarni rangsizlantirish orqali odamni «ko'rinmas» holga aylantirish sirini ochadi. Bu ixtirosini o'zida sinab, hech kimga ko'rinmaydigan tusga kirib olgan Griffin boshqalar ustidan hukmronlik qilish kuch-qudratiga ega bo'ladi. Bu yakka olim– individualistning o'z kashfiyotidan shaxsiy boyishi uchun foydalanishga intilishi va odamlarni mensimay, ulardan o'zini yuqori qo'yishi qudratli shaxs fikrining krizisini ko'rsatadi. Manmanlik va yakka-yolg'izlik uni fojiali o'limga mahkum etadi.

«Dunyolar kurashi»da marsliklarning yer kurrasiga hujumlari va ularning texnikasi haqida hikoya qilinadi.

Marsliklarda texnika juda rivojlangan, ular planetalararo snaryad yaratganlar va uning yordami bilan yerga tushib, o'zlari ixtiro etgan dahshatli qurollari – issiqlik nurlari orqali qishloq va shaharlar, ekin va o'rmonlarni sovuqqonlik bilan kuydirib, odamlarni qirib tashlay boshlaydilar.

Marsliklar obrazida yozuvchi fan-texnika taraqqiyoti natijasida mashinaga aylanib ketgan kelajak kishilarini ko'rsatadi. Ular odamlarni emas, balki o'ziyurar mashinalarni eslatadilar. Marsliklarning boshi va miyasigina bor. Ularda tana a'zolari bo'lmagan. Bu mahluqlar charchashning nimaligini ham bilmaganlar. Ular kurtak otib ko'payganlar.

Uells marsliklarga qarshi kurashish uchun ancha vaqt kerak, texnikani rivojlantirish zarur, degan xulosaga keladi. Asarda texnika taraqqiyotining afzalliklarini ta'kidlagani holda, texnika egoist

imperialistlar qoʻlida jamiyat uchun halokatli bir qurol, deb koʻrsatadi. Uells ijodining ikkinchi davrida (1901-1914) mehnatkash ommaning ogʻir ahvoli, ularning umid-orzulari yemirilishini maishiy-realistik romanlari «Sevgi va mister Lyuishem», «Kipps», «Tono-Bengey», «Mio ter Polli tarixi»da aks ettiradi.

«Kipps»da kichik prikazchiklar, xizmatkorlar, sotuvchilar doʻkonda ishlovchi «shogird»larning achinarli hayoti va ishsizliklar tasvirlanadi. Angliya aristokratiyasi hajv ostiga olingan «Tono-Bengey» romanida yozuvchi oʻz faoliyatini fan-texnikaga bagʻishlagan, meshchan urf-odatlaridan xoli kishilarni koʻrsatsa, «Anna Veronika» romanida mustaqillikka intilish va ayollar ozodligi masalalarini qalamga oladi.

Ijodining bu davrida Uells maishiy xarakterdagi romanlar bilan bir qatorda, ilmiy-fantastik asarlar yozishni ham davom ettiradi. Lekin bu ijodda Uellsning soʻnggi illyuziyalari aks etganidan ular oldingi romanlaridan ancha zaif. Masalan, «Xudolar taomi»da (1904) katta aql-idrokka ega boʻlgan ulkan (velikan)larning yangi avlodini yaratish bilan jamiyatni qutqarib qolish mumkin, deydi. «Koxmetalar kunlarida» (1906) asarida yer atmosferasini tozalovchi kometalarning oʻtishi orqali odamlarning qon tarkibini oʻzgartuvchi vositalar bilan insoniyatni qutqarib qolish haqida oʻylaydi. Shunday qilib, Uells jamiyatni tuzatishning biologik yoʻlini qidiradi.

Yozuvchi «Ozod etilgan dunyo» romanida (1914) yangi gʻoya bilan maydonga chiqadi. ATOM urushi tasvirlangan bu asarning oxiri umidvorlik bilan tugaydi. Xavfsiz joyda tinchlik konferentsiyasi chaqirilib, butunlay urushni tanimaydigan yagona hukumat tuziladi. Bu asarida Uells hayot-mamot masalasini biologik yoʻl bilan emas, balki siyosiy yoʻl bilan hal etmoqchi boʻladi.

Uells birinchi jahon urushining imperialistik xarakterini dastlab tushunmay, millatchilik ruhida maqolalar yozadi. Koʻp oʻtmay, bu urushning bosqinchilik mohiyatini anglaydi va antimilitaristik ruhda «M-r Britling hamma narsani tushundi» (1916) romanini yaratadi. Shu bilan bir qatorda, urushdan nafratlanish va u keltirgan dahshatlar taʼsiri ostida yozuvchi ijodida tanglik koʻrinadi. Najot yoʻlini u endi dindand qidiradi. «Xudo – koʻzga koʻrinmaydigan qiroʻl» (1917), «Yepiskopning joni» (1917) romanlari buning yorqin dalilidir. Yozuvchi qarashlarida yuz bergan tanglik 20-yillarning ikkinchi yarmidan yoʻqola boradi. Insoniyat taqdiriga qaygʻurib qaragan Uzlls oʻz ijodida realizm printsiplariga

sodiq bo`lib qoladi. Ingliz adabiyotining yirik yozuvchisi sifatida tanilgan bu adib 1920 yilda Rossiyaga keladi va Angliyaga qaytib borgach, «Rossiya tuman ichida» kitobini yozadi. Bu vaqtda birinchi jahon urushi, so`ngra interventsia natijasida mamlakat xo`jaligi og`ir ahvolda edi.

«Rossiya tuman ichida» kitobida Uells o`sha vaqtdagi og`ir ahvolni tasvirladi. Uells ikkinchi marta Rossiyaga 1934 yilda kelib, rivojlanish amalga oshganini ko`rdi va undan qanoat hosil qildi.

Uells ijodining so`nggi davrida (30– 40-yillar) sotsial-hajviy, ilmiy-fantastik va psixologik yo`sinda asarlar yozsa ham, lekin, asosan, ular reaksiya va fashizmga qarshi qaratilgan roman va qissalardan iborat. Bular: «Mister Bletsuorsi Rempol orolida» (1928), «Mister Pargemning mustabid hokimiyati» (1930), «Bleplik Belpington» (1933), «Kroketboz» (1936), «Kelajak qiyofasi» (1935), «Ehtiyot shart» (1942) asarlarida urush xavfini hamda fashistlarning nodon reaksionerlardan kelib chiqishini ko`rsatdi.

1941 yilda Uells nemis-fashist bosqinchilariga qarshi ikkinchi frontning ochilishini kechiktirayotgan ittifoqchilar sha`niga jiddiy gaplar aytadi. Ikkinchi jahon urushi oxirlarida gitlerchi fashistlar armiyasining tor-mor etilishini ko`rgach, undagi umidvorlik ruhi yanada oshadi.

Yozuvchi urushga munosabatini «Ehtiyot shart» romanida qo`rqq meshchan Tyuler obrazi orqali ifodalaydi. O`z havfsizligini o`ylab, ehtiyotkorlik bilan ish tutuvchi bu shaxsning uyi yaqinida nemis bombalari portlab, xotiniga shikast yetkazganidan so`ng, uning munosabati o`zgaradi. U kim dushmanu, kim do`st ekanini anglay boshlaydi. Unda gitlerchi gazandalarni tor-mor etilishiga ishonch tug`iladi. Tyulerning o`g`li Genri otasining meshchan xulqi va xudbin qarashlariga qarshi turadi. Yaxshi odamlar qo`lida tarbiya topgan Genri adolat va ezguliklar haqida xayol qiladi.

ATOM bombasini yaratish va u bilan dunyo tinchligiga tahdid qilish Uellsning texnokratiya g`oyasiga zarba berdi. Texnika ziyolisining imkoniyat va maqsadlari haqidagi qarashlari zaminsiz ekanini ko`rsatdi va undan hafsalasi pir bo`ldi. Hayotining so`nggi yillarida Uells ikkinchi jahon urushini boshlagan imperialistik doiralarni va reaksion kuchlarni qoraladi.

XIX ASR OXIRI VA XX ACP BOSHI AMERIKA ADABIYOTI

XIX asrning ikkinchi yarmida Amerika ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. 1861 – 1865 yillardagi grajdanlar urushi natijasida Shimol burjuaziyasi quldorlar Janubi ustidan g'alaba qilib, butun mamlakat bo'ylab o'z hukmronligini o'rnatadi. AQSh jadal taraqqiyot yo'liga kiradi. Sanoatning muhim tarmoqlari ildam qadamlar bilan rivojlana boshlaydi. Bular Amerikaning o'ziga xos taraqqiyot yo'li bor, u yerda hamma uchun barobar imkoniyatlar mavjud, shuning uchun Amerika kapitalizmi ziddiyatlarni bilmaydi, degan qarashlar bir illyuziya – quruq xayoldan iborat ekanini ochib tashlaydi.

Mana shunday murakkab sharoitda Amerika adabiyoti rivojlanadi, boshqa adabiyotlar ta'sirida o'sadi.

MARK TVEN (1835 – 1910)

Adabiy taxallusi Mark Tven bo'lgan Semyuel Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, satirik va realist yozuvchidir. Semyuel Klemens Missuriya shtatida joylashgan Florida deb ataluvchi kichik aholi punktida tug'ilgan. Yuristik bilan shug'ullangan otasi Semyuel bolalik vaqtida vafot etgach, u muntazam bilim ololmagan va tirikchilik o'tkazish uchun ishlashga majbur bo'lgan. Klemens bosmaxonaga xizmatga kirib, harf teruvchi hunarini egallaydi va ko'p vaqt ish axtarib, shaharma-shahar kezib yuradi. U yigirma yoshga kirganda qiyin lotsmanlik kasbini egallab, Missisipi daryosida kemada ishlaydi. Mark Tven laqabini olishi ham shu davrga to'g'ri keladi (ikki dengiz o'lchovi – yo'l yaxshi, degan ma'noni bildirar edi).

Shimol bilan Janub o'rtasidagi grajdanlar urushi (1861 – 1865) natijasida Missisipi daryosida kema qatnovi to'xtab qolganidan so'ng, Mark Tven Uzoq G'arbga, Nevadaga borib, oltin izlovchilar orasida yuradi. Lekin uning bu intilishlari natija bermagach, endi jurnalistika bilan shug'ullanadi. Mark Tven bosmaxonada ishlagan kezlaridayoq maqola, ocherk, feletonlar yozgan edi. Bu sohada ma'lum tajribaga ega bo'lishi tufayli u 60-yillar o'rtasida yumoristik hikoyalar ustasi sifatida taniladi.

Yosh yozuvchining xalq hayotiga yaqin turishi unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va bu esa, uning tez orada Amerika gumanist yozuvchisi sifatida tanilishiga yordam qiladi.

Mark Tven hikoya va ocherklarida xalq og`zaki ijodida mavjud bo`lgan yumor, dag`al hazil, kinoya, mubolag`adan ustalik bilan foydalanadi. U xushchaqchaq kulgi orqali oddiy kishilardagi kamchiliklarni bartaraf etishga intiladi. Shu bilan birga, u muttaham, yulg`ich, o`g`ri va munofiqlarni qattiq qoralaydi va odamlarni ular tuzog`iga ilinmaslikka undaydi. Mark Tvenning ilk ijodi «Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa», «Tennesiyada jurnalistika», «Men qishloq xo`jaligi gazetasini qanday tahrir etdim» yumoristik hikoyalarida qiziq voqea, latifa va uydirma voqealar tasvirlanadi, ularda matbuotdagi beburdlik masxara qilinadi.

Mark Tven shu yillardayoq ijtimoiy hajviyaning ajoyib namunasi bo`lgan «Xitoylikning xati», «Gubernatorlikka meni qanday sayladilar» (1870) hikoyalarida Amerika soxta demokratiyasini fosh etgan.

«Tom Soyerning boshidan kechirganlari» (1876) romani Mark Tven ijodida yangi davr boshlanganini ko`rsatadi. Yozuvchi unda o`tmishga, o`zining yoshlik vaqtidagi hayotga, bolalarning «sof, poetik» dunyosiga murojaat etadi. Shunday bo`lsa ham, Tom Soyer haqidagi bu roman o`z zamonasidan qochish degan ma`noni bildirmaydi. Aksincha, bu asar Mark Tven realist mahoratining rivojida ma`lum bir bosqich hisoblanadi. Bolalar hayoti haqidagi bu kitobni yoshlar ham, kattalar ham qiziqib o`qiydilar, chunki unda insonning ichki dunyosi psixologik jihatdan asoslangan holda real bo`yoqlarda beriladi. Roman qahramoni Tom kichik shahardagi meshchanlar ichida yashaydi. Xolasining beto`xtov nasihatlari, maktabda quruq yod oldirishdan iborat eskicha o`qitish usullari zerikarli bo`lganidan u darsga qiziqmaydi, mashg`ulot vaqtida boshqa narsalarni o`ylab o`tiradi. Uning sho`xligi va o`yinqaroqligi o`sha voqelikka o`ziga xos norozilikdir. Tomning uysiz bola Gek Finnga havas bilan qarashi – meshchan urf-odatlaridan xoli erkinlikka intilish alomatidir.

Romanda kulgili lavhalar jiddiy voqealar bilan aralash davom etadi. Tom Gek bilan kechasi qabristonga borib, hindi Jo tomonidan

bir doktorning o'ldirilishi voqeasini ko'radilar, so'ngra ular qotilni topishda tegishli kishilarga ko'maklashadilar.

Tomning qanday qilib yaxshi o'quvchi nomini olishi voqeasi xam qiziq. U bolalardan so'rab olgan bilek asosida javob berib, namunali o'quvchi sifatida taqdirlanadi. Lekin tavrotni sira ham o'qib ko'rmagan Tom unda ko'rsatilgan avliyolarning nomlarini to'g'ri aytolmaydi. U butxona xutbalarini ham, ibodat qilish rasm-rusmlarini ham yoqtirmaydi. Tom juda zerikarli bir ibodat vaqtida qo'ng'izni cherkovga qo'yib yuboradi. Qo'ng'iz kuchukka yopishib oladi, u vangillab u yoq-bu yoqqa chopganida ibodat qiluvchilar hushyor tortadilar.

Yosh Bekkiga isbatan bolalarcha sevgisi kishida ham zavq, ham yengil kulgi tug'diradi. Asar umuman, odamda bolalarining o'ziga xos harakatlariga nisbatan chin muhabbat uyg'otadi va ularning ichki dunyosini to'laroq tushunishga yordam beradi. Bu oddiy bolalar turmushda uchraydigan har xil voqealarga duch keladilar, lekin ular asosiy masalalarda to'g'ri fikr yuritadilar.

«Tom Soyerning boshidan kechirganlari» romanining tarbiyaviy ahamiyati katta. U bolalarni do'stlik, adolat, tashabbuskorlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Asarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda realizm (kichik shaharda istiqomat qiluvchi meshchanlar hayoti tasviri) bilan romantizm (Tom va do'stlarining xayoliy romantik dunyosi)ning mavjud bo'lishidadir.

Mark Tven tarixiy temadagi romanlaridan «Shahzoda va gado»(1882)da garchi o'rta asr feodal davri voqealarini aks ettirsa ham, lekin o'z zamonasidagi illatlarning negizini o'sha uzoq o'tmishda ko'radi va unga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Asardagi voqea XVI asrning birinchi yarmida Angliyada ro'y beradi.

Bir vaqtda bir-biriga o'xshagan ikki bola dunyoga keladi. Ulardan biri saroyda, ikkinchisi qashshoq xonadonda tug'iladi. Bular shahzoda Eduard bilan gadoy Tom Kentilardir. Agar Eduard Tyudor saroyda shoh farzandi sifatida izzat-hurmat va farog'atda yashasa, Tom kambag'al oilada qashshoqlikning butun azob-uqubatlarini boshidan kechiradi.

Bir kuni Tom tomosha qilgani saroy yaqiniga borgan vaqtida shahzoda Eduard uni ichkariga olib kirib ketadi va ular o'ynab yurib, bir-birlarining kiyimlarini kiyib oladilar. Kech kirgach, saroy xizmatchisi gadoy kiyimidagi shahzoda Tyudorni ko'chaga haydab

yuboradi. Shu paytdan boshlab, har ikkala bola taqdirida katta o'zgarish yuz beradi. Saroyda rohatda yashagan va e'zozlangan Eduard xalq orasiga kiradi, mehnat ahlining azob-uqubatlarini o'z boshidan kechirib, turmushga endi ancha to'g'ri qaraydigan bo'ladi.

Yozuvchi gumanizmi kambag'al bola Tom Kent shaxsiyati tasvirida, ayniqsa, ochiq ko'rinadi. Tom Kenti masalaga omma manfaati nuqtai nazaridan qaraydi. U o'zida xalq donoligini mujassamlantirgan kishi obrazidir.

«Shahzoda va gado» asarida o'sha davr Angliya hayoti keskin qarama-qarshilik fonda berilgan. Bir tomondan hamma yoqda sanqib yurgan gadoylar, kulbalarda yashayotgan ochlar ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan hashamatli qasrlarda ziynat ichida dabdabali hayot kechirayotgan boy-badavlat kishilar– saroy ahllarini ko'rish mumkin. Yozuvchining bu romanida yorqin bo'yoqlar, yengil yumor o'rini kinoya va achchiq kulgi egallaydi.

«Geklberri Finning boshidan kechirganlari» (1885) romani bilan Mark Tven ijodida yangi davr boshlanadi. Bu ham bolalar haqidagi birinchi asarining davomidek tuyulsa-da, lekin undan farq qiladigan tomonlari bor. Endi bu romanda bosh qahramon Tom emas, balki ko'chada yuruvchi yetim Gek Finndir. U faqat shaxsiy erkinlikka intiluvchi bola bo'lmay, balki ham aqlan, ham jismonan kamol topib borayotgan o'smir sifatida harakat qiladi. O'sha davrning eng yaxshi romani hisoblangan «Gek Finn»da Mark Tven grajdanlar urushiga qadar 50- yillardagi Amerika hayotini aks ettirsa ham, biroq «Tom Soyer»dagi kabi bolalarning o'yini, kulgisi, xushchaqchaq hayotini emas, aksincha Amerikaning to's-to'polonli keyingi davri bilan bog'lanib ketuvchi voqealarni ko'rsatadi.

Asarning bosh qahramoni Gek erkinlikka intiluvchi yetim bola. U dindor beva ayol Duglas uyida tinch yashayverishi mumkin edi. Biroq Gek biror kimsaga qaram bo'lib qolishni istamaydi, shuning uchun uning uyidan chiqib ketadi va sarson-sargardonlikda kezib yuradi. U bir xildagi osoyishta, zerikarli meshchan hayotini rad etadi. «Men boylikni, diqqinafas yaramas xonalarda yashashni istamayman... Boy bo'lish sira ham ko'ngilli ish emas, boylik bu diqqatvozlik va tashvish demakdir», deydi Gek.

Gek Finn aroqxo'r otasi zulmidan qochib, shahardan chiqib ketayotganda qochoq negr Jimga duch keladi. Uni turli xayollar qurshab oladi. Janubda qulning qochishi qattiq jinoyat hisoblanar edi. O'sha muhit ta'siri ostida Gek negrni ushlab bermoqchi ham bo'ladi.

Lekin yaramas muhit qoidalaridan undagi tabiiy odamiylik ustun chiqadi. Endi u Jimni ochiq himoya qilish yo`liga o`tadi. «Tom Soyer» asarida Gek sof ko`ngilli, faqat o`z erkini qadrlaydigan bola tarzida tasvirlangan bo`lsa, endi bu romanda negr-qulning ozod yashashi uchun qayg`uruvchi jonkuyar inson sifatida ko`zga tashlanadi.

Mark Tven irqchilarning soxta nazariyasini fosh etib, negr Jimni ham halol, mard, o`ylab ish ko`radigan, insoniylikning qadriga yetadigan odamshavanda sifatida tasvirladi. Bunday olijanob fazilatlar Gek bilan Jimni bir-biriga yaqinlashtiradi. Jimning haqiqiy inson ekanligi, o`z hayotini xavf ostida qoldirgani holda yarador Tomni qutqarish epizodida ochiq ko`rinadi.

Asarda provintsial shahardagi miskin hayot to`la aks etgan. Shahar ko`chalari tor va iflos, uylari eski, odamlari esa qo`pol, ochko`z va berahmdirlar. Ularning qiladigan ishlari kuchuklarga azob berish, qochoq negrlarni ushlash va qiynash, jazo berishdan iborat.

Gek va Jim yo`llarida yaxshi odamlardan ko`ra ko`proq yomonlar – qotil, bandit, o`g`ri va tovlamachilarni uchratadilar. Ular adolat axtaradilar, lekin har qadamda yovuzliklar, irqiy kamsitishlarga duch keladilar, faqat suv ustida suzib yuruvchi taxta – sol ustida o`zlarini erkin his etadilar. Biroq bu bexavotirlik ham uzoqqa cho`zilmaydi. O`zlarini «qirol» va «gertsog» avlodidan, deb atovchi ikki tovlamachi paydo bo`ladi. Jinoyat dunyosining bu kishilari 40 dollarga qul qilib Jimni sotib yuborishdan ham qaytmaydilar.

Mark Tven Bicher Stouning «Tom tog`aning kulbasi» romani an`analarini davom ettirib, negrlarning kapital quliga aylantirilishini qattiq qoraladi va ularning teng huquqli bo`lishlari uchun haqiqiy kurashchi sifatida chiqdi.

Mark Tven Gek Finn shaxsiyatida romantik sharoitda harakat qiluvchi qahramonni emas, balki 50-yillardagi Amerika hayoti bilan bog`liq bo`lgan real kishilar obrazini yaratdi. Bular Gek bilan Jimning quldorlik Janubidan «erkin» deb atalgan Shimoliy shtatlarga qochib o`tishlari va u yerlarda ham zulm-dahshat hukmron ekanligini ko`rishlari misolida ko`zga tashlanadi. «Qirol Artur saroyidagi Yanki» tarixiy-fantastik romanining qahramoni oddiy amerikalik Yankidir. U bir musht boshiga tushgan kaltak zarbidan so`ng aqlini yo`qotadi, hushiga kelgach, o`zini VI asrdagi Angliyada ko`radi va

qirol Artur saroyiga boradi. Asarning fantastik pardasi ostida real voqealar aks etadi. Artur qirolligi zulm-dahshat, diniy jaholat avj olgan feodalizm hukmronlik qilgan davr edi. Yozuvchi o'z zamonasidagi qabohatlarni o'tmishdagi yaramasliklar bilan bog'liqligini ko'radi.

Yanki Amerika xalqining yaxshi fazilatlarini gavdalantirgan obraz. U feodal-zodagonlarga ham, ularning tayanchi bo'lgan dinga, shuningdek qonli bosqinchilik urushlari jangchilari – ritsarlarga ham qarshi kurash olib boradi.

Yovuz qirolicha Morgana, sehrgar Merlin, dindor va ritsarlar o'sha zulmat dunyosining jirkanch vakillari bo'lib, Yanki xalqni ezgan o'sha qora kuchlarga qarshi kurashga otlanadi. U gazetalar chiqaradi, fabrikalar qurdiradi, xalq ahvolini yaxshilashga intiladi, yoshlarni ma'rifat va kurash g'oyasi bilan qurollantirib, ular yordami bilan feodal tuzumini yo'q qiladi.

«Qirol Artur saroyidagi Yanki» romani yozuvchining ilgari romanlariga nisbatan oldinga tashlangan bir qadam bo'ldi. Asarning demokratik xarakterini adibing «xalq – hokimiyatning birdan-bir qonuniy egasi» degan so'zlar ham tasdiqlaydi. Yanki Tom Soyer, Geklberri Finn va negr Jimlar qatorida turadigan ijobiy obrazdir.

Mark Tven keyinchalik fransuz xalqining milliy qahramoni Janna d'Ark shaxsiyatiga qiziqadi va «Janna d'Ark» (1896) tarixiy romanini yaratadi.

Janna d'Ark ingliz bosqinchilariga qarshi yuz yillik urush vaqtida o'z jasorati bilan xalqni jangga ruhlantirib turgan Frantsiyaning milliy qahramoni sifatida ma'lum. Bu asarida yozuvchining monarx, diniy reaksiyaga qarshi nafrati ko'zga tashlanib turadi. Roman Jannaning quroldoshining bu mard qiz haqidagi eshlari asosida yozilgan.

XIX– XX asr chegarasi - Mark Tven shunday og'ir sharoitda yozgan falsafiy kitobi «Inson o'zi nima?» (1906) va «Sirli notanish» (1898) qissasi bilan Amerika imperializmining qabohatlarini yana ham qattiq fosh etgan yirik satirik yozuvchi sifatida maydonga chiqadi.

Ijodining shu davriga xos «Gedlibergni buzgan odam» (1899) qissasida boylik, hasadgo'ylikka berilgan hozirgi zamon Amerika jamiyati illatlarini fosh etadi.

Gedliberg yaxshi odamlar yashaydigan, nuqsonlardan xoli joy, deb atalar edi. Lekin yaqindan qaraganda, u o'sha tuzumning barcha

qabohatlarini o`zida mujassamlantirgan shahar. Uning aksar fuqarolarida vijdon va poklikdan asar ko`rinmaydi. Shaharda insofli kishilar uchun yashash imkoniyati yo`q. Bu shaharning ustunlari hisoblangan boylar aslida eng insofsiz, tovlamachi, pul uchun o`z sha`nidan ham voz kechuvchi shaxslar bo`lib chiqadilar. Bu shahardagi turmush butun mamlakat uchun xarakterli. Demak, kichik Gedliberg orqali butun Amerikadagi hayot anglashiladi. Yozuvchi shaharning eng vijdonli kishilaridan hisoblangan va tuhmat qilib ayblangan Berjesni yoqlab, pulga sajda qilgan ruhoniylar Bilson va amaldor Vilsonni qoralaydi.

Mark Tven «Zulmkorlar qo`shma shtatlari» (1901) pamfletida negrlarni ezish kabi sharmandali hol va irqiy kamsitishlarni qoralab, bunga qarshi turishga chaqiradi. Ammo uning nazarida kurashga qobil kuchlar yo`q. Yozuvchidagi zaif tomon jamiyatdagi progressiv kuchlarni ko`ra bilmaslik va ularga tayanmaslikdir.

«Qorong`ilikda yurayotgan kishiga» (1901) pamfletida Amerika imperializmining kolonial siyosati fosh etiladi. Kapitalistik davlatlarning kam rivojlangan mamlakatlar ichki ishlariga aralashuvlarini, madaniyat tarqatish bahonasi bilan tilida xudo-yu, dilida yovuz niyat va makkorlik (aldash, sotib olish, o`ldirish va qo`rqitish) yo`li bilan odamlarni qul qilish siyosatini fosh etadi. Mark Tven mustamlakachilik siyosatining yemirilishi muqarrar ekanini ko`ra bilgan yirik demokrat yozuvchi edi.

Mark Tven «Ulkan xalqaro marosim» pamfletida AQSh, Angliya, Germaniya, Frantsiya imperialistlarining iqtisodiy qoloq o`lka va mamlakatlarni zo`ravonlik bilan bosib olish kabi qabih siyosatlarini ayamay fosh etadi.

Mark Tven o`zining hayotligi vaqtida antiimperialistik ruhda yozilgan ko`p hajviyalarni bostira olmaydi. Uning o`z so`zlari bilan aytganda, Amerika jamiyatida so`z erkinligi yo`q. «So`z erkinligi faqat o`liklarga berilgan huquqdir», deydi.

Mark Tvenning «Avtobiografiya»si uning hayoti va turmushga bo`lgan qarashlarining so`nggi yillariga xos tomonlarini ochuvchi qimmatli hujjatdir. Ular xotiralar, lirik lavhalar, tabiat manzaralari tasviri bilan bir qatorda, Amerika imperializmining yirtqich qiyofasini fosh etgan satiralardan iborat. Bu «taqiqlangan» kitobdan ba`zi bir parchalar e`lon qilingan.

Tven «buyuk respublika» deb atalgan Amerikani «o`zak-o`zagigacha chirigan», buning asosiy sababchisi «imperializm» deb,

o`sha tuzum jamiyatni falokatlariga olib boradi, shuning uchun uni almashtirish kerak, degan ob`ektiv xulosaga keladi. Ta`sirchan kulgi san`atini egallagan va uning beqiyos katta kuchiga ishongan Tven o`zi yashab turgan dahshatli dunyo va uning «zarhallangan asri»da nihoyat avj olgan qalloblik, zo`ravonlik va munofiqliklarni fosh etishi bilan birga, zamondoshlarining diqqatini o`sha qabohatlarga qarshi kurashga qaratadi. Bu esa, demokrat va satirik yozuvchining o`z xalqi va jahon progressiv jamoatchiligi oldidagi katta xizmatini ko`rsatadi.

JEK LONDON (1876 – 1916)

Jek London XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida yashab ijod etgan Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, keng xalq ommasining o`z huquqlari uchun kurashini aks ettirgan mashhur realist yozuvchi. Jek London Kaliforniya shtatining San-Frantsisko shahrida kambag`al fermer oilasida tug`iladi. U bolalik choqlaridayoq hayotning hamma og`ir mashaqqatlarini boshidan kechiradi – o`n yoshidan ko`chalarda gazetalar sotadi. Jek o`smir yoshiga yetgach, konserva fabrikasida 12–14 soatlab ishlaydi. Bunday ish uni, shubhasiz, holdan toydiradi. Jek ustritsa balig`ini yashirincha ovlash bilan ham shug`ullanadi. Matros bo`lib Uzoq Sharqqa qatnaydi, bir necha muddat elektrostantsiyada o`t yoquvchilik qiladi. Ko`p o`tmay ishsiz qolib, mamlakat bo`ylab kezib chiqadi.

Jek Londonning 1895 yilda tashviqot-targ`ibotchilik faoliyati boshlanadi. 1896 yilda yozuvchilikka berilib, u o`z kuchini turli janrlarda sinab ko`radi. Universitetga kirib bir yil o`qiydi, iqtisodiy ahvoli o`qishni tashlab ketishga (1897) majbur etadi. Kir yuvish korxonasiga ishga kirganida og`ir mehnat uning tinkasini quritadi. Shundan so`ng u oltin koni topilgan Alyaskada ishlab, katta hayotiy tajriba orttirib qaytadi. Yosh Jek har qadamda jamiyat tug`dirgan dahshatlar nimadan iborat ekanini ko`radi.

Jek Londonning ijodi shunday og`ir sharoitda boshlanadi. Shu yilda Amerika jurnallarida Shimol hayotidan olib yozilgan «Yo`ldagilar sharafi uchun», «Oq sukunat», «Bo`rivachcha», «Qirq mil narida» va boshqa hikoyalari paydo bo`ladi. «Otlar xudosi»

(1901), «Sovuq bolalari» (1902) hikoyalar to'plami yozuvchiga katta shuhrat keltiradi.

1905– 1910 yillar – Jek London ijodining yuqori cho'qqisi hisoblanadi. U shu davrda «Temir tovon», «Martin Iden» kabi eng yaxshi romanlarini yozadi. U juda ko'p hikoya, qissa, ocherk, pesa va romanlar yaratadi. Hikoyalarining aksariyati Uzoq Shimoldagi mashaqqatli turmushga bag'ishlangan. Mangu sovuq va oq sukunat o'lkalaridagi og'ir hayot romantik qahramonlarni tasvirlashga material bo'lib xizmat etadi. Jamiyat illatlaridan uzoqdagi bu yerlarda haqiqiy insoniylik sinovdan o'tadi, egoistik intilishlar shaxsni qanday fojiali ahvolga olib borishi mumkinligi o'zining real ifodasini topadi. O'sha yerlarda sivilizatsiya va uning yaramas xulq-atvoriga go'zal tabiat va uning keng bag'rida ishlayotgan odamlarning juda qiyin va erkin hayotlari qarshi qo'yiladi.

Shimol haqidagi hikoyalarining personajlari turli toifa kishilaridir. Ular orasida oltin izlovchilar va ovchilar, sayyohlar, avantyurist va boshqalar bop. Shimol muhiti odamlarga ta'sir etmay qolmaydi. Masalan, «Jis-Uk» hikoyasida Bonnar chekka yerga borib qolib, o'sha yerda besh yil yashaydi. Mehnat uni yalqovlik va yengil-elpi harakatlardan qutqaradi va endi u haqiqiy inson bo'lib yetishadi.

«Smok Bellyu» hikoyasining qahramoni ham Shimolga borgach, og'ir mehnat tufayli o'zgarib, jasur kishiga aylanadi.

Meshchan xulq-odatlari, qurumsqollikka mehnat, do'stlik va jasorat qarama-qarshi qo'yiladi. Kishilar erkinlikka intiladilar, o'z insoniy burch va ishlarini qiyin sharoitda sinab ko'radilar va toblanadilar. Ular og'ir ahvolda qolganlarida ham odamiylikni yo'qotmaydilar. Londonning shu tipdagi qahramonlari Mezon, Kid, Charli, Passuk va boshqalardir.

«Oq sukunat» hikoyasida ruhan kuchli, olijanob kishilar Shimolning og'ir sharoiti fonida berilgan. Qarag'ay yiqilib Mezon ustiga tushgan va uni majaqlagan. Qattiq azob ichida qolgan Mezon do'stidan o'zini otib o'ldirishni so'raydi, vafodor xotini indianka Rufi ahvolidan xabar olib turishini iltimos qiladi. Sherigi Malmut Kid uni qutqarib olib ketish ilojini topolmay, Mezonning iltimosini bajaradi. So'ngra Kid hamma yoqni qoplab yotgan oppoq qor bo'shlig'ida yo'lini davom ettiradi. U kuchli bo'ron, suv to'lqinlari, zilzila dahshatlari oldida ham qo'rquvga tushmaydi. O'shanday sharoitni yaxshi biladigan tajribali va mard kishilar oq sukunat hukmronligini ham o'zlariga bo'ysundiruvchi jasur odamlardir.

Yozuvchining «Hayotga muhabbat» hikoyasida ham insonning turmushga boʻlgan zoʻr intilishi koʻrsatilgan. Asar qahramoni uzoq yoʻl bosib, och qolib tinkasi quriydi. Emaklab va sudralib olgʻa qarab harakat qiladi. Uning butun qoʻl-oyoqlari qonab, momataloq boʻlib ketgan. U bilan yonma-yon och boʻri ham bormoqda. Ulardan biri ikkinchisini yeb omon qolishga intiladi. Nihoyat, odam butun kuchi va irodasini toʻplab, yoniga sudralib kelgan va uni yeyishga urinayotgan boʻrining boʻyniga tishlarini botirib, qonini soʻrib jonlanadi. Moʻljall qilgan yeri – Yukon portiga yetib boradi. Shunday qilib, inson sovuqni ham, ochlikni ham, boʻrini ham yengadi. Hayot oʻlimdan ustun chiqadi. Kishining yashashga boʻlgan muhabbati gʻalaba qiladi.

«Ayolning jasorati» hikoyasida negr ayolining matonati, latofati va gʻamxoʻr inson ekani chuqur samimiylilik bilan tilga olinadi. Passukning oʻz eriga sadoqati zoʻr. Ayolning eri Sitki Charli – mard kishi. U Shimolning bepoyon qor tepaliklaridan yurib oʻtib, muhim topshiriqni dengiz qirgʻogʻiga yetkazishi kerak. Shuning uchun Passuk eriga yordam berish tashvishi bilan yashaydi. U oʻzi yeydigan oz miqdordagi oziq-ovqatning bir qismini yigʻib boradi va uzoq yoʻlga chiqqan eriga beradi. Oʻzi esa och qolib vafot etadi.

Shimol romantikasi bilan bir qatorda hayvonlar hayoti tasviri ham Jek London ijodida alohida oʻrin egallaydi. Masalan «Oq tish» (1906) qissasida yozuvchi hayvonlarning harakati va psixologiyasini mohirona koʻrsatgan. Asarda it-boʻri tarixi hikoya qilinadi. Ovchi hindi Seriy Bobr oʻrmonda kichik boʻri bolasini ushlab, kulbasiga olib keladi va unga «Oq tish» deb nom qoʻyadi. U ota qoniga tortib, oʻrmonga – boʻrilar orasiga qochib ketadi. Biroq bunday hol xoʻjayini Seriy Bobrning chaqirigʻi oldida kuchsiz boʻlib chiqadi va qaytadi. U qoʻrqib-pisib ovchi tomon sudralib keladi va uning oyogʻi tagiga yotadi, yaʼni oʻz istagi bilan boʻysunadi. Lekin u jazolanishdan qoʻrqadi. Ovchining qoʻli yuqoriga koʻtariladi-ku, ammo urmaydi, aksincha yeb turgan goʻshtining yarmini unga uzatadi. Oq tish uni ehtiyotkorlik bilan oladi va yeya boshlaydi. Bu vaqtda xoʻjayin uning yoniga boshqa itlarni yaqinlashtirmaydi. Endi Oq tish sovuq va qorongʻi oʻrmon ichida emas, balki ovchilar orasida, issiq gulxan yonida yashayajagini biladi. Shunday qilib, u endi odamga oʻz xohishi bilan tobe boʻlib qoladi.

«Oq tish» qissasida muallifning kuzatishlari sezgir hayvonning idrok qilishi orqali koʻrsatiladi. Oq tish yirtqich hayvonlar

dunyosidan insonlar orasiga tushib qolar ekan, odamlar jamiyatining ham shafqatsizligini biladi. Jamiyatdagi vahshiylarcha munosabat hayvonlar dunyosiga ham olib kiriladi. Bu narsani yangi xo`jayin Smitning Oq tishga nisbatan yovuzlarcha munosabatida ochiq ko`rish mumkin, Smit obrazida zo`ravonlikka asoslangan qo`pol kuch, jamiyat qabohatlarini o`zida mujassamlantirgan shaxs qoralanadi. Injener Skott esa, hayvonlarga azob beruvchi shaxslarni nafratlaydi. Shu jihatdan u yozuvchi qarashlarini ifodalovchi ijobiy qahramon.

Ijtimoiy kurash Jek Londonning sotsial utopik romani «Temir tovon»da o`z ifodasini topgan. «Temir tovon» (1907) romanining bosh qahramoni ishchi oilasidan kelib chiqqan Ernst Evergard. U yoshlik vaqtidanoq fabrikaga ishga kiradi. Mutolaa qilish yo`li bilan bilimini oshiradi va ishchilar o`rtasida tashviqot-targ`ibot kshlarini olib boradi. Evergard mavjud bo`lgan opportunizm reformizm ta`sirini bartaraf etib, fashistik tipdagi burjua davlati – Temir tovoniga qarshi kurashga otlanadi. Lekin burjua hukumati uni qamoqqa tashlaydi. Ernst o`sha yerda turib, ishchilar qo`zg`oloniga rahbarlik qiladi. Biroq Temir tovon agentlari uni yovuzlarcha o`ldiradilar. Rahbar yo`q etilgan bo`lsa ham, lekin kurashni davom ettiradi va uzoq yillardan so`ng Temir tovon hokimiyati – yirik monopoliyalar hukmronligini yemirib tashlaydi.

XX asrning boshlariga oid bo`lgan bu kitobdagi voqea Ernst Evergardning xotini Evis Evergard xotirasi asosida beriladi. Evisning maktublari go`yo bir necha asr o`tganidan so`ng (XXIII asr) topiladi va uni o`sha jamiyat a`zosi, tarixchi olim Antoni Meredit tahlil qiladi, izohlaydi.

Romanning xarakterli xususiyatlaridan biri – uning munozara asosiga qurilganligi. Amerikaliklarning qattiq ezilayotganligini yaqqol misollar bilan isbotlaydi. Asarda Amerika boy, unda hamma uchun barobar imkoniyatlar mavjud mamlakat, degan afsonalar fosh etiladi. Haqiqatda ham AQShda hokimiyat va konstitutsiya monopoliyalar manfaatiga bo`ysundirilganligi, erkinlik yo`q ekanligi, texnika xavfsizligi ta`minlanmaganligi sababli ko`p ishchilar bevaqt mayib bo`lib qolishlari, ularning nafaqa olishdan mahrum etilib, ko`chaga chiqarib tashlanishlari qattiq tanqid qilinadi.

Jek London kapitalning konsentratsiyasi natijasida hokimiyat eng reaksion doiralari qo`liga o`tishini, «temir tovon» hokimiyatini yo`q qilib, tenglik asosiga qurilgan yangi dunyo yaratishga olib

boradi, deb to'g'ri ko'rsatib berdi. «Temir tovon»– imperialistik reaksiya va har qanday zulm dahshatga qarshi kurashni aks ettirgandunyo taraqqiyparvar adabiyotining eng yaxshi asarlaridan biri sifatida qimmatlidir. Jek London «Martin Iden»(1909)da jamiyatdagi og'ir ahvol va fojiali hayotni ko'rsatdi.

Asarning qahramoni xalq farzandi, aqliy va jismoniy kuchli shaxs matros yigit Martin Idendir. U yozuvchi bo'lishga intiladi, og'ir sharoitda qiyinchiliklarni yengib, hikoya va qissalar ijod eta boshlaydi. Lekin uning yozgan asarlari uchun o'sha jamiyat gazeta va jurnallarida o'rin yo'q, chunki uning xalq manfaati aks etgan realistik hikoyalari hukmronlarga yoqmaydi.

Matros Martin badavlat Morzlar saroyida tasodifan bo'lgan vaqtida dastlab shoshib qoladi, ko'p narsalarga ko'zi tushadi. Ayniqsa, Morzning qizi Ruf xonasidagi javonlardan joy olgan qator-qator kitoblarga nazar solganida, bu yerda yuksak madaniyat hukmron ekan, degan xayolga keladi. Ruf ham universitetni bitirgan, san'at va adabiyotdan xabardor, bilimdon qiz bo'lib ko'rinadi. Martin ancha vaqt shunday taassurotlar ichida yashaydi. Haqiqatda Ruf Morzlar xonadoni madaniyatdan uzoq, faqat boylikka sig'inuvchi tipik oilalaridan biri edi. Bankir Morz katta boy, u puli yo'q kambag'allarni nazar-pisand qilmaydi. U Martin Idenga o'xshagan xalq ichidan chiqqan kishilarga zararli fikrlar bilan og'rigan yo'qsil, deb qaraydi. Shu boisdan u Martinning kelajakda qiziga loyiq er bo'lolmasligini o'ylab, Rufni undan uzoq turishga undaydi. Morzning xotini ham ta'magir bir ayol. U ham Martinga qizining nozik didlariga javob berolmaydigan qo'pol, tarbiyasiz, kambag'al yigit, deb qaraydi. U qizining bu «yalangoyoq, muttaham, matros, kovboy, kontrabandachiga... emas», balki kelajagi porloq badavlat kishiga erga tegishi kerakligini o'ylaydi.

Ruf ham dunyoqarashi jihatidan ota-onasidan ortiqcha farq qilmaydi. To'g'ri, bu qiz «begona» odamning g'ayrat-shijoati, qobiliyatini yoqtirsa ham, uning o'ziga xos xarakterini tushunib yetmaydi. Lekin uni o'z muhiti ruhida, o'zi va ota-onasi didiga mos qilib qayta tarbiyalashga, unga burjua-meshchan odatlarini singdirishga intiladi. Qiz bu ishchan, bilimga o'ch yigitning kelajagiga ishonmaydi.

XX ASR BOSH LARI AMERIKA ADABIYATI
TEODOR DRAYZER
(1871 – 1945)

Drayzer ijodi – XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyotida realizmning choʻqqisidir. Drayzer AQSh hayotidagi fojia viylikni koʻrsata olgan yirik sanʼatkor boʻlib, uning ijodi, kuchli oʻzgarishlar ostida ravnaq topadi va u Amerika qitʼasida realizm adabiyotiga asos solgan yirik yozuvchi va jamoat arbobi sifatida tanildi. Teodor Drayzer Indiana shtatidagi kichik bir joyda kambagʻal ishchi oilasida tugʻiladi. Qashshoqlik yoshlikdan boʻlgʻusi yozuvchini mehnat qilishga majbur etadi. U ish axtarib Chikagoga boradi, restoranda idish-tovoq yuvadi, tovar stantsiyasida nazoratchi boʻlib ishlaydi, kir yuvish masterskoyida mexaniklik qiladi. Drayzer 1883 yilda Indiana universitetiga kirib bir yil oʻqiydi. Lekin iqtisodiy ahvoli oʻqishni davom ettirishga imkon bermaydi. Oʻqish vaqtida Lev Tolstoy ijodi bilan tanishadi. Uning asarlari yosh Drayzerga katta taʼsir koʻrsatadi. Bilimga tashna Drayzer oʻsha vaqtda keng tarqalgan Gerbert Spenser falsafasini qiziqib oʻrganadi.

Drayzer 90-yillarning oʻrtalarida Nyu-Yorkda yashab, jurnallarda redaktorlik qiladi, maqola va ocherklar yozadi. Xalq ahvoli bilan yaqindan tanishishi uning kelajakdagi ijodiga material boʻlib xizmat etadi. Uning ijodi 1900 yildan boshlanadi. Birinchi romani «Baxti qaro Kerri» chiqadi. 1911 yildagina uning ikkinchi romani «Jenni Gerxardt» yuzaga keladi. Undan soʻng ketma-ket «Moliyachi», «Titan», «Daho» romanlari yoziladi. Birinchi jahon urushidan soʻng 20-yillar oʻrtasida ikki tomli «Amerika fojiasi» chiqqach, adib yirik tanqidiy realist sifatida butun dunyoga taniladi.

Drayzer ijodining birinchi davrida (1900– 1917) yirik realistik asarlar yozishi bilan bir qatorda reaksion Spenser falsafasiga berilishi unda ziddiyatli fikrlar tugʻilishiga va uni yanglish xulosalar chiqarishga olib boradi. Drayzer ijodining ikkinchi davri (1917– 1945) yirik tanqidiy realist yozuvchi boʻlib yetishadi. «Baxti qaro Kerri» (1900) romanining qahramoni kambagʻal fermer qizi Karolina Keni Miberni oilada erkalatib «jajji Kerri» deb atashadi. Kerri esli-hushli boʻlsa ham, lekin tajribasi yoʻq, yoshlik orzulari bilan yashovchi, koʻrgan narsalaridan tegishli xulosalar chiqarishga zaif edi. Xudbinlik, egoizm uning tabiatiga «monand» boʻlib, bilimga emas, balki u neʼmatlarga intilar edi.

Kerrining chekka qishloqdan Chikagodagi opasinikiga borishi ham shular oqibatidir.

Asarning asosiy g'oyasi Amerikada barcha uchun barobar imkoniyatlar mavjud, degan illyuziyani fosh etishda ko'rinadi. Haftalab u sarson-sargardonlikda ish axtaradi. Poyabzal fabrikasida og'ir sharoitda ishlay boshlaydi, lekin ko'p o'tmay, kasallanib, bir necha kun xizmatga bormagach, korxonadan bo'shatiladi. Bundan keyin ish topish ham mumkin bo'lmaydi. Bechorahol opasinikida yashash imkoniyati ham yo'q, uyiga qaytib ketishni ham ma'qul ko'rmaydi. Halol mehnat bilan yashashga iloj qolmaganidan so'ng u boshqalarning «beg'araz» yordamiga beriladi. Dastlab Kerri savdo firmasining xizmatchisi, olifta yigit Charlz Druzning yaxshi kiyinishi va gaplariga uchadi. So'ngra bu oshiqqa nisbatan bir mayxonaning boshqaruvchisi, puldor va muomalani biladigan oilali kishi Gerstvud ustun bo'lib chiqadi. Kerri Druzni tashlab, Gerstvud bilan Nyu-Yorkka qochib ketadi. Gerstvud asta-sekin bor-yo'g'idan ajralib, ishsiz qoladi, yuztuban ketib, butun kunni sadaqaga beriladigan non ocheredlarida o'tkazadi. Kerri esa, faqat o'zini o'ylab, uni ham tashlab ketadi va teatrga ishga kiradi. Og'ir ahvolda qolgan Gerstvud gazdan zaharlanib o'ladi, Kerri esa o'sha muhitga moslashib oladi. U muhtojlikda o'tkazgan o'tmishini, ish topolmay darbadar kezgan kunlarini eslaydi va shundan so'ng o'zini san'atga uradi. Yozuvchi Kerrining muvaffaqiyatga erishishini tasodifiy bir hol, Amerikada dollarning halokatli ta'siri natijasi deb ko'rsatadi.

Hamma narsa aqchaga bo'ysundirilgan jamiyatda ko'pchilik omma uchun baxtli yashash mumkin emasligi tramvay haydovchilarining kurashi misolida yaxshi ko'rsatilgan. Amerikada son-sanoqsiz fojiali voqealar, «puldor korchalonlardangina bir pog'ona past turgan sinfnig vakili»— mayxona boshqaruvchisi Gerstvudning sinishi ham real aks ettirilgan.

Tramvay ishchilarining ish tashlashlaridan foydalanib, haydovchi bo'lib xizmatga kirgan bu kishining shtreykbrexerlik qilishi zarbaga uchraydi. Demak, o'sha jamiyatda yuqoriga ko'tarilish voqeasi tipik emas, balki o'z ishida sinib, ishsiz qolish, qashshoqlashib o'limga mahkum etilishi xarakterli hodisadir. Kambag'al qiz Kerrini artistlik ishida ahvolini yaxshilab olishi ko'tarilishdek ko'rinsa ham, lekin bunday obro' orttirish axloqiy tubanlik natijasida yuzaga keladi. Kerri haqiqiy mehnat, haqiqiy san'at bilan baxtga erishishni o'ylasa ham, lekin o'sha jamiyatda

halol mehnat orqali baxtga erishish mumkin emasligini o'z tajribasida ko'radi.

«Baxti qaro Kerri» romanining qimmatini xalq ommasining og'ir turmushi, ayniqsa, korxonalarda ishlovchi ayollarning qattiq ekspluatatsiya qilinishlari, mushkul ahvolga tushib qolgan Kerrining yuztuban ketishi evaziga ko'tarilishi, Gerstvud oilasidagi munofiqlik, boy kvartal Brodveygdagi dabdabali hayot, tramvay ishchilarining ish tashlashlari tasviri, ishsizlik natijasida ko'chaga chiqarib tashlangan son-sanoqsiz kambag'allarning och tentirab yurishlarining haqqoniy aks ettirilishida ochiq ko'rinadi.

«Jenni Gexardt» (1911) romanida ham kambag'al oiladan chiqqan qizning jamiyatidagi fojiasi ko'rsatilgan. Asarning g'oyaviy yo'nalishi oddiy qizning xulqiy pokizaligi, uning buzilgan jamiyat axloqiga qarshi qo'yilishida namoyon bo'ladi.

Romanning asosiy syujet yo'li, ishchi qizi Jennining fojiasi, u bilan millionerning o'g'li Lester Keyn o'rtasidagi sevgi tarixida ochiq ko'rinadi. Kambag'al Jenni boy yigit Keyn bilan turmush qurolmaydi. O'sha jamiyat urf-odatlarini, sotsial adolatsizliklar bu yoshlarning tabiiy sevgilariga to'sqinlik qiladi.

Drayzer oddiy qizning odobliligi, vafodorligi, qalbining musaffoligini ko'rsatish orqali xalq kuch-qudratiga ishonchini ifodalaydi.

Jenni o'zining eng yaqin kishilari – ota-onasi, qizi Vesta, nihoyat sevgani Lesterdan ajraladi. Lekin bunday og'ir yo'qotishlar uni umidsizlikka tushirmaydi. U yetim bolalarni asrab oladi va bundan so'ngi hayotini ular tarbiyasiga bag'ishlaydi.

Imtiyozli tabaqalarning yaramas xulq-atvori, kambag'allarning og'ir turmushi tasviri bosh qahramon Jenni Gexardt hayoti bilan bog'liq ravishda jamiyatdagi aqchaning halokatli ta'sirini ko'rsatishga qaratilgan. Yozuvchining «Istak trilogiyasi»ni tashkil etgan romanlari «Moliyachi» (1912), «Tristan» va «Matonatli» (1947)da monopoliyalarning kelib chiqishi va ularning hukmronligi mamlakat iqtisodiy va ma'naviy hayotiga qanday halokatli ta'sir etgani real ko'rsatilgan.

«Moliyachi» romanining qahramoni yosh bola Frank Kaupervud. U akvariumdagi katta qisqichbaqa oldiga kelib qolgan karakatitsa degan mahluqni yutib yuborganini ko'radi. U bundan hayot shunday qurilgan ekan, zo'rlar zaiflar hisobiga yasharkan, degan xulosaga keladi. Frank jamiyatning odamiylikka yot egoistik

qonunlarini tez o`zlashtiradi. U vaziyatga qarab beshafqatlik, beburdlik qiladi, yo`ldagi har qanday to`siqlarni bartaraf etadi. Zaruriyat tug`ilsa muloyim, shirinso`z ham bo`ladi. U ishni savdo-sotiqdan boshlab, boylik to`playdi, katta amaldorlarni qo`lga oladi. U o`zining moliya operatsiyasida shaxsiy sarmoyasini emas, balki shahar idorasi mablag`ini qonunga xilof ravishda ishlatib, katta foyda orttiradi va birjachi-moliyachiga aylanadi.

Voqea grajdanlar urushi va undan keyingi yillarda bo`lib o`tadi. Shimolning puldor korchalonlari urushda ko`proq foyda olishga intiladilar.

Drayzer «Moliyachi»da o`z davri mamlakat iqtisodiy ahvolini katta realistik kuch bilan tasvirlab, boylik uchun kurashlarda ishlatilayotgan siyosiy nayranglar va yovuzliklarni ochiq ko`rsatadi. Shahardagi hokimiyat bir to`da kishilar – ko`mir sanoati korchaloni Mollenxauer, kommunal xo`jalik ishlarini boshqaruvchisi Batler va yirik moliyachi Simpsonlar qo`lidadir. Ular shahar hokimi, sud va boshqa idoralarni o`zlariga qaratib olib, xohlagan ishlarini qiladilar. Kaupervud Filadelfiyaning bu uch hukmroni bilan kurash olib borib, shahar transporti (konka)ni o`z nazorati ostiga olmoqqa intiladi. Lekin Chikagodagi yong`in va uning oqibatida kelib chiqqan moliyaviy vahimalar uni sindiradi. Kaupervudning kuchli raqiblari – Mollenxauer guruhi uning yashirincha olgan qarzlarini to`lay olmasligini bilib, Kaupervudni sudga beradilar va qamatadilar. Lekin u qamoqda ham tinch yotmaydi. O`z kishilari orqali birjadagi yumushini to`xtatmaydi. Qamoqdan chiqqan Kaupervud qalloblik ishlarini davom ettiradi. U yirik moliyachi Jey Kukning kasod bo`lishi bilan bog`liq birjada tug`ilgan yangi vahima natijasida o`zini o`nglab oladi va bu yerdan ketadi.

Trilogiyaning ikkinchi romani «Titan»da Kaupervud birjachi dallol emas, balki u endi har tomondan rasmiy tus olgan kapitalist sifatida ko`rinadi. U birja spekulyatsiyasi bilan shug`ullangani holda shahar transportini qo`lga kiritgan boy millionerdir.

Chikagoga kelgan Kaupervud shahardagi hayot Filadelfiyadagi «triumvirat»ga qaraganda ham kuchliroq yirtqichlar to`dasi Shrayxart, Edisson va Merillar qo`lida ekanini biladi. U moliya va jinoyat dunyosi bilan bog`langan saylov sistemasini qo`lga olgan burjua siyosatdonlari (Mak-Kenti) bilan aloqa bog`lab, Shrayxart shaykasi kuchini zaiflashtirib, so`ngra ular bilan kurashda yengib chiqadi va Chikagoning transport magnati bo`lib oladi. Lekin

Kaupervud o'z yo'lida kuchli dushman qarshiligiga duch keladi. Shrayxartlar bandasi moliya ishidagi o'z raqobatchisi Kaupervud va uning sheriklari bilan birlashib ketadilar. Kaupervud Chikago munitsipalitetini sotib olib, o'zi yakka hukmron bo'lishga intiladi. Lekin xalq ommasi uning g'olibona yurishiga to'sqinlik qiladi. Shahar temir yo'lining butunlay uning qo'lga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Drayzer Kaupervudning yovuzligini qoralagani holda uning boylik, hukmronlikka intilishi, bu yo'lida uchragan hamma to'siqlarni shafqatsizlik bilan bartaraf etishi va yemirib tashlashini ham ko'rsatadi. U o'z nafsini qondirishni istaydi. Shuning uchun asar «Istak trilogiyasi» deb ataladi. Drayzer Kaupervudning ichki dunyosi qashshoq ekanini ta'kidlaydi. Lekin uning chaqqon, g'ayratli, kuchli, aql-idrokli ekaniga qoyil qoladi. Bu esa uning qarashlaridagi ziddiyatlardan, ijtimoiy voqelikni biologik qonunlar asosida talqin qilishidan kelib chiqadi. Yozuvchi katta shahar Chikagoni, shuningdek, kuch-g'ayratga to'lgan bahaybat Kaupervudning o'zini ham qudratli «Titan», deb ataydi.

Trilogiyadagi «Moliyachi» va «Titan» romanlari Drayzer realistik ijodining yangi bosqichi aks etgan asarlardir. Ulardagi Kaupervud obrazi yozuvchining ulkan muvaffaqiyatidir.

«Daho» (1915) romanida yozuvchi jamiyatda haqiqiy san'atkor talantining barbod bo'lishini ko'rsatadi.

Asar qahramoni katta iste'dodga ega rassom Yudjin Vitladir. U o'z ijodida mehnatkash ommaning og'ir ahvolini, ko'zga tashlanib turadigan dahshatli voqealarni real aks ettirishga intiladi. Bu haqiqiy san'at ko'pchilikka yoqadi. Biroq ularni sotib olish uchun imkoniyat yo'q. Bunday surat puldorlar didiga yoqmaydi, shuning uchun ular olmaydilar. Yashash imkoniyatlaridan mahrum etilgan rassom o'z san'atini tashlab, savdo sohasidagilarga katta manfaat keltiruvchi reklama firmasiga o'tadi. Undan so'ng bir nashriyotning direktori sifatida boyib, puldor-korchalonlarga foyda keltiradigan ish qilishi bilan o'z talanti va san'atini barbod etadi. O'sha muhit uni buzadi. Yudjin butunlay o'zgarib, ijod etolmay qoladi. Shunday qilib, uning dahosi yemiriladi.

Drayzer qahramon talantining yemirilishini biologik omillar oqibati, deb qarasa ham, lekin asardan Amerika haqiqiy realistik san'atning yovuz dushmani, degan aniq g'oyaviy mazmun kelib chiqadi. Shu sababli reaksiyon doiralar «Daho» romanini taqiqlashga

erishadilar. Biroq Drayzer bu safar o'z dushmanlari bilan mardonavor kurash olib boradi va 1923 yilda asarini qayta nashr qildirishga muvaffaq bo'ladi.

Drayzerning «Amerika fojiasi» (1925) asari birinchi jahon urushidan so'ng yozilgan monumental ikki tomli romandir.

Asarning bosh personaji burjua-meshchan oilasidan chiqqan bola – Klayd Grifitsdir. U o'sha muhit ta'sirida o'sadi. Klayd yuzsizlik, boyish yo'lida har qanday vositalardan foydalanish kabi yaramas illatlarni o'zlashtira boradi. U o'z maqsadlariga erishish yo'lida dastlabki qadam, deb mahalliy mehmonxonani hisoblaydi va u yerda o'z mijozlaridan xayr-sadaqalarga ko'z tikuvchi, manfaat yuzasidan ish tutuvchi egoistga aylanadi. Tartibsiz turmush kechirish maishat va ichkilikka olib boradi. U tushgan mashina bir qizni bosib ketadi. Qamalish xavfi tug'ilgach, Klayd bu yerni tashlab, boy amakisi yashaydigan shaharga boradi va uning fabrikasida ishga joylashadi. O'sha yerda qishloqdan kelib xizmat qilayotgan kambag'al qiz Roberta Olden bilan tanishadi va unga uylanmoqchi bo'ladi. Lekin ahvolini tuzatish maqsadida u boy qiz Sondra Finchlini olishga intiladi. Lekin bo'yida bo'lgani aniqlangach, Roberta Klayddan o'zini nikohlab olishni talab qiladi. Bu narsa uning uchun ko'ngilsiz voqea, ya'ni maqsadlariga erishish yo'lida katta to'siq edi. Shuning uchun Klayd Robertani ko'lda sayr qildirib yurib, suvga cho'ktirib o'ldiradi. Bu fojiali voqeaning siri ochiladi va Klayd sud qilinib, elektr kursida jazolanadi.

Romanda Klayd Grifitsda tug'ilgan egoizm Amerika jamiyati va uning zo'ravonlikka asoslangan vahshiy qonun-qoidalarining oqibati ekani ko'rsatiladi. Undagi individualistik hirs Roberta Olden, shuningdek, Sondra Finchliga bo'lgan munosabatda ham ko'zga tashlanib turadi. Sondra yosh va chiroyli qiz, lekin Klaydni uning go'zalligi emas, balki boyligi qiziqtiradi.

Klayd obrazi Drayzer ilgari yaratgan Kerri, Kaupervud va Vitla obrazlariga o'xshamaydi. Ular kabi favqulodda kuchga ega bo'lgan qudratli shaxslardan ham emas, balki oddiy amerikalikdir. Voqealar tasvirida ham o'zgarish bor. Ilgarigi asarlarida sotsial motivlar bilan birga, biologik omillar ma'lum darajada o'rin egallagan edi. Bu romanida esa, sotsial voqealarning mohiyati to'g'ri talqin etiladi va ular real ko'rsatiladi.

Klayd millionlab amerikaliklarning tipik vakili. U Amerika jamiyati qabohatlari qurboni bo'lgan son-sanoqsiz yoshlarning

biridir. Yozuvchi Klayd obrazi orqali individualizmning yemirilishini ham ko'rsatdi. Amerika hamma uchun barobar imkoniyatlar mavjud mamlakat, degan safosatani fosh etdi. Haqiqatda kun kechirish qiyinlashib ketmoqda, qayg'uli hayot Amerika yoshlarini baxtsizlik, fojiali o'limga duchor qilmoqda edi.

Klayd voqeasi siyosatdonlar uchun bir o'yin hisoblanadi. Ular bo'ladigan saylov arafasida o'z obro'larini ko'tarib qolishga intiladilar. Gunohi aniqlanmasdan turib, Klaydning taqdiri hal etiladi. Prokuror Mezon ham ayblov nutqini oldindan tayyorlab qo'yadi. Boshqalar ham uni qutqarish yoki aybini yumshatishga intilmaydilar. Klaydning boy qarindoshlari uni o'limdan olib qolishlari mumkin edi. Lekin ular bu janjalli ishga aralashishdan, obro'lariga putur yetib, shaxsiy ishlariga zarar kelishidan qo'rqadilar va o'zlarini chetga oladilar. Oqibatda sud uni o'lim jazosiga hukm qiladi.

Sud jarayonida boy oiladan chiqqan qiz Sondra Finchlining nomi tilga ham olinmaydi, vaholanki Klayd unga uylanaman deb, shunday jinoyat qilishga borgan edi. Ruhoniy Mak-Millan dahshatli voqea yuz bergan sharoit haqida hech narsa demaydi, uni qutqarishga intilmay, butun aybni Klaydning yakka o'ziga qo'yadi. Haqiqatda esa Klayd jamiyat illatlari, urf-odatlar qurboni bo'ladi.

«Amerika fojiasi» voqelikni keng qamrab olishi, ko'tarilgan g'oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon progressiv adabiyotining eng yaxshi realistik asarlari qatoridan joy oldi.

Adib «Amerikani qutqarish kerak» (1941) publitsistik kitobida mamlakatni halokat yoqasiga olib borgan sistemaning yemirilishi muqarrar ekani va faqat faol kurash bilan Amerikani og'ir ahvoldan chiqarish mumkinligi haqida gapiradi.

«Tayanch» romanida bankir Solon Barns obrazi beriladi. Uning dunyo va odamlar haqidagi qarashlari o'zgacha. U bankir ham vijdonli odam bo'lishi, ham xudoga ishongani holda ta'magirlik qilishi mumkin, degan fikrda turadi va shunday qarashlarga tayanadi. O'zi ham mavjud tuzumning tayanchiga aylanadi. Bankdagi sheriklari nopok odamlar ekanini biladi, o'zining ham ulardan farq qilmasligini aytadi.

«Istak trilogiyasi»ning uchinchi kitobi «Matonatli» (1947 yilda nashr qilingan)da Kaupervud faoliyatining uchinchi davri tasvirlanadi. U endi kitobxon ko'zi o'ngida Amerika kapitalini

Angliyaga olib kiruvchi, AQSh imperializmining jahon miqyosidagi avantyurasini mujassamlantirgan shaxs sifatida gavdalanadi.

Londonga kelgan Kaupervud metropolitenning bir qancha yo'llarini qo'lga kiritadi. Kuchli raqobatchilarni yengib, katta boylik orttiradi va shu tufayli ma'naviy jihatdan yuz tuban ketadi. U cheklanmagan hukmronlikka intiladi, xotiniga xiyonat qilib, ma'shuqalar orttiradi. Zo'rlik va nayrang ishlatib erishgan mol-mulk unga sira ham baxt keltirmaydi. Tarixda o'tgan ulug' kishilarga o'xshab Kaupervud o'z nomini abadiylashtirish maqsadida suratlar galereyasi joylashgan qasrini Nyu-Yorkka meros qilib beradi. Lekin u vafot etgach, rasmlar galereyasi mulkdorlar ixtiyoriga o'tib ketadi, noto'g'ri yo'llar bilan topilgan boyliklar esa, har xil egri yo'llar bilan tez yo'q bo'lib ketadi.

«Istak trilogiyasi» Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning eng yaxshi namunasidir. Kaupervud Balzak yaratgan pulga o'ch, yuzsiz, oltin asosiga qurilgan kapital dunyosining bosqinchilikdan iborat xarakterini aks ettirgan tipik obrazlarni eslatadi.

Mashaqqatli hayot va ijod yo'lini bosib o'tgan Drayzer Amerika adabiyotida realizm metodini boshlab bergan yirik adib va siyosiy arbobdir.

ERNEST XEMINGUEY (1899 – 1961)

Yirik Amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey Ouk-Park shaharida vrach oilasida tug'iladi. U maktabni bitirganidan so'ng, kichik bir gazetada ishlaydi, Yevropaga boradi: avval Frantsiyada, keyin Italiyada joylashgan Amerika sanitar qismlarida turib, birinchi jahon urushida qatnashadi. Urushdan so'ng u Amerika gazetalarining muxbiri sifatida Parijda yashab ijod etadi. 20-yillarning oxirlarida o'z mamlakatiga qaytib, Florida sohillarida istiqomat qiladi.

Xeminguey Ispaniya respublikachilarining fashist fitnachilariga qarshi olib borgan kurashlarida faol qatnashgan va bu haqda ko'p asarlar yozgan, ikkinchi jahon urushi yillarida aviatsiya qismlarida muxbir bo'lib ishlagan. Ittifoqchilar armiyasining Frantsiyaga bostirib kirishida ishtirok etgan. Urushdan so'ng Amerikaga qaytgan va hayotining oxirgi yillarini Kubada kechirdi. Xeminguey ijodining boshlanishi birinchi jahon urushidan keyingi yillarga to'g'ri keladi. «Bizning zamonda»(1925) kitobiga kirgan

hikoyalarda yozuvchi, birinchidan, asarning lirik qahramoni Nik Adamsning yoshligi, o'smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan, tinch hayot haqidagi xayollarga qonli urush voqealarini qarama-qarshi qo'yadi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda qahramonning razil urushga qarshi noroziligi bayon etiladi.

Imperializm keltirib chiqargan bosqinchilik urushlarini nafratlashga bag'ishlangan «Alvido, qurol!» (1929) romani yozuvchi ijodida muhim bosqichni tashkil etadi.

Asarda birinchi jahon urushi yillarida Avstriya-Italiya frontida ro'y bergan voqealar hikoya qilinadi. Sanitar xizmati leytenant amerikalik Genri urushning butun dahshatlari – ochlik, ifloslik, o'zaro qon to'kish va son-sanoqsiz begunoh kishilarning o'lib ketayotganliklarini ko'rib, urush haqidagi fikrlarining puch xayollardan iborat ekanini biladi va umidsizlikka beriladi. Italian soldat va ofitserlari bilan samimiy suhbat va aloqalar uni milliy xudbinlik va mag'rurlikdan xoli qiladi. Shuning uchun leytenant Genri urushdan yuz o'girib, qurolini tashlab, betaraf mamlakat Shveysariyaga o'tib ketadi. Yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo'yadi. Genri Ketrin Barkliga bo'lgan sevgisi bilan urush dahshatlaridan ham, tashqi dunyo mashaqqatlaridan ham qutulishga intiladi. Lekin u shaxsiy hayot va muhabbatdan ham baxt topolmaydi. Ketrin tug'ruqxonada o'lganidan so'ng Genri butunlay umidsizlik ichida qoladi.

«Alvido, qurol!» romanida birinchi jahon urushi qoralangan bo'lsa-da, lekin unda bayon etilgan norozilik shaxsiy yo'sindadir.

«Bu kitobning muallifi,– deb yozadi Xeminguey asar so'z boshisida,– ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar, iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir... Men urush olovini yoqqanlar... otib tashlanmog'i zarur, deb hisoblayman».

Xemingueyning 30-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan asarlarida u tashqi dunyoga munosabatida ziddiyatli va individualist ijodkorligicha qoladi. O'sha yillari ocherk shaklida yozgan «Tushdan keyingi o'lim» (1932) kitobida o'lim temasi yana ham ochiq

ko`rinadi. Asarda buqalar urushi va unga bog`liq qoidalar batafsil beriladi. Buqalarni o`ldiruvchi matadorlar yoki matadorlarni halok etuvchi buqalar, otlarning yorilib ketgan qornidan otilib chiqayotgan qonlar, fojia ustiga fojia va ayniqsa, jarohatlangan odamning o`limi oldidan kechirgan azoblari umidsizlik ruhida tasvirlanadi.

«Afrikaning yashil tepaliklari»da (1935) ham yuqoridagi kitobiga xos bo`lgan o`lim masalasi ko`rsatiladi. Agar «Tushdan keyingi o`lim» matador bilan buqa o`rtasidagi olishuvda ikkalasidan birining halok etilishi bilan tugasa, bunda ovchi haqida gapiriladi va albatta, voqea ovchining g`alabasi va hayvonning o`limi bilan yakunlanadi.

Yolg`izlik, umidsizlik yozuvchining boshqa hikoyalarida ham aks etadi. Masalan, «Toza va yorug` joyda» (1936) kitobi qahramoni kecha qorong`iligidan vahimaga tushadi, uning uchun yagona makon toza va yorug` mayxona bo`lib qoladi.

30-yillarning o`rtalarida Xeminguey sotsial voqealarga murojaat etadi. Shu davrga xos romani «Hayot yoki mamot» (1937) qahramoni Garri Morgan o`z oilasini boqish yo`lida tinmay ishlaydi, kuchayib borayotgan iqtisodiy inqiroz uning xo`jaligiga ham ta`sir etadi. Uning motorli qayig`ini ijaraga oluvchi boy turistlarning kamayishi tufayli daromadiga putur yetadi. Endi Garri o`ziga boshqa ish, xavfli kasbni tanlashga majbur. «Qonunlarni kim o`ylab chiqarishini bilmayman. Lekin men odam och qolsin, degan qonunning yo`qligini bilaman», deydi u. Garri yashashga bo`lgan tabiiy ehtiyojini qondirish maqsadida jamiyatning vahshiylikka asoslangan qonunlariga tayanib o`zini ham ayamaydi, boshqalarga ham shafqat qilmaydi, hatto odam o`ldirishgacha borib yetadi. U faqat o`zining shaxsiy kuchiga ishonadi. Kuba anarxistlari bilan to`qnash kelgan va qattiq jarohatlangan Garri Morgan o`limi oldidan yolg`iz odam hech narsa qila olmaydi, degan fikrga keladi. Qahramonning fojiali halokati yozuvchidagi individualistik qarashlarning samarasizligini ko`rsatadi.

Ilgari jamiyat hayotidan chetda turgan va faqat o`z kuchiga ishongan Xeminguey endi ijtimoiy voqelikka qiziqib qaraydi. Ispaniyadagi hodisalar, respublikachilarning fashistlar to`dasiga qarshi kurashlari uning diqqat markazida turadi. Yozuvchi respublikachilarni qo`llaydi, ularga moddiy yordam beradi, tez-tez frontga boradi. Bu voqealar endi uning ijodi uchun material bo`lib xizmat qiladi. «Beshinchi kolonna» pesasi bunga misol bo`ladi. Asar

qahramoni amerikalik Filipp Raulings qalban xasta, bo'shashgan shaxslardan emas. U og'ir ahvolda beshinchi kolonna agentlari bilan kurash olib boradi, josus va qo'poruvchi shaxslarni qo'lga tushiradi. Bu jasur kishi o'zidagi individualizmni butunlay bartaraf etgan emas. Filipp Raulings yosh, boy va go'zal amerikalik ayol Dorotini ko'rgach, o'zgaradi. Bu ayol uni o'zi bilan birga bu yerdan ketishga taklif qiladi. Jiddiy ishdan toliqqan Raulings bunday fikrga qo'shiladi ham. So'ngra u o'zida tug'ilgan bunday egoistik his-tuyg'ularni bartaraf etadi va Dorotidan aloqani uzib, Ispaniyada qoladi. Maks uning ko'pchilik uchun xizmat qilishi zarurligini eslatib, Raulingsni tetiklashtiradi. Shunday qilib, u o'zining shaxsiy intilishlarini jamiyat manfaatiga bo'ysundirgan, fashizm yirtqichlariga qarshi kurashuvchi haqiqiy ijobiy qahramon bo'lib yetishadi.

Raulings Maks bilan fashistlarning kuzatuv punktiga dadillik bilan hujum uyushtirib, frankochi polkovnikni asir oladilar va fashistlarning yangi hujumini barbod etadilar. Bu asarida Xeminguey murakkab va chalkash ziddiyatli yo'lni bosib o'tadi va ijobiy qahramon yaratishda katta yutuqqa erishadi.

Xeminguey Amerika adiblarining II kongressida «Yozuvchi va urush» (1937) mavzuida so'zlagan nutqida fashizmni qonli jinoyatchilar to'dasi, deb qattiq qoraladi. U ispan respublikachilarining mag'lubiyatidan aziyat chekdi. Fashistlarning zo'ravonlik qilib davlatni bosib olganlaridan so'ng, yana unda yakka-yolg'izlik qobig'iga o'ralib, umidsizlikka berilish sodir bo'ldi. Bu hol «Qo'ng'iroq nimadan darak beradi» (1940) romanida ko'rinadi. Asar qahramoni Robert Jordan demokratiya uchun kurashib, hayotni emas, o'limni o'ylaydi, g'alabaga emas, balki o'limga tayyorlanadi. Bu esa, shu davrda yozuvchi ongida tug'ilgan g'oyaviy parokandalikning ko'rinishi edi.

«Daryoning narigi tomonidagi daraxtlar soyasida» (1950) asarida ijtimoiy hayotdan chetda turuvchi yakka qahramon paydo bo'ladi. Bu ikki urushda qatnashgan amerikalik polkovnik Richard Kentuellidir.

Qissada Amerika harbiy qo'mondonligi, shuningdek Amerika ma'murlarining Rossiyaga nisbatan tutayotgan nodo'stona siyosatini qoralovchi tanqidiy fikrlar bor. Asar qahramoniga xos narsa shuki, u hamma vaqt o'lim xayoli bilan yashaydi. Bu esa, povestning g'amgin ruhini ko'rsatadi.

Xeminguey so'nggi «Chol va

dengiz» (1952) qissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Asar qahramoni chol Santyago baliq oviga chiqqaniga ancha kunlar bo`lsa ham, lekin ishi yurishmaydi. Uningcha, yelkaniga «ko`p yamoq tushgan» qayiqqa qanday qilib ham baliq ilinsin. Santyago keksa bo`lsa ham, lekin o`zi tetik. Shuning uchun yozuvchi bu odam «taslim bo`lmaydi», deb uqtiradi. Chol to`riga katta baliq tushganda cheksiz sevinadi. «Baliq,— deb chaqirdi u sekingina,— o`lsam o`lamanki, sendan ajralmayman». Chol butun kuch-g`ayratini ishga solib, baliq bilan olishadi va yengadi. Uning: «Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni bo`ysundirish mumkin emas», degan so`zlari inson qudratiga yozuvchining cheksiz ishonchini ko`rsatadi.

Baliqqa bir gala akula hujum qilganida ham Santyago bo`shashmasdan kurashini davom ettiradi. Bir akulani o`ldirganida, ikkinchisi o`ljaga tashlanadi, shu tariqa olishuv ancha davom etadi. Uning pichog`i sinib, qo`llari qonga belansa-da, to`qmoq bilan akulalarning boshiga urishda davom etadi. Santyago qirg`oqqa yetib borganida katta baliqning faqat gavda suyagigina qolgan edi. «Kim ham seni yenga qoldi o`zi, chol,— so`radi o`zidan-o`zi,— hech kim,— javob berdi u.— Aybim shuki, men dengizda haddan tashqari uzoqqa ketib qolibman».

Santyago uchun umidsizlik gunohdir. U kitobxon ko`zi o`ngida mag`lubiyatni bilmaydigan, irodali inson timsolida namoyon bo`ladi. Santyago shu jihatdan yozuvchining oldingi asarlari qahramonlaridan farq qiladi. Uni qirg`oqda kutib olgan bola navbatdagi baliq ovida chol bilan birga borishni va undan ko`p narsa o`rganishi zarurligini aytadiki, bu — Santyagoning yolg`iz emasligiga ishoradir.

Ernest Xeminguey bosib o`tgan murakkab va ziddiyatli yo`l ko`p chet el yozuvchilari uchun xarakterlidir. Ular pulga asoslangan jamiyat qonun-qoidalarini tanqid qilish yo`lidan boradilar. Xeminguey ham G`arbning yirik gumanist yozuvchilari qatorida jamiyatning xususiyatini tobora kengroq tushunish bilan uning illatlarini o`z ijodida aks ettirgan yirik realistlardan biridir.

Жаҳон адабиёти тарихи
1-вариант

1. Юнон ёзма адабиётининг бизга қадар етиб келган энг қадимги ёзма намуналари...

- a) «Шох Эдип» трагедиясидир;
- b) «Занжирбанд Прометей» трагедиясидир;
- c) «Медея» трагедиясидир;
- *d) «Илиада» ва «Одиссея» эпосларидир.

2. Қадимги юнонлар ва ҳозирги илм аҳли кимни трагедиянинг отаси сифатида улуғлайдилар?

- *a) Эсхилни;
- b) Софоклни;
- c) Еврипидни;
- d) Феспидни.

3. Қуйидаги трагедиялардан қайси бири Софокл қаламига мансуб эмас,

- a) «Шох Эдип»;
- b) «Антигона»;
- *c) «Занжирбанд Прометей»;
- d) «Аякс».

**4. Таъқиқли чиройга қараб ўрганган,
Меҳрли чехрани таний олмаган –
Кўзларнинг кўришга ҳаққи йўқ асло,
Қилган ёвузлим, чеккан дардимни
Кўриши керакмас менинг кўзларим.
Ушбу мисралар қайси асардан олинган**

- *a) «Шох Эдип»;
- b) «Занжирбанд Прометей»;
- c) «Медея»;
- d) «Илиада».

5. «Медея» қаҳрамонлари келтирилган қаторни топинг.

- a) Гермес, Ио, Креонт, Ясон;
- *b) Ясон, Медея, Креонт, Эгей;
- c) Ясон, Медея, Прометей, Ио;
- d) Ясон, Медея, Океан.

6. Ҳомернинг “Илиада” ва “Одиссея” дostonларини ўзбек тилига ким таржима қилган?

- a) И.Ғафуров;
- b) А.Орипов;
- c) Э.Воҳидов;
- *d) Қ.Мирмуҳамедов.

7. Август замонасининг элегиянавис шоири Публий Овидий Назон асарлари берилган тўғри жавобни белгиланг.

- a) «Одиссея», «Қасидалар», «Буколикалар»;
- b) «Шох Эдип», «Эподлар», «Севги санъти»;
- *c) «Метаморфозалар», «Севги санъати», «Мактублар»;
- d) «Эподлар», «Қасидалар», «Номалар».

8. Маълумки, Троя уруши нихоясига етгач Итака шоҳи Одиссей юртига боролмай ун йил давомида сарсон-саргардон денгизда кезиб, бир қанча саргузаштларни бошидан кечирази. Троянинг яна бир паҳлавони ҳам Римни тиклаш учун йул олади ва Одиссейга ўхшаб бир нечи йил денгизда сарсон-саргардон кезиб, бир неча воқеалар гувоҳи бўлади. Ушбу афсонавий қаҳрамон ким?

- a) Ахилл;
- b) Гектор;
- c) Ромул;
- *d) Эней.

9. “Гуманизм” сўзининг маъносини топинг.

- a) меҳрибонлик;
- b) олийжаноблик;
- *c) инсонпарварлик
- d) саҳоватлилик

10. Немис маърифатчилик адабиёти намояндалари берилган қаторни топинг.

- a) Сервантес, Бальзак, Дени Дидро;
- b) Фридрих Шиллер, Даниэль Дефо, Жонатан Свифт;
- *c) Эфраим Лессинг, Фридрих Шиллер, Гёте;
- d) Байрон, Бомарше, Даниэль Дефо.

11. «У 1564 йил 23 апрелда Англиянинг унча катта бўлмаган Страдфорд шаҳрида дунёга келади. Унинг отаси шу шаҳарнинг йирик савдогарларидан ва айти замонда, кўзга кўринган сиёсий арбобларидан эди. Бир қанча вақт шу шаҳарнинг бошлиғи бўлиб ишлаган ҳам».

Гап қайси гениал санъаткор ҳақида кетмоқда?

- a) Данте Алигъери;
- b) Иоганн Гёте;
- *c) Вильям Шекспир;
- d) Мигель Сервантес.

12. «У ғоят баланд истеъдодли, ҳар томонлама билимдон, жуда олижаноб, ҳақгўй ва ҳақиқатпараст, ажойиб шахсдир. Одамларга адолатли ва инсофли муносабатда бўлиш руҳида ўсган баҳодир лашкарбошидир. У шу қадар юксак одобли ва ҳақиқий одамки, унингча, инсон деган буюк ва муқаддас зот ёлғон гапириши мумкин эмас».

Юқоридаги фикрлар Шекспирнинг қайси қаҳрамони ҳақида кетяпти?

- a) Лар;
- *b) Отелло;
- c) Ромео;
- d) Макбет.

**13. Ва лекин бу душман оилалардан
Туғилган фарзандлар севишиб қолди.
Бу икки бахтсизнинг ўлими билан
Адоват ўзи ҳам гўрда йўқолди.**

Юқоридаги фикрлар В. Шекспирнинг қайси асари кириш қисмида келтирилган?

- a) «Отелло»;
- b) «Қирол Лир»;
- c) «Ҳамлет»;
- *d) «Ромео ва Жульетта».

14. «Қирол Лир» трагедияси қаҳрамонлари тўғри келтирилган қаторни топинг.

- a) Яго, Родриго, Балтазар, Ромео;
- *b) Корделия, Эдмунд, граф Кент, Регана;
- c) Лир, Яго, Отелло, Дездемона;
- d) Лир, Балтазар, Корделия, Родриго.

15. «Гулливёрнинг саёхатлари», «Китоблар жанги», «Бочка ҳақида эртақ» асарларининг муаллифи берилган қаторни топинг.

- a) Даниэль Дефо;
- b) Роберт Берне;
- c) Шекспир;
- *d) Жонатан Свифт.

**16. Бизнинг Веронада икки хонадон
Аслу насаблари эрур баробар,
Улар низоларга киришиб ҳар он –
Шу шаҳар аҳлига етказди зарар.
Парча қайси асар прологидан олинган?**

- *a) «Ромео ва Жульетта»;
- b) «Макбет»;
- c) «Гамлет»;
- d) «Қирол Лир».

17. Кассио, Родриго, Эмилия ва Брабанциялар қайси асар қаҳрамонлари?

- a) «Ромео ва Жульетта»;
- b) «Макбет»;
- c) «Ҳамлет»;
- *d) «Отелло».

18. Ги де Мопассаннинг асарлари берилган қаторни топинг.

- *a) «Ҳаёт», «Азизим», «Дўндик»;

- b) «Горио ота», «Хаёт», «Икки ошна»;
 - c) «Асрлар», «Гобсек», «Азизим»;
 - d) «Дон Кихот», «Қизил ва қора», «Хаёт».
- 19. Оддий норманд деҳқони оиласида туғилиб, кейинчалик «Француз хаёти» газетасида оддий мухбир бўлиб ишлаган Жорж Дюруа қайси асар қаҳрамони?**
- a) «Қизил ва қора»;
 - b) «Макр ва муҳаббат»;
 - *c) «Азизим»;
 - d) «Дўндик».
- 20. Қайси асар «Дўзах», «Жаннат», «Аъроф» каби 3 қисмга бўлинган?**
- a) «Жаннатга йўл»;
 - b) «Макр ва муҳаббат»;
 - *c) «Илоҳий комедия»;
 - d) «Хаёт».
- 21. «Париж Биби Марям ибодатхонаси», «Хўрланганлар», «Тўксон учинчи йил» каби асарлари билан романтизм адабиётига катта ҳисса қўшган ижодкорни топинг.**
- a) Бальзак;
 - b) Мопассан;
 - *c) Виктор Гюго;
 - d) Жорж Байрон.
- 22. Сонет жанрининг отаси деб тан олинган шоирни топинг.**
- a) Гёте;
 - b) Шекспир;
 - c) Данте;
 - *d) Петрарка.
- 23. «Чол ва денгиз» - ақулаларга ем бўлаётган улкан балиқни етаклаб келаётган қашшоқ қари балиқчи ҳақидаги поэтик ҳикоя бўлиб, муаллифга 1953 йили Пулитцер мукофотини келтирди. Кейинги йили у**

Нобель мукофотини олди.

Юқорида қайси адиб ижоди ҳақида гап кетяпти?

- a) Марк Твен;
- *b) Эрнест Хемингуэй;
- c) Жек Лондон;
- d) Теодор Драйзер.

24. Европа классицизм адабиёти намояндалари берилган жавобни топинг.

- *a) Жан Расин, Пьер Корнель, Мольер;
- b) Д.Дефо, Ж.Свифт, Ф.Шиллер;
- c) Данте, Петрарка, Бокаччо;
- d) Шекспир, Шиллер, Гёте.

25. «Гобсек», «Сағри тери тилсими», «Евгения Гранде», «Горио ота» асарлари муаллифини топинг.

- a) Роберт Берне;
- b) Генри Фильдинг;
- *c) Оноре де Бальзак;
- d) Жан Жак Руссо.

26. «Менинг ёшимга етсангиз, дунёда бахт-саодатдан ҳам ишончли, кетидан қувса арзийдиган фақат бир нарсa борлигини биласиз. Бу - олтин. Инсоннинг барча кучи олтинда мужассамлашган... Ҳамма ерда камбағаллар билан бойлар ит-мушук. Демак, сени эзишларига йўл қўймай, ўзинг бошқаларни эзганинг тузук».

Ушбу парча Бальзакнинг қайси асаридан олинган?

- *a) «Гобсек»;
- b) «Евгения Гранде»;
- c) «Горио ота»;
- d) «Полковник Шабер».

27. «Эронийлар», «Фиванинг етти душмани», «Илтижогўйлар» трагедияларининг муаллифи ким?

- a) Софокл;
- *b) Эсхил;
- c) Еврипид;
- d) Аристофан.

28. Эсхилнинг «Занжирбанд Прометей» асарида Зевснинг малайлари кимлар?

- a) Гермест;
- b) Аид;
- c) Хукм ва Гера;
- *d) Хукм ва зулм.

29. Қайси қахрамон эридан ўч олиш мақсадида ўз болаларини ўлдиради?

- a) Эгей;
- *b) Медея;
- c) Иокаста;
- d) Дездемона.

30. Мил. авв. 496 йил Афина яқинидаги Колон деган жойда туғилган Юнон драматурги ким?

- *a) Софокл;
- b) Еврипид;
- c) Эсхил;
- d) Гомер.

31. Авлиё Тиресий, Иокаста, Лайқайси асарнинг қахрамонлари?

- *a) «Шоҳ Эдип»;
- b) «Антигона»;
- c) «Медея»;
- d) Зан - Пром».

32. «Геракл», «Медея», «Гераклидлар» асарлари муаллифи ким?

- *a) Эврипид;
- b) Софокл;
- c) Эсхил;
- d) Шекспир.

33. Эврипид «Медея» трагедиясидаги воқеаларни қайси афсонадан олган?

- a) Фива туркумидаги;

- b) Геракл туркумидаги;
- *c) Аргонавтлар туркумидаги;
- d) Троя туркумидаги.

34. «Хўрланган муҳаббат ва рашк трагедияси» қайси?

- a) «Шох Эдип»;
- b) «Антигона»;
- *c) «Медея»;
- d) «Геракл».

35. Кратин, Эвполид ва Аристофанлар драматургиянинг қайси жанрида ижод қилишган?

- a) Драма;
- *b) Комедия;
- c) Трагедия;
- d) Роман.

36. «Тинчлик», «Лисистрата» комедияларининг муаллифи?

- a) Кратин;
- b) Эвполид;
- c) Софокл;
- *d) Аристофан.

2-вариант

1. «Илиада» достони неча боб ва мисрадан иборат?

- *a) 24 боб, 15700 мисрадан;
- b) 20 боб, 15500 мисрадан;
- c) 22 боб, 16500 мисрадан;
- d) 24 боб, 16000 мисрадан.

2. Юнон адабиётининг юксак таракқиёт босқичига қўтарилган даври нечанчи асрларга тўғри келади?

- a) Мил. авв. VII-VI асрларга;
- b) Мил. авв. III-II асрларга;
- c) Мил. авв. III-I асрларга;
- *d) Мил. авв. V-IV асрларга.

3. Нотиқлик санъатининг илк ватани қаер бўлган?

- *a) Сицилия ярим ороли;
- b) Карфаген;
- c) Рим;
- d) Афина шахри.

4. «Занжирбанд Прометей» трагедияси қаҳрамонлари берилган қаторни топинг.

- a) Ио, Лай, Медея, Иокаста;
- b) Эдип, Медея, Ио, Гермес;
- c) Медея, Ясон, Лай, Океан;
- *d) Прометей, Гефест, Ио, Гермес.

5. Умри давомида 90 га яқин сахна асарлари яратган ҳамда бизгача «Илтижоғўйлар», «Фиванинг етти душмани», «Эронийлар», «Агамемнон» каби трагедиялари етиб келган фожеанавис ким?

- a) Софокл;
- b) Аристофан;
- c) Сенека;
- *d) Эсхил.

6. Аристофан комедиялари берилган тўғри жавобни белгиланг.

- a) «Ҳакам суди», «Хумча», «Қайнона», «Медея»;
- В) «Хумча», «Иффегения», «Хасис»;
- c) «Мақтанчоқ жангчи», «Булутлар», «Қурбақалар», «Медея»;
- *d) «Булутлар», «Лисистрата», «Арилар», «Тинчлик».

7. “Меҳнат ва кунлар” дидактик поэмасининг муаллифи ким?

- a) Геродот;
- b) Лукреций;
- *c) Гесиод;
- d) Плутарх.

8. Август даврида яшаб утган Римнинг энг улуғ шоири Публий Вергилий Марон асарлари берилган қаторни топинг.

- а) «Қасидалар», «Эподлар», «Сатиралар»;
- *b) «Буколикалар», «Георгикалар», «Энеида»;
- с) «Севги санъати», «Қасидалар», «Энеида»;
- d) «Метаморфозалар», «Севги санъати», «Эподлар».

9. Англия маърифатчилик адабиёти намояндалари берилган қаторни топинг.

- *a) Даниель Дефо, Жонатан Свифт, Роберт Бёрнс;
- b) Даниель Дефо, Дени Дидро, Фридрих Шиллер;
- с) Жонатан Свифт, Дени Дидро, Жан Жак Руссо;
- d) Даниель Дефо, Бомарше, Роберт Берне.

10. Фридрих Шиллер драмалари берилган жавобни топинг.

- a) “Макбет”, “Каин”, “Шильон тутқуни”;
- *b) “Қароқчилар”, “Макр ва муҳаббат”, “Орлеан қизи”;
- с) “Кромвель”, “Қиролнинг дилхушлиги”, “Қароқчилар”;
- d) “Мария Стюарт”, “Макбет”, “Отелло”.

11. ...Воқеалар Италияда бўлади. Феодализм жамиятидаги энг ярамас ҳисобланган, инсоннинг эзгу истакларига, юксак муҳаббат ҳиссиётига, умуман ижтимоий тараққиётга зид бўлган қабилавий душманлик, принципсиз низолар икки, бир-бирини беҳад севган ва жуда катта бахтга ҳақли бўлган ёшларнинг бахт йўлини кесади, севгисини бўғади ва уларни ўлимга олиб келади.

Шекспирнинг қайси асари ҳақида гап кетяпти?

- a) «Отелло»;
- b) «Макбет»;
- с) «Қирол Лир»;
- *d) «Ромео ва Жульетта».

12. «Отелло» фожеаси қаҳрамонлари берилган қаторни топинг.

- *a) Яго, Дездемона, Родриго, Эмилия;
- b) Отелло, Ромео, Яго, Балтазар;
- с) Дездемона, Макбет, Родриго, Корделия;
- d) Отелло, Корделия, Балтазар, Дездемона.

13. «Робинзон Крузо», «Капитан Сингльтон»,

«Кавалернинг мемуарлари», «Роксана» каби асарлар муаллифини топинг.

- a) Жонатан Свифт;
- *b) Даниэль Дефо;
- c) Гёте;
- d) Оноре де Бальзак.

14. Роман ҳайратомуз сюжети, ажойиб-ғаройиб образлар ва лавҳаларга бойлиги билан барча ёшдаги китобхонларни мафтун этади. Бу асар шунчаки кулги учун ёзилган бўлмай, балки унда уша давр Англиядаги ҳукмрон синфнинг чиркин урф-одатлари, давлат сиёсати, фани ва маданиятига нисбатан ёзувчи муносабати ҳам ўзининг ҳаққоний ифодасини топган. Юқоридаги фикрлар қайси машҳур асар ҳақида кетмоқда?

- a) «Робинзон Крузо»;
- *b) «Гулливернинг саёҳатлари»;
- c) «Фауст»;
- d) «Отелло».

15. «Қароқчилар», «Макр ва муҳаббат» «Орлеан қизи» каби машҳур трагедияларнинг муаллифи ким?

- *a) Шиллер;
- b) Гёте;
- c) Лессинг;
- d) Шекспир.

16. Испания уйғониш даври адабиётининг буюк намоёнчасини белгиланг.

- a) Шекспир;
- b) Гёте;
- c) Бальзак;
- *d) Сервантес.

17. Эскал, Парис, Монтекки ва Капулетти қайси асар қаҳрамонлари?

- a) «Отелло»;
- b) «Дон Кихот»;
- c) «Гамлет»;

*d) «Ромео ва Жульетта».

18. У гўзал хулқи ва чуқур инсоний фазилатлари билан ёрининг гавдаланган образлардан биридир. У итоаткор ва чегараланган Офелияга ўхшамайди, баъзи бир хусусиятлари билан Жульеттадан ҳам фарқ қилади. Гап қайси қаҳрамон ҳақида кетяпти?

- *a) Дездемона;
- b) Эмилия;
- c) Корделия;
- d) Регана.

19. Янги Атика комедияси вакиллари номлари берилган жавобни топинг

- a) Аристофан, Софокл, Эврипид;
- *b) Дефил, Филемон, Менандр;
- c) Вергилий, Гораций, Овидий;
- d) Плавт, Теренций, Плутарх.

20. Ги де Мопассаннинг “Азизим” романини ўзбек тилига ким таржима қилган?

- *a) Иброҳим Ғофуров;
- b) Янглиш Эгамова;
- c) Абдулла Орипов;
- d) Абдулла Шер.

21. Жюльен Сорель, Реналь хоним, Маркиз де ля Моля каби образлар қайси асар қаҳрамонлари?

- *a) Ф.Стендаль “Қизил ва қора”;
- b) Бальзак “Горио ота”;
- c) Сервантес “Дон Кихот”;
- d) Шекспир “Қийиқ қизнинг қуйилиши”

22. Ўрта асрларнинг охири, уйғониш даврининг биринчи шоири ким?

- a) Гёте;
- *b) Данте;
- c) Шекспир;
- d) Шиллер.

23. Ўлат тарқалган шаҳардан чиқиб кетган етти ёш қизлар ва уч йигит Флоренция яқинидаги боғи Эрамга бориб хушчақчақлик билан вақт ўтказишлари қайси асарда тасвирланган?
- a) «Фгяметта»;
 - b) «Филострато»;
 - c) «Филоноло»;
 - *d) «Декамерон».
24. У Италиян уйғониш адабиётининг иккинчи йирик вакили бўлиб, ўша вақтда «назар илгамас» деб ҳисобланган замонавий новелла жанрини юқори босқичга кўтарди. Гап ким ҳақида кетмоқда?
- *a) Жованни Бокаччо;
 - b) Данте;
 - c) Петрарка;
 - d) Сервантес.
25. «Бордию унинг молиявий принципларини ва одамзотнинг табиати ҳақидаги мулоҳазаларини олиб ташласа, имоним комилки, бу хусусиятларсиз у бутун бошли Парижда энг инсофли одамдир. Унда икки нарс мавжуд: зикналик ва файласуфлик, пасткаш ва улуг инсон».
- Ушбу фикрлар Оноре де Бальзакнинг қайси қаҳрамони ҳақида?
- a) Горио ота;
 - *b) Гобсек;
 - c) Гранде;
 - d) Фауст.
26. «Одам энди ҳаёт учун курашмай қўйди. Ундаги ҳаётнинг ўзи ўлимни истамас, шунинг учун ҳам уни илгари ҳайдарди. У ортиқ азоб чекмасди. Унинг асаблари уюшиб қолган, мияси эса ғалати хаёллар, ширин тушлар билан тўла эди».
- Юқоридаги парча кимнинг қайси асаридан олинган?

- *a) Ж. Лондон «Ҳаётга муҳаббат»;
- b) Мопассан «Ҳаёт»;
- c) Э. Хемингуэй «Чол ва денгиз»;
- d) Бальзак «Горио ота».

27. XIX аср француз адабиётининг танкидий реализм намояндалари берилган қаторни топинг.

- a) Адан Мицкевич, Фридрих Шиллер, Дени Дидро;
- b) Роберт Берне, Проспер Мерили, Ромен Роллай;
- c) Вольтер Скотт, Жорж Санд, Даниэль Дефо;
- *d) Фредрих Стендаль, Оноре де Бальзак, Проспер Мериме.

28. Дантенинг «Ҳақиқат. Аччиқ ҳақиқат» сўзлари қайси машҳур асарга эпиграф қилиб олинган?

- a) «Брут»;
- *b) «Қизил ва кора»;
- c) «Жан-Кристоф»;
- d) «Тонг».

29. Семуил Клеменснинг адабий таҳаллуси Миссисипи дарёсидаги қайиқчиларнинг ибораси бўлиб, сув чуқурлигининг икки денгиз қулочи (3.6 метр)га тенглигини билдирган.

Ушбу адабий таҳаллусни топинг.

- *a) Марк Твен;
- b) Эрнест Хемингуэй;
- c) Жек Лондон;
- d) Мопассан.

30. «Медея» асари муаллифи ким?

- *a) Эврипид;
- b) Софокл;
- c) Эсхил;
- d) Шекспир.

31. Геродотнинг «Тарих» асарини Александрия олимлари неча бобга бўлишган?

- a) 8 та;
- *b) 9 та;

- c) 10 та;
- d) 7 та.

32. «Чол ва денгиз» асари муаллифи ким?

- a) Марк Твен;
- *b) Эрнест Хемингуэй;
- c) Жек Лондон;
- d) Теодор Драйзер.

33. Асари бизга қадар тўлиқ ҳолда етиб келган тарихий прозанинг энг биринчи намояндаси ким?

- *a) Геродот;
- b) Ю.Цезарь;
- c) Демокрит;
- d) Фукидид.

34. Тарихий прозанинг асосчиси Геродотнинг «Тарих» асарини Александрия олимлари нимага асосланиб 9 бобга бўлишган?

- a) Юнон афсоналарига;
- b) Юнон маъбудаларига;
- *c) Юнон музаларига;
- d) Троя воқеаларига.

35. Француз қаҳрамонлик эпоси берилган қаторни топинг.

- *a) «Роланд ҳақида қўшиқ»;
- b) «Сид ҳақида қўшиқ»;
- c) «Нибелунглар ҳақида қўшиқ»;
- d) «Робин Гуд ҳақида қўшиқ».

36. Испан халқ қаҳрамонлик эпоси берилган қаторни белгиланг.

- a) «Роланд ҳақида қўшиқ»;
- *b) «Сид ҳақида қўшиқ»;
- c) «Нибелунглар ҳақида қўшиқ»;
- d) «Робин Гуд ҳақида қўшиқ».

3-вариант

1. Ҳомер «Илиада» достонини ёзишда воқеалар тавсифига киришдан олдин илҳом парисига мурожаат қилиб, кимнинг газабини қуйлашда мадад тилайди?

- a) Одиссейнинг;
- *b) Ахиллеснинг;
- c) Гекторнинг;
- d) Париснинг.

2. Драманинг пайдо бўлишини қадимги юнонлар қайси маъбудга боғлашган?

- a) Зевсга;
- b) Афродитага;
- c) Афинага;
- *d) Дионисга.

3. Қадимги юнон трагик шоирларидан қайси бирининг 92 асаридан бизга қадар 17 трагедия ҳамда битта сатир драмаси тўла ҳолда етиб келган?

- a) Софокл;
- *b) Еврипид;
- c) Аристофан;
- d) Эсхил.

4. «Шоҳ Эдип» трагедияси қатнашувчилари берилган қаторни аниқланг.

- *a) Эдип, Иокаста, Лай, Креонт;
- b) Эдип, Лай, Ио, Гермес;
- c) Эдип, Тиресий, Медея, Прометей;
- d) Эдип, Иокаста, Лай, Медея.

5. Қадимги Атика комедиясининг асосий хусусиятлари берилган қаторни топинг.

- *a) Ўтқир сиёсий жўшқинлик, демократия душманларига қарши мурасасозлик;
- b) Кундалик ҳаётда учрайдиган оддий ҳодисалар, отабезор ўғилларнинг қилмишлари;
- c) Панд-насихатга асосланган драматик асарлар;
- d) Эр-хотин муносабатлари, айрим аёлларнинг кирдикорлари.

6. Француз Уйғониш даври адабиёти вакиллари берилган жавобни топинг?

- a) Лафонтен;
- *b) Франсуа Рабле, Маргаритта Навварская;
- c) Шекспир, Шиллер, Гёте;
- d) Данте, Бокаччо, Петрарка.

7. Унинг беҳос содир этган жинояти аён бўлганда, у аллақандай сирли қисматни эмас, балки ўзини айблайди ва «Ҳаёт ҳаром, нафас ҳаром, никоҳ ҳаром менга. Қонга булганганман, жирканчман, жирканч!» - дея хитоб қилади. Ушбу қаҳрамон ким?

- a) Медея;
- b) Ясон;
- c) Прометей;
- *d) Эдип.

8. Август даврининг улуг шоирларидан бири Квинт Гораций Флакк асарлари берилган қаторни топинг.

- *a) «Эподлар», «Сатиралар», «Қасидалар», «Номалар»;
- b) «Буколикалар», «Қасидалар», «Севги санъати», «Номалар»;
- c) «Қаҳрамон аёллар», «Георгикалар», «Номалар», «Энеида»;
- d) «Илиада», «Эподлар», «Қасидалар», «Метаморфозалар».

9. Француз маърифатчилик адабиёти намояндалари берилган қаторни топинг.

- a) Даниель Дефо, Дени Дидро, Фридрих Шиллер;
- *b) Жан Жак Руссо, Бомарше, Франсуа Вольтер;
- c) Фридрих Шиллер, Роберт Берне, Дени Дидро;
- d) Бомария, Даниэль Дефо, Жонатан Свифт.

10. “Ёш Вертернинг изтироблари”, “Фауст”, “Мағрибу Машрик девони” асарларининг муаллифи ким?

- a) Шиллер;
- b) Шекспир;
- *c) Гёте;
- d) Бальзак.

11. У мактабни тамомлагач, Лондонга келади ва бу ердаги театрда дастёр бўлиб хизмат қила бошлайди. Сунгра янги «Глобус» номли халқ театрида 1612 йилга қадар актёрлик қилади ва репертуар-адабиёт масалалари билан шуғулланади, кўп утмай ўз пьесалари билан катта шуҳрат қозонади.

Гап қайси гениал санъаткор ҳақида кетмоқда?

- a) Данте Алигъери;
- b) Иоганн Гёте;
- * c) Вильям Шекспир;
- d) Мигель Сервантес.

12. Гётенинг “Фауст” трагедиясини ўзбек тилига таржима қилган ўзбек шоири қайси?

- *a) Эркин Воҳидов;
- b) Абдулла Орипов;
- c) Хуршид Даврон;
- d) Жамол Камол.

13. «Унинг бизгача олтига, яъни «Ҳаёт», «Азизим», «Монт-Ориоль», «Пьер ва Жан», «Ўлимдан кучли», «Бизнинг калбимиз» каби романлари етиб келган».

Қайси адибнинг ижоди ҳақида гап кетмоқда?

- a) Бальзак;
- b) Флобер;
- *c) Мопассан;
- d) Э.Хемингуэй.

14. Қайси роман қаҳрамони афсонавий мамлакатлар - Лилипутия, Глаббдобдрибга ҳамда ақлли отлар мамлакати бўлган Гунгнгимияга саёҳат қилади?

- a) Робинзон Крузо;
- b) Фауст;
- *c) Гулливёр;
- d) Ахилл.

15. Шарқ мавзуси ҳақида ёзилган «Мағрибу машриқ девони» кимнинг қаламига мансуб?

- a) Шиллер;

- *b) Гёте;
- c) Лессинг;
- d) Шекспир.

16. Қайси асар рицарлик романларига пародия сифатида яратилган ва инсониятнинг энг буюк китоби деб тан олинган?

- a) «Горио ота»;
- b) «Гобсек»;
- *c) «Дон Кихот»;
- d) «Қизил ва кора».

17. Ламанч қишлоғида истиқомат қилувчи кам ерлик, ёши элликларга яқинлашиб қолган баланд бўйли, бақувват, лекин озғин, овни яхши кўрадиган бир камбагал дворян бўлиб, фамилияси Кехона эди. Гап қайси қаҳрамон ҳақида кетяпти.

- A) Гобсек;
- *b) Дон Кихот;
- c) Санчо;
- d) Гамлет.

18. Шекспирнинг тарихий драмалари берилган қаторни топинг.

- a) «Қийик қизнинг қуйилиши», «Қирол Иоанн», «Қирол Лир»;
- *b) «Генрих VI», «Ричард III», «Қирол Иоанн»;
- c) «Юлий Цезар», «Ёз кечасидаги туш», «Генрих V»;
- d) «Отелло», «Макбет», «Севгининг беҳуда кучайиши».

19. “Том Сойернинг бошидан кечирганлари”, “Шаҳзода ва гадо”, “Гекельберри Финннинг бошидан кечирганлари” асарлари муаллифини топинг.

- a) Джек Лондон;
- b) Э.Хемингуэй;
- c) Т.Драйзер;
- *d) Марк Твен.

20. “Париж Биби Марям ибодатхонаси”, “Хўрланганлар”, “Қулаётган киши” романлари муаллифи ким?

- *a) Виктор Гюго;
- b) Фридрих Шиллер;
- c) Франсуа Рабле;
- d) Жан Жак Руссо.

21. Оиласига ёрдам бериш мақсадида дастлаб денгиз министрлигида, сўнгра маориф министрлигида ишлаган таниқли ёзувчи ким?

- a) Сервантес;
- b) Бальзак;
- *c) Ги де Мопассан;
- d) Стендаль.

22. Ўттизта шеърни ўз ичига олган «Янги ҳаёт» тўплами кимнинг қаламига мансуб?

- a) Гёте;
- *b) Данте;
- c) Шекспир;
- d) Шиллер.

23. Буюк Америка адиби Эрнест Хемингуэй қайси асари учун 1954 йил Нобель мукофотини олишга мушарраф бўлган?

- a) «Алвидо курол»;
- *b) «Чол ва денгиз»;
- c) «Қуёш барибир чиқаверади»;
- d) «Бегона».

24. Боккачони дунёга машҳур қилган асари?

- a) «Фгяметта»;
- b) «Филострато»;
- 4) «Филоноло»;
- *d) «Декамерон».

25. XIX аср романтизм адабиёти намояндалари берилган қаторни топинг.

- a) Бальзак, Мопассан, Гёте;
- *b) Байрон, Гюго, Вальтер Скотт;
- c) Жорж Санд, Дени Дидро, Гёте;

d) Байрон, Гёте, Даниэль Дефо.

26. “Поэтика” асарини ёзган машхур юнон файласуфининг номини топинг.

a) Платон;

b) Сукрот;

*c) Аристотель;

d) Эпикур.

27. «Макбет», «Юлий Цезарь» трагедияларини ёзган адиб берилган қаторни топинг.

a) Кальдерон;

b) Вольтер;

c) Сервантес;

*d) Шекспир.

28. Мил авв.т 525-524 йилларда Эливсин шаҳрида аслзода аристократ оиласида туғилган машхур драматург ким?

a) Софокл

*b) Эсхил

c) Еврипид

d) Аристофан

29. Теодор Драйзернинг 1925 йили яратган романи Жек Лондоннинг «Мартин Иден» асари сингари Америка орзусининг хавф-хатарларини кашф этади. Асар қаҳрамони Клайд Гриффит - заиф иродали ва ўз хатти-ҳаракатларини охиригача тушуниб етолмаган йигитча. Юқорида қайси машхур асар ҳақида сўз бормоқда?

a) «Ҳаётга муҳаббат»;

b) «Алвидо курул»;

c) «Чол ва денгиз»;

*d) «Америка фожеаси».

30. Испан халқ қаҳрамонлик эпоси берилган қаторни белгиланг.

a) «Роланд ҳақида қўшиқ»;

*b) «Сид ҳақида қўшиқ»;

c) «Нибелунглар ҳақида қўшиқ»;

d) «Робин Гуд ҳақида қўшиқ».

31. Ўрта асрлар адабиёти ривожланиш жараёнига маълум даражада таъсир кўрсатган уч омил қайси қаторда тўғри кўрсатилган?

- a) Рицарлик адабиёти, уйғониш адабиёти, халқ ижоди;
- *b) Халқ ижоди, антик санъат, христианлик дини;
- c) Салб юришлари, антик санъат, уйғониш адабиёти;
- d) Христианлик дини, рицар адабиёти, уйғониш адабиёти.

32. «Одам энди ҳаёт учун курашмай қўйди. Ундаги ҳаётнинг ўзи ўлимни истамас, шунинг учун ҳам уни илгари ҳайдарди. У ортиқ азоб чекмасди. Унинг асаблари уюшиб қолган, мияси эса ғалати ҳаёллар, ширин тушлар билан тўла эди».

Юқоридаги парча кимнинг қайси асаридан олинган?

- *a) Ж. Лондон «Ҳаётга муҳаббат»;
- b) Мопассан «Ҳаёт»;
- c) Э. Хемингуэй «Чол ва денгиз»;
- d) Бальзак «Горио ота».

33. XIX аср француз адабиётининг танкидий реализм намояндалари берилган қаторни топинг.

- a) Адан Мицкевич, Фридрих Шиллер, Дени Дидро;
- b) Роберт Берне, Проспер Мерили, Ромен Роллай;
- c) Вольтер Скотт, Жорж Санд, Даниэль Дефо;
- *d) Фредрих Стендаль, Оноре де Бальзак, Проспер Мериме.

34. Эскал, Парис, Монтекки ва Капулетти қайси асар қахрамонлари?

- a) «Отелло»;
- b) «Дон Кихот»;
- c) «Гамлет»;
- *d) «Ромео ва Жульетта».

35. У гўзал хулқи ва чуқур инсоний фазилатлари билан ёрининг гавдаланган образлардан биридир. У итоаткор ва чегараланган Офелияга ўхшамайди, баъзи бир

хусусиятлари билан Жульеттадан ҳам фарқ қилади.

Гап қайси қахрамон ҳақида кетяпти?

- *a) Дездемона;
- b) Эмилия;
- c) Корделия;
- d) Регана.

36. Янги Аттика комедияси вакиллари номлари берилган жавобни топинг

- a) Аристофан, Софокл, Эврипид;
- *b) Дефил, Филемон, Менандр;
- c) Вергилий, Гораций, Овидий;
- d) Плавт, Теренций, Плутарх.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti. Klassitizim adabiyoti	5
XVII asr ingliz adabiyoti.....	7
XVII asr fransuz adabiyoti.....	9
Pyer Konel	10
Molyer.....	11
Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti. Angliya ma'rifatchilik adabiyoti.	18
Daniel Defo.....	19
Jonatan Svift.....	24
Fransyz ma'rifatchilik adabiyoti.....	30
Fransua Mapi Arue Bolter.....	31
Deni Didro.....	37
Jan Jak Russo.....	41
Nemis ma'rifatchilik adabiyoti.....	44
Fridrix Shiller.....	45
Iogann Volfgang Gyote.....	51
Yevropa romantizm adabiyoti. Ingliz adabiyotida romantizm.....	61
Jorj Gordon Noel Bayron.....	62
Valter Skott.....	71
Fransuz adabiyotida romantizm.....	76
Viktor Gyugo.....	80
Jori Sand.....	87
Yevropa tanqidiy realism adabiyoti. XIX asr tanqidiy realism adabiyoti.....	90
Frederik Stendal.....	92
Onore de Balzak.....	99
Prosper Merime.....	106
1848–yildan so'nggi davr Fransuz realizmi.....	110
Gyustav Flober.....	110
Ingliz tanqidiy realism adabiyoti.....	114
Charlz Dikkens.....	115
30-40-yillar nemis adabiyoti.....	119
Genrix Geyne.....	120
1871-1971-yillargacha bo'lgan fransuz adabiyoti.....	124
Emil Zolya.....	128
Gi de Mopassan.....	134

Anatol Frans.....	139
Anri Barbyus.....	144
Genrix Mann.....	149
XX asr nemis adabiyoti.....	154
Anna Zegers.....	150
Jorj Bernard Shou.....	165
Gerbert Jorj Uells.....	162
XIX asr oxiri va XX asr boshi Amerika adabiyoti.....	166
Mark Tven.....	167
Jek London.....	174
XX asr boshlari Amerika adabiyoti. Teodor Drayzer.....	178
Ernest Xeminguey.....	186
Jahon adabiyoti tarixi fanidan test savolnomalari.....	191